

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**XUSANOVA ONARXON G'AYBULLAEVNA**

# **O'SIMMLIKLAR FIZIOLOGIYASI**

**ФАНИ БЎЙИЧА ЎҚУВ -УСЛУБИЙ МАЖМУА**

Наманган

Fanning ishchi o‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalmas sus ta’lim vazirligining 2018 yil 25 avgustdaggi 744-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Botanika va o‘simgiliklar fiziologiyasi” fani dasturi asosida tayyorlangan.

Fanning ishchi o‘quv dasturi Namangan muhandislik-texnologiya instituti Kengashining 2019 yil 27 avgustdaggi 1-sonli yig’lish bayoni bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchi

Namangan muhandislik-texnologiya instituti, “Manzarali bog‘dorchilik va ko‘kalamzorlashtirish” kafedrasi katta o‘qituvchisi O.G‘. Xusanova

Taqrizchi

Namangan Davlat Universiteti Biologiya kafedrasi professori Sh.Tojiboev

O‘quv-uslubiy majmua Namangan muhandislik-texnologiya instituti Kengashining 2019 yil 27 avgustdaggi 1-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

## MUNDARIJA

	Kirish. Xujayra fiziologiyasi	
1.	O'simliklardagi suv muvozanati	
2.	O'simliklarni tuprokdan oziqlanishi	
3.	Fotosintez va pigmentlar. Fotosintezning yorug'lik reaksiyalari	
4.	Fotosintezda uglerod o'zlashtirilishi yo'llari. Fotosintezning fiziologik va ekologik aspektlari	
5.	O'simliklardagi nafas olish mexanizmlari. Qishloq ho'jaligi ekinlarida nafas olishni boshkarilishi va ikkilamchi moddalar xosil bo'lishi	
6.	O'simliklardagi fiziologik jarayonlarning maxsuli - o'sishi	
7.	O'simliklar xayotidagi sifat o'zgarishlar - rivojlanish. Qishloq ho'jaligi o'simliklari rivojlanishini boshqarish	
8.	O'sishni boshqaruvchi fiziologik faol moddalar va ularni qishloq ho'jaligida qullanilishi	
9.	Stress omillar va ularga o'simliklarni javob reaksiyalari	
10.	O'simlik tuzilishining asosi - uglevodlar	
11.	Tirik organizmlar xayotining asosi - oqsillar va aminokislotalar	
12.	Fermentlar va ularni qishloq ho'jaligi ishlab chikarishidagi o'rni	
13.	Xayot davomiyligining asosi - nuklein kislotalar	
14.	Qishloq ho'jaligi o'simliklarida lipidlar	
15.	O'simliklarda uglevodlar sintezi. O'simliklarda energiya tizimining shakllanishi. Uglevodlar parchalanishi	
16.	Nitratlarning o'zlashtirilishi va aminokislotalar sintezi	
17.	Oqsillar biosintezi va parchalanishi	
18.	O'simlik tuzilishining asosi - uglevodlar	
	Glossariy	
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	

## **ФАНГА АЖРАТИЛГАН ЎҚУВ СОАТЛАРИНИНГ ЎҚУВ ТУРЛАРИ БЎЙИЧА ТАҚСИМОТИ**

(Маъруза - 36 соат, лаборатория машғулоти- 36 соат, мустақил таълим 60

“Botanika va o’simliklar fiziologiyasi” fani – Talabalarni o’simliklar fiziologiyasi xujayrada kechadigan fiziologik-biokimyoviy jarayonlarni o’rgangan xolda, ularning suv almashinushi, tuproqdan mineral oziqlanishi, o’simlik xosildorligida asosiy o’rin tutuvchi fotosintez jarayonining borishi, o’simliklarni nafas olishi va uni qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlashdagi ahamiyati, o’simliklarning o’sishi va rivojlanishi, ularga muhit omillarining ta’siri, qishloq xujaligida fiziologik faol moddalarni qo’llash, ekinlarning noqulay sharoitlarga chidamliligi va moslashishi va o’simliklar tarkibidagi uglevodlar, oqsillar, nuklein kislotalar, yog‘lar va ularning hosil bo‘lishi hamda parchalanishi kabi jarayonlarni o’rganadi. Qishloq xo‘jaligi ekinlarining fiziologik-biokimyoviy xususiyatlarini o’rganib, ulardan yuqori va sifatli hosil yetishtirish qonuniyatlarini amaliyotga tadbiq etishni vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

- o’simliklar fiziologiyasi xujayrada kechadigan fiziologik-biokimyoviy jarayonlarni;
  - o’simliklarni nafas olishi va uni qishloq xo‘jaligi maxsulotlarini saqlashdagi axamiyati;
  - o’simliklarning o’sishi va rivojlanishi, ularga muxit omillarining ta’siri ***tasavvurga ega bo’lishi;***
  - fotosintez jarayonining borishi;
  - gen muhandisligini moddiy asoslarini;
  - o’simliklarning gen va hujayra muxandisligini;
  - klonli mikroko’paytirish usullarini;
  - o’simlik kasalliklarini rivojlanishi va ko’payishini;
  - o’simliklar tarkibidagi uglevodlar, oqsillar parchalanishi;
  - nuklein kislotalar, yog‘lar va ularning hosil bo‘lishi hamda parchalanishi; ***bilishi va ulardan foydalana olishi;***
  - qishloq xo‘jaligida fiziologik faol moddalarni qo’llash;
  - tuproq unumdarligini oshirishda mikroorganizmlarni qo’llash usullari;
  - mikroorganizmlardan turli xil biopreparatlar tayyorlash texnologiyasi;
  - ekinlarning noqulay sharoitlarga chidamliligi va moslashishtirish texnologiyasi
- bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.***

## 1. Ma'ruza mashg'ulotlari

**1-jadval**

<b>№</b>	<b>Ma'ruza mavzularining nomi</b>	<b>Ajratilgan soat</b>
<b>II qism: «O'simliklar fiziologiyasi»</b>		
<b>1-modul. O'simliklar fiziologiyasining nazariy asoslari</b>		
1	Kirish. Xujayra fiziologiyasi	2
2	O'simliklardagi suv muvozanati	2
3	O'simliklarni tuprokdan oziqlanishi	2
4	Fotosintez va pigmentlar. Fotosintezning yorug'lik reaksiyalari	2
5	Fotosintezda uglerod o'zlashtirilishi yo'llari. Fotosintezning fiziologik va ekologik aspektlari	2
6	O'simliklardagi nafas olish mexanizmlari. Qishloq ho'jaligi ekinlarida nafas olishni boshkarilishi va ikkilamchi moddalar xosil bo'lishi	2
7	O'simliklardagi fiziologik jarayonlarning maxsuli - o'sishi	2
8	O'simliklar xayotidagi sifat o'zgarishlar - rivojlanish. Qishloq ho'jaligi o'simliklari rivojlanishini boshqarish	2
9	O'sishni boshqaruvchi fiziologik faol moddalar va ularni qishloq ho'jaligida qullanilishi	2
10	Stress omillar va ularga o'simliklarni javob reaksiyalari	2
<b>2-modul. O'simliklar biokimyosining nazariy asoslari</b>		
11	O'simlik tuzilishining asosi - uglevodlar	2
12	Tirik organizmlar xayotining asosi - oqsillar va aminokislotalar	2
13	Fermentlar va ularni qishloq ho'jaligi ishlab chikarishidagi o'rni	2
14	Xayot davomiyligining asosi - nuklein kislotalar	2
15	Qishloq ho'jaligi o'simliklarida lipidlar	2
16	O'simliklarda uglevodlar sintezi. O'simliklarda energiya tizimining shakllanishi. Uglevodlar parchalanishi	2
17	Nitratlarning o'zlashtirilishi va aminokislotalar sintezi	2
18	Oqsillar biosintezi va parchalanishi	2

**Jami      36 soat**

Ma'ruza mashg'ulotlari multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada akadem guruhlar oqimi uchun o'tiladi.

## 2. Laboratoriya mashg'ulotlari

**2-jadval**

<b>№</b>	<b>Laboratoriya mashg'ulotlarining nomi</b>	<b>Ajratilgan soat</b>
<b>2-semestr</b>		
1	Xujayra protoplastining xususiyatlari. Plazmoliz va deplazmoliz jarayonlari.	2
2	Hujayraning so'rish kuchini aniqlash. O'lik va tirik protoplazmaning o'tkazuvchanligi.	2
3	Transpiratsiya jadalligini aniklash. Barg ustki va ostki qismida transpiratsiyaning borishi.	2

4	Barg og'izchalari xarakati, ochilish darajasi va xolatini aniklash.	2
5	O'simlik to'qimalari tarkibidagi kul mikdorini aniklash. Kul tarkibidagi elementlarni mikrokimyoviy taxlil kilish.	2
6	Barg pigmentlarini ajratish. Ularning optik va kimyoviy xossalari bilan tanishish.	2
7	O'simliklarning o'sishiga fitogarmonlarning ta'sirini kuzatish.	2
8	Barg to'qimalarini past va yuqori xaroratlarga chidamliligini aniqlash usulli.	2
9	Uglevodlarning xossalari. Glyukoza, saxaroza va kraxmalni aniqlash usullari.	4
10	O'simlik oqsillarining xossalari. Oqsillarni cho'ktirish va rangli reaksiyalari.	4
11	Fermentlarning xossalari. Fermentlar termolabilligi va maxsusligi.	2
12	Nukleoproteidlarni parchalanish reaksiyalari.	2
13	Lipidlar. Moylarning yod va kislota sonini aniklash usullari.	4
14	Vitaminlar. O'simliklar tarkibida uchraydigan S, PP, B1 vitaminlarni aniqlashni sifat reaksiyalari.	4

**Jami 36 soat**

Laboratoriya mashg'ulotlarida talabalar ishlab chiqarish jarayonida mehnat gigeniyasi va sanoat sanitariyasini (yoritilganlik, shovqin, titrash, elektr simlarini erga ulash, chang me'yordan ortiq bo'lishi) to'g'ri tashkil etilmaganligi sababli bo'lishi mumkin bo'lgan jaroxatlar sabablarini aniqlab, jabrlanuvchilarga birinchi yordam ko'rsatish usullarini o'rghanoidilar.

### **3. Mustaqil ta'limg**

**3-jadval**

<b>№</b>	<b>Mustaqil ta'limg mavzulari</b>	<b>Dars soatlari hajmi</b>
<b>2-semestr</b>		
1	O'simliklarni sun'iy yoruglik va substratlarda ustirish.	12
2	Vitamin xillari, tuzilishi va ahamiyati.	12
3	Xujayra membranalarida ionlar almashinuvni mexanizmlari.	12
4	Kishlok xujaligi ekinlarini etishtirishda gidropponika u suli.	12
5	Fitonsidlar va fitoaleksinlar.	12

**Jami 60 soat**

Talabalarning mustaqil talimini tashkil etish tizimli tarzda, ya'ni uzlusiz va uzviv ravishda amalga oshiriladi. Talaba olgan nazariy bilimini mustahkamlash, shu bilan birga navbatdagi yangi mavzuni puxta o'zlashtirishi uchun mustaqil ravishda tayyorgarlik ko'rishi kerak.

## **1-mavzu: O'simlik hujayrasi fiziologiyasi.**

### **Reja:**

1. Hujayra o'simlik organizmining elementar struktura va funksional birligi
  2. Hujayra tuzilishining struktura asoslari.
  3. Protoplazmaning fizik kimyoviy xossalari.
  4. Bioenergetikaning asosiy tushunchalari
  5. Hujayraning adenilat sistemasi
- 

Tayanch iboralar: invaginatsiyalar, organoid,parenximatik va prozenximatik, polipeptid, pektin moddalar, protoplast, komponent inv yertaza, fosfotaza, askorbatoksidaza ferment, enzimatik uglevodlar, lipidlar, terpenoidlar, xloroplastlar va mitoxondriy, glioksalat, Goldji apparati, Endoplazmatik to'r, Ribosomalar, Peroksisoma, Glioksisoma, Sferasoma. Lipoproteidli, gomogen va geterogen.

### **1. Hujayra o'simlik organizmining elementar struktura va funksional**

Butun o'simliklarning asosiy struktura birligini hujayralar tashkil etadi. Ularning tiriklik xususiyatlari shu hujayralarda belgilanadi. Chunki modda almashuvi deb ataluvchi assimilyasiya va dissimilyasiya jarayonlari, ularning birligi faqat hujayradagina sodir bo'ladi. Ana shu ikkala jarayonning birligi tiriklik deb ataluvchi materiyaning harakat formasini belgilaydi.

Yashil o'simliklar har xil organlar yigindisidan iborat bo'lib, bu organlar o'z navatida to'qimalar va hujayralar birlashmasidan to'zilgan. Yuksak to'zilishga ega bo'lgan har bir o'simlik organizmi murakkab sistema sifatida bir-biri bilan uzviy ravishda aloqada bo'lgan organlar va funksiyalar yigindisidan iboratdir. Bu birlikning asosini hujayralar tashkil etadi. Tirik hujayra yarim o'tkazuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan membrana bilan chegaralangan bo'lib, o'zini qayta qurish qobiliyatiga ega. Tabiatdagi organizmlar ikki gruppaga bo'linadi:

- 1- prokariotlar- hujayrasida shakllangan yadro bo'lmaydi, ularga bakteriya va ko'k-yashil suvo'tlari kiradi.
- 2- eukariotlar - hujayrasida albatta shakllangan yadro bo'ladi.

Prokariot hujayrada shakllangan yadro bo'lmasligi bilan birga unda ribosomalar soni eukariot hujayradagiga nisbatan ming barobar ko'p bo'ladi. Bundan tashqari prokariot hujayrani eukariot hujayradan farqi, unda organoidlari bo'lmadni, ularning vazifalarini sitoplazmatik membrana invaginatsiyalari bajaradi.

Har bir o'simlik hujayralardan to'zilgan bo'lib, ularning tiriklik xususiyatlari shu hujayralarda belgilanadi. Modda almashinish jarayoni faqat hujayradagina sodir bo'ladi. Bu jarayonning birligi tiriklik materiyasining harakat formasini belgilaydi.

O'simlik hujayralari ko'rinishi jixatidan 2 xil bo'lishi mumkin,parenximatik va prozenximatik.

Parenximatik hujayralari - ularning eni bo'yiga teng bo'lib, ko'proq kvadratga o'xshash bo'ladi.

Prozenximatik hujayralar - ularning bo'yi enidan bir necha barobar katta bo'ladi.

O'simlik hujayralarning ko'rinishi va bajaradigan funksiyalari har xil bo'lsa ham, umumiy to'zilishga ega.

1-jadval

### **Prokariot va eukariot hujayralar tuzilishi**

Prokariot hujayralar tuzilishi	Eukariot hujayralar tuzilishi
--------------------------------	-------------------------------

Hujayraqobigi polisaharid va polipeptid moddalardan tuzilgan	Hujayra kobigi selyuloza, gemitselyuloza va pektin moddalardan tashkil topgan.
Shakllangan yadrosi bo‘lmaydi.	Shakllangan yadro elementlari mavjud.
Ribosomalari submikroskopik tuzilishga ega,hujayrada 100 tadan 10000tagacha bo‘ladi.	Ribosomalari mikroskopik tuzilishga, hujayrada 20tadan 100tagacha bo‘ladi.
Shakllangan organoidlarga ega emas, modda almashinish inetsial tanachalarda amalga oshadi.	Shakllangan organoidlarga ega modda almashinish ana shu organoidlarda amalga oshadi.
Bakteriyalar, sianobakteriyalar, bir hujayrali suvo‘tlari.	Ko‘p hujayrali va ba’zi bir bir hujayrali suvo‘tlari, yuksak o‘simliklar.

## 2. Hujayra tuzilishining struktura asoslari

O‘simlik hujayralarida daslab hujayra qobigini va ichki tarkibiy qismini farqlash zarur. Hayotiy xossalari aynan hujayra ichki qismi bilan belgilanadi. Har bir voyaga yetgan hujayrada po‘st, sitoplazma, membrana, organoidlar kabi struktura elementlari bo‘ladi. Hujayraning ichki qismi protoplast deyiladi va u sitoplazma va unda joylashgan yirik organoidlardan iborat.

Hujayra po‘sti. U hujayraga mexaniq mustaxkamlikni beradi, protoplazmatik membranani gidrostatik bosimdan himoya qiladi.

Yosh hujayralarda po‘st o‘sish qobiliyatiga ega moddalarni yutilishida ishtirok etadi. U protoplast komponentlaridan hosil bo‘ladi.

Ona hujayra bo‘linayotganida ikkita yosh hujayra oraligida parda to‘siq paydo bo‘ladi, u eski po‘st bilan qo‘silib ketadi va hosil bo‘lgan ikkita hujayra ham avalgi qattiqk po‘stga o‘raladi. Hujayra po‘stining 100 mkm yuzasida 10-30ta plazmodesmalar uchraydi. Hujayra po‘sti tarkibida selyuloza, gemitselyuloza va pektin moddalari(30%, 40%, va 25% nisbatda) uchraydi. Hujayra po‘sti uch qavatdan iborat. Asosan ichki qavat yo‘g‘onlashishi xususiyatiga ega. Ikkinchisi uch qatlamdan iborat. Hujayra po‘stida invertaza, fosfotaza, askorbatoksidaza kabi fermentlar bo‘lib, u ham enzimatik faol hisoblanadi.

Ma'lumki hujayra po‘sti suv va suvda erigan moddalarni yaxshi o‘tkazdiradi. Biroq uning yog‘ochlashishi o‘tkazuvchanlikni sezilarli kamaytiradi, po‘kaklashish esa o‘tkazuvchanlikni keskin kamaytiradi.

Endoplazmatik to‘r.Uni 1945 yilda Porter aniqlagan. U kanalcha, pufakchalar va sisternalarning o‘zaro tutashgan murakkab shoxlangan tur sistemasini tashkil qiladi. Endoplazmatik to‘r sitoplazmada keng tarqalgan va murakkab membrana strukturasiga ega. Membrananing qalinligi 5-7 nm atrofida, diametri 30-50nm. Ichki qismi suyuqlik bilan to‘lgan. Ularning yuzasi silliq yoki donador bo‘ladi. Silliq membranada asosan uglevodlar, lipidlar, terpenoidlar hosil bo‘lsa, donador membralarda oqsil, fermentlar sintezlanadi. Uning membranasi yadro Membranasi va ichki muxitdagি almashinuvni boshqaradi. Endoplazmatik to‘r bir-birlari bilan tutashib, moddalar almashinuvda ishtirok etadilar.

Ribosomalar. 1955 yilda Pallada ochgan. Bular ribonukleoproteidli zarrachalar bo‘lib, membranasi bo‘lmaydi. RNK va oqsildan tashkil topgan. Ular katta va kichik bo‘lakchaldan to‘zilgan, kattasining diametri 12-15 nm kichigi 8-12 nm bo‘ladi. U yadrochada sintezlanadi va sitoplazmada erkin yoki endoplazmatik to‘r sirtida joylashadi. Ribosoma yadroda, xloroplastlar va mitoxondriyarda uchraydi va oqsil sintezlaydi.

Goldji apparati. Membrana bilan o‘ralgan sisternalar to‘plami. Ular endoplazmatik to‘rdan o‘zilib chiqib ketadigan pufakchalarning o‘zaro qo‘shilishi va o‘zgarilishidan yuzaga keladi va ajralib, disk yoki tayokcha ko‘rinishida to‘planadi. Hujayrada 100 ga yakin Goldji apparati uchrashi mumkin. Goldji apparatining membranasi endoplazmatik to‘r va plazmolemma membranasi bilan tutashgan bo‘ladi. Goldji apparati plazmolemma va hujayra qobig‘ini shakllanishida ishtirok etadi, hamda shilimshiq moddalarni chiqarib tashlashda ishtirok etadi.

Plastidalar. Plastidalar shaklan ovalsimon yoki elipssimon bo‘ladi, ikki qavat membrana bilan o‘ralgan .

O‘simliklar hujayrasida 20-50 tagacha plastida uchraydi.

Ular uch xil bo‘ladi: leykoplastlar (rangsiz),xromoplastlar(rangli) va xloroplastdar(yashil rangda). Xloroplastlar tarkibida xlorofill va karatinoид pigmentlari bo‘lib, fotosintezda ishtirok etadi.

Xromoplastlar sariq yoki va zarg‘aldoq rangda bo‘lib,o‘simlikning asosan gullarida va mevasida uchraydi.Ularda karotin, lyutein, violaksantin pigmentlari bo‘ladi.

Leykoplastlarda pigment bo‘lmaydi,ularda zapas oziq moddalari to‘planadi. Yorug‘likda leykoplastlar xloroplastlarga aylanishi mumkin.

Mitoxondriya. Qo‘s sh membranalni organoid,ularda energetik jarayonlar kuzatiladi va ATF sintezlanadi. O‘simlikda mitaxondriyalar dumalok yoki gantelsimon bo‘lib,hujayrada 50-2000tagacha uchrayda. Ichki membranasi kristalar hosil qiladi. Har 5-10 kunda mitoxondriyalar yangilanib turadi. Ularda DNK, RNK va ribosoma bo‘lganligi uchun oqsil sintezlash qobiliyatiga ega.

Lizasoma. Membrana bilan o‘ralgan organoid, ular endoplazmatik to‘r yoki Goldji apparatidan hosil bo‘ladi. Ularda asosan gidrolitik fermentlar joylashadi, bular nordon fermentlar bo‘lib, moddalarni suv yordamida parchalaydi.

Peroksisoma. Keyingi yillarda ochilgan organoidlardan biri bo‘lib, uni 1968 yilda Tolbert aniqlagan. Peraksisomada katalaza, glikolatoksidaza kabi yorug‘likda nafas olishda ishtirok etuvchi fermentlar uchraydi. Ular bargda ko‘p bo‘ladi va xloroplastlar bilan uzviy bog‘lik bo‘ladi.

Glioksisoma. Ular unib chikayotgan yog to‘plovchi urug‘larda ko‘p uchraydi. Glioksisomalarda yoglarni uglevodga aylantirishda ishtirok etuvchi fermentlar uchraydi va ular nafas olishning glioksalat siklida ishtirok etadilar.

Sferasoma. Ular avval mikrosomalar deyilgan. Dumalok, yorug‘likni sindirish imkoniyatiga ega. Endoplazmatik to‘rdan hosil bo‘ladi va o‘zida lipidlarni to‘playdi, shu tufayli lipidli tomchi deb ham ataladi. Ularda lipaza, esteraza, proteaza, RNKaza, DNKaza fermentlari uchraydi va yog‘ sintezida ishtirok etadi.

Mikronaychalar. Sitoplazmaning tashqi taxlamida naychasimon organoid. Uzunligi 20-30 nm, qalinligi 5-10 nm. Membranasi yo‘q, globulyar oksil trubasidan tashkil topgan, sitoskeletni hosil qiladi va sitoplazma harakatini amalgalashadi.

Vakuola. O‘simlik hujayrasini uchun harakterli organoid. Uning membranasi tonoplast deyiladi, ichki suyklik hujayra shirasidaniborat. Shiraning 96-98%ni suv tashkil etadi, kolgani organik kislotalar, oksillar, aminokislota, uglevodlar, alkoloidlar, tuzlar, oshlovchi moddalar va

pigmentlar. Vakuola endoplazmatik to‘r pufakchalarining qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Vakuola hujayraning osmatik xususiyatini belgilaydi, bu esa hujayrani so‘rish kuchi, turgor bosimi va suv rejimini belgilaydi.

Yadro. Irsiy belgini saqlovchi organoid ko‘rinishi dumalok, oval yoki ipsimon bo‘ladi. Ko‘pincha bitta, ba’zan ko‘p miqdorda bo‘ladi. Yadro ikki qavat membrana bilan o‘ralgan, 1-6 yadrochasi bo‘ladi. Uning tarkibi 80% oksil va 15-16% RNKdan iborat. Yadroga RNKnii taqsimlanishida ishtirok etadi. Yadro yadro shirasi-nukleoplazma bilan to‘ldirilgan bo‘ladi, uning tarkibi asosan oksillar 74%, DNK 14% va RNK 12% dan iborat, bundan tashqari yadroda yana lipidlar, suv va mineral elementlar mavjud.

Yadroning asosiy vazifasi hujayra, to‘kima, organ va butun o‘simglik uchun zarur bo‘lgan barcha fiziologik, biokimyoviy jarayonlarni boshqarib turadi va informatsion markaz hisoblanadi

Yadro spetsifik oqsillar sintez qilish va irsiy belgilarni saqlab, avloddan-avlodga berish programmasi bilan harakterlanadi. Bu muxim vazifaning bajarilishida DNK asosiy rol o‘ynaydi, chunki unda barcha informatsiya joylashadi.

Biologik membranalarning tuzilishi. Hujayrani tashqi muhit bilan bo‘ladigan almashinuv munosabatlari va protoplast ichida ro‘y beradigan hayotiy jarayonlar maxsus membrana sistemasi orqali amalga oshadi.

Har bir organoid protoplazma singari o‘zining membranasi bilan harakterlanadi. Shu membranasi orqali sitoplazmadan ajralib turadi. Protoplastni tashqi tomondan o‘rab turuvchi plazmollema qavati hujayra membranasi deb ataladi.

Hujayra membranasi yarim o‘tkazgich xususiyatiga ega bo‘lib, suvni bermalol o‘tkazdiradi. Lekin suvda erigan moddalar uchun yuqori darajada tanlab o‘tkazuvchi to‘siq vazifasini bajaradi.

Membrananing bunday xususiyati hujayra uchun keraksiz moddalarini o‘tkazmay faqat ziarurini o‘tkazishda muhim ahamiyatga ega.

Demak membranalar hujayra metabolizmi jarayonining eng muhim qismlaridan biri bo‘lgan moddalar oqimi va energiyasini boshqaradi.

Membranalar asosan lipoproteidli tizimlar bo‘lib, 60% oqsil, 40% lipidlardan, ayniqsa fosfolipidlardan iborat. Ularning qalinligi 6-10 nm. Tuzilishiga ko‘ra qo‘savatli, oqsil lipid molekulalarini orasida joylashgan bo‘ladi. Membrana shakillanishiga gidrofob bog‘ga o‘rin beriladi: lipid-lipid, lipid-oqsil, oqsil-oqsil. Membranada yana har xil funksiyalarni bajaruvchi oqsillar ham uchraydi. Membranada shakar va aminokislotani tashuvchi oksillar topilgan. Membranada polesaharid va nuklein kislotalar ham uchraydi. Oqsil tarkibida juda yuqori darajada sezuvchi sistema-retseptorlar joylashgan. Bu sistema orqali hujayra organoidlari ham funksional aloqada bo‘ladi. Demak membrana muhim metabolistik funksiyalarni bajaradi.

Umuman biomembranalar barerlik, transport, osmotik, energetik, biosintetik funksiyalarni bajaradi.

### **3. Protoplazmaning fizik kimyoviy xossalari.**

Protoplazma hujayra ichidagi sitoplazma va organoidlar bilan birga bir butunni tashkil etadi va unda moddalar almashinuvining reaksiyalari sodir bo‘ladi. Sitoplazma protoplazmaning asosiy qismini tashkil qiladi va u uch qavatdan iborat:

Plazmolemma, ya’ni tashqi membranasi;

Mezoplazma qavatida barcha faol organoidlar joylashadi;

Tonoplast ichki qavat bo‘lib, vakuola bilan chegaralanib turadi .

Sitoplazma shilimshiq, tiniq, rangsiz, yarim suyuq kolloid moddadir. Solishtirma ogirligi 1,055 ga teng. U qovushqoqlik, elastiklik xususiyatga ega.

Protoplazmada xilma-xil organik va anorganik birikmalar uchraydi. Tirik protoplazmaning 80-85 % suvdan iborat. Masalan karam bargi misolida, oqsillar-60%, yog‘lar-20%, uglevodlar-10% va mineral moddalar-6%ni tashkil qiladi. Tirik protoplazma doimo harakatda bo‘ladi, yosh hujayra sitoplazmasi aylanma va oqimsimon harakatlanadi. Undagi organoidlar ham birga qo‘shilib passiv harakatda bo‘ladi. Plazmolemma va tonoplast tinch turadi. Aylanma (rotatsion) harakat ham kuzatiladi, bunda protoplazma hujayra po‘stiga yakin joylashadi. Okimsimon (sirkulyasion harakatda) protoplazma ingichka- ingichka oqimlar xolida har tomonga yo‘nalgan. Protoplazmaning harakati birlamchi va ikkilamchi bo‘lishi mumkin. Birlamchi harakat normal sharoitda, ikkilamchi harakat nokulay sharoitda amalga oshadi.

Qovushqoqlik hujayraning eng muxim xususiyatlari, uning faolligini ko‘rsatadi. Qovushqoqlik sitoplazmaning strukturasini va kolloid zarrachalarini tortishuv kuchini belgilaydi.

Elastiklik ham muhim xususiyatlardan biri. Tirik protoplazmaning mexanik ta’siri natijasida o‘zining avvalgi xolatiga qaytish xususiyati elastik deb ataladi. Protoplazmaning ma’lum strukturalari uning elastikligiga sabab bo‘ladi.

#### **4. Bioenergetikaning asosiy tushunchalari**

Ma’lumki o‘simlik organizmlarining hayot foliyati energiyani doimiy iste’mol qilinishida sodir bo‘ladi. Quyosh radiatsiyasi o‘simliklar tomonidan organik moddalarni kimyoviy energiyasiga aylanadi. Organik moddalarning oksidlanishini ekzergonik jarayonlari, yani dissimilyasiya manbalari hisoblanadi. Dissimilyasiyani ikki formasi mavjud, bular nafas olish va achishdir. Biologik moddalarni hosil bo‘lishi yoki endergonik reaksiyalar tashqi muxitdagi moddalarni o‘zlashirish uchun energiyani sarf kilish bilan kuzatiladi. Bunga yaqqol misol kilib fotosintezni keltirish mumkin. Tabiatdagi barcha organizmlar energiyani iste’mol qilish manbalariga qarab 3 guruxga bo‘linadi:

1. Xlorofil o‘simliklar - ular uchun energiya manbai bo‘lib yorug‘lik kvanti (foton) hisoblanadi.

2.Odam va hayvonlar - ular energiyani organik moddalarning (uglevod, yog, oksillar) oksidlanishi hisobiga oladi.

Z.Mikroorganizmlar - ular energiyani spetsifik bo‘lgan organik va anorganik moddalarning oksidlanishi hisobiga oladi.

O‘simlik va boshka tirik organizmlarda sodir bo‘luvchi moddalar va energiya almashinuvi fizika va kimyoning qonunlariga to‘la bo‘ysinadi, shuning uchun tirik sistemalarga bu qonun va prinsiplarni qo‘llash mumkin.

Termodynamika yoki energetika fani sistemalardagi energiyaning xilma-xil formalarini o‘zaro almashinuvi va miqdoriy o‘zgarishini o‘rganadi.

Bu energiyalar-kimyoviy, issiklik, mexaniq, elektrik, yorug‘lik formalarida bo‘ladi.

Sistema tushunchasi, kattaligi, zichligi, harorat, bosim, rangi, magnit va elektrik maydonlari bo‘lishi kabi xossalari bilan harakterlanadi.

Sistema gomogen va geterogen bo‘ladi. Geterogen sistema esa ikkita yoki bir qancha ayrim fazalardan iborat bo‘lib, ular bir-biridan yuzalari bilan ajralib turadi.

Sistemalar ochiq va yopiq bo‘ladi. Yopiq sistemada massa va energiya sistemani o‘rganish jarayonida ko‘payishi va kamayishi mumkin emas. Ochiq sistemada esa massa va energiya kamayishi yoki ko‘payishi mumkin. Shunga ko‘ra o‘simliklar ochiq sistemaga kiradi. Agar sistemani tarkibi va xossasi ma’lum uzoq vaqt ichida o‘zgarmasa sistema muvozanat xolatida turibdi deyiladi. Biroq kimyoviy muvozanat doimiy emas. Muvozanat-bu reaksiyani chapdan unga qanday tezlikda o‘tsa, o‘ngdan chapga ham shunday tezlik bilan o‘tish xolatidir.

Termodynamikaning birinchi qonuni.

Bu energiyaning saqlash qonunidir, uni Gelmgols 1847 yilda ifodalab berdi. A.Enshteyn tenglamasiga ko‘ra ye=MS energiyani saqlash qonuni, ish va issiqlikning ekvivalent qonunidir. Bunda energiyaning har xil formalari bir-biriga o‘ta boshlaydi. Formulaga ko‘ra 1 gramm massa 9 10 erg energiya birligiga aylanishi mumkin. Bu qonunga ko‘ra ichki energiya (ye) faqat issiqlik xolida energiyani ko‘chirish jarayonida yoki ish bajarilganda o‘zgarishi kuzatiladi, boshqacha qilib aytganda energiyani yaratish va yo‘q qilish mumkin emas.

Bajarilgan ish mexanik, elektrik yoki kimyoviy (sintez) bo‘lishi mumkin. Ajratib olingan sistemalar uchun ularni ichki energiyasini o‘zgarishi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi, yani sistemaning ichki eenergiyasini ko‘payishi unga berilgan issiqlik va tashqi muxitni sistema ustida bajargan ishni yig‘indisiga tengdir.

Demak bu qonunga ko‘ra energiya qaytadan hosil bo‘lmaydi va yo‘qolmaydi faqat bir formadan ikkinchi formaga o‘tadi. Ajratib olingan sistemaning energiyasining umumiyl miqdori doimiy bo‘ladi. Birinchi qonun tirik sistemalarga qo‘llanilishi mumkin.

Termodynamikaning ikkinchi qonuni.

Klauzius tomonidan aytilgan fikrga ko‘ra issiqlik issiq tanadan sovuqqa uzatiladi, teskarisi bo‘lishi mumkin emas. Faqat sistemaga tashqaridan ish sarflanganda kuzatish mumkin. Bu termodynamikaning ikkinchi qonunini ochilishiga olib keladi. Ikkinci qonunga ko‘ra barcha sistemalar o‘z-o‘zidan o‘zgarib muvozanat xolatiga intiladi. M: suv yuqoridan pastga oqadi, eruvchi modda eritmada bir xil taqsimlanadi, tirik organizmlarda ma’lum yoshga yetgandan keyin o‘z-o‘zidan qarish jarayoni boshlanadi.

Entropiya bu ichki o‘zgarish ma’nosini beradi. Sistemani entropiyasi esa, uni muvozanatga yakinlashish o‘lchovidir. Entropiya (8) - bu sistemaning xolatini ko‘rsatgichidir va uni entropiya birliklarida ifoda qilinadi  $kDj \cdot K^{-1} mol^{-1}$ . Termodynamikaning ikkinchi qonuni bir vaqtida entropiyani va haroratni termodynamik shkalasini belgilaydi. Muz eriganda, entropiya oshadi, chunki uning strukturasi soddalashadi. Moddalar katta energiyali xolatida entropiya oshadi. M:kristal holatdagi suvni entropiyasi 11,5 en.br., suyuk - 16,75, gaz xolatdagi - 45,11 en.br. Organizmlar uchun entropiyani oshishiga olib keluvchi jarayonlarni tenglatish va ularni kamaytiruvchi almashinuv jarayonlari xarakterlidir.

Entropiya tushunchasi bilan o‘simplik organizmini butun hayot faoliyatini harakterlash mumkin emas, biroq suv almashinuv nafas olish, fotosintez jarayonlariga qo‘llash mumkin.

O‘simplik hujayralarda fermentlar ishtirokida ekzergonik reaksiyalar o‘z-o‘zidan ketishi mumkin, ular kimyoviy potensialini manfiy o‘zgarishi bilan harakterlanadi. Shu bilan birga hujayralarda endergonik jarayonlari sodir bo‘ladi, ya’ni oddiy moddalardan murakkab moddalarni sintezi, unda energiya talab qilinadi va u energiyani bir-biriga bog‘langan ekzergonik jarayonlardan oladi.

Demak, Gibbsni erkin energiyasi tushunchasi ushbu jarayonni o‘z-o‘zidan ketish ketmasligini beradi. Agar doimiy harorat va bosimda erkin energiyani o‘zgarishi ma’lum bo‘lsa, jarayonni o‘z-o‘zidan ketishini avvaldan aytish mumkin.

Ichki energiyani kamayishi va entropiyani oshishi erkin energiyani kamayishiga olib kelsa ichki energiyani ortishi va entropiyani kamayishi erkin energiyani oshishiga olib keladi. Bu xol biologik sistemalarda yaqqol kuzatiladi, ularning massa va energiyasi oshadi va kamayadi. Dastlab yer yuzida hayot paydo bo‘lgunga qadar quyoshdan kelayotgan butun erkin energiya foydasiz issiqlik xolida tarqala boshlagan va kosmik fazoda nurlangan. Keyinchalik hayot paydo bo‘lishi bilan tirik sistemalar bu erkin energiyani ma’lum qismini yutib o‘z faoliyatini davom ettirgan va bir qismini tarqatgan. Natijada tirik organizmni statsionar sistemasi erkin energiyani bir qismiga ega bo‘ladi va uni biosferada tutib turadi.

## **5. Hujayraning adenilat sistemasi.**

Tirik organizmlarda energiya almashinuvida markaziy o'rinni adenilat sistemasi egallaydi. Bularga ATF, ADF, AMF va Md+, N<sub>3</sub>R0<sub>4</sub> kiradi.

ATF-termodinamik turg'un bo'lмаган бирікмадыр және ADF және AMF қосылғыштың о'ли билан гидролизланады. ATF үздөріп көчіріш потенциалы жоғары, бірақ еса үні химиялық көчіріш функциясында жауапшыға мүмкіншілік береді. Натижада hujayrani energiyaga bo'lган талабынан қондирішігі ма'lum сезіларлық дара жағада мүмкіншілік береді. ATF молекуласыда фосфорфаттың (fosfoangidrid) ADF және N<sub>3</sub> RO<sub>4</sub> «o'shilishi» натијасында қосылғыштың о'ли болады. Бұның фосфорланышreaksiyalarnı xloroplast, mitokondriy va bakteriyalarnı membranalarida күзатылыш мүмкін, бу жарыондар O<sub>2</sub> ni yutilishi bilan күзатылады. AMFni ADFga айланышы фосфаттың gruppasını ATF dan AMF ga көчіріліши о'ли болады. Бұның реакцияның барча hujayralarda үчрөвчи adenilatkinaza fermenti katalizложы.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Hujayra o'simlik organizmining elementar struktura va funksional Birligini tushuntirib bering?
2. Hujayra tuzilishining strukturaviy asoslari nimadan iborat?
3. Protoplazmanın fizik va kimyoviy xossalarini aytib bering.
4. Bioenergetikaning asosiy tushunchalari nimadan iborat?
5. Hujayraning adenilat sistemasi nima?
6. Parenxematik xujayralar deb nimaga aytildi?
7. Prozenxematik xujayralar deb nimaga aytildi?
8. Prokariot va eukariot xujayralarning tuzilishlari xaqida aytib bering
9. Biologik membranalarning tuzilishini aytib bering
10. Xujayra organoidlarini tushuntirib bering

## **2-mavzu: O'simlikdagi suv muvozanati Reja:**

1. O'simliklarning suv rejimi
2. Tuproqdagı suv
3. Suv transporti jarayonları. Suv tuproqdan o'simliklар orqali havo muhitiga tomon harakati
4. Ksilemada suvning o'tkazilishi
5. O'simlik ksilemasi yuzasida suv transportirovkasining fizikaviy xususiyatlari.

Xulosa

### **1. O'simliklarning suv rejimi**

Yer atmosferasidagi hayot yer usti o'simliklari uchun muhim omillarni o'zida aks ettiradi. Bir tomonidan atmosfera o'simliklar fotosintezi uchun kerakli karbonad angidrid gazi manbaasi hisoblanadi. Shu bois o'simliklar atmosfera muhitiga intiladi. Ikkinci tomonidan atmosfera nisbatan quruq bo'lib, u o'simliklar organizmini suvsizlantirib qo'yishi mumkin. Bu qarama-qarshi ehtiyojlarni қондиріш hamda karbonad angidrid gazini imkon qadar ko'proq o'zlashtirish va suv yo'qotishni imkon qadar kamaytirish maqsadida o'simliklar evolyusion rivojlanish davomida barglari orqali suv bug'lanishi va yo'qotilgan suv o'rnini to'ldirish xususiyatlariga ega bo'lганлар.

Ushbu bo'limda biz o'simlik va o'simliklar muhiti darajasida, suv transorti harakatiga ta'sir etuvchi kuchlar va mexanizmlarni ko'rib chiqamiz. Suv transorti jarayonlarida suvning barglar orqali yo'qotilishi suv bug'lari konsentratsiyasining gradient harakatlari natijasida yuzaga keladi. Ksilema orqali suv o'tkazilishi xuddi tuproqdagı kabi usimliklar ichki gradient bosimlari ta'sirida

yuzaga keladi. Hujayralararo suv o'tkazilishi jarayonlari o'simliklar o'qildizlaridagi kabi murakkab jarayon bo'lsada bu jarayonlar butun to'qima tarkibida suvning potensial gradient holatiga qarab boshqariladi.

Suv o'tkazilishi jarayonlarida suv transporti passiv holat hisoblanib, harakati davomida suvning erkin quvvati kamayib boradi. Suv transporti passiv xususiyatlari bo'lishiga qaramasdan, o'simliklar organzmidagi eng kichik darajalardagi atmosferaga transpiratsiya jarayonlarini boshqarish hisobiga suv yo'qotilishini kamaytirish maqsadida suv transporti o'simliklar tomonidan qat'iy nazorat

qilib boriladi. Biz suv trnsporti jarayonlarini uning tuproqdagagi harakatlarini ko'rib chiqishdan boshlaymiz.

## 2. Tuproqdagagi suv

Tuproqdagagi suvning tarkibi va harakati tuproqning turi va tarkibigi hamohang bog'liqidir. Turli tipdagagi tuproqlarning fizikaviy xususiyatlari keskin farqlanishini ko'rsatadi. Tuproqning tarqalgan hududida 1 mm qalinlikda kum uchrashi mumkin. Ammo ushbu qatlama tuproq yuzasining juda kam qismini tashkil etsada, qatlamlar orasidagi o'tkazuvchanlik kanallarida muhim ahamiyatga ega bo'ladi

Boshqa qavatida 2 mm qalinlikda loy qalami kuzatiladi. Ushbu qatlama sezilarli katta yuzani egallasada lekin qatlamlar orasidagi uzviy aloqa kanallarida kamroq rol o'ynaydi. Gumus (organik moddalar parchalanishian hosil bo'lувchi modda) kabi organik moddalar yordamida tuproqning loyli qatlami bilan aralashishi natijasida hosil bo'lgan donadorlik tuproqda suv aylanishi va havo aeratsiyasi jarayonlarini birmuncha yaxshilaydi.

Tuproq kuchli yomgir yoki kuchli suv oqimi bilan sugorilganda yig'ilgan suv og'irlik kuchi ta'siri ostida qatlamlararo pastga harakatlanadi, ma'lum bir qismi esa ushbu kanallar orasidagi havo hisobiga qatlamlar orasida ushlab turiladi. Tuproqdagagi suv uning qatlamlari orasidagi yuzalarga yopishgan holatda yoki qatlamlararo bo'shlikdarda to'planib turiti mumkin.

Qumli gruntlarda qatlamlararo bo'shliqlar birmuncha katta bo'lib, ular orqali suv oqim hosil qilishi mumkin va tuproq tarkibidagi suv faqatgina qatlamlardagi yuzalarda yopishgan holatda ushlab turilishi mumkin. Loyli tuproqlarda kanallar kam bo'lib suv erkin oqimlar hosil qilmaydi va u biroz siqilgan holatda uchraydi. Suvni ushlab turuvchi tuproqlar namlikni ushlab turuvchi manbaalardir. Ushbu manbaalar tuproq suv bilan namlanganda kerakli namlikni ushlab qoladi va ortiqcha suvni erkin oqib ketishiga zamin yaratadi. Loyli tuproqlar yoki gumus ko'p bo'lgan tuproqlar namlikni katta xajmda ushlab turadi. Bir necha kunlik to'inishlardan keyin bu qatlamlar suvning 40% igacha o'zida ushlab qoladi. Qumli qatlamlar esa bir necha kunlik to'inishdan so'ng suvning atigi 3 % ini o'zida saqlab qolish xususiyatigi ega.

Keyingi bo'limlarda o'simliklar uchun zarur suv ildizlar orqali qanday so'rilihini, tuproqdagagi sua harakatini, tuproqdagagi suvning qarshi bosimi tuproqning suv rejimini qanday o'zgartirishini ko'rib chiqamiz.

Tuproq suvlarining qarshi gidrostatik bosimi tuproq suv rejimini kamaytiradi.

O'simliklarning suv potensiali kabi tuproqning suv potensiali ham ikki asosiy unsur osmotik va gidrostatik bosimlarga asoslanadi. Tuproqdagagi suvning osmotik bosimi (3 bo'lim) deyarli juda kam bo'lib, unda erigin moddalar miqdorigi qarab, 0.02 MPa gacha bo'lishi mumkin. Tarkibidagi tuzlar miqdoriga qarab tuproqdagagi bosim 0.2 MPa yoki undan kichik ko'rsatkichda bo'ladi.

Tuproq suv rejimining keyingi omili gidrostatik bosimdir. Nam tuproqlarda Rn ko'rsatkichi nolga yaqin bo'ladi. Tuproqning qurishi natijasida Rn kursatkichi kamayadi ba'zi holatlarda aks

kursatkich darajasigacha tushib ketishi mumkin. Savol tug‘iladi, tuproqdagi suvning aks bosimi qanday paydo bo‘ladi?

Biz 3-bo‘limda kapillyarlik hodisasini muhokama qilgan edik Suv yuqori yuza qovushqoshligiga ega bo‘lib, u havo-suv bog‘lanish yueasini minimal darajada ushlab turish xususiyatigi ega. Tuprovning qurishi natijasida suv avvalo tuproqning yirik qismlaridan ajralib chiqadi. Adgeziv kuchlar ta’siri ostida esa suv tproqning mayda qismlarida ushlab turiladi va tuproq yuzasining katta qismida suv-havo yuzalari paydo bo‘ladi.

Tuproqdagi suv miqdorining kamayishi natijasida suv tuproqning bo‘shliq qismlarigi tomon harakat qiladi. Havo-suv yuzasi esa havo-suv qismlarining o‘zaro bog‘lanishi natijasida hosil bo‘ladi.

Ushbu yuza qatlamlar orasidagi suvning aks bosim ta’siri kuchayadi. Uni quyidagi formula yordamida baholash mumkin.

Tuproqdagi suvning  $R_n$  ko‘rsatkichi suvning havo qatlamidagi yuzasiga bevosita bog‘liq bo‘lib quruq tuproqlarda juda kichik ko‘rsatkichda yoki aks ko‘rsatkichda bo‘lishi mumkin. Masalan, suvning ushlanish yuzasi (g) 1 mm ga teng bo‘lsa uning aks bosim ta’siri  $R_n = -0.15$  MPa ga teng bo‘ladi. Ushbu ko‘rsatkich havo-suv ta’sir yuzasi loy qatlaming sezilarli mayda qatlamlariga tomon siljishi natijasida  $-1\text{ MPa}$  dan  $-2 \text{ MPa}$  gacha o‘zgarishi mumkin

Tuproqshunoslar tuproqning suv rejimini tuproqdagi suvning potensiali bilan izohlashadi.

Suv grunt qatlamlar orqali oqim hosil qiladi.

Suv tuproq qatlamlari orasidan oqim yo‘nalishlari hosil qilib gradient bosim ta’siri ostida harakatlanadi. Bundan tashqari suv bug‘larining diffuziyalanishi ham suvning harakati hisoblanadi. O‘simliklar tuproqdan suv yutishi natijasida tuproqning o‘simliklar ildiziga yaqin qismlarida suvsizlanish paydo bo‘ladi. Bu suvsizlanish ildizlar atrofidagi tuproqning  $R_n$  ko‘rsatkichini kamaytiradi va unga qo‘shni bulgan, yuqori  $R_n$  ko‘rsatkichiga ega bo‘lgan tuproq maydonchalarining orasida gradient bosim hosil qiladi. O‘rnii to‘ldirilgan suv hisobiga tuproq bo‘shliqchalarini orasida uzviy bog‘liqdik yuzaga keladi va bu kanallar orqali gradient bosim ta’sirida suv oqim ko‘rinishida ildiz yuzalariga tomon harakat qiladi.

Tuproqdagi suvning harakat tezligi ikki omilga bog‘liq: gradient bosim ko‘rsatkichi va tuproqning gidravlik utkazish xususiyati. Tuproqning namlikni o‘tkaza olish xususiyati uning hajmiy ko‘rsatkichi hisoblanib, tuproq orqali suvning harakatiga bog‘liqdir va u tuproq va suvning tarkibiga qarab o‘zgarib turadi. Qumli tuproqlar tarkibidagi mayda zarralarning katta bo‘shliqlar hosil qila olishi natijasida yuqori gidravlik o‘tkazuvchanlik xususiyatini hosil qiladi, loyli tuproqlar esa zarrachalar orasidagi bo‘shliqlar kamligi bois sezilarli darajada kam gidravlik o‘tkazuvchanlik xususiyatigi ega.

Tuproq tarkibidagi suvning tarkibi o‘zgarishi bilan uning gidravlik o‘tkazuvchanligi darhol tushib ketadi. Bu ko‘rsatkichning kamayishi birinchi navbatda qatlamlar orasidagi suvning havo bilan almashinuvni natijasida yuzaga keladi. Havoning qatlamlar orasidagi avvaldan to‘planan suv bilan o‘rin almashinuvni natijasidagi suvning harakati esa kanallar tarmoqlari tomonidan chegaralab qo‘yiladi. Tuproq o‘tkazuvchanlik kanallarining havo bilan almashinuvni oshishi bilan suv yana ham mayda kanallar orqali harakatlana boshlaydi va gidravlik o‘tkazuvchanlik xususiyati ham kamayib ketadi.

Juda quruq tuproqlarda suv potensiali tushib ketishi mumkin. Bu doimiy qurg‘oqchilikka olib kladi. Bu paytda suv potensiali kamligi bois o‘simliklar rivojlanishdan to‘xtaydi. Bu shuni anglatadiki, suv potensiali ( $\Psi_u >$ ) o‘simliklar o‘simliklar osmotik potensiali ( $\Psi_8$ ) ko‘rsatkichidan kam yoki teng darajada bo‘ladi. O‘simliklar hujayrasи osmotik bosimi shu o‘simlik turiga bog‘liq

bo‘lib, suvning doimiy almashinuv jarayonlari tuproqning noyob xususiyati hisoblanmaydi. Bu jarayon bevosita o‘simpliklarning turlari va boshqa omillarga ham bog‘liq.

Ildizlar orqali suvning yutilishi. Ildizlar va tuproqning o‘zaro mustahkam yuza aloqalari suvning ildizlar orqali yutilishi samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ildiz va ildiz popuklarining o‘sishi evaziga ushbu aloqa suv o‘zlashtirish hajmini oshirish uchun yuqori darajadagi suv yutish yuzasini hosil qilishni ta’minlaydi. Ildiz popuklari ildiz epidermik hujayralarining kengayishidan hosil bo‘ladi. Ular ildiz yuzasini sezilarli darajada oshiradi va suv ionlarini tuproqdan maksimal darajada o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. Javdvr o‘simpliginingg 4 oylik rivojlanishini kuzatganimizda , uning ildiz popuklarining umumiy yuzasi ildiz yuzasining 60% ini tashkil etishi kuzatildi.

Suv ildizlarga ildiz popuklari orqali juda oson o‘tadi. Ildizning yirik qismlari esa ekzoderma va epidermis deb ataladigan tashqi himoya qatlamiga ega bo‘lib, bu qavatlar gidrofob (suv o‘tkazmaydigan) hisoblanadi va ularning devorlaridan deyarli suv o‘zlashtirilishi amalga oshmaydi.

Tuproq zararlanishi natijasida ildiz yuzasi va tuproqning mustahkam aloqalari osongina buziladi. Shu sababdan yangi o‘tkazilgan ko‘chatlarni ilk bir necha kun davomida suv yo‘qotilishidan himoya qilish kerak bo‘ladi. Yangi tuproq muhitidagi ildiz-tuproq aloqasining paydo bo‘lishi bilan o‘simpliklarning suv yo‘qotilishi stressiga bardoshliligin oshiradi.

Endi ildizda suvning harakatlanishi va ildiznin suv yutilish tezligini ta’minlovchi omillarni ko‘rib chiqamiz.

Suv tuproqdan o‘simpliklar orqali havo muhitiga tomon harakati jarayonida ko‘plab oraliq muhthitlardan o‘tadi (hujayra devori, sitoplazma, membrana va havo vositalari), shuningdek muhit tipiga

### **3. Suv transporti jarayonlari**

Bir necha kuzatishlar shuni ko‘rsatadiki, suvning lipidlar qo‘shqavatidan bevosita harakati suv harakat tezligini ta’minlovchi yetarlicha omil hisoblanmaydi. Ammo bu jarayonlarda ishtirot etuvchi mikroskopik g‘ovaklar vazifasi ham to‘liq o‘rganilgani yo‘q.Bu noaniqliklar akvaporalar (suv g‘ovak kanallari) ochilishiga turtki bo‘ldi. Akvaporalar membrana oqsillarining ho‘shilishidan hosil bo‘ladi va membrana devorlari orqali suv kanallarini hosil qiladi. Bu kanallar orqali suvning harakati lipidlar qo‘shqavatlariga nisbatan ancha yengil amalga oshadi. Akvaporalar o‘simpliklar hujayralari orqali suvning harakatini ta’minlaydi. Shuni ta’kidlash kerakki, akvaporalar suv harakat tezligini ta’minlab bersada, suvning harakat yo‘nalishini va suvning harakatiga ta’sir qiluvchi kuchlar ko‘rsatkichini o‘zgartira olmaydi. Akvapolralar xususiyatlari hozirda jadal suratlarda olimlar tomonidan o‘rganilmoqda.

Ildiz orqali suv apoplast, transmembrana va simplast yo‘llar bosqichlaridan o‘tadi. Tuproqda suv oqim ko‘rinishida harakat qiladi. Ammo suv tuproqda ildiz bilan aloqaga kirishar ekan, suv harakatining xususiyati birmuncha murakablashadi. Epidermisdan ildiz endodermasiga qadar uch bosqichli mikrooqim yo‘nalishidan o‘tadi. bular apoplast, transmembranaviy va simplast bosqichlar.

1. Apoplast usulida suv membranadan ichkariga o‘tmasdan, hujayra devori orqali harakatlanadi. Apoplast hujayralararo uzluksiz tizim hisoblanadi va o‘simpliklar to‘qimasida hujayralararo havo saqlovchi, o‘tkazuvchi vosita hisoblanadi.

2. Transmembrana usulida suv hujayra muhitiga bir tomonidan kiritilib, ikkinchi tomonidan chiqariladi va bu jarayon butun to‘qima hujayralarida birin-ketin amalga oshib boradi. Bu usulda suv hujayraning ikki membrana qavatini kesib o‘tadi (kirish va chiqishda plazmatik membranani kesib o‘tadi). Tonoplast orqali suvning harakatlanishi ham muhim ahamiyatga ega.

3. Simplant usulida suv bir hujayradan ikkinchisiga plazmodesmamlar orqali o'tkaziladi . Simplant hujayra sitoplazmasining tizimli birlashuvidan iborat bo'lib, plazmodesmamlar yordamida o'zaro bog'lanib turadi.

Apoplast, transmembranaviy, simplast usullar haligacha to'liq o'rganilmagan, ularning bosimlari faqat texnik asboblar yordamida o'lchab ko'rilgan xolos.

Endodermada apoplast usulida suvning harakati Sazrapap qutblarini kesib o'tadi. Ushbu qutblar endodermada hujayraning radial qutblarini hosil qiladi. Ushbu xususiyat suvda erimaydigan suberin moddasini yutish natijasida hosil bo'ladi. Suberin suv va unda erigan moddalar uchun to'siq sifatida xizmat qiladi va endoderma po'kaksimon o'smaydigan qatlamga aylanadi. Bu qavat ildiz ohirlaridan ham juda ham yupqa bo'lib unda protoksilemaning ilk qismlari hosil bo'ladi. Sazrapap qutblari apoplast usulining plazma membranasi orqali endodermaga o'tish yo'lida suv va unda erigan moddalarni o'tuvchanligini buzadi. Shu bois ildizning o'zagi va devorlarida apoplast usulida suv tashilishining ahamiyatliliga qaramasdan endoderma orqali suvning harakati simplast usulida amalga oshiriladi.

Yana bir jihatga ahamiyat berishimiz lozim bo'ladi. Suvning ildiz orqali harakatida ildiz yagona gidravlik o'tkazuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan qism sifatida qaralishi kerak. Bu yondashuv ildiz gidravlik o'tkazuvchanlik konsepsiysi ishlab chiqlishiga olib kelgan..

Ildizning apikal qismlari suvni yaxshi o'tkazadi. Bu qismdagi po'kaklangan ekzoderma qavatlari esa suv yutilishini chegaralab turadi. Suvning o'tkazilishi ba'zida qari ildizlar tomonidan ham amalga oshiriladi. Bu ildizning ushbu qismlarida ikkilamchi ildizlar paydo bo'lishi bilan izohlanadi.

Suvning yutilishi past haroratda yoki anaerob sharoitda, shuningdek ildizning nafas olish jarayonlariga ta'sir etuvchi preparatlar(masalan sianidlar) bilan ishlov berilganda ham kamayadi. Bu omillar ildizlarda nafas olish uchun kerakli bosim hosil bo'lishini oshiradi va buning natijasida suv o'tkazuvchanligi sezilarli darajada kamayib ketadi. Buning asl sabablari hali aniqlanmagan. Boshqa tarafdan qaraganda, ildizlarda suv o'tkazuvchanligining kamayishi botqoqlashgan tuproqlarda o'simliklar rivojlanishi uchun noqulay muhit yuzaga kelishi bilan ham izohlanadi. Ushbu muhitda ildizlartuproqdagi havo vositalari yordamida ta'minlanib turilgan kislordan mahrum bo'ladi. (suv orqali havoning diffuziyalanishi gaz orqali diffuziyalanishga nisbatan 104 marta kamroqdir). Anaerob sharoitda qolgan ildizlar suvni tezda yo'qota boshlaydi va oqibatda butun o'simlik organizmi kuchsizlana boshlaydi.

Suvda erigan moddalarning konsentratsiyasining oshishi ildizning "ildiz bosimi" xususiyatini oshiradi. Bu bosimni amalda ham kuzatish mumkin. Masalan, yangi ekilgan yosh niholni tuproqdan biroz yuqoriqdan kesilganda, ksilema kesimidan bir necha soat davomida sharbat oqib turadi. Agar ushbu qismga manometr o'rnatilsa, Sharbat oqimining bosimini o'lchab ko'rish mumkin. Bu bosim aksar hollarda 0.05 dan to 0.5 MPa gacha bo'lishi mumkin.

Ildizlar gidrostatik bosim hosil qilib tuproqdagi suvda erigan ionlarni o'ziga yutib oladi va ksilema orqali o'tkazilishini ta'minlaydi. Ionlarning ksilemadagi sharbat tarkibiga kirishi ksilemaning osmotik bosimi ( $\Psi_L$ ) kamayishiga olib keladi, o'z navbatida ksilemaning suv potensiali ( $\Psi_u$ ) ko'rsatkichi ham kamayadi. Ksilemadagi ushbu ko'rsatkichlar ( $\Psi_u$ ) ning kamayishi tuproqdan suv yutilishini oshirish uchun zamin yaratadi. O'z navbatida bu ksilemada ijobiy gidrostatik bosimni hosil qiladi. Natijada butun ildiz xuddi osmotik hujayra kabi ishlay boshlaydi. Hujayralararo membranalar ham osmotik hususiyatlarni paydo qiladi, ksilemada to'plangan ionlar yigilishiga javoban ijobiy gidrostatik bosim hosil qiladi.

Ildiz bosimi tuproqdagi suv potensiali baland va transpiratsiya past ko'rsatkichlarda bo'lganda tezroq amalga oshadi. Bu ko'rsatkichlar transpiratsiya ko'rsatkichlaridan baland

bo'lsa, suv barglarga jadalroq yetib boradi va atmosferaga tezroq chiqib ketadi, chunki ijobjiy bosim ksilemada mustahkam ushlab turila olmaydi.

Ildiz yuqori bosimini hosil qiluvchi o'simliklar ko'pincha barg chetlarida sharbat tomchilarini ham hosil qiladi. Bu jarayon guttutsiya hhodisasi deb ataladi.

Ksilemaning ijobjiy bosimi ksilema sharbatining gidatoda deb ataladigan maxsus teshikchalar orqali ekssudatsiya qilinishini ta'minlaydi. Bu barg chetlaridagi tomirchalar bilan bog'liqidir. Bu hhodisani erta tongda o'simliklar chetlarida kuzatish mumkin. Bu guttatsiya tomchilari aslida maxsus teshikchalar orqali hosil bo'ladi. Guttatsiya hhodisasi transpiratsiya kamaygan paytda va nisbiy namlik baland bo'lgan tungi sharoitlarda yaqqolroq nomoyon bo'ladi.

#### **4. Ksilemada suvning o'tkazilishi**

Ko'pchilik o'simliklarda suv o'tkazish yo'lining asosiy qismini ksilema qavati tashkil qiladi. 1 metr balandlikdagi o'simlikda suv yo'lining 99.5% qismi ksilema qavati orqali o'tadi. Baland bo'yli o'simliklarda bu ko'rsatkich yanayam katta bo'ladi. Boshqa suv o'tish yo'llariga nisbatan ksilema nisbatan kam qarshilikka ega. Keyingi bo'limlarda biz ksilema orqali suvning harakati ildizdan to bargga qadar bo'lgan yo'lda qanday eng maqbul usulda harakatlanishini va barglar transpiratsiyasi natijasida hosil bo'lgan salbiy gidrostatik bosim ksilema orqali suvning harakatini qanday ta'minlab berishini ko'rib chiqamiz.

Ksilema ikki asosiy traxeid elementdan tashkil topgan. Ksilemadagi hujayralar maxsus anatomiq ko'rinishga ega bo'lib, ular imkon qadar ko'proq hajmda suv o'tkazilishini ta'minlashga moslashgan. Ksilemada traxeid elementlarining ikkita muhim tipi mavjud. Traxeid va tomir elementlari ko'pincha yopiq urug'li o'simliklarda, shuningdek paprotniklar va naysimon o'simliklarda kuzatiladi.

Ikkala traxeidlar va elementlar qurish natijasida halok bo'ladi. Shu bois suv o'tkazuvchi hujayralar organella va membranalari ham o'tkazuvchanlik xususiyatlarini yo'qtodi.

Tirik qolgan hujayra devorlari orqali suvning o'tkazuvchanligi ko'proq qarshilikka uchraydi. Traxeidlar uzunchoq, varraksimon hujayralar bo'lib tik kanallarga nisbatan biroz ko'ndalang joylashadi. Suv traxeidlar orqali undagi ko'p sonli chuqurchalar va yon devorlari bo'ylab harakatlanadi. Ikkilamchi devor mavjud bo'lмаган boshqa mikroskopik qismlarda birlamchi devorlar yupqa va mo'rt bo'ladi. Birinchi traxedning chuqurchasi ikkinchi traxeid chuqurchasiga yonma-yon joylashadi va ikkita ketma-ket juft chuqurchani hosil qiladi. Juft chuqurchalar traxeidlararo suv harakatiga nisbatan kam qarshilikka ega. Juft chuqurchalar orasidagi ikki asosiy devordan va o'rta qismdan iborat mo'rt qavatlar membranalar chuqurchalari deb ataladi. Membrana chuqurchalari ba'zi bug'imli o'simliklarda markaziy govaklarni hosil qiladi. G'ovaklar ichki qopqoqlar kabi ishlaydi. Ular devorlarning aylana va oval shaklda chegara hosil qiladigan chuqurchalarni yopish vazifasini ham bajaradi. G'ovaklarnig bunday hayot tarzi qo'shni traxeidlardan hosil bo'ladigan zararli gazlarning kirib kelishini oldini oluvchi eng samarali usuldir.

Qayiqcha elementlar traxeid va teshikchalangan devorlardan farvli o'laroq tor va keng tiplarda bo'ladi. Ular har bir hujayralar ohrida teshikchalangan plastinalar hosil qiladi. Traxeidlardan farqdi ravishda teshikchalangan chetki devorlar tomir kanallarining keyinga tomirlar qismlariga bog'lanishiga imkoniyat yaratadi va tomir deb ataluvchi katta o'tkazuvchi kanal hosil qilib beradi. Qayiqchalar ichki uzunligi va ko'rinishi jihatdan bir-biridan farqlanadi. Qayiqchalarning uzunligi 10 sm dan to bir necha metrgacha yetishi mumkin. Ochiq chetki devorlari hisobiga tomirlar suv erkin harakat qilishi uchun juda kam qarshilikka ega sharoit hosil qiladi. Qayiqchalar qismlari chetki devorlardagi teshikchali

tomirlarda ham aniqlangan va ular o‘zaro qo‘sni qismlar bilan oraliq chuqurchalar orqali bog‘lanib turadilar.

Ksilema orqali suvning harakati tirik hujayralar orqali harakatdan ko‘ra kamroq bosim talab qiladi. Ksilema ildizdan to bargga qadar bo‘lgan suv o‘tkazish yulida suvning harakati uchun gradient bosim kam bo‘lgan muhitni yaratib beradi. Sanab o‘tilgan xususiyatlarning ba’zilari ksilemaning ahamiyatini o‘rganishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Mo‘tadil tezlikdagi Ksilema orqali suv o‘tkazilishini ta‘minlovchi harakatlantiruvchi kuchlarni ko‘rib chiqamiz va ularni xarakatlantiruvchi kuchlar bilan taqqoslaymiz. Ushbu harakatlantiruvchi kuchlar hujayradan hujayraga suv o‘tish yo‘lida suvning harakatini ta‘minlaydi. Bu jarayonni o‘rganish uchun biz 4mm 8-1 ko‘rinishdagi 40sm li trubkadan foydalanamiz. U tomir qalinlikdagi o‘lchamga ega va ksilemada suv harakatini ta‘minlovchi kuchni o‘rganishda aniq model bo‘lib hisoblanadi. Ushbu trubkadan suv oqimini o‘tkazish xuddi ksilemadagi suv harakatiga o‘xshaydi. Puazeyl usuli bo‘yicha gradient bosimni o‘lhash mumkin. 4 mmli 8-1 trubkadagi bosim ham 40 mkm qalinlikdagi tomir gradient bosimi bilan bir xil bo‘lib u 0.02 MPa ga teng.

Haqiqiy ksilemada ichki yuza teshikli plastinalar va chuqurchalar hisobiga ma'lum darajada suv oqimiga qo‘sishma qarshilik ko‘rsatadi. Shu bois Puazeyl usulida aniqlangan ko‘rsatkichlar tabiiy ko‘rsatkichlardan biroz farq qiladi. O‘rganishlar natijasida shu narsa ma'lum bo‘ldiki, ushbu usuldagagi natijalar tabiiy ko‘rsatkichlari nisbatan 2 marta farq qilishi mumkin. Shu bois biz aniqlagan 0.02 MPa ko‘rsatkich faqat ideal turdagagi o‘simliklar uchun xos.

Biz olgan natijani (0.02 Mpa) har safar suv o‘tkazilishida plazmatik membranani kesib o‘tuvchi va o‘sha tezlikda hujayradan hujayraga suv o‘tkazilish kuchini hosil qiluvchi omillar ko‘rsatkichi bilan taqqoslab ko‘ramiz. 4.4 mavzuda ko‘rib chiqilgan Puazeyl usulida 4 mm 8-1 tipdagi naychada olingan natija, hujayra devorlari orqali suv o‘tkazilish kuchi qiymatiga nisbatan hisoblanganda uni aytganimizdek

2 x 108 MPa deb hisoblanadi. Bu biz o‘rgangan naycha ichidagi bosimdan 10 marotaba ortiqdir. Bu qiymatlar ham ksilema orqali suv o‘tkazilishining tirik hujayralar orqali suv tashilishiga nisbatan ancha afzalligini ko‘rsatib turibdi.

100 metrli daraxtning eng yuqori qismlariga suv yetkazilishi uchun kerak bo‘lgan bosimni ko‘rib chiqamiz.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan misollarga ko‘ra, eng baland daraxtlar miolida ko‘rib chiqamiz. yer yuzidagi eng baland daraxtlar Shimoliy Amerika sekvoyasi va Avstraliya shox evkaliptlari hisoblanadi. Bu ikki turning balandligi 100 metrdan oshadi.

O‘simlik poyasini uzun nay sifatida tasavvur qilsak, har bir metr uzunlikda hisoblangan qarshilik kuchini yengib o‘tish uchun kerakli bosim hosil qilish va suv harakatini yetarli balandlikkacha yetkazib berish uchun (0.02 MPaX100m) 2 MPa bosim kerak bo‘ladi.

Bundan tashqari ushbu balandlikdagi suv (100 m) 1MPa bosimdagagi qarshilik kuchini hosil qiladi. Ushbu ko‘rsatkich suv yetkazilish bosimiga qo‘silsa 3 MPa natija kelib chiqadi. Demak 100 metrli daraxtning eng yuqori qismigacha suv yetkazilishini ta‘minlash uchun 3 MPa bosim hosil bo‘lar ekan.

Suv yetkazish uchun zarur bo‘lgan bosim gradienti nazariyasi

Nazariy jihatdan suv yetkazish uchun zarur bo‘lgan bosim gradienti o‘simlik asoslaridagi ijobjiy bosim hosil bo‘lishidan yoki o‘simlik yuqori qismlarida salbiy bosim hosil bo‘lishi hisobigi amalga oshiriladi. Eslatib o‘tkazganimizdek, o‘simliklarning ba’zi ildizlari o‘z ksilemasida ildiz bosimi deb ataluvchi ijobjiy bosim hosil qilish xususiyatiga ega. Agar ildiz bosimi 0.1 MPa dan kam yoki umuman yo‘qolgan va o‘simlik transpiratsiyasi yuqori suratda bo‘lsa o‘simliklar yuqori qismlarigacha suv yetkazib bera olmaydi.

Shu bilan birgalikda o'simlik yuqori qismlarida suvning yuqori kuchlanishga ega bo'ladi (salbiy gidrostatik bosim), va va bu kuchlanish ksilema orqali suv harakatini ta'minlaydi. Bu mexanizm XIX asr oxirlarida taklif etilgan bo'lib suv ko'tarilishining tayanish nazariyasi deb ataladi. U ksilema naylaridagi suvning kuchlanishini ushlab turish uchun suvning yopishqoqlik xususiyatidan foydalanadi.

Bu nazariyaning qiziqarli bo'lishiga qaramasdan u yuz yillar davomida muhokamali mavzu hisoblanadi. Nazariyadagi asosiy qarama- qarshilik ksilemadagi suv baland daraxtlarning yuqori qismlarigacha yetib bora olishi uchun kerakli miqdorda kuchlanish (salbiy gradient bosim)ni hosil qila oladimi degan savolda yuzaga kelmoqda.

Eng oxirgi muhokamalar olimlar ksilema naylaridagi suv kuchlanishini o'lhash imkoniyatigi ega bo'lish uchun hujayra ichki bosimni o'lhash modifikatsiya modelini yaratishganda bo'lib o'tgan. Bunga qadar ksilema bosimini baholash barglar barokameralarini o'lhash usullariga asoslangan edi.

Ilk bora ksilema bosimini o'lhashda salbiy bosim to'g'risida yetarlicha ma'lumotlar olinmagan. Bunga ksilema devorlariga shisha kapillyarlar kiritish jarayonida yoriqchalardan sizib kirgan gazlar sabab bo'lgan. Oxir oqibatda bosim va kuchlanishni o'lhashning barokamera usulida zondlash usuli yaratilgan. Bundan tashqari mustaqil izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ksilemadagi suv ko'p salbiy kuchlanishni o'zida ushlab turishi ham mumkin. Bu usulda barglardagi bosimni kamera usulida o'lhash ham ksilemadagi yuqori kuchlanish borligini ko'rsatadi.

Ko'pchilik tadqiqotchilar suv tayanishining kogeziyasi asosiy nazariya deb qabul qilganlar. Ksilema kuchlanishini uning naylariga siyoh jo'natish usulida aniq ko'rsatib berish mumkin. Ksilemada suv tayanishining kamayishi bilan siyoh ksilemani bo'yaydi va siyoh rangi poyaning tashqi tarafida ko'rina boshlaydi.

##### **5. O'simlik ksilemasi yuzasida suv transportirovkasining fizikaviy xususiyatlari.**

O'simliklar ksilemasidagi yuqori kuchlanishlarning hosil bo'lishio'simliklar uchun bir qancha nojo'ya holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Birinchidan suv tayanish xususiyati borligi sababli ksilema devorlarini ichki tomondan itaradi. Agar ksilema devorlari kuchsiz va zaif bo'lsa, bu kuchlanishlar ta'sirida devorlar butunligi buziladi. Ikkilamchi qalinlashgan devorlar va yogochlangan traxeidlар, moslashgan nay tomirlar xususiyatlari yuqoridagi sanab o'tilgan ta'sir kuchlariga nisbatan beqarv bo'lishi mumkin.

Ikkinci muammo shundan iboratki, bu kuchlanish sharoitida suv fizikaviy jihatdan metastabil holatda bo'ladi. Tajribadagi gазsizlangan suv (svuni qaynatib tarkibidagi gazlarning chiqarib yuborilishi)ni ajralishi uchun 30 MPa kuch kerak bo'ladi. Bu ko'rsatkich daraxtlarning yuqori qismlariga qadar svuni yetkazib berish uchun kerak bo'ladigan tayanish ko'rsatkichi 3 MPa dan ancha yuqori. Shu bois ksilemadagi suv odatda suv harakatini destabillaydigan darajada kuchlanish qiymatiga yetib bormaydi. Shunga qaramasdan suv kuchlanishining oshishi bilan ksilema hujayra devorlari mikroskopik teshikchalar orqali suvning uzatilishi bois uning havoga ajratilishi ham oshib boradi. Bu jarayon havoga sochilish jarayoni deb ataladi. Havo sharchalarining ksilema o'tkazuvchi naychalarida hosil bo'lishi gazlarningsov uq suvda kam erishiga asoslangan.

Ksilema naychalarining muzlashi bu naychalarda gaz sharchali tiqinlar g'hosil bo'lishiga olib keladi. Suv haroratining tushishi natijasida gaz sharchalarining hosil bo'lishi bilanbirga bu sharchalar kengayib ketishi ham mumkin. Lekin bu tiqinlar devorlarni kengaytirish darajasida kuchga ega bo'lmaydi. Bunday fenomen ravishda gaz tiqinlarining hosil bo'lishi kavitsiya deb ataladi. U xuddi avtomobillardagi yosilgi naylarining ichida hosil bo'ladigan gaz tiqinlari yoki

qon tomirlaridagi emboliyaga o‘xshaydi. Kavitsiya suvning erkin harakatini va ksilemadagi suv uzatilishini buzadi.

Bunday hhodisalar o‘simliklar olamida noodatiy hisoblanmaydi. Maxsus asboblarda bunday holatlarda ichki gaz ishqalanish ovozlarini eshitish mumkin. O‘simliklar suvsizlanganda bunday tovush impulsleri yaqqol seziladi. Bunday impulsler ksilemada gaz sharchalarining kengayishi bilan hosil bo‘ladi va yuqori chastotali akustik zarba to‘lqinlari ko‘rinishida o‘simliklarning boshqa qismlariga tarqaladi. Suv yo‘llarining emboliyalar bilan to‘silib qolishi natijasida o‘simliklar suvsizlanadi, barglar to‘kilib ketadi Bu gaz tinqinlari hosil bo‘lishining oldi olinmasa yoki jarayon davomiyligi to‘xtatilmasa, o‘simliklarning halok bo‘lishiga olib keladi.

O‘siliklar ksilemasida kavitsiya hosil bo‘lishini kamaytirilish usullari. O‘simliklar ksilemada bir necha usullar bilan kavitsiya hosil bo‘lishiga qarshilik ko‘rsatadi. Ksilema traxeidlari o‘zaro bog‘lanar ekan, birgina gaz pufakchasi kengayib butun suv uzatilish yo‘lini to‘sib qo‘yishi mumkin. Amalda gaz pufaklari keng tarqalib ketmaydi chunki ular membranalarning mayda teshikchalaridan o‘ta olmaydi. Ksilemadagi kapillyarlar bir biri bilan bog‘langan bo‘lsada, bir gaz pufagi butun o‘tkazish kanalini yopib qo‘ya olmaydi. Bunday holatda suv bekilib qolgan nuqtani boshqa kapillyar yo‘llar orqali aylanib o‘tadi. Shu usulda traxeidlар va ksilema naylari oxirlari suv oqimigi qarshiliqi oshadi va kavitsiya jarayonini susaaytiradi.

Gaz pufakchalari tabiiy usudla ham ksilemada yo‘qolishi mumkin. Tungi paytlarda trpanspiratsiya jarayonining sustlashuvi vaqtida ksilemada ¥r ko‘rsatkichi oshadi va suv bug‘lari qaytadan ksilema eritmasida erib ketishi mumkin. Ko‘rib o‘tganimizdek ba’zi tur o‘simliklar ksilemada ijobiy bosim (ildiz bosimi) hosil qiladi. Bu bosim gaz puqaklarini qisadi va ularni erishga majbur qiladi. Bir necha kuzatishlardan aniqlandiki, kavitsiya yuqori bosim ostida ham hosil bo‘lishi mumkin. Bu jarayon hali to‘liq o‘rganilmagan va tajribalarda o‘rganish ishlari o‘tkazilmoqda. Ba’zi o‘simliklar ikkilamchi o‘sish xususiyatiga ega bo‘lib har yili yangi ksilema qavatini hosil qiladi. Yangi ksilema qavatlari eskilariga nisbatan o‘simliklar tomonidan hosil qilingan gaz pufakchalariga moyil bo‘ladi.

Barglar orqali suvning bug‘latilishi ksilemada salbiy bosim hosil qiladi. Suvning ksilemadagi kuchlanishi evaziga barglarda suvning bug‘lanishi sodir bo‘ladi. O‘simliklarda suv barglargacha ksilemaning naychalar bog‘lamlari orqali yetib boradi. Bu bog‘lamlar barglarning butun yuzasida ham mavjud bo‘lib, juda ingichka va ba’zida murakkab to‘r holatida yuzaga kelgan bo‘ladi. Bu rasmdan ko‘rinib tkribdiki, oddiy barglarda ularning hujayralari 0.5 mm naychalardan oraliqda yotadi. Ksilemadagi suv barglarga hujayra devorlari atrofidan yetib boradi.

Salbiy bosim suvni barg hujayra devorlari yuzasida ksilemada yuqorigi qarab harakatlanishini ta‘minlaydi. Bu jarayon xuddi tuproqdagi kabi amalga oshadi. Hujayra devori xuddi namlangan mayda kapillyar vazifasini o‘taydi. Suv mikrofibril selluloza va devorlarning gidrofil tarkibi tomonidan ushlab turiladi. Barg chetlaridagi Hujayra mezofillari mukammal hujayralararo tizimlarga ega bo‘lganligi bois atmosfera bilan bevosita aloqada bo‘ladi.

Dastlab suv havo bo‘shliqlariga ega eng yupqa qatlamlardan bug‘lanadi. Suv bug‘lanishi bilan hosil bo‘lgan bo‘shliqlarga hujayra devorlari orqali suv yetkaziladi. Suvning yuqori qovushqoqlik yuzasiga egaligi bois, havo-suv ta’sir yuzasi suvning yopishqoqligini va salbiy bosim oshadi, dkvorlardan suv haydaladi, ta’sir yuzasi faolligi kamayadi va suvning bosimi salbiy tarafga o‘zgaradi. Shu yo‘sinda havo ta’sir yuzasiga yetkazish uchun kerakli ksilemadagi harakatlantiruvchi kuch yuzaga keltiriladi.

Suvning barglardan atmosferaga harakati. Suv hujayra yuzasidan hujayralaaro havo bo'shliqlarigi bug'lanar ekan, suvning keyingi harakatlarga diffuziya jarayonlari asasiy ta'sir etuvchi vosita bo'lib hisoblanadi. Bargning kutikula qavati suv harakati yo'lidagi eng samarali to'siq vaziqasini o'taydi. Hisoblanshicha suvning faqatgina 5 % qismi kutikula orqali bug'lanadi. Suvning deyarli qolgan barcha miqdori ustitsa apparatlari orqali hovak teshikchalar yordamida diffuziya yo'li bilan bug'latiladi. Bu jarayonlar ko'proq bargning pastki qismlaridagi yuzalarda amalga oshadi.

Bargdan atmosferagacha bo'lgan suv yo'lida suv ksilemedan suv bo'shliqlariga bug'lanadigan, mezofilning hujayra devoriga qarab tortiladi. Suv bug'i keyingi bosqichda teshikchalar orqali havoga bug'latiladi. Tarkibda saqlanayotgan suv ushbu tizimdan tashqarida diffuziya usulida buhlanadi va bu jarayon suv buhining gradient konsentratsiyasi tomonidan nazorat qilinadi.

Endi transpiratsiya jarayonini harakatlantiruvchi kuchlar, bargdan atmosferagacha bo'lgan yo'lidagi qarshilanishlar va bargning transpiratsiya jarayonini boshqaruvchi anatomik xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

Barglarda suv bug'lanishi ikkita asosiy omilga bog'liq.

1. suv bug'lari konsentratsiyasining atmosfera va barg havo bo'shliqlaridagi tafovuti.
2. Suv yo'lining qarshilik kursatish kuchi.

Dastlab suv bug'lari konsentratsiyasining transpiratsiya jarayoni tezligiga ta'sirini ko'rib chiqamiz.

Suv bug'latilishini hosil qiluvchi kuch suv bug'lari bosimi farqlarihisobigi amalga oshadi. Barg ichki havo bo'shliqlari hajmlari kam bo'lsa suv bug'latiladigan nam yuza shuncha katta bo'ladi. (Xavo bo'shliqlari xvoy o'simligi uchun umumiy barg hajmining 5% ini, makajo xorida 10%, arpada 30%, tamakida 40% ni tashkil qiladi). Havo bo'shliqlari hajmlaridan farqdi ravishda suv bug'latiladigan ichki yuza maydoni 7 dan to 30 martagacha ko'p bo'lishi mumkin. Bu uzaro tafovut barg ichki qismlarida suvning tezda muvozanatga kelishini ta'minlaydi. Shulardan xulosa qilish mumkinki, bargning havo bo'shliqlari suv muvozanati potensialligi suyuq ko'rinishdagi suvning hujayra devorlari yuzalarida bug'latilish potensialligiga teng.

Suv bosimining tafovutlari, tajriba o'tkazilayotgan barglarda suvning sizib chiqishi o'r ganilganda (barglardan 2.0 MPa bosimda suv sizib chiqadi), barglar to'yingan suv bosimi bilan biroz farq qiladi. Bu haroratga bog'liq bo'lib barg bo'y lab suv konsentratsiyasini o'lhash imkoniyatini beradi.

Suv bug'i konsentratsiyasi transpiratsiya yo'lida ir necha marta o'zgaradi. Jadvaldan ko'rinish turibdiki, suvning bu ko'rsatkichi hujayra devorlari bo'y lab bargning havoga bevosita chegara qismlariga tomon kamayib boradi. Suv yo'qotilishining asosiy sababi ham konsentratsiyalar farqi hisoblanadi. Bu barg va uning atrofidagi haroratga ham bevosita bog'liq.

Suv yo'qotilishi karshilik kuchi bilan ham boshqariladi. Suv yo'qotilishining ikkinchi omili transpiratsiya yo'lidagi diffuz qarshiliklar hisoblanadi va u 2 ta har xil tarkibdan iborat

1. Ustitsa teshiklaridagi qarshilik kuchi.
2. Barg yuzasidagi harakatsiz havo qatlaming qarshiligi. Bu qatlam Tashqi havo qatlamiga aralashishga moyil bo'lmaydi.

Ikkinci qarshilik kuchi barg qatlamlari chetlarining qarshiligi deb ham yuritiladi. Biz hozir shu qarshilik kuchi haqida to'xtalib o'tamiz.

Barg chetlari qatlamlari qalinligi shamol tezligi yordamida aniqlanadi. Barg atrofidagi havo qatlaming harakatsizligi natijasida barg yuzasidagi aralashmaydigan havo qatlami qalinlashadi va suv bug'lanishini kamaytiruvchi asasiy kuchlardan biri sifatida xizmat qiladi. Bunday

sharoida Ustitsa teshiklarining kengayishi transpiratsiya amalga oshishi uchun kam ahamiyatli bo‘lib qoladi. (ustitsalarning to‘liq yopilishi ham transpiratsiyani kamaytirsa ham)

Shamol tezligining oshishi bilan chegara qatlamlari o‘lchami kamayadi va bu sharoitda qatlam qarshiligi ham kamayadi va suv yo‘qotilishining nazorati izdan chiqadi transpiratsiya tezlashadi.

Bargning har xil morfologik va anatomik tuzilishi chegara qatlamiga ta’sir qilishi mumkin. Barg yuzasidagi tuklar mikroskopik sinishlarga uchrashi mumkin va bu siniqchalar barg ustitsalarini to‘sib qo‘yadi. Barg o‘lchamlari va shakli ham shamol ta’sirining turlicha bo‘lishiga olib keladi. Bu omillarning barg chegara qatlamlariga soatlab yoki ku davomida ta’sir etsada, ular kam ahamiyatli deb hisoblanadi. Hujayralar tizimi yordamida ustitsa teshikchalarining nazorati barg transpiratsiya jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Barglarda suv bug‘lanishining ustitsalar yordamida nazorati va uning barg fotosintezigi ta’siri. Barg ustki qismlarining kutikulasi suv o‘tkazmaqsada, suv transpirayiyasi barg ustitsalarini orqali amalga oshadi. Mikroskopik ustitsalar epidermis va kutikula orqali gazlar diffuziyasi uchun kam qarshilikka uchrovchi yo‘l hisoblanadi. Ya’ni ustitsa teshikchalarini barglardan suv yo‘qotilishi diffuziyasi uchun qarshilikni kamaytiradi. Bu qarshilikning o‘zgarib turishi barglarda suvning bug‘latilishi va fotosintez jarayonlari uchun zarur bo‘lgan havodagi karbonad angidrid gazi yutilishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Barcha yer usti o‘simliklari suv yo‘qotishni oldini olish bilan birga, havodagi karbonad angidrid gazini o‘zlashtirish uchun raqobatlashadilar. Ularning tashqi qavatini o‘rab turuvchi qatlamlari nafaqat suv yo‘qotilishining oldini oladi, balki ularni tkrli xil tashqi ta’sirlardan himoyalaydi, ularni qurib qolishdan asraydi. O‘simliklar havodan karbonad angidridni yutmasdan suvning tashqi diffuziyasini to‘xtata olmaydilar chunki karbonad angidrid yutilish bosimi gradienti suv yo‘qotilishi gradient bosimiga nisbatan biroz kam bo‘ladi.

Suvning ustitsalar orqali harakati faqatgina kunduzi yuz beradi chunki kechasi ustitsa teshikchalarini yopiladi. Tungi paytda fotosintez jarayoni ham sodir bo‘lmaydi, karbonad angidrid gaziga ehtiyoj yoo‘qoladi va ustitsalar teshikchalarini qisqarishi evaziga ortiqcha suv yo‘qotilishi kamaytiriladi. Erta tongda tuproqda suv harakati boshlanadi va quyosh nurlari ta’sirida fotosintetik faollik oshadi, karbonad angidridiga bo‘lgan ehtiyoj ko‘payadi. Ustitsalar teshikchalarini kengayadi va ustitsalarning karbonad angidrigiga nisbatan turgunligi kamayadi. Bu usuldagagi suvning transpiratsiyasi o‘simliklar o‘sishi va ko‘payishi uchun zarur fotosintez mahsulotlari hosil bo‘lishiga yordam beradi.

Boshqa tomondan, quyoshli kunlarda ham tuproqdagi suv miqdorining kamligi sharoitida ustitsalar teshikchalarini kam ochiladi yoki umuman yopiq holatda bo‘ladi. Bu usul yordamida o‘simliklar suvsizlanib qolishdan himoyalanadilar. Ustitsalar qarshiligi ustitsalar teshikchalarining ochiqligi va yopilishi evaziga ham nazorat qilinishi mumkin. Bu biologik nazorat hujayralarni tutashtiruvchi, ustitsalarni o‘rab turuvchi maxsus epidermal hujayralar tomonidan amalga oshiriladi.

Hujayralarni tutashtiruvchi hujayra devorlari maxsus tuzilishga ega. Tutashtiruvchi hujayralar barcha yashil o‘simliklar qatori kurtaklilar va mozlarda ham uchraydi. Sigler hujayralari sezilarli morfologik tafovutga ega. Ulr ikki asosiy turga ajratiladi: Bir turi o‘simliklar va palma kabi bir urug‘li o‘simliklarga xos, ikkinchi turi esa barcha ikki urug‘li o‘simliklar va mox, paparotnik va ochiqurug‘lilarga ham xos.

O‘simliklarda tutashtiruvchi hujayralar shishsimon oxirgi qismlarda joylashadi va gantelsimon ko‘rnishdagi shaklga ega. Aytib o‘tilayotgan teshikchalar ikkita tutashtiruvchi gantelning “qo‘lchalari”da joylashadi. Bu tutashtiruvchi hujayralar yon tomonlaridan

tutashtiruvchi hujayralarga ustitsa teshikchalarini nazorat qilishga yordam beruvchi ikkita differensiyalangan epidermik hujayralar bilan himoyalanib turadi. Tutashtiruvchi hujayralar, yordamchi hujayralar va teshikchalar birgalikda ustitsa tizimi deb ataladi.

Ikki urug'li o'simliklarda, bir urug'li usimliklarda, kurtaklilarda tutashtiruvchi hujayralar teshikchalardan markazga qarab elliptik konturga ega bo'ladi. Kurtakli o'simliklarda ikki jinsli hujayralar kam uchraydi ba'zida esa umuman uchramaydi. Bu holatda himoyalovchi hujayralar epidermisning odatiy hujayralar bilan o'ralgan bo'ladi.

Tutashtiruvchi hujayralarning asosiy ajralib turuvchi xususiyati ularning devorlarining maxsus tuzilishga ega bulganligi bilan ifodalanadi. Bu devorlarning ayrim qismlari qalinlashgan bo'ladi va oddiy qismlaridan 1-2 mm dan ba'zida 5 mm o'lchamgacha farq qiladi. Kurtakli o'simliklarda tutashtiruvchi hujayralar juda qalik ichki va tashqi devordan, yupqa tayansch devori (epidermis hujayralariga tutashgan holda), va biroz qalinlashgan teshikchalar devorlaridan iborat bo'ladi.

Muhim omil hisoblanuvchi va o'simliklarning barcha hujayralarini devorlarini mustahkamlovchi, hujayra shaklini hosil qiluvchi sellyuloza mikrotolalarining silliqlanishi, ustitsa teshikchalarining ochilishi va yopilishi jarayonida asosiy rol o'ynaydi. Silinda shaklidagi odatiy hujayralarda sellyuloza mikrofibril tolalari hujayraning uzun o'qiga nisbatan ko'ndalang joylashgan bo'ladi. Natijada hujayra o'z o'qi uzunasi yo'naliishiga qarab kengayadi. Chunki sklyuloza tolalari to'g'ri burchak bo'ylab tushadigan ta'sir kuchini kamatstiradi.

Tutashtiruvchi hujayralar mikrofibrillalari tuzilishi bir-biridan farqlanadi. Kurtaksimon tutashtiruvchi hujayralar teshikchalardan radial yo'naliishda mikrofibril tolalarga ega bo'ladi. Shu usulda hujayraning tashqi o'rab turuvchi qavati va ustitsalar ochilgan paytda tutashtiruvchi hujayralar egiluvchi qismlari mustahkamlanadi. O'simliklarda gantelsimon tutashtiruvchi hujayralar shishgan barg qismlari bilan birgalikda tutib turuvchi asoslarni hosil qiladi va nayzasimon katakchalar xajmi oshadi va shishadi. Qopchalar bir-biridan uzoqlashadi va ular orasidagi tirqishlar kengayadi.

Hujayra himoya katakchalari kengayishi va turgor bosimning oshishi natijasida ustitsalar ochiladi.

Tutashtiruvchi hujayralar multisensor gidravlik qopqoqchalar azifasini bajaradi. Atrof-muhit omillari, nur faolligi va sifati, harorat, nisbiy namlik, hujayra ichidagi karbonad angidridining konsentratsiyasi tutashtiruvchi hujayralar tomonidan qabul qilinadi va ustitsalar muayyan javob reaksiyalar bilan muvofiqlashadi. Agar barg qorotuda ushlansa va to'satdan yorug'lik ta'sir ettirilsa, bu ta'sir tutashtiruvchi hujayralar tomonidan ochilish signali kabi qabul qilinadi va ustitsalar ochilishini yuzaga keltiruvchi qator reaksiyalar sodir bo'lishini ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazardan bu jarayonda tutashtiruvchi hujayralarda ionlar yutilishi va metabolik o'zgarishlar yuzaga keladi. Buni 18 bo'limda ko'rib chiqamiz. Bu yerda biz tutashtiruvchi hujayralarda ionlar yutilishi, organik molekulalar biosintezi natijasida suv osmotik potensialining kamayishiga e'tibor qaratamiz. Tutashtiruvchi hujayralardagi suv jarayonlari boshqa hujayralardagi kabi amalga oshadi. Suv potensiali va suv osmotik bosimining kamayishi natijasida suv tutashtiruvchi hujayralar ichiga o'tadi. Buning natijasida hujayra bosimi oshadi va turgor oshadi. Hujayra devorlarining qayishqoq xususiyati tufayli ular turlariga qarab odatiy hajmlaridan 40-100% gacha qadar kengayishi mumkin. Hujayra devorlarining differential kengayishi tufayli, hajning bunday kengaygan vaziyatlarida ham ustitsalarning ochilib-yopilishi to'liq ta'minlanadi.

Suv yo'qotilishi va karbonad angidridi yutilishi o'rtasidagi uzviy aloqa transpiratsiya koeffitsienti bilan o'lchanadi.

Suv yo‘qotilishini kamaytirishda o‘simliklarning samaradorligi fotosintez jarayoni uchun karbonad angidridni yutilish samaradorligini oshiradi va transpiratsiyaga munosabat ko‘rsatkichi yordamida o‘lchanadi. Bu ko‘rsatkich suv ko‘rsatkichlari kabi o‘simliklar tomonidan yutilgan karbonad angidridni fotosintez jarayonlari uchun sarf bo‘lgan qiymatini ko‘rsatadi.

Fotosintezning ilk bosqichida uglerodning ilk hosilasi uch uglerodli birikma hisoblanadi (Bu jarayon kechuvchi o‘simliklar S3 o‘simliklar deb ataladi). Bu jarayonda har bir mrlekula karbonad angidrid uchun 500 molekula suv sarflanadi. Ya’ni transpiratsiya jarayoni 1:500 nisbatda boradi. Ba’zida transpiratsiya teskari jarayonlari suvning samaradorligi deb ataladi. O‘simliklar transpiratsiya jarayonida 500 koeffitsient bilan suv sarflaар ekan, suvning samaradorligi 1:500 ga ya’ni 0.002 ga teng.

Suvning katta miqdorda sarflanishi va karbonad angidridning suvga nisbatan kam o‘zlashtirilishi quyidagi 3 ta omilga bog‘liq:

Harakatlanayotgan suvning gradient konsentratsiyasi yo‘qotilishi karbonad angidrid yutilishi gradient konsentratsiyasidan taxminan 50 marotaba ko‘pdir. Darajalardagi bundayo katta tafovut karbonad angidridning havodagi konsentratsiyasining kamligi (taxminan 0.03%) va barg tarkibidagi suv bug‘lari konsentratsiyasining kattaltgi tufayli yuzaga chiqadi.

2. Karbonad angidrid havodan 1.6 marta tez diffuzlanadi. Suvda esa bu jarayon ancha sust amalga oshadi. (karbond angidrid gazi molekulasi suvniga nisbatan katta va diffuziya koeffitsienti nisbatan kichik bo‘ladi)

3. Karbonad angidrid xloroplastlarda yutilishi uchun u avval hujayra membranasini, sitoplazmani va xloroplast ustki membranasini kesib o‘tishi lozim. Bu membranalar ham karbonad angidrid yutilishi yo‘lida qarshilik kuchini keltirib chiqaradi.

Bir qancha o‘simliklar quruq iqlimlarda o‘sishga moslashgan. Bu o‘simliklar S4 va SAM o‘simliklar deb ataladi va uglekislotalar fiksatsiyasi uchun odatiy fotosintetik variatsiya jarayonidan foydalanadi. S4 o‘simliklar karbonad angidridga nisbatan kam suv bug‘latadi. Ularda o‘zaro nisbiy ko‘rsatkich 250 ga teng. Fotosintezning ilk mahsuloti 4 atomli uglerod organik birikmalarini hosil qiladigan cho‘llarda o‘sishga moslashgan o‘simliklarda (SAM o‘simliklar, krassulatsiya atsid metabolizmi) tungi paytlarda transpiratsiya koeffitsienti yanada kamayadi va bu o‘zaro ko‘rsatkich nisbati taxminan 50 ga tushib qoladi.

Tuproq-hsimlik-havo tizimi. Ko‘rib chiqqanimizdek, suv tuproqdan o‘simlik oroqali havogacha bo‘lgan yo‘lda turli transport mexanizmlar bosqichidan o‘tadi.

1. Tuproqda va ksilemada suv gradient bosimga javob sifatida harakatlanadi
2. Bug‘lanish bosqichida suv diffuziya hisobiga amalga oshadi. Bu jarayon tashqi muhitga suv yetib borishiga qadar davom etadi.

Suv membranalar orqali o‘tkazilganda suvning harakatini ta’minlovchi kuch membranalar o‘rtasidagi suv bosimining farqi bilan amalga oshadi. Bu osmotik oqim ildizlardan hujayralarga suvning harakati va tuproqdan ksilemaga suvning harakatidan kelib chiqadi.

Barcha jarayonlarda suv kam potensialli muhit yoki erkin energiya tomon harakatlanadi.

Suv potensiali tuproqdan bargga qadar kamayib boradi. Suv o‘tkazish yo‘lidagiturli nuqtalarda suv potensiali ko‘rsatkichi turlicha bo‘ladi. Masalan, barg hujayrasi ichida, mezofillalarda suv potensiallari bir xil ularga qo‘shti bo‘lgan ksilemadagi kabi bir xil, ammo G‘p tarkib ko‘rsatkichlari butunlay farq qiladi. Ksilemaning

yuqori ko‘rsatkichdagi ₩m tarkibi salbiy bosimni (₽R) ta’minlab beradi. Bu paytda esa barg ichidagi ₩r bosimi ijobjiy ko‘rsatkichga ega bo‘ladi. Bosimlardagi bunday farqlar barg hujayralari plazmatik membranalari orqali harakatlarni ta’minlaydi. Barg hujayralarida suv potensiali yuqori konsentratsiyada erigan moddalar evaziga kamayadi. Xulosa. Suv hayotning asosiy unsuri

hisoblanadi. yer usti o'simliklari jiddiy xavfli darajadagi suvning atmosferaga yo'qotilishiga duchor bo'ladilar. Bu jarayon barg yuzasining kattaligida yanayam jadal kechadi. Bu jarayonga quyosh nurlarinig faolligi va ularning karbonad angidridga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadidagi ochiq usuldagagi jarayonlar ham ta'sir ko'rsatadi. Shu usulda suv sarflanishi va karbonad angidrid o'zlashtirilishi jarayonlaridagi raqobat paydo bo'ladi.

Ushbu jarayonlarni mukammal darajadagi muvozanatini ushlab turish uchun o'simliklar ajoyib yechim topganlar:

1. Tuproqdan suv o'zlashtirish uchun ildizlarning keng tarkibdagi tuzilishi.
2. Ksilema naylari va traxeidlarda suv harakati uchun kam qarshilikka ega yo'lning yaratilishi.

3. O'simliklar tashqi qavatlarining suv bug'latilishini kamaytirish maqsadida kutikula bilan qoplanganligich. Gaz almashinuvni jarayonlarini amalga oshirish uchun barg yuzasidagi mikroskopik ustitsalarning mavjudligi

5. Ustitsa apparatlari diametrlarini (shuningdek diffuzion qarshiliklarni) nazorat qiluvchi tutashtiruvchi hujayralarning mavjudligi.

Yuqoridagilar ta'siri ostida suvning xarakati fizikaviy kuchlar natijasida yuzaga keladi. O'simliklarda struktura tuzilishini saqlash, suv harakatini ta'minlash uchun bilvosita hyech qanday energiya sarflanmaydi.

Suvning Tuproqdan o'simliklar orqali havoga o'tkazilish yo'li diffuziya, xajmiy oqim va osmos jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bularning barchasi suv xarakatini ta'minlovchi kuchlarga bevosita bog'liqdir.

O'simliklardagi suv ularning ajralmas gidrotizimini hosil qiladi. Bug'lanish jarayonlari esa tutashtiruvchi hujayralar tomonidan nazorat qilinadi. Tutashtiruvchi hujayralar karbonad angidrid gazini yutish va suvni bug'latishni mukammal darajada ushlab turish vazifasini bajaradi. Barglar hujayralari mezofillalarida suuvning bug'latilishi apoplastlardagi suvning katta salbiy bosimni (kuchlanishini) hosil qiladi. Bu salbiy bosim ksilemaga ham uzatiladi va suv o'tkazish yo'llarida suvning harakatini ta'minlab beradi.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. O'simliklarning suv rejimi nima?
2. Tuproqdagi suvni tushuntirib bering
3. Suv transporti jarayonlarini aytib bering
4. Suv tuproqdan o'simliklar orqali havo muhitiga tomon harakatini tushuntirib bering
4. Ksilemada suvning o'tkazilishi qanday amalga oshadi?
5. O'simlik ksilemasi yuzasida suv transportirovkasining fizikaviy xususiyatlari?
6. Konsentratsiyani tushuntirib bering
7. Ksilema nima?
8. Diffuziyalanish nima?
9. Suvning potensiali nima?
10. Ildiz bosimi nima?

### **3-mavzu: O'simliklarni tuproqdan oziqlanishi Reja**

1. O'simliklardagi mineralelementlarning ahamiyati
2. Mineral oziq moddalarning xossalari.

3. Kislороднинг ildiz tizimiga yetkazib berilishini ta'minlash.
  4. O'simliklarni oziq moddalar bilan ta'minlashda oziqqaviy eritmalarining axamiyati.
  5. O'simliklarda mineral elementlarni o'zlashtirilishi.
  6. Mineral oziq moddalar yetishmasligi va buning natijasida o'simliklarda kelib chiqadigan kasalliklar.
- 

Tayanch iboralar: mikoriza, makroelementlar, mikroelementlar, xloroz, fiksatsiya, diffuziya., koenzim , tiamin, pirofosfat, glutution, biotin, adenozin-5-fosfatosulfat ,3 - fosfoadenozin

Mineral oziqlanish o'zida tuproqdan ionlar ko'rinishida o'zlashtirilgan elementlarni mujassamlashtiradi. Mineral oziqlanuvvchi moddalar o'simliklar organizmida doim to'planib tursada, ular biosferaga faqatgina ildizlar orqali o'ta oladilar. Shu bois ba'zi manbaalarda o'simliklar yer qavatining "sanoat ishchilari" deb ham yuritiladi. Ildizlarning katta yutish yuzasiga va tuproq eritmasidagi juda kichik konsentratsiyalarda ham ionlarni o'zlashtira olish qobiliyatigi ega ekanligi o'simliklarda mineral yutilishni yuqori samarali jarayon bo'lishini ta'minlaydi. Mineral elementlar ildizlarda so'rilgandan keyin ular turli biologik jarayonlarda ishtirok etishi uchun o'simliklarning turli qismlariga yetkaziladi. Mikoriz va azotifikator kabi boshqa organizmlar esa ildizlardan oziq moddalarni to'plash xususiyatldarini ham o'zlashtirganlar.

### **1. O'simliklardagi mineral elementlarning ahamiyati**

O'simliklarning yuqori hosildorligi ularning mineral moddalar bilan qanaqa darajada ta'minlanganligi bilan bog'liq Hozirda parvarishlanayotgan o'simliklarning asosiy hosildorlik samaradorligi parallel ravishda ularning o'zlashtirgan mineral moddalar miqdoriga qarab o'sib boradi. Oziq ovqatga nisbatan O'sib borayotgan talab doirasida birlamchi mineral o'gitlar- azot, fosfor, kaliylarga jahon doirasida 112 million tonna ehtiyoj 1980 yilda kuzatilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1980 yillarga kelib 143 million tonnaga yetdi va hozirgacha shu miqdordagi mineral o'g'itlarga talab darajasi ushlanib turibdi.

Hosildor o'simliklar sun'iy mineral o'gitlarning deyarli yarmini o'zlashtiradilar. Qolgan mineral talablar tuproq tarkibida bo'lган yuza mismidan sizib kiruvchi va grunt suvlari tarkibidan o'zlashtiriladi yoki atmosfera ifloslanishi jarayonida uning tarkibiga kirgan mineral moddalar tomonidan qondiriladi. O'g'itlarning haddan ziyod ko'p ishlatalishi oqibatida AQSh ning o'zida suv quduqlarining yarmidan ko'pi yaroqsiz holatga kelib qolgan. Yana shu narsa ahamiyatliki, o'simliklar hayvon chiqindilari va chiqindixonalardagi zaharli moddalarni yo'qotishda ham muhim ahamiyatga ega. O'simliklar mineral oziqlanishida grunt qatlamlar va atmosferaning murakkab bog'liqligi bois mineral oziqlanish jarayonlarini kimyogarlar, gidrologlar, mikrobiologlar, ekologlar, shuningdek o'simliklar fiziologlari ham o'rganadilar.

### **2. Mineral oziq moddalarning xossalari.**

1-guruh Uglerod birikmalari tarkibiga kiruvchi oziq moddalari  
N (azot) asosiy aminokislotalar, amidlar, oqsillar, nuklein kislitalar, nukleotidlar, kofermentlar, geksoaminlar va boshqalar.

8 (oltingugurt) komponent sistein, sistin, metionin i belkov. Sostavlyayushie lipoevoy kislom, koenzim A, tiamin

8 (oltingugurt) sistein tarkibiga kiradi, shuningdek sistin, metionin va oqsillar tarkibida uchraydi. Lipoeva kislotasi, koenzim A, tiamin, pirofosfat, glutution, biotin, adenozin-5-fosfositat va

3 -fosfoadenozin tarkibiga kiradi.

2-guruh Energiya saqlashda va o'simliklar o'sib rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi oziq moddalarini.

R(fosfor) Shakar fosfatlar, nuklein kislotalar, nukleotidalr, kofermentlar, fosfolipidlar, fitin kislotasi tarkibiga kiradi va ATFreaksiyalarida muhim kalit vazifasini o'taydi.

8 (kremniy) hujayra devorlarida amorf kremnezemlar ko'rinishida saqlanadi va hujayra devorlarining mexanik xususiyatlari (shuningdek qattiqlik va elastiklik xossalari shakllanishida ham)ni shakllanida ishtirok etadi. Mannit kompleksi bilan, mannan, polimannuron kislotasi va boshqa hujayra devorlari tarkibi komponentlarida uchraydi. Hujayrada esa, nuklein kislotalar uzayishi va metabolizmida ishtirok etadi

3-guruh Ion ko'rinishida saqlanuvchi oziq moddalarini

K (kaliy) 40 dan oshiq fermentlar sintezi uchun kofaktor sifatida ishtirok etadi. Hujayralar elektrobarqarorligini ta'minlashda bosh kation hisoblanadi.

Sa(kalsiy) hujayra devorlarining asosiy oraliq komponentlari tarkibigi kiradi. ATF va fosfolipidlar gidrolizida qatnashuvchi bir qancha fermentlarning kofaktori sifatida ishtirok etadi. Metabolizm boshqaruvida ikkinchi asosiy elnment hisolanadi.

Md (magniy) Fosfat o'tkazilishida ishtirok etuvchi fermentlar tarkibiga kiradi. Xlorofill molekulalari tarkibiga kiradi.

S1 (xlor) kislorod o'zlashtirilishidagi fotosintetik reaksiyalar uchun zarur.

Mp (manganets) bir qancha degidrogenaza, dekarboksilaza, kinaza, oksidaza va peroksidaza jarayonlari uchun talab qilinadi. Boshqa kation faol fermentlar tarkibiga kiradi va kislorodli fotosintetik reaksiyalar jarayonida tatal qilinadi.

N<sub>2</sub> (natriy) S4 va SAM o'simliklarda fosfoenolpiruvat regeneratsiyasi bilan bog'liq Ba'zi holatlarda kaliyning o'rnnini bosuvchi element hisoblanadi.

Gruppa 4 Pitatenme veestva, kotorme uchastvuyut v okislitelno-vosstanovitelmx reaksiyax

4-guruh Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida ishtirok etuvchi oziq moddalar

G'ye (temir) Fotosintez jarayonida, azot fiksatsiyasi va nafas olish jarayonlarida ishtirok etuvchi sitoxromlar va gem bo'limgan oqsillar tarkibini tashkil qiluvchi element.

1p (rux) asosiy alkogoldehidrogenaza, glutamin degidrogenaza, karboangidraza va boshqa jarayonlarda ishtirok etadi.

Si (mis) askorbin kislotasi oksidazasi tarkibigi kiradi. Shuningdek tirozinaza, monoaminoksidaza, urikaza, sitoxromoksidaza, fenolazalar tarkibiga kiradi.

N (nikel) Ureazaning asosiy elementi. Gidrogenaza tarkibli bakteriyalarning Azot fiksatsiya reaksiyalarida ishtirok etadi.

Mo (molibden) nitrogenaza, nitratreduktaza, ksantidegidro- genazalar tarkibiga kiradi.

Kobalt elementi esa azot to'plovchi mikroorganizmlar fermentlari tarkibiga kiruvchi kobalamin (vitamin V va uning hosilalari) lar tarkibiga kiradi. Bu o'rinda aytib o'tish kerakki, azot to'plamaydigan o'simliklar va azotni ammoniyalar va nitratlar ko'rinishida o'zlashtiruvchi o'simliklar kobalt talab qilmaydilar. Madaniy o'simliklar esa faqatgina nisbatan juda kam miqdorda yuqorida ko'rsatilmagan elementlarni to'plashi mumkin.

Nazorat ostida o'rganilayotgan atayin biror bir element yetishmasligi keltirib chiqariladigan eksperimental sharoitda elementlarning muhim ahamiyatiga ega ekanligini namoyish qilish uchun Tajribalarda oziqlanish jarayonlarini o'rganish uchun maxsus jihozlar ishlataladi. Oddiy

tuproq muhitida yoki murakkab ozuqa muhitida bunday eksperimental sharoitlarni yaratish ancha murakkab. 19 asrda bir qancha olimlar jumladan, Nikolya de Teodor, Yulius fon Saks, Jan Batist, Jozef Dedonne Bussengo va Vilgelm Kpon bu murosali masalani yengillatish uchun, o'rganilayotgan o'simliklarni ildizlarini maxsus eritmaga solib o'stirishni tavsiya etganlar. Maxsus eritmalar faqat noorganik tuzlardan tayyorlangan. Bu sharoitda o'stirilgan o'simliklar hayot faolyatiga qarab shuni hulosa qilish mumkinki, o'simliklar tuproq va murakkab ozuqa muhiti sharoitidan tashqarida faqat noorganik tuzlar va quyosh nurlari ishtirokida o'sib rivojlanishi mumkin.

O'simliklar ildizini maxsus eritmaga botirib tuproq muhitidan tashqarida ularni yetishtirish ekin eritmalar yoki gidropnika deb ataladi. Gidroponikaning yuqori hosildorligi ekin eritmalarining katta hajmda bo'lishini yoki oziq moddalarni to'g'ri tanlash lozim. Chunki ildizlar eritmalaridagi rN sharoitini o'zgarishi bois radikal o'zgarish hosilalarini yutishi mumkin.

### **3. Kislorodning ildiz tizimiga yetkazib berilishini ta'minlash.**

Gidropnika usulidan ishlab chiqarish miqyosida issiqxonada o'simliklar o'stirishda foydalaniladi. Tijorat gidropnika ekinlari usullari o'simliklar tayanch manbalarda Ya'ni tuproq, graviy, vermiculit, keramzit kabilarda o'stiriladi. Oziq moddalari tarkibli eritmalar havo orqali yuqoridagi muhitlarga kiritiladi va eski eritmalar ishqorlash usuli yordamida tarkibdan yo'qotiladi. Gidropnika usulining boshqa shaklida o'simliklar ildizdhlar tarnovchalar yuza qismlariga joylashtiriladi, oziq moddalari esa yupqa qavat oqimi ko'rinishida ildiz ustki qismlariga tomchilatib yetkazib turiladi. Bu oziq moddalarni yuqoridagi usullarda yetkazib berilishi natijasida ildiz yetarli miqdorda kislorod zahirasiga ega bo'lishini ta'minlaydi.

Oziqlantirishning yana boshqa o'rnini bosuvchi usullaridan biri aeroponica usuli deb ataladi va bu usul kelajak muhiti deb ham qaralmoqda. Bu usulda o'simliklar ildizlari havoda hosilib turadi va ildiz sirtlariga ozuqaviy moddalalar eritmalar purkab tuliladi. Bu usulda ildiz atrofidaga gaz muhitini ta'minlash oson kechsada, gidropnika usullariga nisbatan yuqori konsentratsiyadagi oziq moddalari muhiti talab qilinadi. Shu sabablarga ko'ra va boshqa texnologik qiyinchiliklari bois aeroponica usuli keng tarqalmagan.

### **4. O'simliklarni oziq moddalari bilan ta'minlashda oziqaviy eritmalarining axamiyati.**

Oziq moddalari bilan ta'minlanishi o'simliklarning tez o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.  $\text{KN}_2\text{R}_04$  Ko'p yillar davomida ozuqaviy eritmalar sifatida ko'pgina preparatlar ishlatib kelingan. Ilk bora Germaniyada Knop tomonidan yaratilgan eritma  $\text{K}_0_3$ ,  $\text{Sa}(\text{M}_0_3)_2$ ,  $\text{KN}_2\text{R}_04$ ,  $\text{Md}_8\text{O}_4$ , tuz va temirdan iborat bo'lgan. O'sha paytda bu ozuqa eritmasi o'simliklar uchun kerakli barcha minerallar moddalarni saqlaydi deb hisoblangan. Lekin tajribalardan yana shu narsa ma'lum bo'ldiki, yuqoridagi kimyoviy moddalarning boshqa elementlar bilan ifloslangan hollarida ham o'simliklar boshqa elementlarni ma'lum miqdorda tshplaydilar (masalan, bor va molibden.). 3-jadvalda yanada zamonaviy bo'lgan ozuqa eritmalar uchun kerakli preparatlar keltirilgan. Bu tayyorlangan eritma Xogland modiqikatsiyalangan eritmasi deb ataladi. U AQSh da mineral oziqlanishni o'rganishda kuzatishlarining zamonaviy rivojlanishiga katta hissa qo'shgan olim hisoblanadi.

Modifikatsiyalangan Xogland eritmasi o'simliklar tez o'sib rivojlanishi uchun kerak bo'ladigan barcha zaruriy elementlardan tashkil topgan. Bu elementlarning konsentratsiyasi imkon boricha yuqori bo'lgan va o'simlikka zaxarli ta'sir ko'rsatmaydigan va tuzlilik darajasi yuqori bo'lib ketmaydigin mo'tadil darajada qilib belgilanadi. Shu usulda o'simlik ildizlari atrofida ozuqa moddalari tuproqqa nisbatan bir necha barobar yuqori bo'lgan ozuqa muhiti

ta'minlanadi. Masalan, tuproqdagi eritmada fosforning konsentratsiyasi odatda millionga 0.06 miqdorda bqlsa, bu eritmada millionga 62 qism konsentratsiyada taklif etiladi. Bunday yuqori miqdordagi darajalar o'simliklarni uzoq muddat davomida qo'shimcha oziq moddalari bilan ta'minlash zaruriyatiga ehtiyoj sezilishininig oldini oladi va ular uzoq muddat yetarli oziq muhitida ushlanadi. Bir qancha olimlar o'z eritmalarini bir necha marta suyultrish va elementlar bilan tez-tez to'yintirish orqali oziq moddalari va o'simliklar to'qimalaridagi konsentratsion tebranishlarini minimal darajada ushlab turishga muvaffaq bo'lganlar.

Xogland modifikatsiyalangan eritmasiningyana bir mim xususiyatlaridan biri, unda azot ( $\text{NN}^+$ ) va  $\text{NO}_3^-$  ko'rinishida uzatiladi. Azotning kationlar va anionlarning balansirlangan aralashmasida azotning nitrat anioni ko'rinishida uzatilganda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan rN muhitining tez ko'tarilib ketishiga to'sqinlik qiladi.(Asirova va Edvars, 1983). Hattoki rN muhit neytral vaziyatda ushlab turilganda ham ko'pchilik o'simliklar azotni ( $\text{N}0^-$  va  $(\text{MN}_4^+)$  holatida uzatilish sharoitlarida yaxshi rivojlanadi. Chunki azotning ikki xil ko'rinishda yutilishi va o'zlashtirilishi hsimliklarda kation balansini mustahkam ta'minlab turadi.

Ozuqa moddalari eritmalariga elementlarni kiritish jarayonida temir elementini eritma holatida ushlab turish biroz qiyinchiliklar tug'diradi. Temir anorganik tuzlar  $\text{G}'ye804$  yoki  $\text{G}'ye (\text{M}0_3)_2$  ko'rinishida kiritilganda, temir eritmadan temir gidroksidlari ko'rinishida cho'kib qolishi mumkin. Agar fosfat tuzlar mavjud bo'lsa, eritmada umumua erimaydigan fosfat tuzlari cho'kmaga tushadi. Temir tuzlarining cho'kmaga tushishi temirni o'simliklar fiziologik jihatdan o'zlashtira olmaydigan holatga keltiradi. Bu muammolarning yechimi sifatida temir ozuqa eritmalariga limon kislotasi va vino kislotasi bilan birgalikda kiritiladi.

Bunday birikmalar enterosorbentlar deb ataladi va ular ma'lum bir kimyoviy moddalar, jumladan etilendiamintetraatsid kislota (EDTA) yoki dietilenaminopentaatsid kislota (DTPA) va xolat kationlar bilan birgalikda kationlar bilan suvda eriydigan kompleks birikmalar hosil qiladi. Xelat komplekslarining ildiz hujayralari

tomonidan qay tarzda so'riliq mexanizmlari hali to'la o'rganilmagan. Ehtimol temir xelat kompleksdan ildiz yuzasida  $\text{G}'ye^{+3}$  holatdan  $\text{G}'ye^{+2}$  holatiga o'tib ajraladi. Bo'shagan xelat qoldigi esa qaytadan eritmaga so'riliadi va eritmadiagi boshqa  $\text{G}'ye^{+3}$  ionlari va boshqa metall ionlari bilan birikadi va ularni transportirovka qilish jarayoni davomiyligini ta'minlab beradi. So'riliq farayonidan keyin o'simliklar hujayrasida mavjud bo'lgan xelyatatsiya jarayonida organik birikmalar hosil qilgan komplekslar yordamida tashiladi. Limon kislotasi ham temirning xelat birikmalar hosil kilinishina va uning ksilemadagi keyinchalik harakatini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mineral moddalarning yetishmasligi o'simliklar metabolizmi va xususiyatlarini buzilishiga olib keladi.

Ma'lum bir muhim ahamiyatga ega bo'lgan elementlar bilan yetarli darajada ta'minlanmaslik o'ziga xos xususiyatlari ma'lum belgilar yuzaga chiqishi bilan kuzatiladi. Gidropnika usulida o'stirilgan ekinlarda biror bir elementning yetishmasligini o'simliklarda yuzaga chiqayotgan belgilarga qarab maxsus yo'riqnomaga qarab aniqlash mumkin. Tuproqda o'stirilayotgan ekinlarda esa bu belgilarga qarab aynan qaysi element yetishmayotganligini aniqlash birmuncha murakkab. Ikkala muntazam va o'tkir elementlar yetishmovchiligi bir paytning o'zida sodir bo'lishi mumkin.

Biror elementning yetishmasligi yoki haddan ziyod ko'payib ketishi boshqa bir elementning yetishmasligi yoki ularning ham haddan ziyod oshiqcha to'plpnishigi sabab bo'lishi mumkin.

Ba'zi bir o'simliklarning virusli kasalliklarida ham aynan biror element yetishmasligidagi kabi bir xil belgilar berishi mumkin.

O'simliklarda ozuqaviy ta'minotning yetishmasligi biroi bir element ozuqaviyligi yetishmasligi natijasida o'simliklar organizmida moddalar almashinuvি jarayonlarining izdan chiqishi bilan namoyon bo'ladi. Ushbu buzilishlar o'simliklarning me'yoriy metabolizm jarayonlari sodir bo'lishida va ularning xususiyatlarini saqlab turishdagi vazifalarining izdan chiqishi bilan bog'liq.

Hattoki agar ma'lum bir element ko'pgina metabolik jarayonlarda ishtirok etsada, o'simliklar metabolizmi umumiyo xususiyat kasb etadi. Umuman asosiy elementlar o'simliklar strukturasini, metabolik xususiyatlarni va o'simliklar hujayralarida osmoregulyasiyani shakllantiradi. Asosiy elementlarning aniqroq ahamiyati ikki valentli kationlarning, jumladan kalsiy, magniykabi, o'simlilar men o'tkazuvchanligini ta'minlashda namoyon bo'ladi. Bundan tashqari, bu asosiy elementlarning o'simliklar hayotidagi ahamiyati hanuzgacha o'rganilmroqda. Masalan kalsiy sitolozedagi fermentlar uchun kalit signali rolini o'ynaydi. Shu yo'sinda mavjud elementlar o'simliklar metabolizmida bir qancha muhim ahamiyatlari jaryonlarda ishtirok etadi.

Biror element yetishmasligi sababli yuzaga chiqadigan ogir belgilari, eski o'simliklardagi elementlarning biroz yosh bo'lgan barshlarda qayta ishlanishi darajalarini belgilashda kalit vazifasini o'taydi. azot, fosfor va kaliy kabiBa'zi bir elementlar bargdan bargga yengil o'tib ketishi mumkin. Bor, temir va kalsiy kabi elementlar esa ko'pgina o'simliklar organizmida kam harakatli elementlar hisoblanadi. Agar biror element yetishmasligi xaraktchan elementlardan biri bo'lsa, uning yetishmasligi belgilari avvalo qari barglarda namoyon bo'ladi. Kam harakatli elementlar yetishmasligi belgilari esa nisbatan yosh barglarda yuzaga keladi. Ozuqa moddalarining yetkazilishi mexanizmlari hali to'liqo'rganilmagan.

Mineral elementlar ularning tashilishi va sitokinin kabi o'simlik garmonlari yetishmasligi vaqtida qayta tashilish xolatiga qarab klassifikatsiya qilinadi.

1 Guruh: Uglerod birikmalari tarkibigi kiruvchi mineral oziq moddalarining kamchiliklari. Bu birinchi guruh azot va oltinguguridan tashkil topadi. Tuproq hosildorligida azotning bo'lishi tabiiy va qishloq xo'jalik ekologik tizimlarida o'simliklar olami uchun zaruriy holat hisoblanadi. Shu bilan birga tuproqlar ortiqcha holda oltingugurt ham saqlaydi. Tuproqdagagi azot va oltingugurning birgalikda bo'lishi ularning oksidlanish-qaytarilish xossalaring keng chegaralarda o'zgarib turishi bilan bog'liq. Yuqori oksidlanishgacha davom etuvchi bir qancha enegiyani ko'p o'zlashtiruvchi reaksiyalar uchun noorganik moddalar tuproqdan aminokislotalar kabi organik moddalar tarkibidan kuchli qaytarilgan holda o'zlashtirib olinadi.

##### **5. O'simliklarda mineral elementlarni o'zlashtirilishi.**

Azot o'simliklar eng ko'p talab qiladigan elementlar qatoriga kiradi. U o'simliklar hujayralarining juda ko'p tarkiblariga kirishi bilan birga aminokislotalar va nuklein kislotalar tarkibida ham asosiy element xisoblanadi.. Shu bois azotning yetishmasligi o'simliklar rivojlanishini juda tez susaytirib qo'yadi. Azotning yetishmasligi uzoq vaqt saqlanganida ko'pchilik tur o'simliklarda o'simlik asaslariga yaqin joylashgan qari barglarda xloroz kuzatiladi (barglarning sargayishi).

Azotning og'ir yetishmovchiligidagi bu barglar butunlay sargayib ketadi (yoki oftobda qoryib ketadi) va to'kiladi. Yosh barglarda azotning yetishmasligi darhol namoyon bo'lmaydi chunki qari barglardi azot yosh barglarga tashib berilishi mumkin. Shu yo'sinda o'simliklarda azot yetishmasligi yuqori qismlardagi yosh barglarning yorqin yashil rangdaligi va sariq yoki jigarrang tusdagagi pastki qari baglarning paydo bo'lishi bilan izohlanadi.

Azot yetishmasligi vaqtida o'simliklar sekin rivojlanadi. Barglar esa sezilarli darajada yupqa bo'lib, yogochlangan poyalar paydo bo'ladi. Yogochlanish jarayoni ainokislotalar va boshqa azot saqlovchi birikmalar sintezlanishi uchun kerakli uglevodlarning o'simliklarda to'planib

qolishi bilan izohlanadi. Azot metabolizmida ishtirok etmagan va o'simliklarda to'planib qolgan uglevodlar antotsianlar sintezlanishiga va bu pigmentning to'plpnishiga olib keladi. Bu jarayon natijasida pomidor va makkajo xorining bir necha turlarida, azot yetishmasliga sababli, barglar bandlari va poyalar to'q qizil rangga kiradi.

Oltingugurt. Oltingugurt ikkita aminokislota tarkibiga, moddalar almashinuvি jarayonlarida faol ishtirok etuvchi bir necha kofermentlar va vitaminlar tarkiblariga kiradi. Oltingugurt yetishmasligining ko'pgina belgilari azot yetishmasligi jumladan xlorozning yuzaga kelishi, rivojlanishning ortda qolishi va antotsianlar to'planishi kabi bir xil bo'ladi. Buning sababi azot va oltingugurtning oqsillar tarkibiga kirishi bilan izohlanadi. Oltingugurt yetishmasligi natijasida kelib chiqadigan xlorozning ilk belgilari azto yetishmaslidagi kabi qari barglarda emas, balki nisbatan yosh barglarda yuzaga keladi. Chunki ko'pchilik tur o'simliklarda oltingugurtning qari barglardan yosh barglarga tashilishi unchalik oson jarayon hisoblanmaydi. Shu bois oltingugurt yetishmasligi qari barglar bilan bir paytda yosh barglarda ham xlorozning ilk belgilari yuzaga kelishi bilan amalga oshadi.

2 Guruh: Struktkra butunligini va energiya saqlanishini saqlashda muhimi ahamiyatga ega bo'lган mineral oziq moddalaridagi kamchiliklar. Bu guruh fosfor, kremniy va bordan iborat. Fosfor va kremniy o'simliklar to'qimalari atrofidagi konsentratsion muhitlarda aniqlangan. Bu muhitlarda yuqoridagi elementlar zaruri makroelementlar bo'lib hisoblanadi. Bor elementi esa nisbatan kam konsentratsiyada bo'lganligi uchun mikroelement hisoblanadi. Bu elementlar o'simliklar tarkibida uglerod molekulasi bilan efir bog'lari ko'rinishida ushlab turiladi.

Fosfor. Fosfor (fosfat holatida ( $R_04^-$ ) shakarfosfat ko'rinishida nafas olish jarayonlarida oraliq moddalar va fotosintezda, shuningdek o'simliklar membranasidagi fosfolipidlar tarkibida uchraydi va o'simliklar hujayralaridagi bog'larning ajralmas qismi hisoblanadi. Fosfor shuningdek o'simliklar energetik metabolizmida (ATF jarayonlarida) foydalilanidigan va DNK va RNK nukleotidlар komponentlari tarkibiga kiradi. O'simliklarga fosfor yetishmasligining o'ziga xos belgilari ularning o'sishdan orqada qolishi va nisbatan yosh barglarning to'q yashil tusga kirishi, barg tabiiy shakllarining o'zgarishi va nekrotik to'qimalar deb ataluvchi kichik- kichik nobud bo'lgan to'qimalardan hosil bo'luvchi doglarning paydo bo'lishi bilan ifodalanadi.

Azot yetishmaslidagi kabi elementlar yetishmasligining boshqa holatlarida ham barglarga yengil sariq tus beruvchi antotsianlarning to'planishiga olib keladi. Azot yetishmaslidagi jarayonlardan farqli ravishda fosfor yetishmasligi paytida rangning o'zgarishi xloroz hhodisisi bilan bog'liq emas. Ba'zida barg jigarrang-yashil-binafsha tusga ham kiradi. Fosfor yetishmasligining qushimcha belgilari yupqa yogochlanmagan poyalarning hosil bo'lishi va qari barglarning yo'qotilishi bilan ham namoyon bo'ladi. Shuningdek o'simlikning rivojlanishdan orqada qolishi ham kuzatiladi.

Kremniy. O'simliklarga kremniy yetishmasligi oqibatida ular o'ta egiluvchan va zamburuglarga juda ta'sirchan bo'lib qoladi. Kremniy asosan endoplazmatik to'rda sakdanadi va hujayra devorlari va hujayralararo bo'shlikdarda gidratirlovchi (suv bilan ko'shilib biror- bir narsa hosil qiluvchi) amorf kremnezem modda hisoblanadi. Kremniy shuningdek polipeppolar bilan kompleks birikmalar hosil qiladi va shu yo'sinda hujayra devorlarini mustahkamligini oshirish uchun xizmat qiladigan lignin moddasining alternativi (o'rnini bosuvchi) bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari kremniy o'simliklarning ogir metallar bilan zaharlanishi oqibatlarini yengillashtiradi.

Bor. O'simliklar metabolizmida borning aniq qanday xususiyatga ega ekanligi to'liq o'r ganilgan bo'lmaqsada, kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, bor hujayraning o'sishi, nuklein kislotalarning, garmonlarning sintezlanishida, membrana xususiyatlari saqlanishida va hujayralarda kimyoviy reaksiyalar ketishida faol ishtirok etadi. O'simliklarda borning yetishmasligi o'simliklarning turi va yoshiga qarab keng spektrlarda namoyon bo'ladi. Bor yetishmasligining o'ziga xos belgilari yosh barglarning va yangi kurtaklarning qorayib nekrozga (chirishga) uchrashidir. Yosh barglarda nekroz barg plastinkasining asos qismida yuzaga keladi. Poyalar esa noodatiy mo'rt va qattiq bo'lib qoladi. O'simlik ustki qismlarida o'suvchi kurtaklar to'kila boshlaydi va mayda sershox bo'lib qoladi. Shu bilan birga o'suvchi kurtaklar hujayra bosimining ingibirlanishi bois nekrozga uchray boshlaydi. Mevalar, rezavor mevalar, ildizmevalarda nekrozga uchrash jqrqyonlari yaqqol namoyon bo'ladi.

3 GURUH: Ion ko'rinishida saqlanuvchi mineral oziq moddalar kamchiliklari.. Bu guruh quyidagi ma'lum elementlarni o'z ichiga oladib: makroelementlardan kaliy, kalsiy va magniy, mikroelementlardan xlor, marganets va natriylar. Bu elementlar sitoloza yoki vakuola eritmalarida, shu bilan birga ular yirik uglerod saqllovchi birikmalar bilan ligandlar sifatida va elektrosatik muvozanatni saqlab turishda muhim ahamiyatga ega.

KALIY. Kaliy o'simliklar organizmida K<sup>+</sup> kationi ko'rinishida saqlanadi. U ujayraning osmotik potensialini boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Kaliy shuningdek nafas olish va fotosintez jarayonlarida ishtirok etuvchi fermentlar faolligini oshiradi. Kaliy yetishmasligining birinchi belgilari rang barang va xoshiyasimon xloroz boshlanishidir. Undan keyin barg oxirlarida, chetlari va tomirchalari orasida nekroz boshlanadi. Ko'pgina bir pallali o'simliklarda bu nekrotik jarohatlanishlar barg oxirlarida va tanalarida, undan keyin barg asoslariga qarab yoyiladi.

Kaliy ionlarining yosh barglarga tashilishi osonligi uchun bu belgilar birinchi navbatda o'simlik asoslariga yaqin joylashgan yetilgan barglarda kuzatiladi. Kaliy yetishmasligida O'simliklar poyalari yupqa va kuchsiz bo'lib qoladi. Ularning qismlari orasi noodatiy qisqa bo'ladi. Makajo xorida kaliy yetishmasligi uning ildiz tizimining tuproqdagi zamburug'lar qo'zgatadigan zamburug'li kasalliklarga moyilligini oshiradi. Zamburuglar poya orqali uning yuqori qismlariga tarqaladi va kasallikka beriluvchanligi bois o'simlikning egiluvchanligini oshiradi va makkajo xorii poyasining yerga yotib qolishiga olib keladi.

KALSIY. Kalsiy ionlari (Sa<sup>2+</sup>) yangi hujayra devorlari yaratilishida ko'pincha o'rta qismlarda hujayra bo'linishida faol ishtirok etadi. Shuningdek kalsiy hujayralar bo'linish jarayonida mitotik bo'linish urchug'i hosil bo'lishida ishtirok etadi. Kalsiy hujayra membranalar shakllanishida zaruriy element bo'lib, ekologik va garmonal reaksiyalarda ham ikkilamchi messendjer sifatida ishtirok etadi.(Sanders va boshqalar, 1999). Ikkilamchi xususiyatli messendjerlik xossasi bois kalsiy o'simliklar hujayralari sitoplazmasida topilgan kalmodulin oqsili bilan bog'lanishi mumkin. Kalmodulin-kalsiy birikmasi moddalar almashinuvining ko'pgina jarayonlarini boshqarishda ishtirok etadi.

Kalsiy yetishmasligining o'ziga xos belgilari o'simlik qismlarining yosh meristeilarining nekrozga uchrashi, ildiz oxirlari yoki yosh barglarda hujayraning bo'linishi va hujayra devorlarining shakllanishi tezlanishi bilan ifodalanadi. Nekroz sekin o'suvchi o'simliklarda umumiyl xloroz ko'rinishida va yosh barglarning rivojlaniy qolishiga olib keladi. Shuningdek yosh barglarning tabiiy shakllari ham o'zgarib ketadi. O'simlik Ildiz tizimi kalsiy yetishmasligida jigarrang tusga kiradi va kalta, sertarmoq bo'lib qoladi. Kalsiyning kuchli yetishmovchiligidagi o'simliklarning meristema qismlari muddatidan oldin nobud bo'lib ketishi mumkin.

**MAGNIY.** Magniy o'simliklar hujayralarida magniy ioni ( $Md^-$ ) holatida bo'ladi. Magniy ioni DNK va RNK sintezida, fotosintezda va nafas olish jarayonlarida ishtirok etuvchi fermentlarni faollahuvidv ishtirok etadi. Magniy shuningdek xlorofillning halqali strukturasi tarkibiga kiradi. Magniy yetishmasligining o'ziga xos belgilari bu elementning yengil tashilishi bois qari barglardagi barg tomirlarining orasida xloroz boshlanishi bilan ifodalanadi. Xlorozning bunday belgilari tomir to'plamlari orasidagi hujayralarga nisbatan tomir to'plamlarida uzoq vaqt saqlanib turishi bois yuzaga keladi. Kalsiy yetishmasligi keng tus olsa barglar sariq yoki oq tusga kiradi. Kalsiy yetishmasligining qo'shimcha belgilaridan yana biri o'simlik barglarining eota to'kilib ketishidir.

**XLOR.** Xlor elementi o'simliklarda xlor ioni ( $Cl^-$ ) holatida bo'ladi. Xlor ioni fotosintez jarayonida kislorod bilan ta'minlanish uchun suvni parchalash reaksiyalari uchun zarur. Bundan tashqari xlor barglar va ildizlarda hujayralarning bo'linishida ham ishtirok etadi. O'simliklarda xlor yetishmasligi natijasida barg oxirlarida barglarning umumiy xlorozi va nekroz yuzaga keladi. Shu bilan birga barglar so'liy boshlaydi. Barglar o'sishi ortda qoladi. Barg oxirlarida ronza rangli qismlar paydo bo'ladi. Ildiz tizimida esa xlor yetishmasligi bois oxirlarida so'ligan va qalinlashgan qismlar hosil bo'ladi

Xlor ioni tuproqda tez eruvchan va so'riliishi juda oson hisoblanadi. Xlor tuproqqa yomgir suvlvri orqali kirib boradi. Mahalliy v aqishloq xo'jalik ekinlarida xlor yetishmasligi haligacha to'liq o'rganilmagan. Ko'pgina o'simliklar xlor elementini o'ziga kerakli bo'lган miqdordan anchagini ko'p miqdorda to'playdilar.

**MARGANE TS,** marganets ioni o'simliklar hujayralaridagi bir necha fermentlarning faollahuvida ishtirok etadi. Marganets ioni Ko'pincha trikarbon kislotalar hosil bulish reaksiyalari (Krebs sikli)da dekarboksillanish va degidrogenlanish jarayonlari borishi uchun qatnashadigan fermentlar faolligini oshirishda qatnashadi. Shuningdek marganets suv parchalanishi bilan kislorod ajratilishi jarayonlarida ham faol ishtirok etadi. Marganets yetishmasligining asosiy belgilaridan biri xlorozning paydo bo'lishi bilan barglarda mayda nekrotik doglar paydo bo'lishi bilan ifodalanadi. Bu xloroz jarayoni o'simliklar o'sish tezligi va ularning turiga qarab qari barglar bilan bir qatorda yosh barglarda ham yuzaga keladi.

**NATRIY.** Uglerod fiksatsiyasining S4 va SAM yo'llaridan foydalanuvchi o'simliklarning ko'pgina turlari natriy ionlarini talab qiladi. Bu o'simliklarda fosfoenolpiruvat regeneratsiyasi uchun, S4 va SAM usulida birlamchi karboksillanish uchun substrat hosil bo'lishi uchun ham natriy ionlari talab qilinadi. Natriy yeiishmasligi paytida o'simliklarda xloroz va nekroz boshlanadi, ba'zida esa barg shakllanish jarayonlari umuman amalga oshmaydi. S3 o'simliklarining ham ko'p turlari natriy ionlariga ehtiyoj sezadi. Natriy xujayora devorlarini kengayishida ishtirok etadi va ba'eida bu element osmotik faol element sifatida kaliy tonlari bilan almashinishi mumkin.

**4 GURUH.** Oksidlanish- qaytarilish reaksiyalarida ishtirok etuvchi mineral oziq moddalarning kamchiliklari. Bu guruh 5 ta ozuqaviy elementlarni o'z ichiga oladi. Bular temir, rux, mis, molibden va nikeldir. Bu elementlarning barchasi qayta oksidlanish va qaytarilish xossasiga ega. (Masalan  $G^{+2}$  + dan  $G^{+3}$  + gacha). Bu elementlar energiya hosil bo'lishida va elektronlar uzatilishida muhim ahamiyatga ega. Ular boshqa yirikroq molekulalar, sitoxrom, oqsil, xlorofill (odatda fermentlar bilan birga) bilan birgalikda o'simliklar tarkibida ushlab turiladi.

**TeMIR.** Temir elektronlar uzatilishida faol ishtirok etuvchi fermentlar tarkibiy qismi sifatida (oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida) muhim ahamiyatga ega. Xuddi magniy yetishmasligidagi kabi temirning yetishmasligining ham o'ziga xos belgilaridan biri barglardagi barg tomirlari

orasida xlorozning boshlanishidir. Magniydan farqli ravishda bu jarayonlar yosh barglarda yuzaga keladi. chunki temir qari barglardan yosh barglarga yengil tashiluvchan element hisoblanmaydi. Temirning uzoq vaqt yoki kuchli yetishmovchiligidagi barg tomirlari xlorotik ko‘rinishga o‘tadi va natijada butun barg oq tusga kiradi.

Barglarning xlorotik ko‘rinishga o‘tishi temirning xloroplastlardagi bir qancha xlorofill-oqsil birikmasi sintezlanishida ishtirok etishi bilan bog‘liq. Temirning kam harakatliligi sababli qari barglarda temirning to‘planib qolishi bois, barglarda erimaydigan oksidlar yoki fosfatlar, shu bilan birga o‘simpliklar va ularning barglarida uchraydigan temir bog‘lovchi oqsil bilan birga fitoferritin birikmasi hosil bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Temirning to‘plphanib qolishi bois bu metallning floema orqali uzoq masofalariga translokatsiya (tashilishiga) qilinish jarayonlarini izdan chiqaradi.

RUX. Ko‘pgina fermentlarning jarayonlarda qatnashishi va bir qancha o‘simpliklarda xlorofill biosintezi uchun rux ionlarini talab qiladi. Ruxning yetishmasligi bo‘g‘imlararo o‘sishniq orqada qolishi va natijada barglarda klasterlar hosil bo‘ladi. Odatda ular o‘simplikning pastki qismlarida va yerga yaqin bo‘lgan qismlarda yuzaga keladi. Barglar o‘sishdan orqada qoladi va barg chetlaridan boshlab burishadi, barglar egilgan shaklga kiradi. Bu jarayonlar yetarli darajadagi miqdorda auksin indol sirkalari kislotaning ishlab chiqara olinmasligi natijasida yuzaga keladi. Bir qancha tur o‘simplimklarda (makkajo‘xori, dukkaklilar, qo‘qrn jo‘xori) barglar orasida xlorotik belgilar paydo bo‘ladi va bir qancha vaqtadan keyin nerotik doglar payodo bo‘ladi. Bu xloroz xlorofill sintezi uchun talab qilinayotgan ruxning yetishmasligiga javoban yuzaga chiqadi.

MIS, Temir kabi mis ham oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida fermentlar bilan birikadi. Bu fermentlardan biri plastotsianan hisoblanadi. Bu ferment fotosintez reaksiyalarida elektronlar uzatilishida faol ishtirok etadi. (Xaexnel, 1984). Mis yetishmasligining ilk belgilari nekrotik doglarga ega bqlgan to‘q yashil barglarning paydo bo‘lishidir. Bir qancha doglar ilk bora barg oxirlarida paydo bo‘ladi undan keyin barg chetlari bo‘ylab uning asos tarafiga tarqala boshlaydi. Barglar buralib qoladi va noto‘g‘ri shaklga kira boshlaydi. Ruxning o‘tkir yetishmasligida barglarda muddatidan avval absess boshlanadi.

MOLIBDeN. Molibden ionlari ( $Mo^{4+}$  orqali  $Mo^{6+}$ ) bir qancha furmentlar, jumladan nitratreduktaza va nitrogenaza fermentlari tarkibiga kiradi. Nitratreduktaza o‘simpliklar hujayralarida nitratlarning o‘zlashtirish jarayonida nitrit holatidan nitrat holatiga tiklanishini katalizlasa, nitrogenaza fermenti esa gaz holatidagi azotning azot tutuvchi mikroorganizmlarda ammiakka aylanishinini katalizlaydi. Molibden yetishmaganida birinchi belgilar sifatida barglar tomirchalari orasida xloroz boshlanishi va qari barglarning nekrozga uchrashi namoyon bo‘ladi. Ba’zi o‘simpliklarda (gulkaram, brokkoli karami) barglar nekrozga uchramasligi mumkin, buning o‘rniga barglari buralib qoladi va buning natijasida barglar nobud bo‘ladi. Molibden Nitratlar bilan birligida azotning fiksatsiyasi va assimiliyasiyasida faol ishtirok etsada, agar azot manbasi birinchi navbatda nitratlarga va o‘simplik simbiotik azot fiksatsiyasiga bog‘liq hisoblansada, molibdenning yetishmasligi azot yetishmasligiga olib kelishi mumkin. O‘simpliklar kam miqdorda molibden talab qilsada, tuproqning tarkibida o‘simpliklar uchun yetarli miqdordagi molibden uchramaydi. Bunday holatlarda tuproq tarkibiga biroz miqdorda molibden kiritilsa, kam xarajat evaziga sezilarli darajada hosildorlikni oshirish mumkin.

O‘simplik to‘qimalaridagi mineral moddalarning tahlili. O‘simpliklar o‘sishi va rivojlanishi davomida mineral elementlarga nisbatan talablari turlicha bo‘ladi. Qishloq xo‘jalik o‘simpliklarida belgilangan bosqichlarda mineral moddalar bilan ta‘minlanishi iqtisodiy jihatdan ularning hosildorligi oshishiga xizmat qiladi.(tuganak, don va boshqalar). Fermerlar tuproq tarkibidagi va o‘simpliklar to‘qimalaridagi mineral moddalarning miqdorini tahlil

qilish yo‘li bilan o‘g‘itlash grafigini aniqlaydilar va hosildorlikni oshiradilar.

Tuproq tahlili ildiz atrofidagi tuproqlardan olingan namunalar tarkibini kimyoviy usullarda aniqlashdir. Quyida keltirilganidek tuproqning kimyoviy va biologik tabiatini murakkab bo‘lib, tahlil natijalari namunalarni saralash usullari, namunalarni saqlash sharoitlari va shu bilan birga oziq moddalarning ekstraksiya usullariga qarab o‘zgarib ketishi mumkin. Tuproqning aniq tahlili o‘simliklar ildizlarining oziq moddalarni me’yoriy o‘zlashtira olishi mumkin bo‘lgan darajada tarkibidagi mineral moddalarning miqdorini belgilashdir. Tuproq tahlili o‘simliklar qancha miqdorda ozuqa moddalarning zaruriyatga ega ekanligi yoki qancha miqdorda ozuqa moddalarni yetishmasligi haqida aniq xulosa berishga asos bo‘la olmaydi. Bu haqda aniqroq xulosaga ega bo‘lish uchun o‘simliklar to‘qimalari tahlillarini o‘tkazish kerak bo‘ladi.

O‘simliklar to‘qimalarining tahlilini tugri qo‘llash o‘simliklar o‘sishi va o‘simliklar to‘qimasidagi mineral moddalarning konsentratsiyalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliknini tushunishga yordam beradi. Oziq moddalarning o‘simlik to‘qimalarida konsentratsichsining kamayishi natijasida ularning o‘sishi ham sekinlashadi. Oziq moddalarning yetkazilishining oshirilishi o‘sish va hosildorlikni oshishiga to‘g‘ridan to‘g‘rib bog‘liqdir. Oziq moddalarni o‘zlashtirilishining miqdori oshishi lekin qayta ishlanish jarayoninig o‘zgarmasligi mineral moddalarning o‘simlik to‘qimalarida to‘planishiga va to‘qimalarda ularning konsentratsiyasining oshishiga va mineral moddalarning hosildorlikka bog‘liq bo‘lmay qolishiga olib keladi.

## **6. Mineral oziq moddalarni yetishmasligi va buning natijasida o‘simliklarda kelib chiqadigan kasalliklar.**

Ba’zi elementlar o‘simliklar o‘sib rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Birgina elementning yetishmasligi ham mug‘im fiziologik ahamiyatli jarayon amalga oshishiga to‘sqinlik qilishi va o‘simlik hayot siklini to‘liq o‘tashiga mo‘nelik ko‘rsatishumumkin. Agar o‘simliklarga kerakli elementlar to‘liq yetkazib berilsa va quyosh nuri yetarli darajada ta’minlansa, o‘simliklar hayotiy jarayonlarga kerakli bo‘lgan va ularning o‘sib rivojlanishi uchun zarur barcha birikmalarini sintezlay oladi. Birinchi uchta element- vodorod, kislorod va uglerod mineral oziq moddalarni hisoblanmaydi chunki ular suv va havodagi karbonad angidrididan o‘zlashtiriladi.

Qolgan asosiy elementlar o‘simliklar to‘qimasidagi uchrashiga qarab makroelementlar va mikroelementlarga klassifikatsiya qilinadi. Bazi bir hollarda esa to‘qimalardagi makroelementlar va mikroelementlarning farqi jalvaldagini ko‘rsatilgan ko‘rsatkichlardan unchalik katta bo‘lmaydi. Masalan, barg mezofillasi kabi ba’zi o‘simlik to‘qimalari temir yoki marganets kabi oltingugurt va magniy ham saqlashi mumkin. Ko‘pgina elementlar o‘simlik talab qiladigan minimal darajada talab qilinadigan konsentratsiyadan bir necha barobar yuqori konsentratsiyalarda saqlanadi.

Bir necha olimlar guruhi makroelementlar va mikroelementlarning klassifikatsiyalarini fiziologik jihatdan asoslash qiyin deb hisoblaydilar.

Menger va Kirkbi asosiy elemetlarni ularning biokimyoviy ahamiyati va fiziologik vazifalariga qarab klassifikatsiya qilishni tavsiya etganlar. Unda o‘simliklarni oziqlantiruvchi moddalarni 4 ta asosiy guruhgaga ajratilgan.

1. Birinchi guruhdagi elementlar o‘simliklarning organik (uglerod) birikmalarini hosil qiladi. O‘simlik bu guruh elementlarini oksidlanish va qaytarilish jarayonlari bilan boruvchi biokimyoviy reaksiyalar yordamida o‘zlashtiradi.

2. Ikkinci guruh elementlari energiya to‘planishida va struktura tuzilishini qo‘llab-quvvatlab turio‘da muhim ahamiyat kasb etadi. Bu guruh elementlar o‘simlik to‘qimalarida odatda fosfatlar, boratlar, murakkab silikat efirlar ko‘rinishida uchraydi. Bu moddalarni organik molekulalarning gidroksil guruhlariga bog‘langan bo‘ladi. (ya’ni shakar- fosfat).

3. Uchinchi guruh elementlari o'simliklar to'qimalarida erkin ionlar yoki biroi modda bilan bog'langan ionlar ko'rinishida, masalan o'simliklar hujayra devorlarida uchraydigan pektin kislotasi ko'rinishida uchraydi.

4. To'rtinchi guruh elementlari elektron tashilish reaksiyalarida muhim ahamiyatga ega.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. O'simliklardagi mineral elementlarning ahamiyatini tushuntirib bering
2. Mineral oziq moddalarning xossalari.
3. Kislorodning ildiz tizimiga yetkazib berilishini ta'minlash qanday amalga oshadi?
4. O'simliklarni oziq moddalar bilan ta'minlashda oziqaviy eritmalarining xamiyati.
5. O'simliklarda mineral elementlarni o'zlashtirilishi.
6. Mineral oziq moddalar yetishmasligini tushuntirib bering
7. Mineral oziq moddalar yetishmasligi natijasida o'simliklarda kelib chiqadigan kasalliklar.
7. Mikoriza nima?
8. Makroelementlar va mikroelementlar haqida aytib bering
9. Xloroz nima?

### **4-mavzu :Fotosintez va pigmentlar. fotosintezning yorug'lik reaksiyalari.**

#### **Reja:**

1. Yorug'lik reaksiyalari
2. Fotosintez jarayonlarini tushunish uchun o'tkaziladigan tajribalar
3. Fotosintezning kimyoiy reaksiyalarida yorug'lik nurining ahamiyati
4. Fotosintez apparatining tuzilishi
5. Yorug'lik yutuvchi qismlar tizimining tuzilishi.
6. Elektronlar o'tkazilishining mexanizmlari
7. Xloroplastlarda proton o'tkazilishi va ATP ning sintezlanishi

#### **1. Yorug'lik reaksiyalari**

Yerdagi hayot birinchi navbatda quyoshdan o'zlashtiriladigan quvvatga bog'liqdir. Fotosintez quyosh energiyasining o'zlashtira olishi mumkin bo'lgan yagona biologik ahamiyatga ega bo'lgan birdan-bir jarayondir. Bundan tashqari yerdagi energiyaning asosiy qismi fotosintetik jarayonlar tomonidan to'planadi. Qolgan energiya manbalari qazilma boyliklaridan olinadi. Fotosintez atamasi to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinganda —yorug'lik nuridan foydalanib sintez qilish" ma'nosini bildiradi. Bu bo'limda ko'rib chiqayotganimizdek, fotosintezlovchi organizmlar quyosh energiyasini uglerod birikmalarini sintezlash uchun ishlataladi. Bu jarayon quyosh energiyasi ishtirokisiz umuman amalga oshishi mumkin emas. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, quyosh energiyasi ta'sirida karbonad angidrid va suv ishtirokida uglevodlar hosil bo'ladi va kislorod generatsiyalanadi (ajralib chiqadi.)



Bu molekulalarda zahira sifatida to'plangan keyinchalik xujayralarni oziqlantirish va shu bilan birga hayot jarayonlarining barcha shakllarinii energiya bilan ta'minlanishda ishtirok etadi.

Bo' bo'limda fotosintez jarayonlarida quyosh nurining ahamiyati, fotosintetik apparatlarning strukturalari, shuningdek xlorofillning quyosh nuri ta'siridagi ko'zg'alishi va xlorofillning ATF va NADF sintezidagi ishtiroki jarayonlarini ko'rib chiqamiz.

Yuksak o'simliklarda fotosintez

Yuksak o'simliklarda fotosintetik jarayonlarda ishtirok etuvchi faol o'simlik to'qimasni bu barg mezofillasidir. Mezofilla xujayralari maxsus nur yutuvchi yashil pigmentlar, xlorofillar saqlovchi ko'pgina xloroplastlardan tashkil topgan. Fotosintez jarayonida o'simliklar quyosh nuridan suvni oksidlash va karbonab angidrid gazini kamaytirish uchun ishlatajilar va buning natijasida kislorod erkin holatga o'tadi va birinchi navbatda yirik uglerod birikmalari, shakarlar hosil bo'ladi. Fotosintezning tilakoid reaksiyalari tilakoidlar deb ataladigan xloroplastlarning maxsus ichki membranalarida amalga oshadi. Tilakoid reaksiyalarining hozirgi mahsulotlari yuqori energiya saqlovchi ATF va NADFN lar hosil bo'ladi. Ular uglerod to'plash reaksiyalarida shakarlar sintezlanishi uchun sarflanadi. Bu sintetik jarayonlar xloroplastlarning stromasining tilakoidlar bilan o'rabi turiladigan suv muhitida amalga oshadi. Fotosintezning tilakoid reaksiyalarini bu bo'limnmng asosiy mavzusidir. Uglerod to'planish reaksiyalarini 8 bo'limda muhokama qilinadi.

Xloroplastlarda nurning energiyasi fototizimlar deb ataladigan ikki xil maxsus blokli kimyoviy energiyaga aylantiriladi. Nur energiyasining yutilishi birikmalar qatorlari orqali elektron donorlari va elektron akseptorlari sifatida harakat qiladigan elektronlar o'tkazilishini energiya bilan ta'minlash uchun ishlataladi. Ko'p sonli elektronlar oxir oqibatda NADF ni NADFN holatigacha va suvni oksidlab O<sub>2</sub> holatigacha olib boradi. Nur energiyasi shuningdek tilakoid membranalari orqali ATF sintezlanishi uchun foydalanish maqsadida protonlarni harakatlantiruvchi kuchlar ajratilishi uchun ham foydalaniladi.

Umumiy Tushunchalar. Bu bo'limda biz fotosintezning asosiy jarayonlarini tushuntirib beruvchi asosiy tushunchalarni ko'rib chiqamiz. Bu tushunchalar nurning tabiatini, pigmentlar xususiyatlari, shuningdek pigmentlarning turli hil ahamiyatlarini o'z ichiga oladi.

Yutilish spektri (ko'p sonli spektrlarda) nur energiyasining ajralgan va yutilgan molekulasi yoki nur to'lqinlarining uzunligiga bog'liq bo'lgan moddasi miqdorini o'z ichiga oladi. Spektrofotometriya namunalarda nur yutilishini aniqpash usuli bo'lib 7.1 bo'limda to'liqroq tafsilotini ko'rib chiqamiz.

Molekulalar nurni yutganda va o'tkazganda ularning elektron holati o'zgaradi. Xlorofill ko'zimizga yashil rangda ko'rindi chunki xlorofill nurning qizil va ko'k spektrlari orasidagi 550 nm uzunlikdagi va ko'zimizga yashil bo'lib ko'rinvchi nur spektrini yutadi.

Qo'zgalgan molekulalarda elektronlarning taqsimlanishi molekulaning asosiy holatildagiga nisbatan farq qiladi. Ko'k nurning yutilishi xlorofillni qizil nur yutilishiga nisbatan birmuncha yuqori energentik holatgacha qo'zgatadi chunki to'lqin uzunligi qisqa bo'lsa foton energiyasi katta bo'ladi. Yuqori qo'zgalgan energiya holatida xlorofill birmuncha beqaror bo'ladi. Shu bois u o'zidagi energiyani atrofida joylashgan bo'shilqidarga issiqlik energiyasi ko'rinishida uzatib yuboradi va maksimum bir necha nanosekundlarda (10-9 s) barqaror past ko'zgalgan energiya holatiga o'tadi. Qo'zgalgan energiya holatining Bu tabiiy beqarorlik xususiyati sababli energiyani ushlab turuvchi har qanday jarayon judayam katta tezlikda amalga oshishi kerak.

Eng kichik qo'zgalgan energiya holatida xlorofill o'z energiyasini o'zatishning to'rtta o'rnini bosuvchi yo'liga ega.

1. Qo'zg'algan xlorofill fotonni qaytadan chiqarishi mumkin va shu yo'l bilan asosiy holat-jarayonga fluoressensiya jarayoniga qaytadi. Bu jarayon sodir bo'lganda fluoressensiya to'lqin uzunligi yutilayotgan to'lqin uzunligiga nisbatan birmuncha uzun (va birmuncha kam enegiyaga ega) va shu bois qo'zg'alish energiyasining bir qismi fluorescent fotonning o'tib ketguniga qadar issiqlik energiyasiga aylanadi. Xlorofill spektrning qizil qismida fluoressetsiyalaydi.

2. Qo‘zg‘algan xlorofill asosiy holatiga o‘zidagi energiyani to‘g‘ridan to‘g‘ri, foton o‘tkazmasdan, infraqizil nur ko‘rinishida issiqlik energiyasiga aylantirishi mumkin.

3. Xlorofill xlorofillar o‘z qo‘zgalgan energiyasini boshqa molekulalarga o‘tkazilishida ishtirok etishi mumkin.

4. Fotokimyoning to‘rtinchi jarayoni qo‘zgalgan holatdagi energiyaning turli kimyoviy reaksiyalar sodir bo‘lishiga olib kelishidir. Fotosintezning Fotokimyoviy reaksiyalar ma'lum bo‘lgan eng yuqori tezlikda sodir bo‘ladigan kimyoviy reaksiyalar hisoblanadi. Reaksiyalarning bunday tarzda jadal borishi fotokimyo uchun yuqoridagi uchta boshqa energiyaning qo‘zgalgan holatidagi reaksiyalar bilan raqobatlashishi uchun muhim ahamiyatga ega.

Fotosintez jarayoni amalga oshishi uchun fotosintetik pigmentlar quyosh nurini yutadi.

Quyosh nurining energiyasi birinchi navbatda o‘simliklarning pigmentlari tomonidan yutiladi. Fotosintez jarayonlaridaga barcha faol pigmentlar xloroplastlarda topilgan. Fotosintezlovchi pigmentlarning strukturasi va yutish spektrlari muvofiq ravishda tasvirlangan. Xlorofillar va bakterioxlorofillar (Ba’zi bir tur bakteriyalarda topilgan pigmentlar) fotosintezlovchi organizmlarning eng tipik pigmentlari hisoblanadi. Ammo barcha organizmlar ma'lum bir xossalarni bajaruvchi bittadan oshiqligiga pigmentlar aralashmasidan tashkil topgan bo‘ladi.

Xlorofill a va b birgalikda o‘simliklar organizmida, xlorofill s va d esa ba’zida birgalikda sianobakteriyalarda uchraydi. Bakterioxlorofillalarning bir necha turlari aniqlangan: a tipi ko‘proq tarqalgan turli fotosintetik organizmlar tiplarida pigmentlarning taqsimlanishi aks ettirilgan.


Barcha xlorofillar murakkab xalqali strukturaga ega bo‘lib gemoglobin va sitoxrom guruhlarida topilgani kabi porfirin bilan kimyoviy bog‘langan bo‘ladi. Bundan tashqari uglevodorodlarning uzun tizimi deyarli har doim halqali strukturaga biriktirilgan holatda bo‘ladi. Xlorofillning langarcha ipi uning gidrofob qismlarida bo‘ladi. Xalqali struktura shuningdek molekulaning bir qismi bo‘lgan bir qancha zaif bog‘langan elektronlardan tashkil topadi va ular elektron o‘tkazilishida va oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarida ishtirok etish uchun ham jalb etilishi mumkin.

Karotinoidlarning bir qancha turli tiplari bir qancha qo‘sibog‘lar bilan bog‘langan barcha qator molekulalni fotosintezlovchi organizmlarda topilgan. Yutilish spektirining 400 dan 500 nm gacha bo‘lgan qismi karotinoidlarga ularga xos bo‘lgan qizgish tus beradi. Sabzining rangi Karotinoid R ning ko‘rinuvchi yutiladigan qismi sababli yuzaga keladi. Laboratoriya sharoitidan tashqarida yashay olmaydigan o‘simliklardan tashqari barcha fotosintezlovchi organizmlarda karotinoidlar uchraydi. Karotinoidlar tilakoid membranalarning ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki ular pigment oqsillarining har ikkala tomonidan va reaksiya markazi qismlari bilan mustahkam bog‘langan bo‘ladi. Nur karotinoidlar tomonidan yutiladi va fotosintez jarayoni uchun xlorofillarga uzatiladi; bu ahamiyati bois karotinoidlar yordamchi pigmentlar deb ham yuritiladi.

## **2. Fotosintez jarayonlarini tushunish uchun o‘tkaziladigan tajribalar**

Fotosintez jarayonining umumiyligi kimyoviy bilimlari to‘planishi uchsun olimlarga bir necha yuz yilliklar kerak bo‘ldi. 1771 yilda Jozef pristli yalpiz o‘simligining havoning sham yonib turgan qismida yaxshi o‘sishini aniqladi.. U o‘simliklar tomonidan kislород ajratilishini aniqlagan. Gollandiyalik Ingenxauz fotosintez jarayonlari uchun quyosh nurlarining ahamiyatini ilmiy isbotlab bergen.

Boshqa guruh olimlar esa  $\text{SO}_2$  va  $\text{N}_2\text{O}$  ningahamiyatini aniqladilar va organik birikmalar, masalan uglevodlar kislorod bilan birligida fotosintez mahsulotlari ekanligini aniqladilar. 19 asrning oxirlarida fotosintezni muvozanatlovchi kimyoviy reaksiya quyidagicha ifodalana boshladi:



Bu yerda  $\text{S}_6\text{N}_{12}\text{O}_6$  glyukoza kabi uzida shakar formulasini ifodalaydi, glyukoza uglerod to'planishining aniq bir mahsuloti hisoblanmaydi. Fotosintezning mahsulotlari amalda tuzilishi jihatidan bir biriga yaqin bo'ladi.

Fotosintezning kimyoviy reaksiyalijuda murakkab hisoblanadi. Haqiqatda fotosintezning 50 ta oraliq reaksiyalari mavjud va xozirda yangi qo'shimcha oraliq jarayonlar ham aniqlanmoqda. Ilk bora fotosintez jarayonlarini 1920 yillarda oxirgi mahsuloti kislorod bo'lмаган bakteriyalarda o'рганилган. Ushbu bakteriyalarni o'рганиш jarayonida Kornelis va Nil fotosintez jarayoni o'zida oksidlanish- qaytarilish jarayonlarini (oksidlanish va qaytarilish) o'zida mujassamlashtiradi degan xulosaga kelgan. Bu xulosa asosli bo'lib chiqdi va fotosintezning yekyingi o'рганилш sohalariga asos bo'lib xizmat qildi.

Endi fotosintetik faollik va yutiluvchi nur spektri orasidagi o'zaro bog'liqliknini ko'rib chiqamiz. Biz xozirda fotosintezni tushunish uchun asos bo'ladigan bir qancha nazariy tajribalarni muhokama qilamiz va fotosintez jarayonlarining muhim kimyoviy reaksiyalarining tenglamalarini ko'rib chiqamiz.

Spektrlar harakatining nazariy jihatlarini bilish bizning fotosintez jarayonlarini tushunishimizda asosiy ahamiyatga ega bo'lган bilimlar majmuidir. Spektrlar harakati biologik tizimlarning yorug'likka nisbatan javob kengligini o'zida aks ettiradi. Masalan, fotositez jarayoni uchun spektr harakati turli xil to'lqin uzunliklarida kislordning ajralib chiqish jarayoniga asoslanadi. Ko'pincha spektr harakati indutsirlangan nur hosil bo'lishiga javob beruvchi xromofor pigmentini identifikasiyalaydi. (ta'sirlantiradi.)

Ba'zi bir birinchi spektrlar harakati ilk bor T.V. Engelmann tomonidan 1800 yillar oxirida o'lchanagan edi. Engelmann quyosh nurini kamalak ranglariga ajratish uchun prizmadan foydalanadi va suv o'simliklari to'plamidan tashkil topgan suv muhitiga yo'naltiradi. Bu tizimga kisllorod ta'sirida populyasiyalanuvchi bakteriyalar kiritiladi. Bakteriyalar kislorod to'planuvchi suv o'tlari tanalariga tomon yigilgani kuzatiladi. Suv o'tlarining aynan bakteriyalar to'plangan qismlari xlorofilllar tomonidan eng kuchli yutiladigan ko'k nur va qizil nur bilan yoritilgan edi. Bugungi kunda ta'sir etuvchi spektrlar harakatini tajriba namunalarining katta sonli miqdorlarida ham monoxromatik nur yo'nalishida ta'siri spektrograflar yordamida o'lchanadi. Ammo tajribaning ahamiyati Engelmanniki kabi bir xil. Spektrlarning harakati kislorod ajratuvchi, fotosintezlovchi organizmlar ikki xil fototizimlarning ochilishida katta ahamiyatga zga bo'lgan. Fototizimlar turlarini ko'rib chiqishdan avval biz yorug'lik kuchini qabul qilish va fotosintezning energiyaga bo'lgan talabini o'рганиб chiqishimiz kerak bo'ladi.

Fotosintez yorug'lik yutuvchi qismlar va fotokimyoviy markazlardan tashkil topgan komplekslarda amalga oshadi.

Yorug'lik energiyasining asosiy qismi xlorofilllar va karotinoidlar tomonidan yutiladi va oxir oqibatda kimyoviy bog'lar ko'rinishida kimyoviy energiya ko'rinishida saqlanadi. Energiyaning bu xolatda bir ko'rinishdan ikkinchi ko'rinishga aylantirilishi pigmentlarning ko'p molekulalarining o'zaroo ta'sirlanishi va oqsil guruholarining elektron o'tkazishi bilan boruvchi juda murakkab jarayon hisoblanadi. Pigmentlarning ko'pchiligi fototizimlarning qabul qiluvchi qismlari, yorug'likni yigish va energianing kompleksning kimyoviy oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari boradigan reaksiya markaziga uzatilishi energianing uzoq vaqt davomida saqlanib

turishiga yordam beruvchi moslamalar sifatida xizmat qiladi.(7.10 rasm) Bir qancha Qabul qiluvchi qismlarning molekulyar strukturalari va fototizimlar kimyoviy reaksiyalariniq markazlari haqida bilimlar ushbu bo‘limda ko‘rib chiqamiz

Pigmentlarning qabul qiluvchi qismlari va reaksiya markazlari o‘rtasida vazifalar taqsimoti o‘simgliklar uchun qanday ahamiyatga ega? Hattoki kuchli yorug‘lik muhitida ham xlorofill bir necha fotonlarni yutib oladi. Agar har bir xlorofill butunlay reaksiya markaziga ega bo‘lsa, bu tizimni tashkil etuvchi reaksiya markazlari bilan bog‘langan, vaqt o‘tishi davomida fotonlar yutilishi bilan faollanadigan fermentlar faollanishi uchun ko‘p vaqt sarflanadi. Bundan tashqari agar ko‘pgina fermentlar energiyani umumiy reaksiya markaziga uzatsa, uzoq vaqt davomida tizim faol holatda saqlanadi.

1932 yilda olimlar Robert Emerson va Uilyam Arnold xlorofillning juda ko‘p molekulalari fotosintez jarayonlarida energiyaning shakllanishi uchun birligida ishtirok etishini isbotlovchi ilk tajribalarni o‘tkazishdi. Ular yashil suvo‘tlari (rugenpoMot) dan tashkil topgan suspenziyadan juda qisqa yorug‘lik chaqnashini (10-5 8) yo‘naltirdilar va ishlab chiqarilgan kislород miqdorini o‘lchadilar. Chaqnashlar o‘zaro 0.1 soniya oraliqdagi uzoqliklarda hosil qilingan va Emerson va Arnold o‘lchagan bu vaqt oraligi keyingi chaqnash yuz bergunga qadar fotosintez jarayonlarining fermentativ bosqichlari yuzaga kelishi uchun yetarlicha vaqt edi. Tadqiqotchilar energiya miqdorlarini o‘zgartirib ko‘rishdi vasezilarli darajada yuqori intensiv chaqnashlar holatida yuqori energiya berilganida kislород hosil bo‘lish miqdori oshmasligini aniqladilar. (Fotosintetik tizim yorug‘lik bilan to‘yintiriladi, rasmga qarang). Kislород va yorug‘lik chaqnashlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni o‘rganish jarayonida Emerson va Arnold namuna tajribalarida yorug‘lik bilan to‘yintirilgan namunalarda har bir 2500 xlorofill molekulasi atiga bir molekula kislород ishlab chiqarganini aniqlaganlar. Shundan xulosa qilish mumkinki, bir necha yuz pigmentlar reaksiya markazlarigi bog‘langan bo‘ladi va har bir reaksiya markazi bir molekula kislород hosil qilish uchun 2500 molekula xlorofillni jalb etgan holda,to‘rt marotaba ishlashi kerak.

Reaksiya markazlari va ko‘pgina qabul qiluvchi qismlarning komponentlari fotosintetik membranalarning ajralmas qismi hisoblanadi. Eukariot fotosintezlovchi organizmlarda fotosintetik membranalalar xloroplastlar atroflarida joylashadi, prokariot fotosintezlovchi organizmlarda esa plazmatik membranalarda yoki membranalarda joylashadi.

Fotokimyoviy mahsulotlar miqdori kvantlarning umumiy miqdori yutilgan nurlar energiyasiga tengdir.


Past intensiv yorug‘lik sharoitida, fotonlarning miqdorini oshirilishi kislород ajratilishini proporsional ravishda oshishini ta‘minlaydi. Shu yo‘sinda kislород hosil bo‘lishida kvant ajratilishida kvant egri chizigi aniqlanadi. Kvant ajratilishi aniq jarayonlarida uning diapazoni 0 dan (agar bu jarayon yorug‘likni sezmasa) 1.0 gacha (agar har bir foton fotosintez jarayonida yutilsa ) bo‘ladi.

Odatiy xloroplastlar nursiz holatda saqlanadi, fotokimyoviy kvant ajratilishi 0.95 ko‘rsatkichga yaqin bo‘ladi, fluoressensiya kvant ajratilishi 0.05 yoki undan past, shuningdek boshqa jarayonlarning kvant ajratilishi yuqoridaqilardan ham kichik ko‘rsatkichda bo‘ladi. Xlorofillalarning molekulalari qo‘zg‘alishi fotokimyoviy jarayonlar sodir bo‘lishiga turuki bo‘ladi.

### **3. Fotosintezning kimyoviy reaksiyalarida yorug‘lik nurining ahamiyatini**

Shuni tushunish muhimki reaksiyaning muvozanatini ta‘minldash uchun reagentlar ta’siri deyarli kuzatilmaydi. Bu reaksiyani muvozanatlash konstantasi har bir birikma hosil bo‘lishi

uchun tuzilgan erkin energiya jadvalidan aniqlanadi va uning miqdori o‘rtacha 10-500 ni tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich nolga juda yaqin bo‘lib shuni xulosa qilish mumkinki hyech qachon glyukoza o‘z-o‘zidan suv va karbonad angidrdidan tashqi energiya ta’sirlarisiz hosil bo‘lmaydi. Fotosintetik reaksiyalarning amalga oshishi uchun kerak bo‘ladigan energiya yorug‘lik manbalaridan o‘zlashtiriladi.



Bu yerda  $(SN_2O)$  oltita uglerodli birikma- glyukozaning bir molekulasi hisoblanadi.

Fotokimyoviy kvant ajratilishi optimal sharoitlarda 100% ko‘rsatkichda amalga oshishiga qaramasdan, yorug‘lik nurining kimyoviy energiyaga aylanishi biroz kichikroq miqdorda bo‘ladi. Agar 680 nm to‘lqin uzunligida qizil nur yutilsa, kislorod hosil bo‘lishi uchun kerak bo‘ladigan energiya miqdori 1760 kDj ga teng bo‘ladi. Energiyaning bu miqdori +467 kDj mol<sup>-1</sup> erkin energiyasi holatida 7.6 tenglamaning amalga oshishi uchun yetarli miqdor hisoblanadi. Shu usulda yorug‘lik energiyasining kimyoviy energiyaning optimal to‘lqin uzunligiga aylanish samaradorligi o‘rtacha 27% ni tashkil qiladi. Bu energiya zlashtirilish tizimi uchun juda katti ko‘rsatkich hisoblanadi. Zahira qilingan bu energiyaning asosiy qismi xujayra tarkibi tuzilishi uchun sarflanadi, biomassaning shakllanishiga esa kamroq energiya sarf etiladi.

Fotokimyoviy kvant samaradorligi (kvant ajrattilishi) 1 (100%) ga teng, energiya o‘zlashtirilishining ko‘rsatkichi esa 27 % ga teng va bu ajablanarli holat hisoblanmaydi. Kvant ajratilishi fotokimyoviy jarayonlarda ishtirok etuvchi fotonlar yutilishi miqdorini o‘lchovchi ko‘rsatkich hisoblanadi. Energiyani sarflash samaradaorligi esa fotonlar yutilishidan hosil bo‘lgan kimyoviy mahsulortlar ko‘rinishida qancha energiya saqlanayotganinni bildiruvchi ko‘rsatkich hisoblanadi. Ko‘rsatkichlardan shuni bilish mumkinki, fotokimyoviy jarayonlar uchun deyarli barcha fotonlar yutiladi faqat fotonlarning to‘rtadan bir qism energiyasi saqlanadi qolgan barcha to‘plangan energiya issiqlikka aylanadi.

NADF reduksiyalanishi va ATF ning shakllanishida yorug‘likning ahamiyati.

Fotosintezning umumiy jarayonlari elektronlarning biror kimyoviy birikmalardan ajraladigan (oksidlanish jarayoni) kimyoviy oksidlanish- qaytarilish reaksiyalardan iborat Shu usulda boshqa kimyoviy birikma elektron qabul qilib olib zaryad ko‘rsatkichini kamaytiradi. 1937 yilda Robert Xill xloroplast tilakoidlari tomonidan o‘zlashtiriladigan yorug‘lik temir tuzlari kabi birikmalar xilma xillagini kamaytirishini aniqlagan. Bu birikmalar karbonad angidridi bilan birlgilikda quyidagi tenglamada ko‘rsatilganidek oksidlovsilar sifatida xizmat qiladi.



Xozirgacha o‘rganilgan ko‘pchilik birikmalar xuddi Xill reaksiyasidagi kabi elektronlarning sun‘iy akseptorlari bo‘lib xizmat qiladi. Ulardan foydalanish uglerod ajratilishini qisqartirish buyicha oldingi reaksiyalarni tushunishda katta ahamiyatga ega.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, fotosintetik tizimlarning me'yoriy shakllanishi vaqtida yorug‘lik nikotinamidadeninnukleotidfosfat (NADF) ni kamaytiradi va o‘z navbatida Kalvin siklida uglerod o‘zlashtirilishida tiklovchi (qaytaruvchi) sifatida xizmat qiladi. ATF shuningdek elektronlar oqimining suv muhitidan NADF ga tomon harakatlanishi paytida hosil bo‘ladi va u uglerod miqdorining kamayishi uchun xizmat qiladi.

Suvning oksidlanib kislorodgacha parchalanishi, NADFning kamayishi va ATF ning hosil bo‘lish kimyoviy reaksiyalari tilakoid reaksiyalari deb yuritiladi. Chunki NADF kamayishi reaksiyalarning deyarli barcha turlari tilakoidlar ichida sodir bo‘ladi. Uglerod to‘planish va kamayish reaksiyalari stroma reaksiyalari deb ataladi chunki uglerodning qaytarilish reaksiyalari xloroplastlarning suvli qismlari, stromalarda amalga oshadi.

Kislород ажратувчи организмлар турли ко'ринишда ишловчи иккি xil фототизимдан ташкил топади

1950 yillarda oxiriga kelib fotosintez jarayonlarini o'рганувчи олимлар oldida muammoli mavzular paydo bo'ldi. Emmerson o'tkazgan bunday tajribalardan biri fotosintez kvant ajratilishini to'lqin uzunligiga bog'liqligini o'рганиш учун o'tkazilgan va qizil tomchi deb ataladigan samarani ko'rsatgan edi.

Agar kvant ajratilishi xlorofillning yorug'lik yutishidagi to'lqin uzunliklarini o'lchash учун o'рганиса, olingen keng ko'lamlı natijalar shuni ko'rsatadi, har qanday foton xlorofill va boshqa pigmentlar tomonidan yutiladi va boshqa fotonlar bilan bir qatorda fotosintez jarayoni harakatga kelishi учун o'ziga xos ahamiyatga ega bo'ladi. Shu bilan birga xlorofillning uzoq qizil yutilish qismida (680 nm) uning samaradorligi kamayadi.

Bunday samaradorlikning kamayishi xlorofillning yutish xossasi kamayishi bilan yuzaga kelmaydi, chunki kvant ajratish jarayonlari haqiqatda yutilgan yorug'likni uzatadi. Shu usulda uzoq yutilish qismi (680 nm)dan yuqori to'lqin uzunliklarida nuring samaradorligi qisqa to'lqin uzunliklariga nisbatan ancha kam bo'ladi.

Keyingi fotosintez samaradorlik darajalarini ko'rsatuvchi tajribani ham Emerson o'tkazgan edi. U иккি har xil to'lqin uzunliklarida fotosintez jarayonlarining tezligini o'lchab chiqqan, so'ngra yorug'lik to'plamlarda sinovlar o'tkazgan edi. Qizil va uzoq qizil rang to'lqin uzunliklari bir paytda berilganda alohida berilgan to'lqin uzunliklari ta'sir ettirilganidagiga nisbatan fotosintez jarayonining samaradorligi katta bo'lib chiqdi. Bu kuzatishlar o'ta qiziqarli va muhokamali mavzular kelib chiqishiga asos bo'lgan edi.

Bu o'tkazilgan kuzatishlar 1960 yillarda o'tkazilgan tajribalar bo'lib, keyinchalik иккি xil fototizimlar hozirda I va II (FSI va FSII) deb yuritiladigan, fotosintez reaksiyalarida energiyani to'plash vazifalarini bajaruvchi komplekslari kashf etilishiga asos bo'lib xizmat qildi.

I fototizimlarto'lqin uzunligi 680 nm dan yuqori bo'lgan ko'proq uzoq kizil nurlarni yutadi,

II fototizimlar esa ko'proq 680 nm to'lqin uzunligidagi qizil nurlarni yutadi va uzoq qizil rang to'lqin uzunligi ta'sirlariga nisbatan kamroq harakatchan bo'ladi. To'lqin uzunliklari ta'sirlariga bunday bog'liklik, kuchlanish samaradorligi va qizil rang ta'siridagi samaradorlikning kamayishi quyidagicha ham tushuntiriladi.

I fototizimlar NADF+ ni kamaytiruvchi kuchli qaytaruvchilarni ishlab chiqaradi va kuchsiz oksidlovchi hisoblanadi

II fototizimlar esa juda kuchli oksidlovchilarni ishlab chiqaradi va suvni oksidlash xususiyatigi ega bo'ladi va I fototizimlarda ishlab chiqarilgandagi mag sulotlarga nisbatan ko'proq kuchsiz qaytaruvchilar hisoblanadi

II Fotosintez mahsulotlari bo'lgan qaytaruvchilar qaytadan, I fotosintez jarayonlarida ishlab chiqarilgan oksidlovchilarni kamaytiradi.

Fotosintez jarayonining sxemasi I (zigzagsimon) sxema deb ataladi va kislород ажративчи fotositezlovchi organizmlar haqida taassurotlar hosil qilishimizda asosiy tushunchalardan biri hisoblanadi. Bu sxema har biri o'ziga xos bo'lgan pigmentlarning qabul qiluvchi qismi va reaksiya markazlariga ega bo'lgan иккি xil fototizimlar (I i II) haqida aniq tushunchalarga ega bo'lishda xizmat qiladi. Bu иккি fototizimlar bir-biri bilan elektron uzatish zanjirlari orqali uzviy bog'langan bo'ladi.

#### 4. Fotosintez apparatining tuzilishi

Yuqoridagi bo'limlarda fotosintez jarayonining asosida yotuvchi bir qancha fizikaviy tamoyillar, turli pigmentlarning funksional ahamiyatlarining nazariy bir necha asoslari,

shuningdek fotosintez jarayonlarini amalga oshiruvchi organizmlardagi bir qancha kimyoviy reaksiyalar ko'rib chiqildi.

Fotosintezlovchi eukariot organizmlarda fotosintez yondosh xujayra organellalarida xloroplastlarda amalga oshadi.. Nazariy jihatdan olganda xloroplastning tuzilishi tilakoidlar-ichki membranalarning tarmoqlangan tizimidan tashkil topadi. Butun xlorofill fotosintez reaksiyalarini yengil o'tuvchi qismi hisoblanadigan shu membrana tizimlaridan tashkil topadi.

Suvda eriydigan fermentlar katalizlaydigan, uglerodni ajratilishini qisqartiruvchi reaksiyalar tilakoidlandan tashqarida joylashadigan stromalarda (stromatitlarda) amalga oshadi. Ko'rinishiga qarab ko'pgina tilakoidlar bir biri bilan juda mustahkam bog'langan bo'ladi. Bu murakkab membranalar lameli granalari deb yuritiladi. Ikki qavat lipid qatlidan iborat bo'lgan va birgalikda konvert deb ataluvchi Alovida ikki membranani xloroplastlarning ko'pgina turlari o'rab turadi. Ikki membranali Bu tizim transport tizimlarining har xil metabolitlaridan iborat.

Shuningdek xloroplast o'ziga tegishli bo'lgan DNK, RNK va ribosomalariga ega bo'ladi. Xloroplastlarning ko'pgina oqsillari xloroplast ichida yuz beradigan, o'z vaqtida sitoplazmatik ribosomalarda sintezlanadigan va molekulyar DNK hosil bo'lishi, va keyinchalik xloroplastlarga o'tkaziladigan transkripsiya va translyasiya hosilalari hisoblanadi. Tizimlarning bunday ajoyib tarzda ishslash mexanizmlari, ferment komplekslarining vazifalarini ushbu bo'limda ko'rib chiqamiz. Tilakoidlar integral membrana oqsillaridan tashkail topgan.

Fotosintez amalga oshishi uchun zarur oqsillarning xilma-xilligi tilakoid membranalarda yaqqol nomoyon bo'lgan. Ko'p hollarda bu oqsillarning qismlari tilakoidning ikki tomonidan suv muhitiga qarab cho'zilgan bo'ladi. Ushbu integral membrana oqsillari ko'p qism gidrofob aminokislotalardan tashkil topadi va membrananing uglevodorod qismlari kabi suvsiz muhitlarga ham chidamliroq bo'ladi.

Reaksiya markazlari, qabul qiluvchi qismlarning pigment-oqsil birikmalari, shuningdek elektronlarining katta qismini tashuvchi fermentlar ham integral membrana oqsillari hisoblanadi. Bizga ma'lum barcha holatlarda, xloroplastlar integral membrana oqsillari membranalarda o'ziga xos ahamiyatli vazifalarni bajaradi. Tilakoid membrana oqsillari membranining stromal qismiga qarab, ikkinchi tarafdan tilakoidning yoriqchali ichki qismiga qarab yo'nalgan bo'ladi.

O‘simlik tanasida vegetatsiya davrida sintez bo‘lgan kuruk moddaning umumiyligi miqdori biologik hosil deyiladi. Biologik hosilning xo‘jalik maksadlariga ishlataladigan qismi (donlari, uruglari, ildizmevalari va boshkalari ) xo‘jalik hosili deyiladi.

Umuman quyidagi sharoitlar yaratilganda eng yuqori hosildorlik darajasiga erishish mumkin: 1) ekinzorlarda barg satxini ko‘paytirish. 2) fotosintetik organning faol ishslash davrini uzaytirish. 3) fotosintezning jadalligini va maxsulorligini oshirish. 4) fotosintez jarayonida sintezlangan organik moddalarning harakatini va o‘simlik azolarida qayta taqsimlanishini tezlatish va xakazo.

Buning uchun esa hamma agrotexnik tadbir va choralar (o‘g‘itlash, sug‘orish yerga ishlov berish, zararkunandalarga qarshi kurashish va xakazo) o‘z vaqtida sifatlari o‘tkazilishi zarur.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Fotosintezda karbonat angidridning o‘zlashtirilishi aytib bering?
2. Fotosintezning S3 , S4 va SAM yo‘llarini tushuntirib bering?
3. Fotosintez ekologiyasi nima?
4. Fotosintezga ta’sir etuvchi omillar?
5. Fotosintezga ta’sir etuvchi suv omilini tushuntirib bering?
6. Fotosintezning kunlik va mavsumiy jadalligi?
7. Fotosintez va hosildorlikni tushuntirib bering?

8. Fotosintezda yorug‘likning ahamiyati nimada?
9. O‘simlikning ildiz orqali oziqlanishini tushuntirib bering?
10. Fotosintez depressiyasi nima?

## **6-mavzu. O‘simliklardagi nafas olish mexanizmlari. Qishloq ho‘jaligi ekinlarida nafas olishni boshkarilishi va ikkilamchi moddalar xosil bo‘lishi**

### **Reja**

1. Nafas olish jarayoni va biologik ahamiyati.
2. Fotosintezda hosil bo‘lgan assimlyatlarni xujayrada oksidlanish yo‘llari.
3. Anaerob va aerob nafas olish jarayonlari.
4. Nafas olish koeffitsenti.
5. Mitochondriyalar tuzilishi va funksiyalari. Elektron- transport zanjiri.

#### **1.Nafas olish jarayoni va biologik ahamiyati.**

Fotosintez jarayonida hosil bo‘lgan shakarlar va boshqa organik moddalar o‘simlik hujayralarining asosiy oziqa moddalari hisoblanadi. Bu organik moddalar tarkibida ko‘p miqdorda energiya to‘plangan bo‘lib, nafas olish jarayonida ma’lum qismi bioenergiyalarga (ATF) larga aylanadi.

O‘simliklarning hujayralarida boradigan oksidativ reaksiyalar organik moddalarning kislород ishtirokida anorganik moddalarga, ya’ni  $\text{SO}_2$  va suvgga parchalanishi va bioenergiya ajralib chiqishi jarayoniga nafas olish deyiladi.

Nafas olish muxim fiziologik jarayon bo‘lib, hamma tirik organizmlar uchun xosdir. Bunda uglevodlar muxim ahamiyatga ega, chunki ular nafas olishning asosiy substrati vazifasini o‘taydilar. Ularning pachalanishida bir qator oraliq birikmalar hosil bo‘ladi. Bu birikmalar o‘simliklar tanasida uchraydigan boshqa organik moddalarning (yoglar, aminokislotalar va boshka) asosini tashkil etadi.

O‘simliklarda maxsus nafas olish a’zolari bo‘lmaydi, shu sababli kislородни yutish va karbonat angidridni chiqarish jarayonlari odam va xayvon organizmidan farqli barcha hujayra va to‘qimalarida mustaqil amalga oshiriladi. Barcha tirik hujayralarning organoidi sanalgan mitochondriyalar nafas olish a’zosi hisoblanadi. Ana shu mitochondriyada murakkab organik birikmalar fermentlar tizimi ishtirokida kislород yordamida oksidlanib suv va  $\text{SO}_2$  ga parchalanadi. Bu reaksiyalar tizimiga biologik oksidlanish deyiladi.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalar uchun xos bo‘lgan asosiy xususiyat elektronlarning ko‘chishidir. Moddalar oksidlanganda tarkibidagi elektron ajraladi, qaytarilganida elektronni biriktirib oladi. Elektron ajratuvchi moddalarga donor, qabul qiluvchi modda akseptor deyiladi. Donor bilan akseptor birgalikda oksidlanish qaytarilish tizimini tashkil etadi. Bu reaksiyalarni bos

Anaerob degidrogenazalar;

Aerob degidrogenazalar;

Oksigenazalar.

Anaerob degidrogenazalar - elektronlarni kislороддан tashqari oraliq akseptorlarga yetkazib beradilar. Bular ikki komponentli fermentlar, kofermenti  $\text{NAD}^+$  (nikotinamidadenindinukleotid) bo‘lishi mumkin. Oksidlanish natijasida  $\text{NAD}^+$  qaytarilgan  $\text{NAD} \text{ N}$  xolatga o‘tadi. Bu fermentlarga alkogoldegidrogenaza, laktadegidrogenaza, malatdegidrogenaza va boshqalar kiradi.

Aerob degidrogenazalar - elektronlarni har xil oraliq akseptorlariga va kislorodga yetkazib beradi. Bular ham ikki komponentli fermentlar bo‘lib, flavoproteinlar deyiladi. Bularning tarkibiga oksildan tashqari riboflavin (vitamin V<sub>2</sub>) ham kiradi. Ikki xil koferment mavjud:

- Flavinmononukleotid (FMN),
- Flaminadenindinukleotid (FAD)

FMN tarkibiga kiruvchi ferment - dimetilizoalloksazin, FAD- suksinat degidrogenaza. Bularning akseptorlari xinonlar, sitoxromlar va kislorod.

Oksidazalar - elektronlarni fakat kislorodga yetkazib beradi. Aerob harakterga ega. Bu fermentlar ishtirokida uch xil birikma hosil bo‘ladi: 1) suv, 2) vodorod peroksid, 3) kislorodning superoksid anioni.

Vodorod va superoksid anioni (O<sub>2</sub>-) zararli bo‘lgani uchun hujayrada fermentlar yordamida neytrallanadi:

Suvning hosil bo‘lishida fermentlardan sitoxromksidazalar, polifenoloksidazalar va boshqalar, vodorod peroksidining hosil bo‘lishida-flavoproteinoksidlar, kislorodning superoksid anioni hosil bo‘lishida-ksantinoksidazalar ishtirok etadi.

Oksigenazalar ham, oksidazalar kabi muxim ahamiyatga ega. Bu fermentlar yordamida kislorod aktiv xolatga keladi va organik moddalar bilan birikadi.

Nafas olishda organik moddalarning kislorod yordamida anorganik moddalarga pachalanishi mazkur jarayonning o‘ziga xos xususiyatlari

borligini ko‘rsatadi, chunki organizmdan tashqarida bu organik moddalar molekulyar kislorod bilan reaksiyaga kirishadi. Nafas olish jarayonining ana shu o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlab, nafas olish ximizmining xozirgi zamon tushunchasiga asos solgan olimlar: A.N.Bax, V.I.Palladin va S.P.Kostichevlar hisoblanadi.

#### A.N. Baxning peroksid nazariyasi

A.N.Bax biologik oksidlanishning peroksid nazariyasini 1897 yilda ishlab chikdi. Unga ko‘ra atmosferadagi molekulyar kislorod inert xolatda bo‘lib, organik moddalarni oksidlay olmaydi. Buning uchun uning tarkibidagi qo‘shtan bog‘ning bittasi uzilishi va faol xolatga o‘tishi zarur:

Kislorod oson oksidlanuvchi modda (A) bilan birikib qo‘shtan bog‘dan bittasi uziladi va peroksid (AO<sub>2</sub>) hosil qiladi. Hosil bo‘lgan peroksid (AO<sub>2</sub>) boshqa V moddani oson oksidlantirib o‘zi yana kislorodni akseptori vazifasini bajaradi.

A.N. Bax kislorodni faollovchi moddalarni oksigenazalar deb atadi. Oksigenezalarga o‘simgiliklar to‘qimasida ko‘p tarqalgan har xil kimyoviy birikmalar kiradi. Oksigenazalardagi faollashgan kislorod oksidlanayotgan substratga ko‘chiriladi. Ma’lum vaqt fanda, bu jarayonda peroksidaza fermenti muhim ahamiyatga ega, degan fikr hukm surdi.

Lekin 1955 yilda Yaponiyada (O.Xayaishi va boshqalar) va AQSh da (G.S.Mezon va boshqalar) molekulyar kislorodning organik moddalar bilan birikishi mumkinligini isbotlashdi.


Hozirgi vaqtga kelib, ma’lum bo‘lishicha A.N.Bax nazariyasining nafas olishga aloqasi yo‘q. Ammo u nafas olish jarayonining ximizmini o‘rganishga yo‘l ochib berdi. Chunki bu nazariyada kislorodni faollashtirishning zamonaviy mexanizmini ishlab chiqish uchun asos solingan edi.

#### 2. Fotosintezda hosil bo‘lgan assimlyatlarni xujayrada oksidlanish yo‘llari.

Nafas olish substratlarining faollashtirilishi fermentlar ishtirokida amalga oshadi. Fermentlar oqsil tabiatli katolizatorlar bo‘lib, bir qator xususiyatlarga egadir: kuchli faolik va labillik, spetsifiklik.

Biologik oksidlanish jarayonining mexanizmini o‘rganishda, V.I.Palladinning (1912) ishlari muxim ahamiyatga ega bo‘ladi. Uning nazariyasiga ko‘ra o‘simglik xromogenlari substratdagi

vodorodni o'ziga biriktirib oladi va keyingi ularni kislorodga o'tkazadi. Bu nazariya «Vodorodning faollashtirish» nazariyasi deyiladi, u ikki bosqichdan iborat:



K - rangli nafas olish pigmenti,  $\text{KN}_2$ - rangsiz nafas olish xromogeni. Birinchi reaksiyada reduktazafermenti yordamida substratdan vodorod atomlari kabul kilinib, nafas olish pigmentiga ( $\text{K}$ ) o'tkaziladi va nafas olish xromogeni ( $\text{KN}_2$ ) hosil bo'ladi. Hamma  $\text{SO}_2$  ham shu anaerob jarayonida ajralib chikadi. Ikkinci reaksiyada molekulyar kislorod ishtirok etib, xromogenlarni ( $\text{KN}_2$ ) nafas olish pigmentlarigacha oksidlaydi va ular yana vodorodning akseptori vazifasini bajaradi. Bu reaksiyalarda kislorod  $\text{KN}_2$  dan elektronlar va protonlarni tortib oladi va natijada suv hosil bo'ladi.

Keyingi izlanishlarda V.Palladin nazariyasi to'liq isbotlandi.

1912 yilda nemis bioximigi G.Viland ham biologik oksidlanish vodorodning ajratib olinishi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatgan edi.

Nafas olishda suvning ishtirok etishi va kislorod vodorodning oxirgi akseptori ekanligini 1955 yilda B.B.Vartapetyan va L.A.Kursanov tajriba asosida isbotladilar.

### 3. Anaerob va aerob nafas olish jarayonlari

O'simliklar hayot faoliyati nafas olish bilan amalga oshadi, kislorod yetishmay qolsa, anaerob (kislorodsiz) nafas olishi mumkin. Bunday holatda o'simliklar kerakli kislorodni organik birikmalardan, asosan qandlardan oladi. Anaerob sharoitda qandlar quyidagi sxemada parchalanadi.



Sxemadan ko'rinish turibdiki qandning bir qismi  $\text{SO}_2$  gacha oksidlanib, qolgan qismi spirtgacha qaytariladi. Bunda tashqaridan  $\text{O}_2$  kirib kelmasa, qandning parchalanishi o'z molekulasidagi kislorodning qayta taqsimlanishi hisobiga amalga oshadi. Qandlar to'liq oksidlanishi

natijasida 686 kkal energiya ajralsa, anaerob nafas olishda 48 kkal energiya ajraladi. Bunday farqning sababi shundaki, spirt molekulasida katta miqdorda potensial energiya qolib ketadi, chunki oksidlanish jarayoni oxirigacha bormaydi.

Ammo o'simliklar uzoq vaqt anaerob nafas olib yashay olmaydi. Bunday sharoitda ular nobud bo'lishiga sabab hosil bo'lgan spirtdan zaharlanadi va qurib qoladi. Anaerob nafas olish o'simliklar uchun vaqtinchalik holat bo'ladi. Tuproqda namlik ortib ketganda, o'simliklar anaerob nafas olishi mumkin. Ko'pgina mikroorganizmlar uchun anaerob nafas olish asosiy yo'1 bo'lib, bunda hayoti uchun zarur energiyani oladi, bu jarayon to'xtovsiz amalga oshadi. Bunday holatni anaerob nafas olishdagi bijg'ish jarayoni deyiladi. Mikroorganizmlar bijg'ish jarayonida o'zining zahira oziq moddalarini sarflamay, balki atrofdagi oziq moddalardan foydalanadi.

Anaerob nafas olishda o'simliklardagi spirtli bijg'ishdag'i kabi jarayon boradi, bunda qator fermentlar ta'sirida oraliq moddalar hosil bo'ladi, ya'ni pirouzum kislota  $\text{SO}_2$  va spirtga parchalanadi. Aerob sharoitda esa pirouzum kislota  $\text{SO}_2$  va  $\text{N}_2\text{O}$  gacha parchalanadi.

Aerob fazada glyukoza molekulasiga ferment yordamida ATP dan bir molekula fosfat kislota birikadi.




So'ngra glyukoza fosfat ferment ta'sirida qator o'zgarishlarga uchrab, anorganik fosfat kislota hisobiga difosfatglitserin kislota hosil qiladi:



Fosfatglitserin aldegid

Difosfoglitserin aldegid ADF bilan reaksiyaga kirishib, ATF molekulasi va fosfoglitserin kislota hosil qiladi.



Murakkab o'zgarishlardan so'ng fosfoglitserin kislota ( FGK) pirouzum kislota hosil qiladi, fosfat kislota qoldig'i ATF ni hosil qiladi.



Pirouzum kislotaning oksidlanishi natijasida 3 molekula  $\text{SO}_2$ , ammo qand molekulasiidan 2 molekula pirouzum kislota hosil bo'lса,  $\text{SO}_2$  gazining miqdori 6 molekulaga teng bo'ladi. Glyukozaning oksidlanishi natijasida 38 molekula ATF hosil bo'ladi, hujayrada 380 kkal energiya to'planib, bu energiya glyukozaning 50% kimyoviy energiyasi bo'lib, qolgan qismi issiqlik tarzida tarqaladi.

#### **4. Nafas olish koeffitsienti (NOK).**

Nafas olish jarayonida ajralgan  $\text{SO}_2$  ning yutilgan  $\text{O}_2$  miqdoriga nisbati nafas olish koeffitsienti (NOK) deyiladi. Bu koeffitsient 1 dan kichik, katta yoki unga teng bo'lishi mumkin. Uglevodlar oksidlanishida  $\text{SO}_2$  va  $\text{O}_2$  gazlarining hajmi teng bo'ladi, ya'ni NOK 1 ga teng bo'ladi. Organik kislotalarning oksidlanishida NOK 1 dan katta bo'ladi.

Bunda oksalat kislota kislородга boy bo'lganligi uchun vodorodning oksidlanishi uchun faqat yetarli emas, balki ortiqcha bo'lib, bir qismi uglerodning oksidlanishiga sarflanadi. Bunda N.O.K. 4 ga teng bo'ladi.

O'simliklar oqsillar yoki yog'lar hisobiga nafas olsa, ularning molekulasida vodorod va uglerod ko'p bo'lib, kislород kam bo'lganligi uchun

Shunday qilib, uglevodlar oksidlanganda nafas olish koeffitsienti 1 ga teng bo'ladi, oqsillar va yog'larda 1 dan kichik, organik kislotalarda 1 dan katta bo'ladi. Nafas olish koeffitsientiga qarama-qarshi ko'rsatkich issiqlik effektidir, yog'larning oksidlanishida maksimal effekt kuzatiladi.

#### **5. Mitoxondriyalar tuzilishi va funksiyalari. Elektron - transport zanjiri.**

O'simlik hujayrasida mitoxondriyalar yumaloq yoki gantelsimon shaklda bo'lib, diametri 0,4-0,5 mkm va uzunligi 1-5 mkm bo'ladi. Bitta hujayrada uchtadan ikki mingtagacha mitoxondriy bo'lishi mumkin (uning soni hujayra ontogenezida funksional xolatiga qarab o'zgarilib turadi). Organoid 5-6km qalinlikdagi tashqi va ichki membranalar bilan chegaralangan. Ichki membranalar bo'rtmalar-kristalar hosil qiladi. Mitoxondriyning ichki muxitini matriks tashkil etib, unda ribosoma va mitoxondriyal DNK bo'ladi. DNK xalqasimon to'zilishga ega.

Mitoxondriyalarda hujayraning energiyaga bo'lgan talabini qondiruvchi aerob nafas olish va oksidlanuvchi fosforlanish tizimlari joylashgan. Ichki membranasida elektron transport zanjiri komponentlari joylashgan. Matriksda nafas olish jarayonida ishtirok etuvchi fermentlar tizimi joylashadi.

Krebs, glioksilat va pentozamonofosfat sikllarida  $\text{O}_2$  ishtirok etmasa ham bu sikllar fakat aerob sharoitida amalga oshadi. Krebs siklida suksinil-SoA darajasida ATRning substrat fosforlanish natijasida hosil bo'lishini nazarda tutmasak, bu sikllarda ATR hosil bo'lmaydi.  $\text{O}_2$  nafas olishning oxirgi bosqichida, qaytarilgan KADN va FADN<sub>2</sub> larning elektron transport zanjirida (ETZ) oksidlanishi davrida kerak bo'ladi. ETZ bo'ylab elektronlarning harakatlanishi natijasida ATR sintezlanadi.

Nafas olish ETZ si mitoxondriylarning kristalarida joylashadi va elektronlarni qaytarilgan substratlardan O<sub>2</sub> ga uzatishda xizmat qiladi, bu N<sup>+</sup> ionlarini transmembran harakati bilan kuzatiladi. Shunday qilib mitoxondriylar ETZsi oksidlovchi-qaytaruvchi N-pompalar vazifasini o‘taydi.

#### 19-rasm. Xujayrada mitoxondriyaning ko‘rinishi

Nafas olish jarayoni tirik organizmlardagi moddalar almashinuvi jarayoni bilan chambarchas bog‘liqdir. Fotosintezda hosil bo‘lgan energiya, asosan uglevodlarda to‘planib, ular nafas olish substratlari bo‘lib xizmat qiladi. Organik moddalarning parchalanish jarayoni ko‘p bosqichli bo‘lib, bunda energiya transformatsiyasi, ya’ni uni makroergik bog‘larga (ATF ga) o‘tib, oqsillar sintezi va boshqa fiziologik jarayonlarga sarflanadi. Energiyaning bir qismi issiqlik energiyasiga o‘tishi mumkin. Nafas olish jarayoni oqsillar va yog‘lar sintezi bilan bog‘liq bo‘lib, pirouzum kislota parchalanishida hosil bo‘ladigan oraliq moddalar oqsil va yog‘lar sintezi uchun xom ashyo bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, pirouzum kislotadan alanin (1) hosil bo‘ladi. a-ketoglyutaratdan gutamin kislota (4) hamda fumarat (3) va oksoloatsetat kislotalardan (2) asparagin kislota hosil bo‘ladi. Yuqorida aytilgan aminokislotalardan qayta aminlanish bilan boshqa oqsillar sintezi uchun zarur aminokislotalar hosil bo‘ladi.

Nafas olish qaytarilgan birikmalar (yog‘lar, terpinlar, kauchuk va sterollar) hosil bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘ladi.

Shunday qilib, nafas olish murakkab, boshqarib turiladigan ko‘p bosqichli oksidlanish jarayoni bo‘lib, unda energiya ajraladi va u kichik porsiyalarda sarflanadi. Nafas olish organizmda moddalar almashinuv jarayoni bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayonsiz hayotni tasavvur qilib bo‘lmaydi.

#### Mustahkamlash uchun savollar:

1. Nafas olish jarayoni va biologik ahamiyati nimadan iborat?
2. Fotosintezda hosil bo‘lgan assimlyatlarni xujayrada oksidlanish yo‘llari?
3. Anaerob va aerob nafas olish jarayonlarini tushuntirib bering?
4. Nafas olish koeffitsenti nima?
5. Mitoxondriyalar tuzilishi va funksiyalari?
6. Elektron- transport zanjiri nima?
7. Tashqi muxitga bog‘liq holda nafas olishni o‘zlashtirishi.
8. Don, meva va sabzavotlarni saklashda nafas olishning ahamiyati.
9. Bir moddadan ikkinchi moddaning xosil bo‘lishi, ikkilamchi moddalar.
10. O‘simliklar tarkibidagi alkaloidlar va glikozidlar.
11. O‘simliklar tarkibidagi oshlovchi moddalar.

#### 7-mavzu: O‘simlikdagi fiziologik jarayonlarning mahsuli - o‘sishi

##### Reja:

1. O‘sish va rivojlanish tushunchalari.
2. Embrional rivojlanish.
3. O‘qli tuzilish (struktura)
4. Embrioning o‘qi xujayralarning birinchi zigotali bo‘linishida shakllanadi.
6. Sitokinezning strukturalar shakllanishidagi ahamiyati.
7. O‘simliklarda meristemaning rivojlanishi.

---

Tayanch iboralar: tashqi muxit, oshlovchi modda, alkaloid, glikozid, ikkilamchi modda, kislorodning miqdori, konstitutsion modda, plastik moddalar, anaerob, auksanograf, differensiya, stimulyator, tiomechevina, gibberellin

## **1. O'sish va rivojlanish tushunchalari**

Rivojlanishning vegetatsiya bosqichi embrional genezdan boshlansada, rivojlanish o'simliklarning butun hayoti davomida amalga oshadi. O'simliklar ontogenetikasini o'rganish zigotalar fay tarzda embrion hosil qilishi bilan va mavjud strukturalardan o'simliklar qanday usulda yangi strukturalar hosil qiladi kabi savollar bilan boshlanadi.

O'simliklar meristemasi yuqori qaytalanish xususiyatlariga ega va ular aynan bir xil va analogik strukturalarni qayta-qayta ishlab yaiqarishi mumkin va bu jarayonlar belgilab qo'yilmagan o'sish chegarasida uzlusiz davom etishi mumkin. Kaliforniya sekvoyasi, qarag'ay kabi bir qancha uzoq umr ko'ruchchi o'simliklar uzoq yillar davomida o'sish jarayonlarini amalga oshirishi mumkin. Boshqa kam umr ko'ruchchi o'simliklar, masalan bir yillik o'simliklar vegetativ hayat davomiyligini gullahdan boshlab bir necha oylar yoki hafta davomida tugatishi mumkin. Oxir oqibatda katta o'simliklarda zigota hosil bo'lishi va jarayonlarning qayta amalga oshishini ta'minlovchi vegetativ rivojlanishdan reproduktiv rivojlanishga o'tishi jarayoni amalga oshadi.

Meristemalar boshchalaridan hosil bo'lgan xujayralar xujayralar rivojlanishining maxsus qonuniyatlar asosida borishini nazorat qiladi va bu hosilalar o'simliklar shakllari va o'lchamlarini hosil qiladi. Biz shuningdek meristemalar muhokamasidan keyin o'simliklar rivojlanishini tahlil qilamiz, shuningdek o'simliklarning bo'shliqlarda rivojlanishi (o'simliklar strukturalariga nisbatan) va davrlarini (qaysi paytda rivojlanishi) ni ko'rib chiqamiz.

Va nihoyat o'simliklar o'sishining cheklanmagan o'zgarishlariga qaramasdan o'simliklar barcha tirik organizmlar qatorida o'sib rivojlanadi va qarib nobud bo'ladi. Bo'limning oxirida o'simliklarning qarib nobud bo'lishini ham xujayra va organizm darajasida rivojlanishning bir bosqichi sifatida ko'rib chiqamiz.

## **2. Embrional rivojlanish.**

Embriogenez deb ataladigan rivojlanish jarayoni o'simliklar rivojlanishini ta'mtinlaydi. Embriogenez tuxum xujayra va urug' xujayraning qo'shilishi bilan boshlansada, bir xujayrali zigotalar hosil qilish bilan birga somatik xujayralar ma'lum bir muhim jarayonlarda embriogenezga uchrashi mumkin. Urug'lanish shu bilan birga rivojlanishning uchta dasturini ta'minlaydi. Bular endosperma, urug' va mevaning rivojlanishi.

Embriogenez mikroskopik, embrional, bir xujayrali zigota o'simlikni ko'p xujayrali organizmga aylantiradi. To'liq shakllangan embrion yetilgan o'simlik va yetuk o'simliklarning urug'langan shaklda ular mavjud bo'lsada bir qancha tiplarining asosini o'zida saqlaydi.

Ikki tomonlama urug'lanish gulli o'simliklar uchun noyob hodisa hisolanadi O'simliklarda qolgan barcha eukariotlar kabi spermatazoid va tuxum xujayraning qo'shilishidan bir xujayrali zigota hosil bo'ladi. Yopiq urug'li o'simliklarda bu urug'lanish jarayoni ikkilamchi urug'lanish bilan birga boradi va boshqa sperma ikki polyar yadro bilan birikib yadro endospermasing triploid shaklini hosil qiladi va undan endosperm rivojlanadi (o'sayotgan embrionga oziq moddalarini yetkazib beruvchi to'qima)

Embriogenez urug'murtakning murtak xaltachalarida amalga oshadi va bu vaqtida tuxum xujayralar qatori ularga bog'liq rivojlanadigan strukturalar urug'da o'sib rivojlanadi.

Embriogenetika va endosperma rivojlanishi urugning rivojlanishi bilan parallel ravishda amalga oshadi va embrion urugning bir qismi hisoblanadi.

Endosperma shuningdek yetuk urug‘larning qismlari hisoblanadi, ammo bir nechta endosperm turlari urugning rivojlanishining tugashiga qadar yo‘q bo‘lib ketishi mumkin. Embriogenetika va urug‘larning rivojlanishi yuqori darajada tartiblangan va integratsiyalangan jarayonlar hisoblanadi va ikkala jarayonlar ham ikkilamchi urug‘lanishni ta‘minlab beradi. Urug‘ va embrionning ichkaridagi passiv holtga o‘tishi tugallanganidan keyin urugning o‘sishi uchun noqulay sharoitlarda uzoq vaqt xususiyatlarini saqlab turish xususiyati uzoq davr mobaynida saqlanib turadi. Urug‘ hosil qilish xususiyati o‘simliklarning evolyusiya davomiyligida ochiq uruglilarni ham yopiq urug‘lilar qatorida yashab qolish xususiyatlarini namoyon qilgan.

Zigotaning oldindan bashorat qilish mumkin bo‘lgan va spetsifik tashqi ko‘rinishli shakllangan embrion hosil qilishi bizga zigotaning ma‘lum shaklda genetik dasturlanganini anglatadi va xujayraning bo‘linishi, xujayraning rivojlanishi va xujayraning shakllanishi embrion hosil bo‘lishida qat‘iy nazorat qilinadi. Agar bu jarayonlar murtakda bexos yuzaga kelganda unda shakllanmagan, ma‘lum shaklga va xususiyatga ega bo‘lmagan xujayralar hosil bo‘lgan bo‘lar edi.

Bu bo‘limda biz ushbu o‘zgarishlarni bat afsil ko‘rib chiqamiz. Shuningdek biz o‘simliklarning Lga’Morsh modellarida o‘simliklar rivojlanishini tushunish uchun o‘tkazilgan molekulyar-genetik tadqiqotlar xususida ham to‘xtalib o‘tamiz. Shu bilan birga, ko‘pgina yopiq urugli o‘simliklar rivojlanishning gulli o‘simliklar evolyusiyasining boshlanish jarayonlarida va shakllar xilma xilligi vaqt va makon birligida turli xil mexanizmlar emas, balki rivojlanishning molekulyar darajada boshqarilishida nisbatan kichik o‘zgarishlar chaqiradigan analogik mexanizmlardan foydalanadi.

Embriogenetika yetuk o‘simliklarning mavjud xususiyatlarini yaratadi.

O‘simliklar ko‘pgina xayvonot olamidan embriogenetining to‘gridan-to‘gri bo‘lmagan yetuk organ va to‘qimalarda generirlanishi bilan farq qiladi. Masalan, yopiq urug‘lilarda embriogenet elementar o‘simlik organizmini shakllantiradi va embrional o‘q va ikki urug‘pallasidan iborat bo‘ladi (Agar bu o‘simlik ikki pallali bo‘lsa). Bundan tashqari embriogenet yetuk o‘simliklarda yaqqol ko‘rinib turadigan va saqlanadigan o‘simliklar rivojlanishining ikki asosiy qonuniyatlarini belgilab beradi:

1. Asosli (o‘qli) apikal-bazal patterna rivojlanishi
2. Ildizmevalarda va poyalarda uchraydigan to‘qimalarning radial strukturasi.

Embriogenetika shuningdek birlamchi meristemaning hosil bo‘lishini ta‘minlaydi. yetuk o‘simliklarning tashkil etuvchi bir qancha strukturalari embriogenet jarayonlaridan keyin meristemalar faollashganidan so‘ng shakllanadi. Ushbu birlamchi meristemalar embriogenetining ilk bosqichlarida hosil bo‘lsada, faqatgina yetiltb bo‘lganidan keyingina ular faol holatga o‘tadi va yetuk o‘simliklarda organlar va to‘qimalarning generirlanishini (hosil bo‘lishini) ta‘minlaydi

### 3. O‘qli tuzilish (struktura)

Deyarli barcha o‘simliklar o‘qli polyar xususiyatiga ega bo‘ladi va shuning uchun to‘qimalar va organlar aniq tizim asosida to‘gri chiziq bo‘ylab yoki o‘q atrofida polyarlangan tartibda joylashadi. Niholning Apikal meristemaning o‘qning birinchi oxirida joylashadi ildiz apikal meristemasi esa boshqa tarafida joylashadi. Embrion va yosh nihollarda, bir yoki ikki pallallar Apikal meristemalarning biroz pastki qismlarida joylashadi. Keyinchalak bu to‘gri chiziqli joylashish gipokotil ko‘rinish hosil qiladi va undan keyin ildiz, ildiz apikal meristemasi va ildiz qalpoqchasi bilan tugallanadi. Ushbu o‘qli xususiyat embriogenet jarayonlarida hosil bo‘ladi.

Unchalik muhim ahamiyatga ega bo‘lmagan yana bir fakt shundan iboratki, ildiz yoki poyaning alohida qismlari turli fiziologik va schtruktura xususiyatlariiga ega bo‘lgan turli hil apikal va bazal tugallanishlarga ega bo‘ladi. Masalan, o‘z vaqtida qo‘srimcha ildizlar poya qalamchalari bazal oxirlaridan rivojlansa, kurtaklar yuqori tugallanuvchi qismlaridan rivojlanadi hattoki ular egilgan holatda bo‘lsa ham.

#### **4. Embrionning o‘qi xujayralarning birinchi zigotali bo‘linishida shakllanadi.**

O‘qli polyarlik esa embriogenezning juda erta bosqichlarida yuzaga keladi. Ayni paytda zigotaning o‘zi polyarlangan holatga o‘tadi va birinchi shakllangan ilk ko‘rinishiga nisbatan uch marotabagacha uzunlashadi. Zigotaning yuqorida joylashgan oxiri quyuq sitoplazmali bo‘ladi ammo xujayraning bazal yarim qismi katta markaziy vakuoladan iborat bo‘ladi.

Zigotaning birinsi bo‘linishi assimmetrik bo‘lib uning uzun o‘qiga nisbatan to‘gri burchak ostida bo‘linadi. Bunday bo‘linish ikkita xujayrani hosil qiladi, apikal va bazal xujayralar. Bu ikki xujayra keyinchalik bir biridan butunlay farq qiluvchi rivojlanish bosqichlaridan o‘tadi. Kichkina apikal qizlik xujayra kattasiga nisbatan sitoplazmaning ko‘p qismini qabul qilib olsa, bazal xujayra katta zigota vakuolasini qabul qilib oladi.

Murtakning deyarli barcha strukturalarida va yetuk o‘simlik rivojlanishining so‘nggi bosqichlari kichik apikal xujayralardan hosil bo‘ladi. Poyalarning uchida joylashgan xujayralarning ikkita vertikal va bitta gorizontal bo‘linishi sakkizta bir xujayrali (globulyar) murtakni hosil qiladi.

Bazal xujayralar ham bo‘linadi va bu bo‘linish uzunasiga joylashgan o‘qqa nisbatan to‘gri burchak ostida gorizontal ravishda amalga oshadi. Buning natijasida oltitadan to‘qqiztagacha xujayradan iborat 8shretog(ka1 nomi bilan ataluvchi tolalar yuzaga keladi va bu tolalar embrionni o‘simlikning tomirchalari joylashgan tizimlari bilan bog‘lab turadi. Faqatgina bitta bazal xujayrasi embrionni shakllantiradi.

Embrionga yaqin joylashgan bazal ko‘payuvchi xujayralar gipofiz deb ataladi Shu bilan birga keyinchalik bu bo‘limda ko‘rib chiqiladigan tinim markazi nomi bilan yuritiladigan ildiz apikal meristemasing ma’lum bir qismini hosil qiladi.

Hattoki bu holatda ham embrion o‘zining barcha sharsimon bosqichlari davomida sferasimon shaklda bo‘ladi. Apikal va bazal yarimsferalaridagi xujayralar ham turli xususiyat va xossalarga ega bo‘ladi. Murtak o‘sishi va rivojlanishning yurak bosqichiga o‘tishi davomiyligida uning o‘qli polyarligi yanada yaqqolroq hosil bo‘ladi va buning natijasida uchta o‘qli bo‘limlar hosil bo‘ladi va ularni osongina aniqlash mumkin:

1. Yuqoridagi joylashgan qismlarning urug‘pallalarga qadar yetib borishi va yuqoridagi meristemalarning hosil bo‘lishi

2. O‘rta qismlarning gipokotil, ildiz va ildiz meristemasing katta qismlariga yetib borishi.

3. Gipofiz qismlarining ildiz o‘qi meristemasing boshqa qismlariga yetib borishi. Yuqorigi va pastki qavatlardagi xujayralarning globulyar embrion bosqichlari bir biridan farqlanadi va o‘qli shablonni o‘zida aks ettiruvchi zigotadagi embrionda to‘planuvchi embrionning apikal va bazal yarim qismlarga bo‘linadi.

To‘qimalar radial strukturasining differensiyalanishi (shakllanishi) sharsimon bosqichlarda ilk bora kuzatiladi.

To‘qimalar radial strukturasining differensiyalanishi avvalo embrion oktantida kuzatiladi. Xujayralar bo‘linishi sharsimon embroinda davom etishi va ko‘ndalang bo‘linish pastki

qavatlardagi xujayralarni radial yo‘nalishda uchta qismga ajratadi. Bu qismlar ildiz to‘qimalar va poya o‘qlarida radial joylashadi.

Markazdan deyarli uzoqlashgan xujayralardan esa bir xujayra- yuzali protoderm deb ataladigan qalin qavatni hosil qiladi. Protoderma embrionning ikkala qismlarini ushlab turadi va keyinchalik epidermisni ham hosil qiladi.

Meristema hosil bo‘lishi uchun asos vazifasini o‘taydigan xujayralar protoderma asosida yotadi. Tuproqqa yaqin joylashuvchi ildiz meristemalari ildiz va gipokotilda asoslarni hosil qiladi va keyinchalik endoderma hosil bo‘lishida ishtirok etadi.

Prokambiy cho‘zilganxujayralarning ichki yadrosi hisoblanadi va ildizlardagi tomirlarning to‘qimalarini va peritsiklini hosil qiladi.

Embriogenet maxsus genlarning jarayonlarda ishtirok etishini talab qiladi.

Arabidopsis mutant o‘simliklarning tahlillari shuni ko‘rsatadi, embriogenet jarayonlarida o‘qli polyar holatning yuzaga kelmasligi yoki me’yoriy ravighda rivojlanmasligi embriogenet jarayonida to‘qimalar guruhanishida ishtirok etadigan genlar identifikasiyasiga olib keladi.

GNOMGeNLAR: O‘simliklarda o‘qning shakllanishi. Nihollarning gomozigotalari GNOM genlarining ildieladra va urug‘pallalarda uchramasligi mutatsiyasi.

GNOMmembranalardagi kamchiliklar zigitoning ilk bo‘linish bosqichlarida yuzaga keladi va bu sho‘zarishlar butun embriogenet davrida saqlanib turadi. Gnommembranalarning muhim ahamiyatga ega bo‘lgan mutuntlari sferik tuzilishga ega va o‘qli polyarlik xususiyatlari umuman bo‘lmaydi. Biz gnomgenlar ekspressiya holatining o‘qli polyarlik xususiyati hosil bo‘lishidagi ahamiyatini ko‘rib chiqamiz.

MONOPTeROSGeNLAR (MP) Birlamchi ildizlar va tomirlar to‘qimalari . Monopterosgenlarning o‘sish jarayonlaridagi mutatsiyalari apikal qismlarda ularning rivojlanishi yuzaga kelsada, gipokotil va ildiz yetishmasligiga olib keladi. Apikal strukturalarning monopteroidgenlardagi mutatsiyalari struktur jihatidan me’yoriy holat hisoblanmaydi, aksincha urugpallalarning to‘qimalari buzilgan holatda bo‘ladi.

Monopteroid genlar mutatsiyasidagi buzilishlar ilk bora embriogenetning oktknt bosqichida yuzaga keladi va buning natijasida globulyar murtakning pastki qismlarida prokambiy rivojlanishi izdan chiqadi. Keyinchalik esa bir qancha tomir to‘qimalari urug‘pallalar shakllarini hosil qilsada, tutib turuvchi ipchalar noto‘gri shaklda joylashib qoladi.

Monopteroid genlar mutatsiyasida embrionlar birlamchi ildizlarning shakllanish bosqichini amalga oshirmaydi. Ammo keyinchalik unib chiqqan ko‘chatlar yetilganidan so‘ng qo‘shimcha ildizlar paydo bo‘ladi. Tomir to‘qimalarda yuzaga kelgan barcha bunday mutantga uchragan o‘simliklarda ma’lum qismlarning nobud bo‘lishi hisobiga rivojlanish jarayonlari sekinlashadi. Shu yo‘sinda shuni tushunish mumkinki, monopteroid genlar embrionlarda birlamchi ildizlar shakllanishida ishtirok etadi, ammo yetuk o‘simliklarda ildizlarning shakllanishida ishtirok etmaydi. Monopteroid genlar tomir to‘qimalari shakllanishida va shu bilan birga postembrion rivojlanishida muhim ahamiyatga ega.

Qisqa ildiz va o‘zaro muvofiq rivojlanish genlari. yer ustki rivojlanish. Genlar to‘qimalar shakllanishida muhim vazifalarga ega va embriogenet jarayonlari paytida gipokotil va ildizlarda radial to‘qimalar xususiyatlarini hosil qiladi. Bu genlar shuningdek, postembrional rivojlanish jarayonlarida radial strukturalar rivojlanishida ishtirok etadi.

Bu genlarning ahamiyatini tushunishda tadqiqotchilar arabidopsis mutant izolirlangan o‘simliklarda ildiz o‘sishining sekinlashishini kuzatganlar. Bu mutantlarning tahlili radial to‘qimalarda turli xildagi yetishmovchiliklar uchraydigan bir necha variantlarda o‘tkazilgan. Bu ikkita shikastlangan genlar qisqa ildiz (8NK) va muvofiq o‘sish (8SK) genlari nafaqat murtakda

to‘qimalarning differensiallanishida (o‘sishida), xujayralar differensirovkasida balki ikkala birlamchi va ikkilamchi ildizlar va gipokotillarda xujayra va to‘qimalarning differensirovkasida ishtirok etadi.

8NK va 8SK mutuntlarning har ikkalasi ham ildizning tashqi yuzasidagi bir xujayrali ildiz qavatlari hosil bo‘lishida ishtirok etadi. Tuproq yuzasida joylashadigan ildizning bir xujayrali tashqi qavatini hosil qiluvchi xujayralar aralash identifik xususiyatga ega va 8SK mutatsiyali o‘simliklarda ikkala endodermik qavatlar va asos xujayralarda ham nomoyon bo‘ladi. Bu 8SK mutantlar gravitatsion o‘sish reaksiyalari jarayonlarida ishtirok etadigan kraxmal obolochka (o‘ralgan) deb ataladigan xujayra qavatlarida uchramaydi.

8NK mutatsiyaga uchrangan o‘simliklar ildizlari esa asosiy to‘qimalarning bir qavatli tashqi qavatga ega bo‘ladi, ammo ular faqatgina o‘zak xujayralar xususiyatlarini namoyon qiladi va endodermal xususiyatlarning yetishmasligiga uchraydi.

Hobbit genlar: Ildiz meristemalari. Birlamchi ildizlar va meristema o‘qlari embriogenetika jarayonida hosil bo‘ladi. Shuning uchun ko‘p hollarda ular bu paytda faol bo‘lmaydi. Promeristema atamasi ushbu strukturani tavsiflashda ishlatiladi. Apromeristema o‘sish jarayonidan keyin hosil bo‘ladigan meristema bo‘lib, embrional struktura sifatida xizmat qiladi.

Ildiz promeristemasi uchun molekulyar marker hanuzgacha aniq o‘rganilmagan, ammo uning hosil bo‘lishi embriogenetika jarayonining ilk bosqichlarida kuzatiladi. Ildiz boshchasi o‘q xujayralari (ildiz boshchalari hosil bo‘lishi uchun bo‘linadigan xujayralar) embriogenetika jarayonining yurak bosqichida gipofizdan shakllanadi va bundan shuni tushunish mumkinki, ildiz promeristemasi avvalo embriogenetika shu bosqichida shakllanishi boshlaydi.

Hobbit genlarning nomoyon bo‘lishi ildiz meristemasining identifikatsiyasining ilk belgilari bo‘lishi mumkin.

Hobbit mutant genlar (NVT) ta’sirida funksional embrional ildizlarning shakllanishi monopteroid mutant genlarning o‘simliklarga ta’siri kabi noto‘gri kechadi. Bundan tashqari bu ikki mutatsiya genlari juda ko‘p bosqichlarda faol bo‘ladi. Hobbit genlar mutatsiyasida ikki xujayrali va to‘rt xujayrali bosqichlarda, shu bilan bir qatorda sharsimon embrion kompleksi (birikmasi) hosil bo‘lish bosqichida ham o‘zgarishlar yuzaga keladi. Hobbit genlar mutantlari ta’sirida yuzaga keladigan birlamchi shikastlanishlar embriogenetika yurak bosqichida gipofizning buzilishiga olib keladi va buning natijasida xujayralar gorizontal emas balki vertikal tarzda bo‘lina boshlaydi. Natijada gipofiz o‘zining vazifasini to‘liq bajara olmaydi va tinim markazlari va kollumellalarni hosil qiladigan ildiz meristemasi shakllanmaydi. Hobbit mutant genlar ta’sirida o‘simliklarda me’yoriy ildiz meristemalari yuzaga kelsada, ular nihollarda o‘zlarining to‘liq vazifalarini bajarmaydi.

Bundan tashqari hobbit mutant genlar muatsichsi ta’siri ostida hosil bo‘lgan embrionlar keyinchalik yon ildizlar hosil qilish xususiyatiga ega bo‘lmaydi.

Meristema o‘qlarining qisqarish genlari. Promeristemalar o‘qlari. Bu genlar xujayralarning morfologik shakllarini hosil qiladi va embriogenetika jarayoni niatijasida promeristema o‘qlarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Arabidopsislarda embriogenetika torpeda bosqichida ishtirok etadi. Rejalangan xujayra bo‘linish jarayonlarida bir qancha xujayralar urug‘pallalar orasida qavatsimon qismlarni hosil qiladi. Bu qismlar nihollarning uchki stvollarini uchun xosdir. (shu bo‘limda keyinchalik ko‘rib chiqiladi). Bundan tashqari, bu xujayralarning o‘tmishdoshlari, ehtimol, embriogenetika jarayonlarining sharsimon bosqichlarda nihollar xujayralarining apikal meristemasi molekulyar idnetifikatsiyasini hosil qilgan bo‘lishi mumkin.

Meristema o'qlarining qisqarish genlari (STM) odatda meristemaning uchki qismlarining rivojlanishida va bu xujayralar bo'linishidan nihollar promeristemalari shakllanishida ishtirok etadi.

Arabidopsis o'simliklar gomozigotalari rivojlanishining STM genlari yo'qolishi mutatsiyalari natijasida nihollarning apikal meristemalari rivojlanmay qoladi va buning o'rniغا o'sha qismlarda xujayralarning differensiallashuvi kuzatiladi. (Linkoln va boshqalar 1994). STM genlarining yovvoyi turlarda uchraydigan tiplarida ular xujayralarning differensiallashuvini oshirib yuboradi va meristema xujayralarining differensiallanmasligiga olib keladi va meristemalar umuman rivojlanmay qoladi.

STM meristema genlari embrionlarning midglobulyar (globulalar orasida) apikal oxirlaridagi bir yoki bir necha yacheykalarda akuzatilishi mumkin. Embriogenezning yurak bosqichida STM genlarining nomoyon bo'lishi urug'pallalar orasidagi bir yoki bir necha xujayralar tomonidan cheklab turiladi. STM genlarining rivojlanish bosqichlaridagi ahamiyati nihollarning apikal meristemalarining morfologik jihatdan hosil bo'lishida yaqqol nomoyon bo'ladi.

STM genlari nafaqat nihollarning embrional apikal meristemalarining shakllanishida ishtirok etadi shu bilan birga nihollarning yetuk o'simliklargacha bo'lgan rivojlanish jarayonlarida yuqori meristemalari o'sishini ta'minlashda ham faol ishtirok etadi. Embrioning rivojlanishi maxsus genlarining ekspressiyasini (birga faoliyat olib borishini) talab qiladi.

Arabidopsis o'simliklarida embrion 20 000 xujayra hosil qilganidan so'ng tinim holatiga o'tadi.

Ushbu tinim holati suvning yo'qotilishi, transkripsiya genlarining umumiyligi pastga siljishi va oqsillar sintezining to'xtashi va bu tinim holati nafaqat murtakda shu bilan birga butun urugning yetilish davrida ham kuzatiladi.

Bunday tinim holatiga o'tishda xujayraning moslashuvi maxsus genlarning nomoyon bo'lishini talab qiladi.

Masalan absizin kislotasi (AV13) va G'№SA3 genlari tinim holatiga o'tishga nisbatan barqaror va ABK garmonlariga sezgir bo'ladi va urug hosil bo'lishini va embrion rivojlanishining to'xtashini ta'minlaydi. (AV13) kodlovchi oqsillar dasturlarini saqllovchi va embriogenet rivojlanish jarayonlarida urug'pallalarda saqlab qo'yiladigan genlar ekspressiyasini nazorat qiladi.

Tirik qolgan murtaklar urug' ekilganda qaytadan faol holatga o'tadi va fertil o'simliklarni hosil qila oladi. Ular biroz ayni tur o'simlikning yovvoyi o'tmishdoshlariga o'xshab ketadi. Chunki ularda 78 oqsillar saqlanmaydi va ularning yuqori yuzasida uch uchli bargsimon murtaklari bo'ladi.

## 5. Sitokinezning strukturalar shakllanishidagi ahamiyati

Arabidopsis oilasi vakillari va shu bilan birga ko'pchilik o'simliklarda to'qimalarning shakllanishi mukammal dasturlangan stereotip xujayralar bo'linishi asosida hosil bo'ladi.

Bo'linishning bunday mukammal jarayonlari meristemalardan o'simliklar asoslariga tomon cho'zilgan yacheykalarni (katakchalarni) hosil qiladi.

Xujayralarning bo'linish jarayonlari aniq o'rganilmagan bo'lsada, boshqa barcha turlarda to'qimalar shakllanishining asosiy sxemasi deyarli bir biridan farq qilmaydi.

Xujayralarning stereotip bo'linishi strukturasi to'liq o'rganilmagan

To'qimalar differensiatsiyasi o'qli va radial shakllanishi barcha bo'linish jarayonlari va stereotip bo'linish holatlarida arabidopsis mutant ikki turda ma'lum qonuniyatga bo'ysunadi.(Torrez-Ruis va Yurgens 1994, Traas va boshqalar 1995)

Bu mutatsiyalar ayni bir genda joylashadi va o'simlik xujayralarida gomozigot ton (FASS) mutatsiyalari sitoplazmatik strukturalarga ega bo'lmaydi va bu jarayon mikronaychalarining belbog'larining preprofazasi deb ataladi. Guruhlarning preprofazasi sitokenez jarayonlari amalga oshayotgan paytda fragmoplastlar hosil bo'lishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan omillardan biri hisoblanadi va shu tarzda xujayralarning bo'linishida faol ishtirok etadigan omil bo'lib xizmat qiladi.

Ton (FASS) mutatsiyalari embriogenezning erta bosqichlarida yuzaga keladi va o'simliklarning rivojlanishidagi butun jarayonlar davomida saqlanib qoladi. Bunda o'simliklarning o'sish hajmi 2 sm dan 3 sm gacha balandlikkacha bo'lishi mumkin. Ularning barglari, ildizlari va poyalari ham deformatsiyaga uchraydi. Va nasl berish xususiyatiga ega bo'lmaydi. Bundan tashqari mutant o'simliklar faqatgina oqli shablon hosil qiladi, ammo ularda yovvryi turdoshlarining barcha xujayralari nomoyon bo'ladi va ular bu o'simliklarda to'g'ri rivojlangan bo'ladi.

To'qimalarning har bir qavatlardagi xujayralarning aniq miqdori mutant o'simliklarda radikal jihatidan farq qiladi ammo har bir to'qima to'g'ri shakllanadi muvofiq ravishda joylashadi.

Bu mutatsiyalar radikal o'simliklar hosil bo'lishiga deyarli ta'sir ko'rsatmaydi va xujayralarning stereotip bo'linishini ta'minlovchi omillar Arabidopsis lar embrionlarida va ildizlarda joylashgan bo'ladi va to'qimalar differensirovkasi sxemasida mavjud ta'sir etadigan omillardan hisoblanmaydi.

Arabidopsis mutantlarda sitokenezning buzilishi. Arabidopsis mutantlarda knolla genlari sitokenezda, qizlik yadrolarining alohida xujayralarning yangi devorlari shakllanadigan mitozning oxirgi bosqichida to'qimalar shakllanishini buzadi.

Knolla genlar sintaksin o'xhash oqsillarni kodlaydi va bu oqsillar o'simliklarda pufakchalarining qo'shilishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Sintaksinlar membranalar bilan birlashib membrananing saqlovchi xususiyatlarini shakllantiradi. Vezikulalarning qo'shilishi sitokenez uchun muhim ahamiyatli hodisa hisoblanadi.

Xujayralarning bo'linishi knolle mutatsiya bilan bloklanib qo'yilmasada, xujayra plastinasining shakllanishi tatribsiz va odatda oxirigacha amalga oshmagan bo'ladi. Natijada ko'pgina ikki yadroli xujayralar o'z navbatida ba'zi qismlarida ajralgan yoki yirik sitoplazmatik ko'prikchalar yordamida o'zaro bog'lanib qolgan bo'ladi. Bo'linishning yengil amalga oshishi ham noto'g'ri amalga oshadi

Rivojlanishdagi bunday buzilishlar keyinchalik jiddiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Knolle mutatsiyaga uchragan o'simliklar gomozigotalari embriogenez jarayonida radial to'qimalar hosil bo'lishi jiddiy o'zgaradi va embriogenez jarayonining boshlanishida epidermal qavat hosil bo'lmaydi.

Knollemutatsiyalar apikal-bazal o'qlar hosil bo'lishiga ta'sir etmaydi va ekilgan ko'chatlar qisqa va ma'lum vaqtidan so'ng nobud bo'lsada embriogenez tugallanishiga erishiladi. O'simliklarda shu bilan birga meristema xususiyatining yetishmasligi ham kuzatiladi.

Tadqiqotlardan shuni xulosa qilish mumkinki, ton (FASS) mutatsiyalari ushbu mutatsiyaga nisbatan teskari xarakterga ega.

Knollemutatsiyalar ta'sirida xujayralarning embrional va postembrional rivojlanishda me'yoriy struktur bo'linishi izdan chiqadi. Ammo bu paytda knollemutatsiyalar radial to'qimalarni shakllantirilishini bloklaydi ton mutatsiyalarda esa to'qimalar shakllana oladi.

Ton mutatsiyalar va knolle mutatsiyalar orasidagi yani bir tafovut jarayon oxirida, sitokenez vaqtida qizlik xujayralarining bo'linish samaradorligi o'zgaradi chunki plastina yacheykalari

to‘liq shakllanmagan bo‘ladi. Shu bilan birga xujayra-xujayra bog‘i to‘qimalarning hosil bo‘linishini ta‘minlaydi va bu holat o‘zaro xujayralar orasida axborot almashinuvini nazorat qilish uchun ham zaruriy holat hisoblanadi.

Hatto bu holatlarda ham sitozollar o‘simlikning boshqa xujayralari bilan plazmodesmamlar bilan bog‘langan bo‘ladi va xujayralar shakllanishing butunligi me’oriy rivojlanish uchun zarur hisoblanadi. Shu yo‘sinda ton mutatsiyalar ijobiy axborotlarni qabul qila oladi va bu paytda knolle mutatsiyalar bunday xususiyatlarni o‘zida aks ettira olmaydi. Bu mexanizmlarni tasavvur qilish o‘simlikshunoslikda xujayralarning bo‘linish jarayonlarini qanday yengil holatda amalga oshishini anglashda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

### **1. O‘simliklarda meristemaning rivojlanishi**

Meristemalar kichik, izodiametrik (har qanday tomondan bir hil o‘lchamlarga ega) embrional xususiyatga ega xujayralar populyasiyasidan tashkil topadi. O‘simliklar meristemalari odatda o‘z o‘zini rivojlantiruvchi to‘plamlar hisoblanadi. Ular nafaqat ildiz tanasi va poyalarni hosil qiladigan to‘qimalarni hosil qiladi shu bilan birga o‘z o‘zini ham doimiy yangilab boradi.

Meristemalar o‘zining embrional xususiyatlarini juda uzoq vaqt davomida saqlab turishi mumkin. Daraxtlar misolida bu bir necha ming yillarga teng bo‘lishi mumkin. Bu moslashish xususiyatining asosiy sabablaridan biri bir necha meristema xujayralarining differensiallashuv jarayoniga jalb etilmasligi, meristemalarning vegetativ xususiyatlarini saqlab turishi va ular xujayralar bo‘linishi axborotlarini saqlab turishidir

Xujayralar bo‘linishi xususiyatlarini saqlab turuvchi differensiallanmagan xujayralar stvol xujayralar deb ataladi. Rivojlanish jarayonlarida bu xujayralar xayvonlar stvol xujayralariga o‘xhash bo‘lmasada, ularning o‘sishi bir biriga o‘xhash bo‘ladi.

Stvol xujayralarning bo‘linishi natijasida hosil bo‘lgan xujayraning bittasi stvol xujayraning xususiyatini o‘zida saqlab turadi va bu paytda ikkinchi xujayra ma'lum rivojlanish jarayonlarini ta‘minlash uchun harakat qiladi.

Stvol xujayralar odatda juda sekin bo‘linadi. Ularning qizlik xujayralarga bo‘linishi ba‘zida tez bo‘linish davrlariga ham o‘tib turishi mumkin, bundan tashqari ular bo‘linishni to‘xtatishi xam mumkin va maxsus xujayralar tipi deb ham qaralishi mumkin. Stvol xujayralar hamma meristema xujayralarining va o‘simliklarning qolgan barcha qismlari, ikkala ildiz, barg va boshqa organlar, shuningdek poyalarning xususiyatlarining oxirgi manbasini o‘zida aks ettiradi.

Nihollarning apikal meristemasi yuqori samarali dinamik strukturaga ega. Nihollarning o‘simlik apikal meristemalari poyalarni shakllantiradi, shuningdek stvollarga yopishadigan yon organlar shakllanishida ham qatnashadi. (barglar va yon kurtaklar). Nihollarning apikal meristemalari odatda bir necha yuzdan minggacha hujayralardan tashkil topadi, arabidoasis apikal meristemalari odatda faqatgina 60 ta xujayradan iborat bo‘ladi.

Niholning apikal meristemasi niholning chetki tugash qismlarida joylashadi, ammo u yetilmagan barg to‘qimalari bilan o‘ralgan va qoplangan bo‘ladi. Bu eng yosh barglar meristemalarning qaolligini hosil qiladi. Meristema o‘zgaruvchi qismlarining yuqori nuqtalaridan niholning boshqa qismlari ham shakllanishi mumkin.

Nihollarnig yuqori qismi (qismlari) yuqorigi meristemalardan iborat bo‘ladi va ilk barg shakllaridan iborat bo‘ladi. Nihollarning apikal meristemasi differensiallanmagan xujayralar populyasiyasidan iborat bo‘ladi va hosil bo‘lgan har qanday organlarni o‘z ichiga olmaydi.

Nihollarning apikal meristemalari yupqa va biroz tarqoq va qismlarda 100-300 mkm diametrda joylashadi va asosan kichik, yupqa devorli va zinch sitoplazmali bo‘ladi shuningdek, yirik markaziy vakuolalari bo‘lmaydi. Nihollarning apikal meristemasi dinamik struktura xususiyatiga ega va bu struktura o‘z rivojlanish siklida o‘zgarib turadi shu bilan birga barglar

shakllanishini ham to‘xtatib quyishi mumkin. Bundan tashqari kungina usimliklarda mavsumiy xususiyatga ega va butun o‘qlarni hosil qiladi. Yuqorigi meristema o‘qlari mavsumiy ravishda bahorda juda tez o‘sibrivojlanadi.

Butun yoz davomida esa o‘sish biroz sekinlashadi va pasiv holatda bo‘ladi. Kuzda tinim holatiga o‘tadi va bu tinim davri butun qish davom etadi. Nihollarning apikal meristemalarining o‘lchami va strukturasi shuningdek mavsumiy faollikkqa qarab o‘zgarib turishi mumkin.

Yangi nihollar ildizlardagi kabi ushbu qismlarning oxirlaridan rivojlanadi va o‘sadi. Lekin o‘sayotgan qismlar unchalik qavatlanmaydi va aniq tartibdangan holda ildizlardagi kabi joylashadi. Bundan tashqari o‘sish jarayoni ildizlardagiga qaraganda sezilarli darajada tez amalga oshadi. Vaqtning istalgan paytida 10-16 sm oraliq qismlar va uzunliklari doimiy usish xususiyatiga ega bo‘lishi mumkin.

Nihollarning apikal meristemalari turli xildagi funksional qismlar va qavatlarga ega bo‘ladi. Nihollarning apikal meristemalari xujayralar bo‘linishi jarayonlariga, bulinish tezligiga va xujayralar faolligiga qarab turli xil funksional qismlardan iborat bo‘ladi.

Xujayralarning bo‘linishi 1 va 2 qavatlarda antiklinal hisoblanadi, ya’ni qizlik xujayralarini ajratib turuvchi yangi xujayra devori meristema tashqi qismlari yuzasi burchaklariga yo‘nalgan bo‘ladi. Xujayralarning bo‘linishi 3 qavatlarda kam regulyar yo‘nalgan bo‘ladi. Xar bir qavat o‘ziga xos stvol xujayralarga ega bo‘ladi shuningdek barcha uch qavat ham poyalar va yon organlarning shakllanishini ta’minlaydi.

Faol apikal meristemalar shuningdek, sitogistologik qismlarda shakllantiruvchi vazifani ham o‘taydi. Har bir qismlar nafaqat xujayralar yengil bo‘linishi asoslari , shu bilan birga vakuolizatsiyaning bosqichlari va o‘lchamlariga ko‘ra turli xujayralardan tashkil topadi. Bu qismlar genlarning turli xil ekspressiyasini o‘zida aks ettiradi va bu genlar to‘plami har bir qismda turli hil xossalarni bajaradi.

Faol meristema markazlari nisbatan katta o‘lchamli klasterlardan tashkil topadi va katta vakuolali xujayralar markazi xujayralar deb ataladi. Markazi qismlarni ildiz meristemalarining tinim markazlari bilan solishtirish mumkin. (keyinchalik shu bo‘limda ko‘rib chiqiladi). Kichik xujayralarning Bo‘girsoqsimon qismlari periferik qismlar deb ataladi va markazi qismlarning yon tomonlarida joylashadi. Rebro qismlar (bo‘yin) markazi yacheykalarining pastki qismlarida joylashadi va poya to‘qimalarining ichki qismlarini shakllantiradi.

Ushbu turli qismlar rivojlanishning turli domenlarini o‘zida aks ettiradi. Periferik qismlar shunday qismlar hisoblanadiki, xujayralarning birinchi bo‘linishi arglarning ilk shakllarini hosil qiladi. Bo‘yin qismlari esa asos qismlarning shakllanishini ta’minlaydi. Markazi qismlar stvol xujayralardan iborat bo‘ladi va ushbu xujayralardan jarayonlarda ishtiroy etmaydigan qismi o‘z navbatida populyasiya qismlarida bo‘yin va periferik qismlar o‘rnini to‘ldiradi.

Ba’zi meristemalar postembrional rivojlanish paytida hosil bo‘ladi. Embriogenet paytida shakllanadigan Nihollarning apikal meristemalari va ildizlari birlamchi meristemalar deb ataladi. O‘sishdan so‘ng ushbu birlamchi meristemalarning faolligi natijasida birlamchi to‘qimalar va organlar shakllanadi va bu mahsulotlar o‘simliklarning asosiy tanasini hosil qiladi

Ko‘pchilik o‘simliklar shuningdek postembrional rivojlanish paytida ikkilamchi meristemalarni ham hosil qiladi, ikkilamchi meristemalar ham birlamchi meristemalar kabi organ va to‘qimalarni shakllantirishi mumkin. Ammo ba’zida ikkilamchi meristemalar butunlay boshqa struktura tuzilishlariga ega bo‘ladi. Ularga o‘q meristemalari, gulto‘da meristemalari, gul meristemalari, asos meristemalari va yon meristemalari kiradi. (poya kambiyalari va fellogen)..

O'q meristemalari barg bo'shliqlarida hosil bo'ladi va nihollarning apikal meristemalaridan shakllanadi. Bo'shliq meristemalarining o'sishi va rivojlanishi o'simliklarning asosiy o'qining o'zgarishidan kelib chiqadi.

• Interkalyar (asos) meristemalari o'simliklarning asos qismlari yaqinida uchraydi. O'simliklar barglari va poyalarining asos meristemalari ulrning ogir sharoitlarda ham o'sib rivojlanishini ta'minlaydi.

• ildiz meristemalari qismlari ham birlamchi meristemalar strukturasiga ega ammo ular ildizlarning yetuk qismlari xujayralarining peritsiklidan hosil bo'ladi. Qo'shimcha ildizlar shuningdek yon ildiz meristemalaridan hosil bo'lishi mumkin va ular poyalarda rivojlanadi va buni qalamchalarinng ildiz hosil qilish jarayonlarida kuzatish mumkin.

Tomirlar kambiyi (ko'pchilik shaklida kambiyalar) ikkilamchi meristemalar hisoblanadi va prokambiyidan hosil bo'lgan asosiy tomir to'qimalari bilan birga tomirlar silindrlaridagi meristemalardan farq qiladi. Ular yon organlarni hosil qilmaydi ammo poch va ildizlarning yogoch to'qimalarini hosil qiladi.

Kambiy ikki xil tipdag'i meristematisk xujayralardan iborat bo'ladi: urchuqsimon stvol xujayralar va yoysimon stvol xujayralar.

Urchuqsimon stvol xujayralar kuchli turtib chiqqan bo'ladi, xujayra vakuollari uzunasiga bulingan buladi. Bu xususiyat uz uzini tiklash va xujayralar differensiallanishida ikkilamchi ksilema va floemaning hosil bo'lishini ta'minlaydi. Yoysimon stvol xujayralari esa mayda xujayralar bo'lib radial yo'nalgan xujayralardan hosil bo'ladi va daraxtlarda yoy ko'rinishidagi stvol xujayralarini hosil qiladi.

• Kambiy po'kaklari ildizlarning yetuk xujayralari ichida va ikkilamchi floemalarda hosil bo'ladi. Fellogen hosilalari po'kak xujayralari kabi hosil bo'ladi va periderma deb ataladigan himoya qavati yoki old po'st qavatini hosil qiladi. Periderma o'simliklar organizmining ikkilamchi himoya qavatlarini hosil qiladi va shikastlangan poyalar va ildizlarda epidermisning o'rnini bosadi

Nihollarning gulto'da, asos va gul meristemalari. Vegetativ meristemalarning turli xil tiplari mavjud. Nihollarning bir necha tipdag'i meristemalari ularning rivojlanish asoslaridan kelib chiqadi. Ular yoki yon organlarni hosil qiladi, determinirlangan holatda bo'lishi mumkin (o'simliklar o'sishining genetik dasturlangan chegaralari). Yoki noaniq holatda bo'ladi (o'sishning oldindan chegeralangan dasturi). Bunda usish o'stirish omillarining nechoglik faolligiga bog'liq bo'ladi)

Nihollarning apikal meristemalari rivojlanish bosqichlarida to'liq shakllanib ulgurmaydi. Utashqi omillar ta'siriga qarab fitomerlarni hosil qiladi ammo gullash jarayonlarini stimullamaydi. Fitomerlar rivojlanishi bir yoki bir necha barglardan tashkil topadi. Barglar birikkan qismlar qismlar oralig'idan pastda joylashadi va bir yoki bir necha kurtaklardan iborat bo'ladi.

Asos kurtaklarning ikkilamchi meristemalari, agar ular vegetativ meristemalar va ular o'ziga xos strukturaga ega bo'ladi va potensial rivojlanish va yuqori meristemalari kabi o'xshash xususiyatga ega bo'ladi. Vegetativ meristemalari bevosita gul meristeialariga aylanishi mumkin. Bu holat o'simliklar gullarga indutsirlanayotgan paytda amalga oshadi.

Gul meristemalari vegetativ meristemalaridan tubdan farq qiladi va bu ikki meristemalar birgalikda gul organlarini hosil qiladi. Bu organlarga gultojibarglar, tojbarglar changchilar va urug'chilar kiradi. Bundan tashqari gul meristemalari determinirlangan bo'ladi: Barcha meristemalarning faoliyati oxirgi gul organlarining shakllanishi bilan tugallanadi.

Ko'p holatlarda vegetativ meristemalar to'g'ridan to'gri bo'lмаган holatda gul meristemalariga aylaanadi. Buning o'rniga vegetativ meristemalar avval gulosti meristemalariga

aylanadi. Gulosti meristemalaridan hosil bo‘lgan Yon organlarning tiplari gul meristemalaridan hosil bo‘lgan organlardan farq qiladi.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. O‘sish va rivojlanish tushunchalari?
2. Embrional rivojlanish nima?
3. O‘qli tuzilish-strukturani tushuntirib bering?
4. Radial strukturani tushuntirib bering?
5. Embrionning o‘qi xujayralarning birinchi zigotali bo‘linishida shakllanishini tushuntirib bering?
6. Sitokinezning strukturalar shakllanishidagi ahamiyati nimadan iborat?
7. O‘simliklarda meristemaning rivojlanishi?
8. Nihollarning apikal meristemalari turli xildagi funksional qismlar va qavatlarga ega bo‘lishini tushuntirib bering?

## **9-Mavzu: O‘simliklar xayotidagi sifat o‘zgarishlar - rivojlanish. Qishloq ho‘jaligi o‘simliklari rivojlanishini boshqarish**

### **Reja:**

1. Barglarning rivojlanishi.
2. Ildizlarning rivojlanishi.
3. Xujayralarning differensiallanishi.
4. Rivojlanish yo‘llarining hosil bo‘lishi va boshqarilishi.
5. Transkripsiya omillari genlarining rivojlanishi boshqarilishi.

#### **1. Barglarningrivojlanishi**

Barglar ko‘pchilik o‘simliklarning fotosintezlovchi organi hisoblanadi..

Barglarda quyosh energiyasi o‘zlishtiriladi va kimyoviy energiyaga aylantiriladi va o‘simliklar hayoti uchun zaruriy resurs sifatida xizmat qiladi.

O‘zlarining o‘lchamlari va shakllaridan qat’iy nazar barcha barglar yupqa, tekis tuzilishga ega bo‘ladi va dorsinventral polyarlikka ega bo‘ladi. Bu xususiyat nihollarning va poyalarning apikal meristemalaridan yuzaga keladi va ikkala tipi ham radial simmetriyaga ega bo‘ladi. Yana bir muhim jihat shundan iboratki boshlatich barglarning o‘sishi determinirlangan holatda bo‘ladi va bu paytda vege tativ o‘q apikal meristemalar kabi noaniq ko‘rinadi. Keyingi bo‘limlarda barglarning boshqa rivojlanish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

1-etap; Organogenet. Xujayralarning 1 dagi va 2 qavatlardagi bir qancha qismi nihollarning apikal meristema qismlarida yon taraflarida joylashadi va barg hosil qiluvchi asos xujayralariniq identifikasiyasini ta‘minlaydi. Bu xujayralar o‘zlarini o‘rab turgan xujayralarga nisbatan tez bo‘linish xususiyatiga ega va barg to‘qimalarini hosil qiluvchi novdalarni hosil qiladi. Bu barg to‘qimalari o‘sish jarayonida barglarning rivojlanishini ta‘minlaydi.

2-etap: O‘simliklar suborganlarining rivojlanishi.

To‘qimalarning identifikatsiyalangan qismlari barglarning alohida qismlarini hosil qiladi. Bu differensiatsiya uchta o‘q bo‘yicha amalga oshadi: dorsinventral (abaksial-adaksial), proksimodistal (apikal- bazal), va yon (Marja-lopast tomirchalari). Yuqori (adaksial) barg qismlari yorug‘lik yutish uchun moslashgan bo‘ladi pastki (abaksial) qismlar esa gaz almashinuvni jarayonlariga moslashadi. Barg strukturalari va ularning rivojlanish darajalari yon o‘qlari va proksimodistal atrofida turli ko‘rinishlarga ega bo‘ladi.

1- Xujayralar va to‘qimalarning differensiatsiyasi.

Rivojlanayotgan barglar o'sadi, xujayralar va to'qimalar differensiallanadi. 1 qavatlardan hosil bo'lgan xujayralar epidermisga differensiallanadi (epidermal xujayralar, uchta bir biri bilan tutushib turuvchi xujayralar.). 2 qavatlaridan hosil bo'ladigan xujayralar fotosintetik mezofil xujayralarni, tomir elementlari va qobiqlarning qavatlanishini hosil qiluvchi xujayralar 3 qavatlardan hosil bo'ladi. Bu xujayralar genetik jihatdan oldindan belgilangan dastur asosida amalga oshadi va bir nechta holatlarda atrof-muhit omillari ta'siriga nisbatan o'ziga xos xususiyatlari o'zgarishlarni hosil qilishi mumkin.

Barglar to'qimalarining joylashishi genetik jihatdan oldindan dasturlangan bo'ladi.

Barg to'qimalarining genetik determinallangan shakllarining vaqtлari va strukturasi barg ko'rinishlarining o'ziga xos shakllarini hosil qiladi. Barg to'qimalarining shakllanishi bilan barg soni va poya atrofi bo'ylab joylashish tartibining yuzaga kelishi barglarning joylashuvi holati deb ataladi.

Barglarning joylashuvi 5 turga bo'linadi.

1. Alternativ barg joylashishi. Xar bir bo'g'imda bitta barg joylashadi.
2. Qarama qarshi joylashish

Barglar poyalar atrofida bir biriga qarama qarshi joylashadi.

3. O'zaro kesishgan holatda joylashish. Poyalarning Ikki qarama qarshi tomonidan barglar takrorlanuvchi juftlik hosil qilib joylashadi va vegetativ rivojlani jarayonida barglar bir biriga nisbatan to'gri burchak ostida joylashadi.

4. Barglarning eshilgan (o'rilgan) xolatda joylashishi. Bitta bo'g'im oralig'ida ikkitadan ortiq barglar hosil bo'ladi

Spiralsimon barg joylashishi.

Alternativ holatdagi bargning joylashishida har bir barg ma'lum bir burchak ostida ikkinchisini iniitsirlaydi va natijada poya atrofida spiralsimon barg joylashishi yuzaga keladi.

Barglarning joylashishi to'qimalarining aniq bir qonuniyat asosida uchki qismlarining o'sishini boshqarishi bilan yuzaga keladi. Bizga hozircha barg to'qimalarining shakllanishi bilan barglarning bunday joylashish holatlarining aniq mexanizmlari ma'lum emas. Ba'zi bir fikrlarga qaraganda, to'qimalar ingibirlangan maydonlari ta'sirida keyingi to'qimalar orasida intervallar hosil qiladi.

## 2. Ildizlarning rivojlanishi

Ildizlar tuproq muhitida o'sishga va tuproq zarrachalaridan kapillyar vositalar orqali suv va mineral moddalarni o'zlashtirib olishga moslashgan. Bu xususiyatlar ildiz strukturasining evolyusion o'zgarishlarini cheklab qo'ygan.

Masalan, yon ildizlar ularning tuproq ichiga kirib borishini ta'minlaydi. Natijada ildizlar suyrisimon shaklga kiradi va yon organlarining hyech biri yuqorigi o'suvchi meristemalarga ega bo'lmaydi.

Ildiz tarmoqlari ichki tomonlardan yetuk va nevegetatsion qismlardan shakllanadi. Mineral moddalarning va suvning o'zlashtirilishi mo'rt ildiz popuklari hisobiga xajm jihatdan oshadi. Mo'rt ildiz popuklari o'sish qismlarining orqa tomonlaridan yuzaga keladi. Bu uzun ignasimon popuklar hisobiga ildizlarning tyutish yuzasi sezilarli darajada oshadi.

Bu bo'limda biz ildiz shakllari va strukturalarini (ildiz morfogenetizini) ko'rib chiqamiz. Buni ildiz oxirlarining to'rtta rivojlnish qismlarini ko'rib chiqishdan boshlaymiz.

Undan keyin yuqori meristemalarni ko'rib chiqamiz. Barglarning va kurtaklarning yo'qligi nihollarda xujayra klonlarining ildiz rivojlanishiga ko'proq jalb etiladi va molekulyar-genetik tadqiqotlar paytida ildiz rivojlanishida xujayralarning bo'linishi modeli bo'lib xizmat qiladi.

Ildiz oxirlari to'rtta rivojlanish qismlariga ega. Ildizlar o'zlarining oxirgi qismlari evaziga o'sadi va rivojlanadi. Ildiz chegaralarining oxirlari o'tkir bo'lmasada, ildiz oxirlarining to'rtta o'sish qismlarini farqlash mumkin: ildiz boshchasi, meristema qismi, o'sish qismi, rivojlanish qismi.

Arabidopsis ildizlarda bu to'rtta qismlar atigi millimetrdan biroz kattaroq o'lchamda bo'ladi. Rivojlanish qismi biroz kattaroq, ammo boshqa o'simlik turlarida baribir o'sish ildiz oxirlarida amalga oshadi. Istisno tariqasida ildiz boshchalari, bu qismlarning chegaralari ma'lum darajada kesishadi;

Ildiz qalpoqchasini ildizning tuproqqa kirib borishida mexanik shikastlanishlardan himoya qiluvchi apikal meristema. Ildiz boshchasi ildiz qalpoqchalarining maxsus stvol xujayralardan shakllanadi. Ildiz qalpoqchalari sifatida stvol xujayralar yangi xujayralarni hosil qiladi, qari xujayralar esa navbatma navbat ildiz boshchalariga qarab surilib boradi va oxir oqibatda ular tashqi muhtiga (tuproqqa) chiqarib yuboriladi. Ildiz boshchasi ko'rinishida xujayralar differensiallanadi va ular gravitatsion stimullarni qabul qilish xususiyatlarini hosil qiladi va mukopolisaxaridlarni (shilliqlarni) sekretsiya qiladi (ajratadi). Ushbu shilliqlar hisobiga ildizlar tkproq orasiga osonroq kirib boradi.

Meristematisk qismlar ildiz boshchalari ostida joylashadi va arabidopsislarda millimetrling to'rtadan bir qismidagi o'lchamdagagi uzunlikda bo'ladi. Ildiz meristemalari faqatgina bittagina organni, birlamchi ildizni generatsiya qiladi (hosil qiladi). U ildizlarning yon qismlarini hosil qilmaydi.

Cho'zilish qismlari. Bu qismlar o'z nomiga mos ravishda xujayralarning tez va keng miqyosda cho'zilishini ta'minlaydi. Bir qancha xujayralarning bo'linish jarayonining davomiyligiga qaramasdan bu vaqtida bu qismlar xususiyatlarigi qarab xujayralarning cho'zilishi bilan bo'linish tezligi meristemadan uzoqlashish darajasiga qarab nol qiymatga qadar kamayadi

Rivojlanish qismlarida xujayralar differensiralanish xususiyatlarini nomoyon qiladi. Xujayralar bo'linish va cho'zilish jarayonlaridan keyin rivojlanish bosqichiga o'tadi. Differensiallanish deyarli erta boshlanishi mumkin ammo xujayralar bunda rivojlanish qismlariga yetib kelmagunicha yetuk darajagacha erisha olmaydi. Differensiallangan to'qimalar radial strukturasi ham rivojlanish qismlarida yaqqol tushunarli holatda bo'ladi.

Bu bo'limning oxirida traxeal elementlardagi bu tip xujayralarning differensirovkasi va rivojlanishini ko'rib chiqamiz.

Yuqorida aytib o'tilganidek, yon shoxchalar va ildizlar ildizlarning yetuk qismlarining peritsikllaridan hosil bo'ladi. Peritsiklda xujayralarning bo'linishi asos va epidermisdan o'sib chiquvchi ikkilamchi meristemalarni hosil qiladi va buning natijasida yangi o'sish o'qi hosil bo'ladi.

Birlamchi va ikkilamchi ildiz meristemalari analogik (o'xshash) holatda bo'ladi, meristemada xujayralar bo'linishi ildizlarning barcha xujayralarining keyingi bo'linish jarayonlari uchun asos dasturlari bo'lib xizmat qiladi.

Ildiz stvol xujayralari xujayralarning uzunasiga joylashgan qismlarini hosil qiladi.

Meristemalar bo'linayotgan xujayralarning populyasiyasi hisoblanadi, ammo bo'linish qismlaridagi hamma xujayralar ham o'sha tezlik va chastotada bo'linish xususiyatiga ega bo'lmaydi. Qonuniyatlarga ko'ra markaziy xujayralar ularni o'rab turgan xujayralarga nisbatan sezilarli darajada sekin bo'linadi. Bu sekin bo'linuvchi xujayralar ildiz Meristemalarining tinim markazlari deb ataladi.

Xujayralar bo'linish paytida ionlangan radiatsiyaga nisbatan o'ta sezgir bo'ladi. Bu holat tibbiyotda saraton xastaliklarini davolashda davolash kurslari sifatida ham foydalaniladi.

Meristema xujayralarining tez bo‘linadigan turlari uchun ionlangan radiatsiya ma'lum dozalarda halokatli ta'sir ko'rsatadi lekin bo‘linmaydigan va sekin bo‘linadigan xujayralar, masalan tinim markazlaridagi kabi xujayralar, ionlangan radiatsiya ta'siridan ham omon qolishi mumkin.

Agar ildizlarning tez bo‘linuvchi xujayralari ionlangan radiatsiya nurlari ta'sirida nobud bo‘lsa, ko‘pgina holatlarda ildiz o‘zini markaziy tinim qismlaridagi xujayralar hisobiga qayta tiklashi (regeneratsiyalashi) mumkin. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, markaziy tinim qismlaridagi tinim holatidagi xujayralar to‘qimalar shakllanishida ishtirok etib ildizlarning qayta tiklanishida muhim ahamiyatga ega. Ildiz oxirlarining o‘ziga xos struktur tuzilishi sababli, ildiz ko‘ndalang kesimi o‘rganilganda, o‘zaro bog‘langan klonirlangan xujayralarning uzun qismlarini ko‘rish mumkin.

Ildizlarda bo‘linuvchi xujayralarning ko‘pchiligining oxirlari sitokenez xolatiga qarab bo‘ndalang yoki antiklinal, ildiz asosiga nisbatan to‘gri burchak ostida yo‘nalgan bo‘ladi.(masalan bo‘linish ildiz uzunligining oshishiga olib keladi). Bir qancha nisbiy parallel bo‘linish holatlar ham mavjud va bunda bo‘linish jarayonlari ildiz o‘qlari bilan parallel ravishda amalga oshadi. (bu omillar hisobiga ildizlar ko‘ndalangиги qarab kengayadi)

Periklinal bo‘linish asosan ildiz oxirlarida amalga oshadi va xujayralarning yangi guruhlarini hosil qiladi. Natijada hosil bo‘ladigan oxirgi yetuk xujayra bir xujayraning ortidan joylashishi mumkin yoki meristemalarning bir qancha xujayralari ortida joylashadi. Bu stvol xujayralarning maxsus guruhlari hisoblanadi.

Arabidopsislarda stvol xujayralar tinim holatidagi xujayralar bilan o‘rab turilgan holatda bo‘ladi va ular ham tinim qismlarining bir bo‘lagi hisoblanadi. Stvol xujayralar oxir oqibatda tinim markazlari xujayralardan hosil bo‘lishi mumkin ammo bu hosil bo‘lish jarayonlari faqatgina embriogenet bosqichlarida amalga oshishi kerak. Chunki tinim markazlari xujayralari me'yoriy rivojlanish o‘sish jarayonlaridan keyin bo‘linmaydi. Ildiz apikal meristemalari bir necha turdag'i stvol xujayralardan tashkil topadi va bir necha xildagi strukturalarga ega.

1. Tinim markazlari to‘rtta xujayradan iborat xujayra guruhidan tashkil topadi. Bu guruhlar arabidopsis ildiz meristemalarida markaziy xujayralar nomi bilan yuritiladi. Arabidopsislarda Tinim markazlari xujayralari odatda embriogenet jarayonlaridan keyin bo‘linishdan butunlay to‘xtaydi.

2. Asos-entodermal stvol xujayralari gardish shaklida bo‘lib tinim markazlarini o‘rab turadi. Bu stvol xujayralar asos va entodermal qavatlarni hosil qiladi. Ular bitta antiklinal bo‘linish jarayoniga uchraydi (ya’ni ko‘ndalang o‘qqa nisbatan perpendikulyar). Keyin bu qizlik xujayralar periklinal (ya’ni ko‘ndalang o‘qqa nisbatan parallel ravishda) bo‘linadi va shu bilan ildiz asoslari va endodermi hosil qiladi. Ularning har biri arabidopsis ildizlarda xech bo‘lmagandi bitta qavatni hosil qiladi.

3. Kolumella poya xujayralari bevosita (apikal) markaziy xujayralar tepasida joylashadi. Ular antiklinal va periklinal ravishda bo‘linadi va kolumellalar deb ataladigan ildiz qalpoqchalari sektorlarini (qismlarini) hosil qiladi.

4. Ildiz kapepidermal stvol xujayralarixudda kolumell stvold xujayralari kabi bo‘ladi ammo ularni o‘rab olib gardishsimon ko‘rinishda bo‘ladi. Ildiz xujayralarini antiklinal bo‘linishi, Kap- epidermal stvol xujayralar epidermal qavatlar xujayralarini hosil qiladi. Ayni bir stvol xujayralarning periklinal bo‘linishi va keyin davomiy ravishda antiklinal bo‘linishlarning amalga oshishi yon ildiz qalpoqchalarini hosil qiladi.

5. Stela poya xujayralari to‘plamlari tinim markazlari xujayralari ortida joylashadi. Bu xujayralar peritsikllarni va tomir to‘qimalariini hosil qiladi. Yuqorigi meristemalarda stvol xujayralar va ularning bevosita hosil bo‘lgan hosilalari bilan birga promeristemalar deb ataladi.

### **3. Xujayralarning differensiallanishi**

Differensiatsiya jarayonlari xujayralar o'tmishdosh xujayralarga nisbatan metabolik, struktur va funksional xususiyatlari yordamida alohida xususiyatlarni nomoyon etishidir. O'simliklarda xayvonot olamidan farqli ravishda xujayrular differensiatsiyasi ko'pincha qaytadigan bo'ladi, asosan bu holat xujayralarning o'simlik to'qimalaridan ajratib olinishi va madaniy o'simliklar to'qimalariga kiritilishi bilan amalga oshadi. Bunday sharoitlarda xujayralar dedifferensialanadi (differensiallanish xususiyatlarini yo'qotadi), xujayralar bo'linishini yangilanadi, ba'zi holatlarda esa mos ozuqa moddalari va garmonlar bilan ta'minlanganda hattoki butun o'simliklarning regeneratsiyasiga olib keladi.

Differensiallanishning bunday xossassi differensialangan xujayralarning butun o'simlikning o'sib rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha genetik axborotlarini o'zida saqlabturish xususiyatini ta'minlaydi. Bu xususiyat totipotentlik deb ataladi. Bu xususiyatning birdan bir farqi shundan iboratki, unda xujayralar o'zining yadolarini, vaqt o'tishi davomida nobud bo'lgan floema va xujayralarning tomir elementlarini, ksilemadagi tomir elementlari va traxeidlarning (traxear elementlar bilan birga) elementlarini yo'qotadi.

Xujayralar differensiatsiyasi jarayonlari misoli sifatida biz trexear elementlarning shakllanishini ko'rib chiqamiz.

Meristematis qismlardan bu xujayralarning rivojlanishi ularning to'la to'kis differensiallanishi bilan maxsus boshqaruv tiplarini hosil qiladi va o'simliklar xujayra usti moslashuvini hosil qiladi va differensiatsiya jarayonlari tomonidan chaqirilgan xujayra o'zgarishlarini keltirib chiqaradi.

Traxear elementlar differensiatsiyasi paytida ikkilamchi xujayra devorlarining shakllanishi. traxear elementlar suv va erigan moddalar tashiladigan xujayralarni hosil qiladi. Bu xujayralar vaqt o'tishi bilan nobud bo'ladi, ammo ular nobud bo'lish bosqichiga qadar yuqori faollik hosil qiladi va ikkilamchi devorlarni hosil qiladi. Ko'pincha murakkab jarayonlarda ularning o'sishi ekstensiv ravishda amalga oshadi.

Xujayralarning halokati (shu bo'limda ko'rib chiqamiz) genetik jihatdan traxear differensiallanish jarlarining boshida dasturlangan bo'ladi. Trexear elementlarning differensiallanish jarayonlarida ikkilamchi xujayra devorlarining shakllanishi selluloza mikrofibrillalari va boshqa notselluloza polisaxaridlarini ma'lum qismlarda birlamchi va ikkilamchi devorlarga yetkazilishi va shu bilan birga devorlarning o'ziga xos o'tkazuvchi naysimon xususiyatlarini hosil qilishdan iborat

Traxear elementlarning ikkilamchi devorlari birlamchi devorlarga nisbatan sellulozaning katta miqdorlaridan tashkil topadi va ular o'ziga ligninlarni yutgan bo'ladi va birlamchi devorlarda bunday holatda uchramaydi.

Tez o'suvchi qismlarda ikkilamchi devorlar materiallari diskret aylan Simon gardish ko'rinishida yoki spiral ko'rinishida, birlamchi devorlarda bo'lingan qismlarda kengaygan holatda bo'ladi. Xujayraning o'sishi bilan asosiy devorlar kengayadi va gardish va spirallar esa ajraladi.

Xujayralarning nisbiy cho'zilishi to'xtaganidan keyin trexear elementlar kengaygan xujayra devorlarini hosil qiladi. Bu kengaygan qismlar bir xil o'lchamli yoki to'rsimon ko'rinishda bo'lishi mumkin. Bu xujayralar o'z navbatida o'sish jarayonlarini ta'mindaydi.

Mikrotrubkalar (mikronaychalar) ikkilamchi devorlaning shakllanishida ishtirok etadi. Shakllanish jarayonlarining har qanday o'zgarishlaridan avval devorlarda shu narsa aniq ko'rinaliki, katakchalar atrofidagi kortikal mikrotrubkalarning ko'p yoki kam miqdorda

taqsimlanishi qismlarda ularning guruhanishiga olib keladi. Ikkilamchi devorlar keyinchalik mikrotrubkalar klasterlari ostida shakllanadi.

Sellyuloza mikrofibrillalari ikilamchi devorlar kengaygan qismlari bilan birgalikda korka sitoplazmalarida mikrotrubkalar taxlanishida aks etadi. Agar mikrotrubkalar antiaikrotrubka vositalari, masalan kolxitsin bilan buziladigan bo'lsa xujayra devorlarining taxlanishi amalga oshsada, sellyuloza mikrofibrillalari aniq yo'naltirilgan asosda harakatlanmaydi va natijada ikkilamchi xujayra devorlari buzilib ketadi.

#### **4. Rivojlanish yo'llarining hosil bo'lishi va boshqarilishi.**

Genlar identifikatsiyasida jarayonlar tezligi o'sish, xujayralar differensiatsyasi va to'qimalar shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Bu rivojlanish jarayoni ko'pgina holatlarda samarali rivojlanishning belgilari hosoblanadi. Butun dunyo ilm fani sohasi birinchi arabidopsislarda genlarning tartiblanishini o'rgandi va bu uning barcha genlarining mohiyatlarini anglash uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Bundan tashqari muhim kashfiyotlar ikki tur o'simliklar bilan olib borilgan tadqiqotlar natijasida amalga oshirilgan, masalan antirrinum, makkajo'xori, petuniya, pomidor va tamaki.

Ko'pchilik holatlarda rivojlanish uchun mas'ul genlar o'simliklar mutagenezi bilan yangi avlod qoldirish jarayonlarida nomoyon bo'ladi va o'zgargan mutant o'simliklarning ko'rinishlarini hosil qiladi. Bu tadqiqotlar ko'pincha juda katta kuch talab qiladigan jarayonlardan iborat Tadqiqot natijalarini, mutant genlar ketma ketligini o'rganish va ularning genomlarining sekvinirlanishi, aniq bir mutant genning identifikatsiya yo'lini o'rganish va ularning arabidopsislarda nisbatan kichik zanjirlarni kodlashini o'rganish ham murakkab jarayonlarni tushunishda bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Xozirgi vaqtga kelib bizga bir qancha gen jarayonlarida ishtirok etuvchi genlar ma'lum va hanuzgacha ularning yangi qirralari kashf etilmoqda. Bundan tashqari ko'pgina ontogenetik muhim genlar aniqlangan va ular ham transkripsiya jarayonlaridagi ahamiyati (Oqsillar spetsifik DNK ketma ketligi bilan bog'lanish xususiyatini hosil qiladi va natijada boshqa genlar ekspressiyasini nazorat qiladi) yoki axborot almashinuv yo'llari o'rganilmoqda. Bu genlarning tabiatи rivojlanish bosqichlarini boshqarish mumkin bo'lgan imkoniyatlarni hosil qiladi.

molekulyar-genetik tadqiqotlar natijalari va klonal tahlillar natijalari mujassamlashtirilganida fiziologik, biologik xujayralar va/ yoki biokimyoiy tadqiqotlar o'simliklar ivojlanishining muhim jihatlarini identifikatsiyalashga imkoniyat yaratadi. Biz to'liq tushunchalarga ega bo'lmasakda, bu fikrlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- transkripsiya omillariini kodlaydigan genlar ekspressiyasiorganlarning identifikatsiyasini va to'qimalarni, xujayralarni shakllantiradi.
- Xujayraning keyingi taqdiri unig holatiga qarab aniqlanadi. Uning klonlanish tarixi muxim axamiyatga ega emas.
- Rivojlanish yo'llari birgalikda ta'sir qiladigan genlar zanjiri tomonidan nazorat qilib turiladi.
- Rivojlanish jarayonlari xujayralardan xujayralarga axborot almashinuvi bilan nazorat qilib turiladi.

Keyingi muhokamalarda biz avvalo yaqqol nomoyon bo'ladigan, rivojlanish jarayonlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan transkripsiya omillari va transduksiya axborotlari komponentlari genlarini ko'rib chiqamiz. Shu orqali rivojlanishning har bir muhim omillari haqida tushunchalarga ega bo'lishimiz mumkin.

#### **5. Transkripsiya omillari genlarining rivojlanishi boshqarilishi**

Arabidopsis genlarining sekvirinlanishi tugashi bilan shu narsa ma'lum bo'ladiki, taxminan 1500 genlardan taxminan 26000 genni transkripsion omillar tomonidan kodlanadi..

Trankripsiya omillari oqsil tabiatli bo'lik DNK ga tuzilish jihatidan yaqin hisoblanadi. Ular genlar ekspressiyasini to'xtatish

yoki spetsifik DNK ketligi bilan bog'lanish yordamida o'chirishi mumkin.

Transkripsiya omillarining 1500 xil bu genlari turli ko'p sonli oilaga mansub. Bu oilalarning yarmidan kamroq qismi faqat o'simliklarda aniqlangan ammo ularning ko'pchilik qismi eukariot organizmlarda aniqlangan.

Gomeoboks genlar transkripsiya omillari kabi ta'sir qiluvchi oqsillarni kodlaydi. Gomeodomen oqsillar barcha eukariot organizmlarning rivojlanish jarayonlarida muhim ahamiyatga ega bo'lgan oqsillar hisoblanadi.. MA8 gen guruxlari ta'sir qiladigan jarayonlar kabi xar bir gomeoboks genlar aniq genlar guruhlarining hosil bo'lishini boshqarish bilan rivojlanishning noyob bosqichlarida ishtirok etadi.

Ko'pgina o'simliklar axborot almashinuvi uchun proteinkinazalardan foydalanadi.

Proteinkinazalar ATF- bog'langan fermentlar hisoblanadi va oqsillar fosfat guruhlariga qo'shiladi.

Oqsillarning fosfolirlanishi boshqarilish jarayonlarining kalit mexanizmi hisoblanadi va bu holat fermentlar faolligi va transkripsiya omillarini boshqarishda muhim vositalardan hisoblanadi. Barcha eukariotlarda keng foydalailishiga qaramasdan o'simliklar genomlari genlarga juda boy va bu genlar yuqoridagi qyermentlarni kodlaydi. (hosil qiladi). Arabidopsis genomlari kinaz oqsillarini kodlaydigan 1200 dan ortiq genlardan iborat bo'ladi.

Xujayraning taqdiri uning holatiga qarab aniqlanadi. Ikkala ildizlar va nihollar meristemalari, stvol xujayralarining kam miqdori qaysidir to'qimaning asosiy manbai bo'lib xizmat qiladi va bu to'qimalardagi ko'pchilik xujayralar shu bilan birga ayni bir stvol xujayradan hosil bo'lishi bilan birga klonlangan xarakterga ega. Bundan tashqari ko'pchilik ma'lumotlar shuni tasdiqlaydiki, xujayraning taqdiri uning rivojlanish yo'liga bog'liq emas, buning o'rniga uning rivojlanish holatiga alohida ahamiyat berish zarur.

Ko'pchilik holatlarda epidermal o'q xujayralar 1 qavatdagi xujayralarning kam miqdordagi qismlaridan hosil bo'ladi. Bundan tashqari 1 qavat hosilalari epidermal xujayralarga aylanadi va ular markazdan uzoqroqda joylashgan qavatlarni hosil qiladi va xujayralarning korka qavatlarining yuqori qismlarida joylashadi. Bu holat 1 qavat stvol xujayralarining klonlaridan hosil bo'lganda amalga oshmaydi.

Xujayraning bo'linish jarayonini aniqlashda qizlik xujayralarning holatiga bog'liq va bu joylashuv holati o'z navbatida qizlik xujayralarining keyingi taqdirinii aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Xujayraning oxirgi holatini aniqlashda holatning muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlovchi yana bir muhim omillardan biri xujayraning odatiy holatiga bog'liq taqdirining ko'rib chiqilishi va shu yo'sinda ular boshqa qavatlarni egallash uchun o'tishi holatidir.

1 va 2 qavatlardagi bo'linishlar natijasida hosil bo'lgan meristema qavatlari antiklinal hisoblanadi va antiklinal bo'linish birinchi navbvtida qavatlarning generatsiyalanishiga javobgar hisoblanadi. Bundan tashqari ba'zida periklinal bo'linishlar ham sodir bo'lishi mumkin va bu bo'linishlar natijasida hosil bo'lgan qavat

qushni qavatning joyini egallaydi. Bu periklinal bo'linish ushbu qavatlardan hosil bo'lgan to'qimalarning tarkibini o'zgartirmaydi.

Buning o'rniga hosil bo'lgan mahsulotlar bu qavatlarni band etuvchi yachevkalar uchun xos xujayralarning faoliyatini qo'llab quvvatlaydi. Holatga bog'liq ravishda xujayralarning taqdirini

aniqlash keyingi tadqiqotlarda mutunt va yovvoyi tiplpr aralash holatda bo‘lgan oddiy plyush barglaridan foydalanilgan. Mutatsiya nigollarning apikal meristemalar stvol xujayralarida amalga oshsa ushbu o‘simplikning barcha xujayralari ayni shu stvol xujayralaridan mutatsiyani o‘ziga oladi.

Bunday, xujayralar turli xildagi genetik tiplardan tashkil topgan o‘simpliklar ximeralar deb ataladi. Ximeralarning tahlili to‘qimalarning tarli klonal kelib chiqishini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Mutatsiya xloroplastlarning differensiallanish xususiyatiga ta’sir etganda, albinos qismlarning bo‘lishi, bu qismlarning stvol xujayralardan hosil bo‘lishi ham mutatsiyaning tashilishini ko‘rsatadi, plyush o‘simpligida 2 qavat mutatsiyani tashuvchi omil bo‘lgan va bu holat 1 va 3 qavatlarda ham ushbu genlarning ayni shunday nussasi mutatsiyasini keltirib chiqargan. 1 qavat mutatsiyani barglargacha va poya epidermislarigacha olib chiqadi ammo bunda qismlar rangsiz bo‘ladi. Buning sababi ko‘pincha epidermal xujayralarda xloroplastlarning differensiallanmasligidir.

Mezofill to‘qimalar 2 qavatlardan hosil bo‘ladi va shuning uchun 2 qavatlar tomonida hosil bo‘lgan mutatsiyalar natijasida barglar va 2 qavatlar tomonidan hosil bo‘lgan qismlar ham ushbu mutatsiyalar ta’siri ostida rangsiz bo‘lib qoladi. Barcha barglar oq rangli bo‘lib qolsada yoki deyarli oqargan holatda bo‘lsada, ularda yashil dog‘lar ham uchraydi. Bu yashil dog‘lar turli boshqa jarayonlarning hosilalari hisoblanadi.

Bu turdagи barglardagi yashil to‘qimalar birlamchi 1 yoki 3 darajalaridagi xujayralardan hosil bo‘lgan; rangsiz bo‘lgan barg qismlari esa 2 qavatlardan hosil bo‘ladi. Barglarning bunday rang barang tusga kirishi 1 qavatlarida yoki 3 qavatlarda barg hosil bo‘lishining ilk bosqichlarida tasodifyi periklinal bo‘linish mezofillalarning yashil xujayralari ko‘rinishida differensiallanishi mumkin bo‘lgan xujara klonlarini hosil qilishi bilan bog‘liq. Bu tadqiqot xulosalaridan shu narsa ko‘rinib turibdiki, xujayra differensiallanishi xujayraning klonlanish jarayonlariga bog‘liq emas. Rivojlanish bosqichlarida xujayraning taqdiri o‘simplik organizmida xujayraning egallaydigan holatiga bog‘liq.

Rivojlanish jarayonlariga tayyorgarlik bosqichlari birga ta’sir etuvchi genlar guruhi tomonidan amalga oshiriladi. Rivojlanish yo‘llarini boshqarib turuvchi guruhlarni bilish uchun bizda yetarlicha ma'lumotlar mavjud. Ammo, bir qancha tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, maxalliy va organlararo axborot almashinuvlari trankripsiya omillarini kodlaydigan genlar ekspressiyasi tomonidan boshqariladi. .Bu transkripsiya omillari o‘z navbatida ayni xujayraning yoki to‘qimaning xarakatini (rivojlanishini) belgilab beradi. Odatda bu mexanizmlar ikki yoki undan ortiq genlarning birga ta’sir etib bir birining faoliyatini boshqaradigan teskari aloqa bog‘lamlarini hosil qiladi.

Rivojlanish jarayonlari xujayra-xujayra axborot almashinuvi yordamida boshqariladi. Xujayralar qanday sezishadi va bu sezuvchi qismlar qaerda joylashadi. Agar xujayraning taqdiri noklonal usulda va holatiga qarab aniqlanadigan bo‘lsa, xujayra o‘z holdatini boshqa xujayralarga, to‘qima va organlarga nisbatan sezaga olish darajasida bo‘lishi kerak. Yon xujayralar va uzoqroqda joylashgan organ va to‘qimalar joylashish joyi haqidagi axborotlarni o‘zida saqlaydi.

Ko‘p xujayrali o‘simpliklarda, ko‘rib chiqilganidek, xujayralar atrofidagi xujayralar bilan mustahkam bog‘langan bo‘ladi va har bir xujayraning holati o‘simpliklarning butun hayoti davomida ayni xujayraning qo‘shti xujayralari bilan muqim koordinatsiyalangan holatda bo‘ladi. Bundan tashqari, har bir xujayra o‘zi tegishli bo‘lgan o‘simpliklar to‘qima va organlari chegaralarida ma'lum pozitsiyada (holatda) bo‘ladi.

Xujayralar faolligining koordinatsiyasi xujayralararo kommunikatsiyani (o‘zaro axborot almashinuvini) talab qiladi. Ya’ni bir qanchy muhim genlar ontogenetik jihatidan bir biriga bog‘liq bo‘limgan ravishda ta’sir qiladi. Ular ushbu xujayraning taqdirini belgilash uchun ayni xujayrada aks etishi zarur. Ushbu gen yoki genlar guruhi nafaqat ayni xujayraning rivojlanish jarayonlariga, shu bilan birga qo‘shti va hattoki uzoqroqda joylashgan xujayralar va to‘qimalarning rivojlanish jarayonlariga ham xujayralararo axborot almashinuv mexanizmlari yoki quyidagi uchta turli xil mexanizmlar orqali ta’sir qilishi mumkin.

1. Ligand-indutsirlangan axborot almashinuvi
2. Garmonal axborot almashinuvi
3. xujayralararo regulator oqsil almashinuvi orqali va/ yoki mRNK almashinuvi orqali axborot almashinuvi

Ligand-indutsirlangan axborot almashinuvi. Xujayra devorlarining komponentlari odatda arabinogalaktan oqsillari deb ataladigan glikoprotein makromolekulalari sinflaridan tashkil topadi (ASR) va ular o‘z holati haqidagi xujayralarning keyingi holatlarini belgilaydigan axborotlarni saqlaydi.

ASR oqsillari masofada axborot almashinuvlarida ishtirok etmaydi, ammo ayni xujayraga uning qo‘shti xujayrasi haqidagi axborotlarni berib turadi. Bu axborotlar keyinchalik xujayralar differensiallanish jarayonlarida qayta dasturlanadi yoki uning holatiga qarab mos ravishda xujayraning keyingi holatini belgilashda foydalaniladi.

O‘simliklar ko‘p sonli bo‘lishiga qaramasdan, ehtimol, yuzlab kinaza retseptorlari, biz kutganimizdek, ko‘pgina axborot almashinuvi holatlari fosfolirlangan oqsillar indutsirlangan ligandlari tomonidan iniitsirylanadi (qabul qilinadi). Hozirga vaqtida shu narsa ma'lum bo‘ldiki, ligandlarning kamchilik qismlari proteinkinazalarini faollashtiradi. Yana shunday ma'lumotlar ham mavjudki, unga ko‘ra SUZ genlari tomonidan kodlangan unchalik katta bo‘limgan oqsil SU1 proteinkinazasining faollovchi ligandi hisoblanadi.

SUZ oqsili 100 dan ortiq aminokislardan tashkil topadi va boshlovchi aminokislota ketma ketligini takrorlash bilan xujayra tomonidan produtsirlangan qismlarni xujayralardan chiqishini ta'minlaydi.. O‘zining unchalik katta bo‘limgan o‘lchami tufayli va suvda yaxshi eruvchanligi bois ular xujayralararo vositalar orqali va apoplastlar orqali yengil xarakat qilish xususiyatiga ega.

Asosan apoplastlar xujayra devorlarining tashkil qiluvchi qismlaridan tashkil topadi. Xujayraning makromolekulyar qavati sezilarli darajada gidrofil (suvda eriydigan) bo‘ladi, devor esa makromolekulalar orasida 3.5 dan to 5 nm gacha bo‘lgan teshikchalarga ega bo‘ladi.

Bundan kelib chiqdiki, 15kDa dan kichik bo‘lgan barcha molekulalar apoplastlar orqali yengil diffundirlanishi mumkin.

Garmonal axborot almashinuvi. O‘simltik garmonlari- auksin, etilen, gibberellin, ABK, sitokininlar va brassinosteroidlar kabi barcha tkrlari rivojlanish jarayonlarini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Bu muhim ahamiyatli omillar keyingi bo‘limlarda ko‘rib chiqiladi. Ushbu muhokamalarda biz ko‘proq auksin axborot almashinuviga va uning mexanizmlariga to‘xtalib o‘tamiz.

Auksin axborot almashinuvi o‘qli polyarlik xususiyatlarining shakllanishi va tomir to‘qimalarning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Auksin garmon axborot almashinuvchi vostia sifatida avvaldan ma'lum va tomir to‘qimalarning differensiatsiyasini initsiatsiyalaydigan axborot almashinuv vositasi hisoblanadi. Ammo, asosan axborot almashinuvi samaradorligini o‘rganishda asos qilib auksinlar va auksin o‘tkazuvchi ingibitorlar olingan.

Bir qancha vaqt avval ikkala arabidopsis gen gnomlari va monopteroslar aniqlangan va ular o'qli polyarlikni hosil qilishda ishtirok etadi va embriogenetik jarayoni va o'simliklar rivojlanish jarayonlarida to'qimalar differensiallanishi davomida auksin axborot almashinuvchi jarayonlarida ishtirok etadi. Avvl ko'rib chiqilganidek, arabidopsis gnom genlari identifikatsiyalangan bo'ladi va gomozigota mutatsiya embrionlari genlari ildiz va urug'pallalarni hosil qilmaydi va o'qli polyarlik xususiyatlarini hosil qilish imkoniyatigi ega bo'lmaydi.

Gnomgenlarning mahsulotlari auksin oqimi oqsil-tashuvchi RSh1 oqsillarni lokalizatsiya (tashiydigan) qilish uchun kerak bo'ladi.

GNOM genlar kodlagan omil guanin nukleotid xujayra polyarligini hosil qiluvchi xujayra mexanizmining komponenti hisoblanadi. Bu mexanizm, va gnom genlar hosil qilgan oqsillar auksin oqimi oqsil-tashuvchi RSh1 oqsillarni embriogenetik jarayonlarining sharsimon bosqichida prokambiy xujayraning bazal oxirlari uchun va keyinchalik tomir xujayralari rivojlanishi zarur hisoblanadi.

Ko'rib chiqqanimizdek, monopter genlar mutatsiyalari natijasida, ular apikal qismlarni hosil qilsada, gipokotil va ildiz yetishmasligi kuzatiladi. Genlar mutatsiyalari mutant embrionlarda apikal strukturalar struktur jihatidan nome'yoriy bo'ladi bundan tashqari urug'pallalar to'qimalar qayta shakllangan bo'ladi. Mono Pteroid mutant embrionlarda birinchi anomal belgilar oktant bosqichida nomoyon bo'ladi va ular globulyar murtaklar pastki qismlarida prokambiyning shakllanmasligiga olib keladi. Bu qism shakllanmasligi oqibatida gipokotil va ildiz hosil bo'lmaydi. Keyinchalik bir qancha tomir to'qimalari urug'pallalarda shakllanadi ammo haqiqatda ular noto'gri hosil bo'lgan hisoblanadi.

Monopteroid genlar kodlagan oqsillar ARF (auksin javob qaytaruvchm omili) nomi bilan yuritiladigan transkripsiya omillari bilan bog'lanadi. Ikkala ARF va monopteroid genlar ma'lum auksin mavjud bo'lgan sharoitlarda transkribsiyalanadigan genlar promotorlarida auksin javob qaytaruvchi elementlari bilan birikadi. Barcha belgilariga ko'ra monopteroid genlar tomir to'qimalari differensiatsiyasiga jalb qilinadigan genlar ekspressiyasi uchun zarur hisoblanadi.

Embriogenetik jarayonlarida auksin axborot almashinuvining qo'llab quvvatlanib turilishining yana bir isboti shundan iboratki, ayni o'rganilayotgan auksin blok-retseptori, AVR1, embriogenetik tashkil etiladigan xujayraning bo'linish va cho'zilish jarayonlarida zaruriy omil va faol ishtirok etadigan qismi ekanlidir. Arabidopsis mutant gomozigotalar xattoki globulyar bosqichning boshlanishiga qadar me'yoriy rivojlanish jarayonlarini hosil qilsada, AVR1 holatida yetuk embrionlarni hosil qilmaydi. Bu mutantlar ikki tomonlama simmetriyaga o'tish xususiyatlarini shakllanishiga ham to'sqinlik qiladi va xujayralar cho'zilishi amalga oshmaydi.

Xujayralar orasidagi simplast aloqalar xujayralar devorlari orqali bog'langan plazmodesmatalor bog'lar orqali amalga oshiriladi. O'simliklardagi ko'pgina tirik xujayralar plazmodesmatalar xujayralar devorlariga tutashib turadigan va ular orasidagi sitologik aloqalarning ba'zi darajalarini ta'minlaydigan orqali qo'shni xujayralar bilan simplastikal bog'lanib turadi.

Viruslar o'simliklarga tushishi va tarqalishi ham xujayralardan xujayralarga plazmodesmamlar orqali o'tkaziladi. Ularning genomlari viruslarning genomlari RNK sining harakati yengil amalga oshishi uchun va plazmodesmamlar orqali yengil o'tishi uchun o'simliklarda uchraydigan oqsil tabiatli oqsillarni kodlaydi. Ehtimol, viruslar evolyusion xujayralar orasidagi axborotalmashunuvi mexanizmlarini o'zlashtirib olgan bo'lishi mumkin. Xozirgi vaqtida nima uchun axborot almashinuvchi ayni shu shaklda amalga oshishi ammo aloqaning bu turi o'simliklarning rivojlanishidagi umumiyligini xususiyat ekanligi tushunarsizligicha qolmoqda.

O'simliklarningo'sishining tahlili. O'simliklar qanday o'sadi? Bu oddiy bo'lib ko'ringan savollar olimlar o'rtasida 150 yildan ortq vaqt davomida ko'pgina muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Yangi xujayralar bevosita apikal meristemalarda hosil bo'ladi. Xujayralar apikal meristemalarda sekin kengayadi va subapikal meristemalarda yuqori templarda amalga oshadi. Natijada xujayralar miqdorining oshishi o'rab turgan muhitning sharoiti va ko'rinishiga qarab 100 dan bir necha ko'p miqdorda bo'lishi mumkin.

Odatiy o'sish jarayonlarining tahlili xujayralarning miqdori va ularning hajmiga (yoki og'irligiga) qarab o'tkazilgan. Bundan tashqari bu o'lchovlar o'simliklar rivojlanish tarixining ma'lum bir qismi haqidagina tasavvurlar paydo qilishi mumkin. To'qimalarning o'sishi bir xillilik va tasodifiy jarayon hisoblanmaydi. Apikal meristemalarning hosilalari oldindan belgilangan dastur asosida kengayadi va ma'lum qonuniyatlar asosida subapikal qismlarda o'simliklarning asosiy tanasini o'lchami va shaklini hosil qiladi

O'simliklarning umumiyo'sish holati xujayralarning ma'lum qonuniyatlar asosida bo'linishi va kengayishidan hosil bo'ladi. Xujayralar harakati yoki "to'qima elementlari"ning tahlili (va xujayralar kengayishi bilan bog'liq muammolar bilan birga) kinematika deb ataladi.

O'simliklarning o'sishi turli usullar yordamida o'lchanilishi (o'rganilishi) mumkin. O'simliklarning o'sishi ularning o'lchamlarining qaytmas ravishdv kattalashishi bilan aniqlanadi. O'simliklar o'sishininig eng katta komponenti turgor bosim ta'siri ostida bo'lgan xujayraning kengayishi hisoblanadi. Ushbu jarayonlar davomida, xujayralar ko'p bosqichli hajm o'zgarishlarida kengayadi va katta vakuollangan holatga o'tadi.

O'sish shuningdek, yangi og'irlikning o'sishi nuqtai nazaridan belgilanishi mumkin, ya'ni ma'lum belgilangan vaqt oraligida umumiyo tirik to'qimaning og'irlik miqdori. Bundan tashqari o'simlikning dastlabki og'irligi tuproqda o'sish davomida suv miqdori va tarkibining o'zgarishiga qarab turli xil bo'lib turadi. Shuning uchun o'lchamlar va natijalar ayni o'sish uchun yomon ko'rsatkichlar bo'lib xizmat qilishi ham mumkin. Bu sharoitlarda quruq ogirlikning o'lchanishi ko'pincha to'g'ri tanlov bo'lishi mumkin.

Xujayralarning miqdori yashil suvo'tlari, xlamidomanaslar kabi bir xujayrali organizmlarning o'sishini o'lchab ko'rish uchun umumiyo va qulay parametri hisoblanadi. Ko'p xujayrali organizmlarda bundan tashqari xujayralarning miqdori o'sishni zlhashning noaniq usuli bo'lib qoladi.yu Chunki xujayralar hajmning o'zgarmasligi bilan ham amalga oshishi mumkin.

Masalan, embriogenezning ilk bosqichlarida, zigotalar embrion o'lchamining umuman o'zgarmasligi bilan bir qancha mayda xujayralarga qadar bo'linadi. Faqatgina shundan keyin, u sakkiz xujayrali bosqichga o'tishi bilan hajjni kengayishini amalga oshiradi va xujayralarning miqdorining oshibi borishi nomoyon bo'ladi. Shu bilan birga zigotalar sezilarli yirik xujayralar hisoblanadi va o'lcham borasidagi bunday muvofiqlikning yetishmasligi xujayralar miqdorining oshishi va o'sishida noodatiy holat bo'lishi mumkin, ammo u o'sish bilan birga xujayralar sonining oshishi tenglanishida potensial muammolarni hosil qiladi.

Xujayralar soni xar doim ham o'simliklar o'sishi jarayonlarini o'lchashda aniq o'lcham bo'lib hisoblanmasada, ko'pgina holatlarda xujayralarning bo'linishi, asosan meristemalarda ikki marta ko'p hajmda ularning xujayra sikli bosqichi davomida amalga oshadi. Shu yo'sinda xujayralar sonining oshishi shu bilan birga apikal meristemalarining faoliyatini ham kengaytiradi va o'simliklar o'sishi jarayonlarini to'liq ta'minlab beradi. Bundan tashqari, o'simliklar o'sishining yirik komponentlari subapikal qismlarda amalga oshadigan xujayralarning bo'linishi tugaganidan keyin xujayralarning jadal kengayishi hisoblanadi.

O'simliklar o'qining barcha xujayralari me'yoriy sharoitlar ostida kengayganida yuqori meristemalardan hosil bo'lgan xujayralar soni qanchalik ko'p bo'lsa, o'q xam shunchalik uzun bo'ladi. Masalan, arabidopsis o'simliklar siklinlarni kodlaydigan genlar bilan transformatsiyalanadi va bu xujayra siklini boshqaradigan mexanizmning kalit komponenti hisoblanadi. Yuqori meristemalarning xujayralari xujayra sikli orqali birmuncha jadal rivojlanadi, shu bois xujayralarning ko'p miqdori bir vaqtning o'zida shakllanadi. Natijada bu transgen o'simliklarning ildizlari ko'p xujayralarga ega bo'ladi. Yovvoyi turlariga solishtiradigan bo'lsak, analogik sharoitlarda ham madaniy turlar xujayralarining miqdori sezilarli darajada ko'p bo'ladi.

Yangi xujayralar har doim apikal meristemalarda shakllanadi. Xujayra bo'linishining xar bir yangi bosqichida va unga bog'liq xujayra kengayishi jarayoni natijasida eski hosil bo'lgan xujayralar yuqori qismlardan biroz uzoqroqqa qarab siljib boraveradi. Xujayralarning apeks qismlardan muntazam siljib borishi natijasida almashinish tezligi ham oshib boraveradi. O'simliklar o'sishini yuqori qismlardan xujayralar siljishi jarayoni sifatida o'rganish natijasija biz kinematika jarayonlarini ham tushunishimiz mumkin. meristemalarda xujayralarning hosil bo'lishi taqqoslash manbalar bo'lib xizmat qiladi.

Suyuqliklarning tashilishi natijasida spetsifik shakllar generatsiyalanadi. Suyuqliklar qismining tashilishi va shaklning o'zgarishi suyuqliklarning kinematik ta'sirlar ostida malga oshadigan harakatlari natijasida paydo bo'ladi. Ushbu suyuq shakllarni o'rganish uchun fikrlar va sanab o'tilgan usullar meristematisk o'sish uchun o'ziga xos omillar sifatida qabul qilinishi mumkin. Ikkala holatda ham o'zgarmagan shakl (natija) olinadi, hattoki, agar ular elementlarining almashinishi va o'zgarishlariga uchranganida ham.

Elementlar o'zgarishi va almashinishi natijasida o'simliklarda shaklning o'zgarmaganligi misoli sifatida dukkaklilar qatori ikki pallali o'simliklar gipokotillarining boshchalari ilmoqchali bo'lishini olishimiz mumkin.

Loviya kabi dukkakli o'simliklar yangi nihollari gipokotillari apikal oxirlari o'ziga nisbatan orqaga qarab egiladi va buning natijasida ilmoqchalar hosil bo'ladi. Ilmoqchalar apeks nihollarni tuproq orasida o'sish jarayonida himoya qiladi. O'sish jarayonlari davomida va yetarlicha yorug'lik muhitida ilmoqchalar poyalarni gipokotildan epikotilga migratsiyalaydi va undan keyin birinchi va ikkinchi bog'oraliqlariga o'tkazadi. Ammo ilmoqchalarning shakli o'zgarmas holatda bo'lib qolaveradi.

Gibberellinlardan bodringning seleksiyasi va urug‘chiligidagi foydalanilmoqda. Bunda gibberellinlar etilenlardan farqli o‘laroq erkak jinslarni namoyon bo‘lishini kuchaytiradi.

Chet mamlakatlarida noqulay ob-havo sharoitlarida gibberellin A va A<sub>2</sub> aralshmasidan tayyorlangan preparatdan olma va nokning hosilini orttirishda qo‘llanilmoqda.

Uzumning va rezavor mevalarga gibberellin bilan ishlov berish (sepish) orqali danaksiz (urug‘siz) partenokarpik mevalar olishda foydalanilmoqda.

Sitokininlar. O‘simlik xujayrasining bo‘linishini jadallashtiruvchi, qarishga va urug‘ning tinim davridagi jarayonlarga ta’sir ko‘rsatuvchi xamda o‘sishni boshqa tomonlarini boshqarilishida ishtirok etuvchi 6-aminopurin qatoriga kiruvchi organik moddalarga sitokininlar deyiladi.

Sitokinin effekti birinchi bo‘lib 1940 y F.Skug tomonidan kokos sutida aniqlangan.

Ularni 1955 yilda birinchi marta amerikalik olimlar K.Miller va F.Skug seld tuxumi suyuqligidan ajratib oldilar. Bu birikmalar kristall holda ajratib olingandan keyin ular 6-furfurolaminopurin (kinetin) ekanligi aniqlandi ( $S_{10}N_9K_5O$ ). Keyinchalik kinetin tabiiy sitokininlar guruhiba kirmsiligi aniklandi.

1964 yilda D.S. Letam makkajo‘xorining xom donidan tabiiy sitokinin - zeatinni ajratib oldi. Uruglarning unishi tezlashadi.

Kurtaklarning tinim holatidan chiqishi tezlashadi.

Modda almashinuvi jarayonida hosil bo‘lgan mahsulotlarning taqsimlanishi ma’lum tartibda saqlanadi.

Sargayib qolgan barglar yashil tusga kiradi.

O‘simliklarning qurgoqchilikka chidamliligi ortadi.

O‘simliklarning issiqlikka chidamliligi ortadi

Oqsil parchalanishi natijasida hosil bo‘lgan mahsulotlar yosh barglarga qarab harakatlanadi.

Sitokinin ta’sirida meristema hujayralarining o‘sishini differensial fazasini o‘tishi tezlashadi.

Sitokinin ta’sirida kallus dan butun bir o‘simlik tiklanadi.

Sitokininni auksin va etilen bilan bir jinsli gulli o‘simliklarga ta’sir etilganda urg‘ochi gullar, gibberellin bilan ta’sir etilganda esa erkak gullar hosil bo‘ladi.

Tabiiy ingibitorlar Etilen. Etilen o‘simliklarda hosil bo‘ladigan tabiiy birikmadir. Etilenning ( $SN_2=SN_2$ ) fiziologik ta’sirini birinchi marta 1901 yilda D.N.Nelyubov yozgan edi. Keyinchalik Yu.V.Rakitin tabiiy etilenning o‘simliklardagi fiziologik ahamiyatini har tomonlama o‘rganib, u mevalarning pishishida ishtirok etadigan gormon, degan fikrni ilgari surdi.

Etilen mevalarning pishishini, meva barglarning to‘kilishini tezlashtiradi poya hamda ildizlarning o‘sishini to‘xtatadi.

Hujayralarning bo‘linish va cho‘zilish fazalarini susaytiradi, umuman qarish jarayonini jadallashtiradi. U asosan o‘simlikning gulida, bundan tashqari qariyotgan barglarda va mevalarda ko‘p sintezlanadi.

Abssizinlar. O‘simliklar bargini to‘kilishi va ularni tinim davriga ketishini boshqaruvchi yoki o‘sishni susaytiruvchi moddalarga absizinlar (dorminlar) deyiladi.

Bu birikmalar birinchi marta 1961 yilda V.Lyu va X.Karns tomonidan g‘o‘zaning pishgan ko‘saklaridan kristall holda ajratib olingan. Unga abssizin (inglizcha - a’8S188op - ajralish, to‘kilish) deb nom bergen.

1963 yilda Fransiyada o‘siruvchi moddalar bo‘yicha o‘tkazilgan Xalqaro konferensiyada abssizinlarning mavjudligi to‘la tasdiqlandi va shu yilning o‘zida abssiz kislotaning (ABK) molekulyar strukturasi aniqlandi:

Abssiz kislotasi (ABK) o‘sishni to‘xtatuvchi tabiiy birikma bo‘lib, boshqa o‘sishni boshqaruvchi fitogormonlar (auksinlar, gibberellinlar va sitokininlar) kabi o‘simlikda hosil bo‘ladi.

Butun tanaga tarqaladi va juda oz miqdorda ta’sir etadi. Shuning uchun ham abssiz kislotasi - o‘sishni to‘xtatuvchi gormonlar deb atalgan.

Abssizinlar fenolli ingibitorlarga nisbatan juda kuchsiz konsentratsiyalarda ham ta’sir etadi. Ular o‘simlikning o‘sishini susaytirishda, urug‘larning unishini to‘xtatishda, meva va barglarning to‘kilishida, gullarning kech hosil bo‘lishida ishtirok etadi. Abssizinlar ayniqsa o‘simliklarning qariyotgan organlarida (barglarda, mevalarda, urug‘larda) ko‘p miqdorda to‘planadi. Ular nuklein kislotalar, ayniqsa DNK, oqsillar, xlorofillning sintezini susaytiradi.

Etilen. Etilenning muhim funksiyasi bu uning ta’sirida urg‘ochi jinsli gullarning sonini ortishiga ijobiy ta’sir qilishidir.

Etilen ta’sirida xom holatda transportirovka qilish maqsadida terilgan mevalarning oxirigacha pishishini tezlatishdan iborat. Masalan, banan va boshqa sitrus o‘simliklarning mevalarini tarnsportirovka qilish maqsadida xomroq holatda terib olinadi. Shundan so‘ng mazkur mevalarni etilen to‘ldirilgan kameralarda saqlanganda ular tez va bir tekisda yetilishga ulguradilar.

Etilen moddalariga misol qilib 1946 yilda M.I.Kobachnik va P.A.Rossiyskiylar sintez qilgan 2-xloretilfosfon kislotasini ko‘rsatish mumkin.

O‘tgan asrning 60-yillarini oxirlaridan ta’sir qiluvchi moddasi etilen bo‘lgan qator preparatlar - etrel, etefon, kompazan, xlordimeks, terpal, dekstrel va boshqalar qishloq xo‘jaligi Gidrel va dekstrel pomidor mevalarini tez va bir vaqtida yetilishiga yordam beradi. Bu esa hosilni kombaynlar yordamida bir martaning o‘zida terib olish imkoniyatini beradi. Bunda yetilgan-to‘la pishgan tomat mevalarining soni 3-4 marta ortib 70-80% ga yetadi.

Ko‘pgina mamlakatlarda etrel preparatidan shaftoli, sitruslar tokning ba’zi navlari, krijoynik, qora smorodina mevalarini mexanizatsiya yordamida yig‘ib olishda foydalaniilmoqda.

Etrel urg‘ochi gulli bodring o‘simliklarini erkak jinsiga aylanishiga yo‘l qo‘ymaydi va bir vaqtning o‘zida bir nechta bir xil kattalikdagi portenokarpik mevalarni hosil bo‘lishini ta’minlab, hosilni bir martaning o‘zida kombayn yordamida yig‘ib olish imkonini beradi

Abssiz kislotasi juda qimmatli bo‘lib, hozirchalik uning arzon bo‘lgan va hamma sotib olish imkoniyatiga ega bo‘lgan sun’iy analoglari ishlab chiqarilgancha yo‘q. Shuning uchun uni amalda qo‘llash bo‘yicha tavsiyalari ishlab chiqilganicha yo‘q.

Sitokinlarni amalda qo‘llash bo‘yicha talaygina tadbirlar ishlab chiqilgan. Ularning sun’iy analoglari hozirgi vaqtida ishlab chiqarishda har tomonlama sinovlardan o‘tkazilmoqda.

## 2. Sun’iy fiziologik faol moddalar Retardantlar.

O'simlik hujayralarining bo'yiga o'sishiga salbiy ta'sir qiladigan moddalar retordanlar deyiladi.

Retordanlar vegetativ o'sishni, birinchi navbatda asosiy va yon novdalarning cho'zilishini sekinlatuvchi sintetik moddalaridir. Bu moddalarni qo'llash natijasida o'simliklarni bo'yi kaltalashadi-qisqaradi, novdalari esa yo'g'onlashib pishiqligi ortadi.

Ularga xlortexolinxlridorid va 2-xloretilfosfon kislotasini misol qilishimiz mumkin. Ular ta'sirida:

- O'simliklarning bo'yi past, lekin baquvvut bo'lib o'sadi,
- o'simliklarning issiqlikka chidamliligi ortadi,
- O'simliklarning qurg'oqchilikka chidamliligi ortadi,
- O'simliklarning kasalliklarga chidamliligi ortadi,
- O'simliklarning past haroratni ta'siriga chidamliligi ortadi,
- G'alladosh o'simliklarning poyalari yerga yotib qolmaydi.

Pastki bo'g'in oralig'i hosil bo'lgan davrlarda bug'doyga xlortexolinxlridorid bilan ishlov berilishi o'simliklarning bo'yini past va somonini mustahkam bo'lishiga olib keladi. Bu holat bug'doy hosilini kombayn bilan yig'ishni osonlashtiradi va g'allaning yo'qolishini keskin kamayishiga imkoniyat yaratadi.

Xlortexolinxlridorid bilan olma va nok daraxtlariga sepish bilan ishlov berilganda ularning meva hosil qilishiga ertaroq kirishgani va ular kompakt shakldagi gibitusga ega bo'lganliklari aniqlandi. Mazkur o'simliklarga ishlov berishni ularning ko'chatlarini ekkandan 3-4 yil o'tgandan keyingina amalga oshiriladi.

G'o'zani TUR yordamida kimyoviy chekanka qilish katta e'tiborga loyiqidir. Bunda g'o'zaga ko'saklar hosil qilish davrining boshlarida 0,25-0,5 kg/ga miqdoridagi TUR bilan ishlov berish sezilarli darajadagi natijalar beradi.

Gerbitsidlar. Madaniy o'simliklar orasida o'sadigan begona o'tlarni hamda avtomobil va temir yo'llari yoqasida, kanal va qurilish maydonlarida o'sadigan o'simliklarni yo'qotish maqsadida ishlatiladigan faol birikmalarni gerbitsidlar deyiladi.

O'stiruvi modda bo'l mish auksinlarning kuchli eritmasi ham o'simliklarga salbiy ta'sir qilganini, ya'ni gerbitsidlar qatoriga kirganligini N.G.Xolodniy ta'kidlab o'tgan edi.

Gerbitsidlar kimyoviy tuzilishi har xil bo'lishi bilan o'simlikning o'sish konusi (nuqtasi) ga yoki to'qimalariga ta'sir etib ularni nobud qilish xususiyati bir xil.

O'simliklarga ta'sir etish tabiatiga ko'ra gerbitsidlar quyidagi 2 guruhgaga bo'linadi:

1. Barcha o'simliklarga yalpi ta'sir etuvchi gerbitsidlar,
2. Tanlab ta'sir etuvchi (selektiv) gerbitsidlar.

Agar gerbitsidlarning konsentratsiyasi kuchli bo'lsa, ularning hammasi ham yalpi ta'sir etuvchi gerbitsidlar qatoriga kiradi.

O'simliklarga ta'sir etish formasiga ko'ra gerbitsidlarni quyidagi ikki guruhgaga bo'linadi:

- 1) Kontakt gerbitsidlar,
- 2) Sistemali gerbitsidlar

O'simlik to'qimalariga bevosita yopishgan holda ta'sir qilsa, ularni kontakt gerbitsidlar deyiladi.

O'simliklarning o'tkazuvchi naylari orqali harakatlanib ta'sir qiladiganlari sistemali gerbitsidlar (DNOK, pentaxlor, fenolyat natriy) deyiladi. Ular ta'sir etsa poya va barg tabiiy holatini yo'qotib mo'rtlashadi.

Gerbitsidlar o'simliklarga barg yoki ildiz orqali ta'sir etadi. Gerbitsidlar eritma, kukun-paroshok yoki pasta holida ishlatiladi. Gerbitsidlar bilan ishlaganda uning konsentratsiyasi, iqlim sharoitiga, o'simlik turiga va agrotexnika tadbirlariga amal qilish lozim.

Defoliantlar o'simlik bargini to'kuvchi moddalar xisoblanadi. Defolyant sifatida kalsiy sianamid, magniy xlorat qo'llaniladi. Gerbitsidlardan farqli ravishda defoliantlar o'simlikni nobud bo'lishiga yoki o'sishini to'xtab qolishiga olib kelmaydi.

Kichik miqdorda o'sishni faollashtirish, katta miqdorda esa o'sishni to'xtatish va o'simlikni nobud qilishi mumkin.

Defoliantlar bilan sun'iy barg to'kilganda, barglarda tabiiy barg to'kilgandagi kabi moddalar almashinuvida o'zgarishlar sodir bo'ladi. Defoliantlar eritmalari barg to'qimalariga kirib borib o'simlikni oldindan qarish jarayonlarini kuchaytiradi.

Desikantlar qishloq xo'jaligi ekinlarini (kungaboqar, kartoshka, kanakunjut, g'o'za xosillari, lavlagi beda, karam, zig'ir shingillari, beda to'pgullari) yetilishini tezlashtirish, yig'ishtirib olishni qulaylashtirish maqsadida yer ustki qismini suvsizlantirish-quritish maqsadida qo'llaniluvchi pestitsidlarning bir guruhi.

#### **O'sishni boshqaruvchi moddalarini qishloq xo'jaligida qo'llanilishi.**

O'simliklarning hayot faoliyatida oziq moddalardan tashqari, fiziologik faol moddalar, ya'ni vitaminlar, fermentlar va fitogormonlar alohida o'rinn tutadi. Bu moddalar hujayraning bo'linishi va cho'zilishi fazalarida ishtirok etadi. O'sishining embrional fazasida biosomalar- kompleks aktiv moddalar ishtirok etadi. Cho'zilish fazasida auksinlar tipiga kiruvchi o'stiruvchi moddalar ishtirok etadi. Auksinlar protoplazmaga ta'sir qilib, hujayra qobig'inining cho'zilishi va yo'g'onlashishini hamda hujayraga suv va oziq moddalar kirishini ta'minlaydi. Auksinlarning oz miqdori o'sishni tezlashtirsa, ko'p miqdori o'sishni to'xtatishi mumkin.

Hozirga kunda tabiiy stimulyatorlardan geteroauksin - indolin atsetat kislota mayjud bo'lib, o'simliklarni o'stirishda keng qo'llaniladi. Geteroauksin o'simliklarning bargi, ildizi va poyasining embrional to'qimalarida hosil bo'ladi. Geteroauksin o'simliklar poyasining uchki qismida ildizga nisbatan ko'proq to'planadi. Poyaning uchki qismi o'sishi vaqtida yon kurtaklar tinim davrida bo'ladi. Poyaning uchki qismi uzib tashlansa, yon kurtaklarning o'sishi tezlashadi, sababi geteroauksin oqimi yon kurtaklarga qarab harakatlanadi. O'stiruvchi moddalar hamma o'simliklar uchun umumiy bo'ladi.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida sintetik o'stirish stimulyatorlari keng qo'llanilmoqda. Ular o'simliklarni vegetativ ko'paytirishda, novda ildiz olishini tezlashtirishda, mevalarning to'kilishiga qarshi, yuqori konsentratsiyasi esa begona o'tlarni yo'qotishda ishlatiladi. Novdani ildiz ottirishda geteroauksin keng miqyosda qo'llaniladi. Bunda novda pastki uchi stimulyatorning suvli eritmasiga botirib qo'yiladi. Bu eritmaning konsentratsiyasi va unda saqlash muddati novdalarning holati qarab belgilanadi. Ozgina yog'ochlashgan novdani geteroauksin eritmasida (konsentratsiyasi 100 mg/1 l suv) 16-18 soat, ko'proq yog'ochlashgan novdalar 30 soat davomida saqlanadi. Indolil moy kislota geteroauksindan - yoki —marta kichik bo'lган konsentratsiyada ishlatiladi. Geteroauksin K'12ori8 - rizopus zamburug'idan ajratib olinadi, uning empirik formulasi  $S_{10}N_9O_2N$  - ekanligi aniqlangan. Geteroauksin barcha yuksak o'simliklar to'qimasida mayjud bo'lib, auksinlarga nisbatan bir necha marta kuchlidir. Geteroauksin o'simliklarda moddalar almashinuvi jarayonida triptofan aminokislatasidan sintezlanadi. Triptofandan dastlab shikim kislota, undan esa geteroauksin hosil bo'ladi. Geteroauksin o'sish jarayonini jadallashtirsa, shikim kislota, aksincha o'sish jarayoniga salbiy ta'sir etadigan ingibitoridir. Auksinlar o'simliklarning meristema to'qimalarida sintezlanib, boshqa organlariga yuqoridan pastga qarab yo'naladi. O'simliklarning auksinga bo'lган sezgirligi har xil ekanligini N.A.Maksimov aniqlagan. Uning fikricha, poya uchun auksinning (0,0001 -0,00001), ya'ni  $10^{-4}$ ,  $10^{-5}$  konsentratsiyasi optimal bo'lsa, kurtaklar

uchun  $10^{-8}, 10^{-9}$  va ildizlar uchun  $10^{-9}, 10^{-10}$  molyar konsentratsiyasi normal bo‘lishini isbotlagan. Auksinning konsentratsiyasi yuqorida ko‘rsatilganlardan yuqori bo‘lsa, o‘sishga salbiy ta’sir etishi mumkin. Auksin va geteroauksinlar ta’sirida fermentlar faoliyati va nafas olish jarayonlari jadallahshib, hujayraga suvning kirishi va oqsil sintezlanishi tezlashadi. O‘sishni jadallashtiruvchi birikmalardan yana biri gibberellin bo‘lib, uni bиринчи мarta 1926 yilda yapon olimi N.Kurosova gibberella fujikaroi zamburug‘idan ajratib olgan va uning ta’sirida, sholi va makkajo‘xorining o‘sishini kuzatgan. Gibberellinlar poya, barg va ildizlarda sintezlanib, yuqoridan pastga, pastdan yuqoriga harakatlanishi hamda katta konsentratsiyada ham zaharsiz bo‘lishi bilan farq qiladi.

Gibberellinlar ta’sirida urug‘, kurtak va kartoshka tugunaklari tinim holatidan uyg‘onadi.

Gibberellinlar ta’sirida uzun kun o‘simliklari qisqa kunda gullashi ham tezlashadi. Gibberellinlar fotosfosforlanishni tezlashtiradi.

O‘sishning kimyoviy boshqaruvi birikmalari mevalarning bevaqt to‘kilishiga qarshi kurashda ham ishlatiladi. Yu.V.Rakitin bunday holni o‘rganib, bunga sabab tabiiy o‘stiruvchi moddalarning yetishmasligi ekanligini isbotladi. Sun’iy o‘stiruvchi moddalarni qo‘llash natijasida partenokarpik mevalar, ya’ni urug‘siz mevalar olish mumkin. O‘stiruvchi moddalarni qo‘llash bilan hosildorlikni 25-50% ga ottiritt mumkin.

Quyidagi sun’iy o‘stiruvchi birikmalar mavjud:

1. Novdadan ildiz ottirishni tezlashtiradiganlar. Meva va o‘rmon daraxtlarini novdasidan ildiz ottirish uchun novdalari indolil moy kislota yoki naftilatsetat kislota eritmalari purkaladi.

2. Partenokarpik (urug‘siz) mevalarni va meva hosil bo‘lishini tezlashtiradiganlar. Bunda issiqxonalarda pomidor, bodring va boshqa sabzavotlarga sun’iy auksinlar purkab, changlamasdan mevani tugishini tezlashtiradi.

3. Mevalarni yig‘ib-terib olishdan oldin to‘kilishini kamaytiradiganlar.

Olma, nok va boshqa mevali daraxtlarga naftilsirka kislota eritmasi purkaladi. Bunda mevalarning pishishi sekinlashib, ularni saqlash uchun sharoit yaratiladi.

4. Begona o‘tlarni yo‘qotishda ishlatiladiganlar.

Gibberellinlar quyidagi hollarda kengishlatiladi:

1. Uzumning urug‘siz navlarini ko‘paytirishda qo‘llaniladi. Uzumning «Kishmish» navi mayda bo‘lib, unga gibberellin purkalganda, mevasi yiriklashadi, goho juda yirik bo‘ladi.

Ertagi kartoshka hosili yig‘ilgandan keyin ularga, gibberellin kislota (1-2 mg/l) yoki tiromochevinaning (20 mg/l) eritmasi purkalsa, ko‘zchalaridan tezda o‘sintalar chiqarishi kuzatiladi. Bu usul kartoshkani yozgi ikkilamchi ekishga tayyorlashda qo‘llaniladi.

Retardantlar, ya’ni poyaning uzayishini to‘xtadigan sun’iy moddalar. Bunday birikmalar o‘simliklarda gibberellinlar sintezini susaytiradi. Xlorxolinlorid shular jumlasiga kiradi.

Etilen g‘o‘ra mevalarning pishishini tezlashtirish maqsadida ishlatiladi.

Har xil konsentratsiyadagi pikrin kislotasini sabzavot, donli ekinlarga ta’siri o‘rganilgan. Pikrin kislotasining kichik konsentratsiyasi samarali bo‘ldi. Masalan, qalampirga - 0,00001%, pomidorga - 0,00005%, bodrigga - 0,00025%, suli va bug‘doya 0,0005-0,00025%, jo‘xoriga - 0,0005-0,0001% li va g‘o‘zaga 0,00025%, ushbu konsentratsiyada o‘simliklarning ildiz sistemasining o‘sishini tezlashtirish bilan birga yer ustki qismini ham o‘sishini tezlashtiradi.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Fitogarmonlarning ahamiyatinimadan iborat?
2. Tabiiy fitogarmonlar haqida aytib bering
3. Ingibitorlar nima?

4. Sun'iy fiziologik faol moddalarni aytib bering?
5. O'sishni boshqaruvchi moddalarni qishloq xo'jaligida qo'llanilishini aytib bering
6. Gormon tizimini tushuntirib bering?
7. O'simliklarda gormon tizimi buyicha tadqiqotlar olib borgan olimlar haqida aytib bering?
8. Fitogormonlar klassifikatsiyasini aytib bering?
9. Gibberellin haqida aytib bering?
10. Sitokinining ahamiyatini aytib bering?

## **10-mavzu. Stress omillar va ularga o'simliklarni javob reaksiyaları**

### **Reja**

1. O'simliklarni noqulay sharoitga chidamliligi. O'simliklarni chiniqtirish.
2. O'simliklarning sho'rga chidamliligi
3. O'simliklarning issiqqa va qurg'oqchilikka chidamliligi
4. O'simliklarning noqulay omillar ta'siriga javob reaksiyasi turlari.

1 Tayanch iboralar: bakteriya, virus, moslashish, chidamlilik, galofit, glikofit, feofitin, krinogalofit, lakogalofit, ammiak, transpiratsiya, adaptatsiya.

### **1. O'simliklarni noqulay sharoitga chidamliligi. O'simliklarni chiniqtirish**

O'simliklar hosiliga turli noqulay sharoit salbiy tasir etadi. Bular: sovuq va issiq, qurg'oqchilik va o'ta namgarchilik, tuproqning sho'rланishi va kasalliklar. O'simliklarni himoya qilish uchun yuqorida ko'rsatilgan omillar ularga qanday tasir etishini bilish kerak.

Ituzumdos o'simliklar asosan MDH ning ob-havo sharoiti tez va kuchli o'zgarib turadigan janubiy tumanlarida ekiladi: ayrim davrlarda yog'ingarchilik kam bo'lishi va salqin nam havoning issiq quruq havoga almashinuvi, ko'pincha bahorgi va xatto yozgi salqin kuzatiladi. Ko'chatlar dalaga ekilgandan keyin past xaroratda o'sadi. Noqulay o'sish sharoiti moddalar almashinuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bu esa, o'simliklar sekin o'sishiga va hosil kamayishiga sabab bo'ladi.

Sovuqqa chidamlilik. O'simliklarning sovuqqa chidamlilik tabiat, ya'ni past (+3°С - +7°Сda) haroratda zararlanishi va nobud bo'lishi kam o'rganilgan.

Sovuqqa chidamli turli xil sabzavot o'simliklari normal va noqulay sharoitda o'sganda, ildiz sistemasining yerga qancha chuqur kirib o'sishi bilan farq qiladi. Sovuq tuproqda sovuqqa chidamli sholg'om va turpning ildizi 70-80 sm gacha chuqur kirib o'sadi, issiqsevariniki faqat 25sm gacha kiradi.

Past xaroratda tuproqdan suv kirishi sekinlashadi, natijada ular so'liy boshlaydi; bunda o'simliklar tanasiga oziq moddalar kirishi sekinlashadi, xlorofill parchalanadi, barglardagi fotosintez va so'rish kuchi pasayadi.

Issiqsevar o'simliklar uzoq vaqt sovuqda qolsa, ularda organik moddalarning parchalanish jarayonlari kuchayadi, natijada parchalanish va sintez jarayoni bir-biriga mos kelmay, nafas olishdagi energiya olinishi bilan uning iste'mol qilinishining bog'liqligi uziladi. Moddalar almashinuvi buzilishi natijasida o'simliklar nobud bo'ladi.

Past xaroratning ta'sirida sitoplazmaning quyuqligi oshadi, moddalar almashinuvi izdan chiqadi va protoplazma hamda xloroplastlarning submikroskopik tuzilishsi buziladi.

Shunday qilib, past haroratda o'simliklarning tuproqdan va havodan oziqlanish tartibi buziladi, natijada ular nimjonlashib, turli kasalliklarga: fiziologik so'lish, bakterial va virus kasalliklariga beriluvchan bo'lib qoladi.

Urugdan o'stirilgan, o'zgaruvchan haroratda rivojlangan o'simliklar yuqori fiziologik hossalari va past haroratga yaxshi moslashganligi bilan farq qiladi<sup>34</sup>. 16 kun davomida past harorat bilan ishlov berilgan bo'rtgan urug'lar ancha erta unib chiqqan, ildizi va maysalari yaxshi o'sgan, kontrol o'simliklarga nisbatan barglarida shakar ko'p bo'lган. Barglarida xlorofill, mevalarida quruq moddalar va organik kislotalar ko'p bo'lган.

8 soatlik past xarorat kamlik qilgan, - 4°S dan past haroratda 4 kundan ortiq ishlov berish o'simliklarning o'sishini to'xtatgan va umumiy hosilini kamaytirgan.

Chiniqtirilgan o'simliklarda sovuq davrda fotosintez bir necha marta yuqori bo'lган. A.ye. Voronova usuli bo'yicha bo'rtgan urug'larni o'zgaruvchan haroratda chiniqtirish o'simliklarning o'sishini tezlashtiradi va hosilini oshiradi. Ko'chatlarni 7-10°S dan past bo'lмаган haroratda yana chiniqtirish kerak. Busiz chiniqtirish samarasi past bo'ladi. Chiniqtirish jarayonida zapas shakar va oqsillardan foydalanish kuchayadi, oksidlovchi fermentlar faolligi ortadi va o'simliklarning kimyoviy tarkibi yaxshilanadi.

Qisqa yozda pomidor ko'chatlarini issiqxonalarda yetishtirish maqsadga muvofiq, lekin yorug'lik intensivligi yuqori va kun uzunligi 10-12 soat bo'lishi kerak. Harorat ham 15-18°S, tuproq o'rtacha nam bo'lishi kerak. Ana shunda yerga ekilgan ko'chat yaxshi tutadi va ancha erta yuqori hosil beradi.

Pomidor ko'chatlari issiqxonada normadan 5-6°S past haroratda yetishtirilsa, reproduktiv organlar hosil bo'lishi kuchayadi va ular kam to'kiladi. Bunda o'simliklarning qarishi sekinlashadi, barglarida azot ko'payadi va fotosintez intensivlashadi.

Chiniqtirish o'simliklarda moddalar almashinuvini o'zgartiradi va o'simliklarning ancha past xaroratga chidamliligin oshiradi. Bu seleksionerlarning keng ko'lamda olib borgan tajribalarida tasdiklangan. Ular ko'p martalik ta'sir va tanlash yo'li bilan shimoliy tumanlar uchun issiqsevar o'simliklar (pomidor, tariq va b.)ning sovuqqa ancha chidamli navlarini yaratdilar. Bu navlar past xaroratga chidamli va ancha uzun kunga moslashgan bo'ladi. Demak, chiniqtirish seleksiyada duragaylarni tarbiyalash va tanlashda, shuningdek, urug'chilikda juda muhim ahamiyatga ega.

Issiqsevar o'simliklarning sovuqqa chidamliligin oshirishning ikki hili farq qilinadi:

1. Biologik - maysa va o'simliklarni sovuqda saqlash yo'li bilan hujayralari protoplazmasining sovuqqa chidamliligin oshirishga bog'liq bo'lган chiniqishi;
2. Urug'larga preparat purkash va ularni parafinlash hamda o'simliklarning o'zini chiniqtirmaydigan boshqa usullar bilan maysalarni zararli mikroorganizmlar va xashorotlardan himoya qilish.

Ituzumdosh va boshqa o'simliklarning sovuqqa chidamliligin oshirish va shimoliy xamda tog'li tumanlarda ularning chidamliligin oshirish uchun faqat chiniqtirish usulidan emas, balki, muayyan o'g'itlar tizimidan, himoya to'siqlari va x.k.lardan ham foydalaniлади.

Urug' sepish va ko'chatlarni ko'chirib o'tqazish muddatlari muhim ahamiyatga ega. Ular faqat o'simliklarning fiziologik hususiyatlariga emas, balki birinchi navbatda, ularning haroratga reaksiyasiga bog'liq.

Qurg'oqchilikka chidamlilik. Ituzumdosh o'simliklar dala ekinlariga nisbatan qurg'oqchilikka uncha chidamli emasligi bilan farq qiladi, shuning uchun havo va ayniqsa tuproqning quruqligi o'sishni tormozlab, hosilni keskin kamaytiradi. Ayniqsa ob-havoning

keskin o‘zgarishlarida tuproq optimal nam bo‘lishiga qaramay, bu o‘simliklar o‘sishdan orqada qoladi.<sup>35</sup> P.A.Genkel (1966) tuproq va atmosferaning quruqligi protoplazmaning holatiga va biokimiyoviy jarayonlarga salbiy ta’sir etishini ko‘rsatgan. Urug‘ni ekishdan oldin ivitish va keyin quritish yo‘li bilan o‘simliklarni chiniqtirish qurg‘oqchilikka chidamlilikni oshiradi va o‘simliklarning fiziologik hossalarini yaxshilaydi.

Protoplazmaning quyuqligi va elastikligi chiniqqan o‘simliklarda ancha yuqori, ildizlarning (ayniqsa faol ildizlarning) shimish yuzasi, barglardagi xloroplastlarning suvliligi va kraxmal miqdori ham yuqori bo‘lgan. Sun’iy tuproq qurg‘oqchiligi sharoitida o‘simliklarga harorati yuqori ( $45-40^{\circ}\text{S}$ ) va namligi ham yuqori (25-27%) bo‘lgan sharoit ta’sir etilganda, shamolning tezligi sekundiga 7-9 metr ekanligida, chiniqqan o‘simliklar qurg‘oqchilikka va isiqqa ancha chidamli bo‘lgan va mo‘l hosil bergan. Chiniqtirish natijasida bunday o‘simliklarda mitoxondriyalarning qurg‘oqchilikka va oksidlar almashinuviga chidamlilik xam kuchaygan.

Qurg‘oqchil tumanlarda ituzumdosha o‘simliklar odatda sug‘orilib o‘stiriladi, shuning uchun bunday sharoitda qurg‘oqchilik (ayniqsa tuproq qurg‘oqchiligi) ular hosili uchun xavfli bo‘lmaydi. Sug‘orishdan tashqari, maxsus agrotexnika usullarini ishlab chiqish, navlarini tanlash va hokazolar ham qurg‘oqchilikka qarshi kurash choralarini hisoblanadi.

Tashqi sharoit ta’sirida o‘simliklarning qishga chidamliligin oshirish chiniqtirish deyiladi. Bu jarayonni I.I.Tumanov ikki bosqichga bo‘lib o‘rganishni tavsiya qilgan. Birinchi bosqichda qandlar to‘planishi

kuzatiladi, bunda kunduzi harorat  $10-15^{\circ}\text{S}$  va kechasi  $0^{\circ}$  atrofida bo‘ladi. Kunduzi fotosintez jarayoni borib, hosil bo‘lgan qandlar kechasi nafas olishga sarflanadi hamda o‘simliklarning o‘sishi susayib, ularda qandlarning to‘planishi kuzatiladi. Quruq va yorug‘ kuz faslida chiniqtirishning I bosqichi juda yaxshi boradi.

Chiniqtirishning II bosqichi kuchsiz sovuqda ( $-2-5^{\circ}\text{S}$  da) muzlagan o‘simliklarda boradi va ular sovuqqa chidamlilik xususiyatini o‘ziga singdiradi. Bu bosqichda o‘simliklarda sovuqqa chidamlilik bilan tinim holati orasida bog‘lanish paydo bo‘ladi. Tinim holat boshlanishi bilan o‘sish to‘xtab, tinim holati chuqurlashgan sari sovuqqa chidamlik ortib boradi. O‘simliklar tarkibidagi hamma suv bog‘langan holatga o‘tib, natijada hujayraning suvsizlanishi kuzatiladi.

Kuzgi bug‘doyning har xil navlarini sovuqqa chidamliligi turlicha bo‘ladi. Bunda bo‘g‘im hosil qiluvchi poyalarning tuproqda joylashishi alohida ahamiyatga ega. Chuqurroq joylashsa, shikastlanmaydi, yuza bo‘lsa shikastlanishi kuzatilgan.

Bo‘g‘imlarni chuqurroqda joylashishi tuproq namligini yaxshi o‘zlashtirishga yordam beradi, ildizning yer osti va yer usti qismining tez rivojlanishiga olib keladi. Sovuqqa chidamlilik navlarning kelib chiqishiga bog‘liq. Masalan, sharqdan kelib chiqqan navlarning, sovuqqa chidamliligi g‘arbdan kelib chiqqan navlarnikiga qaraganda yuqori bo‘ladi.

Sabzavot ko‘chatlari ikki hafta davomida  $0^{\circ}\text{S}$  dan yuqoriroq haroratda o‘stiriladi. Bunda ko‘chatlar chiniqadi, natijada sovuq ta’siriga chidamli bo‘ladi.

Past haroratga chidamlilik deb, o‘simliklarning past haroratni ( $3-5^{\circ}\text{S}$ ) o‘tashi tushuniladi. Bodring, qovoq loviya o‘simliklarini chiniqtirish mumkin emas, chunki yuqorida ko‘rsatilgan haroratda bir necha kunda nobud bo‘ladi.

Ayniqsa, sholi, g‘o‘za va poliz ekinlari uchun bir sutka davomida harorat  $0^{\circ} + 5^{\circ}\text{S}$  bo‘lsa, o‘simliklar darhol nobud bo‘lmay, oldin turgor holatini yo‘qotadi, barglarida qo‘ng‘ir dog‘lar paydo bo‘ladi, chunki xlorofillning parchalanishi bunga sabab bo‘ladi. O‘simliklarning nobud bo‘lishiga asosiy sabab protoplazmaning yopishqrqpigi va moddalar almashinuvining buzilishidir. Sintetik jarayonlar susayib, oqsillarning parchalanishi va ammiak hosil bo‘lishi natijasida sodir bo‘ladi<sup>36</sup>.

O'simliklarning qishga chidamliligi deb, qish faslini muvaffaqiyatli o'tkazishi, ya'ni qishlovi tushuniladi. +ishda o'simliklar nafaqat past haroratdan nobud bo'lishi mumkin, balki dimiqish, bo'kish va boshqa sabablar tufayli ham bunday hol kuzatilgan.

Dimiqish o'simliklarning 2-3 oy davomida qalin qor ostida qolishi natijasida yuz beradi. Qor issiqlikni yomon o'tkazuvchi bo'lganligi sababli harorat  $0^0$  atrofida bo'ladi. Bunday haroratda o'simliklar nafas olish uchun uglevodlardan foydalanadi, natijada o'simliklar zaiflashib, to'qimalarida mog'or zamburug'lari rivojlanishidan ular tez nobud bo'ladi.

Bo'kish hodisasi esa erta bahorda yog'ingarchilik ko'p bo'lishi natijasida suv tuproq yuzasida to'planib, o'simlikni ko'mib yuboradi. Bunda kislород yetishmasligidan o'simliklar anaerob nafas olishi kuzatiladi. Anaerob sharoitda hosil bo'lgan zaharli moddalar ta'sirida hamda kechasi havo haroratining pasayishidan suv muzlab, o'simlik tanasi nobud bo'ladi.

Qishki qurg'oqchilik o'simliklarga, ayniqsa daraxtlarga katta zarar keltiradi. Yorug'lik va shamol ta'sirida o'simliklar tanasidan suv ko'p bug'lanadi. Tuproq harorati past bo'lganligidan, o'simliklar suv tanqisligini qoplab ulgurmasligi tufayli hujayralar suvsizlanadi.

O'simliklarni qishki noqulay sharoitdan saqlash uchun ekin dalalaridagi qorni toplash, yerga organik o'g'itlar (go'ng) solish, o'simliklarni makro va mikroelementlar bilan ta'minlash zarur bo'ladi.

O'simliklarni chiniqtirish yo'li bilan ularning past xaroratga chidamliligini oshirish mumkin. Chiniqish - o'simliklarning masalan, past xaroratga chidamliliginig ortsishidir. U o'simlikning butun himoya kompleksini tayyorlaydi, o'sish jarayonlari to'xtaganda tezlashadi va xarorat sekin-asta pasayib borganda bir qator organizmlarda esa qisqargan fotodavrda amalga oshadi. Mamlakatimizda chiniqish nazariyasini 1950 yilda I.I.Tumanov ishlab chiqqan. Unga muvofiq, o'simliklar uchta tayyorgarlik bosqichini: tinim holatiga o'tish, birinchi chiniqish fazasi, ikkinchi chiniqish fazasini o'tadi. Keyingi bosqichlarsiz tinim xolatiga o'tish o'simliklarning past xaroratga chidamliligini kam oshiradi.

## 2. O'simliklarning sho'rga chidamliligi

O'simliklarning tuproqdagi ko'p miqdor tuzlarga chidamliligi sho'rga chidamliligi deyiladi. Iqlimi issiq va quruq bo'lgan tumanlarda, dengizlar sohili atrofida, tuzli ko'llar atrofida sho'rangan yerlar uchraydi. Sho'rlanishga asosiy sabab natriy tuzlari NaS1,, Ma<sub>2</sub>3O<sub>4</sub>, MaSO<sub>3</sub>) dir. Bular ichida eng zararlisi sodali sho'rlanish (MaSO<sub>3</sub>) bo'lib, bunda tuproqda o'yuvchi ishqor (ShON) to'planadi, bu o'z navbatida zararlidir.

Tuproqlarning sho'rlanishi ba'zan magniyli yoki kalsiyli ham bo'lishi mumkin. Tuproq bir qancha tuzlar ta'sirida sho'rlanishi mumkin, shulardan birortasi ko'proq bo'lgani sababli, ko'proq uchragan tuzlar miqdori bilan nomlanadi. Tuz miqdoriga va uning qatlamlarda tarqalishiga ko'ra, sho'r tuproqlar sho'rtob va sho'rhok tuproqlarga bo'linadi.

Sho'rtob tuproqlarda tuzlar tuproqning pastki qatlamida (80 sm) to'planadi. Bunday tuproqlarda ularning ustki qavatida tuz bo'lmasada, ular strukturasiz bo'lganligi sababli namlantirilganda tuproqning yopishqoqligi kuchayib, o'zidan suv va havoni o'tkazmay quyadi. Sho'rhok tuproqlar tarkibida 1-3% tuz bo'ladi va ularda madaniy o'simliklar o'sib rivojlanmaydi. Sho'rhok tuproqlarda tuzlar tuproqning ustki qatlamlarida qattiq yoki yumshoq qavat bo'lib to'planadi.

Tuproqdagi tuzlar me'yordan ortiqcha bo'lishi ko'pchilik madaniy o'simliklar uchun zararlidir. Bunday sho'rangan tuproqlarda o'sadigan o'simliklar galofitlar deyiladi.

Galofitlar fiziologik va anatomiq belgilari bilan oddiy o'simliklardan ajralib turadi. Galofitlarni 3 guruhga bo'lish mumkin. 1-guruhga kiruvchi galofitlarning poyasi va barglari yumshoq bo'lib, tuzlarga chidamliligi yuqori bo'ladi, ular tuzlarni hujayralarida to'playdi.

Yuqori osmotik bosim (100-200 atm) hosil qilib, sho‘rlangan tuproqlardan suvni so‘rib olish mumkin. Bularga misol qilib olabo‘ta, qorasho‘ra o‘simliklarini olsak bo‘ladi.<sup>37</sup> 2- guruhdagi o‘simliklar protoplazmasi tuzlarni o‘tkazuvchanligi bo‘yicha alohida e’tiborga ega bo‘lib, ulardagi osmotik bosimni tashkil qiladi. Ammo bu tuzlarni o‘simliklar organlarida to‘plamaydi, balki maxsus bezchalar yordamida suv bilan tashqi muhitta chiqaradi. Bularga kermek va jiyda o‘simliklarini misol qilib olsak bo‘ladi Quruq havoda bu o‘simliklar bargi tuz bilan qoplansa, so‘ngra shamol ularni uchirib ketadi.

3- guruhdagi o‘simliklar ildiz sistemasi tuzlarni oz o‘tkazish xossasiga ega bo‘lib, tuzlar o‘simliklarda to‘planmaydi. Yuqori osmotik bosim, yetarli suv bilan ta‘minlanishni tashkil qilsa-da, asosan organik moddalar va qandlar hisobiga kuchli tuproq eritmasidagi suvdan foydalanadi. Bularga turli shuvoq o‘simliklarini misol qilib olsak bo‘ladi.

Tuzlar ta’sirida o‘simliklar to‘qimalarida nafas olish jarayonlari jadallahib fotosintez susayadi, oqsillarning parchalanishidan hosil bo‘lgan ( $MN_3$ ) ammiak o‘simliklar uchun zararli hisoblanadi.

G‘o‘zaning o‘sishi va rivojlanishiga tuproqdagi tuzlarning ta’sirini quyidagi rasmdan ko‘rish mumkin .

O‘simliklarning sho‘rga chidamlilagini oshirish uchun sho‘r tuproqli yerlarda o‘sadigan o‘simliklar urug‘idan sho‘rga chidamli navlarni yaratishda foydalaniladi. Bunda o‘simliklar ontogenezida sho‘rga moslashish natijasida hosildorlik ortganligi kuzatilgan. Ikkinchidan, tuproq sho‘rini yo‘qotishda ekin maydonlaridagi tuzlarni yuvish uchun drenaj va zovurlar qazish, ya’ni ekin ekiladigan maydonlarning melioratsiya holatini yaxshilash zarur.

Uchinchidan, ekin maydonlariga makro va mikroelementlarga boy mineral va organik o‘g‘itlar solish darkor. To‘rtinchidan, P.A.Genkel va I.V.Svetkovalar o‘simliklarning sho‘rga chidamlilagini oshirish uchun urug‘ni 3 va 6% li №S1 eritmasida bir soat saqlab, 1,5 soat davomida suvda ivitib sho‘r yerga ekish afzalligini asoslab berdilar.

### **3. O‘simliklarning issiqqa va qurg‘oqchilikka chidamliligi**

Uzoq vaqt yogin bo‘lmasligi, haroratning yuqoriligi havoning nisbiy namligi pasayishi natijasida yuz beradigan qurgoqchilik ikki turga bo‘linadi.

1. Atmosfera qurgoqchiligi.
2. Tuproq qurg‘oqchiligi.

Atmosfera qurgoqchiligi nisbiy namlikning (10-20%) pasayishi, havoning quruq kelishi va haroratning ko‘tarilishiga bog‘liq. Issiq shamol-garmsel esganda, vujudga keladigan qurg‘oqchilik o‘simliklar uchun juda xavfli bo‘ladi. Garmsel vaqtida, tuproqda suv bo‘lishiga qaramay, o‘simliklarning yer usti organlaridagi suv ko‘plab buglanib ketishi natijasida ular nobud bo‘lishi kuzatiladi.

Tuproq qurg‘oqchiligi uzoq vaqt yosingarchilik bo‘lmasligi natijasida yuzaga keladi. Transpiratsiya va tuproq yuzasidagi suvning parchalanishi natijasida tuproq qurib qoladi. Bunda tuproqdagi namlik zahirasi kamayib, so‘lish koeffitsientidan pastga tushib ketadi. Ko‘pincha tuproq qurgoqchiligi qishda qor kam yoqqanda, yomg‘ir kam bo‘lib, harorat yuqori bo‘lganda kuzatiladi.

Qurg‘oqchilik qisqa va uzoq muddatli bo‘lishi mumkin. Uzoq muddatli qurg‘oqchilikda o‘simliklarda suv almashinushi buzilib, hosildorlik pasayib ketishi, ba’zan esa o‘simliklar nobud bo‘lishi kuzatiladi. +isqa muddatli qurg‘oqchilik ham o‘simliklarga salbiy ta’sir etishi mumkin, ayniqsa tuproqdagi suv miqdori kamayib ketsa. Bu vaqtida o‘simliklar tanasiga suv oz kiradi, natijada o‘simlik qizishi tufayli qurib qolishi mumkin. +urg‘oqchilikda donning juda mayda bo‘lishi, hosildorlik pasayishi kuzatilgan. Qurg‘oqchilik asosan sahro, cho‘l va dashtlarda sodir

bo‘lib, hosildorlikka katta zarar yetkazishi mumkin. +urg‘oqchilikda, suv tanqisligi vaqtida fotosintez susayib, nafas olish jadallahadi, bu jarayonda asosan zahiradagi oziq moddalar ishtirok etadi. Bunday holatda hosildorlik pasayishi kuzatiladi. Qurgoqchilikka chidamli o‘simliklarda suv tanqisligida va yuqori haroratda ham protoplazmaning osmotik, kolloid xossalari kamroq buzilishi mumkin.

Qurg‘oqchilikdan muvaffiqiyatlari o‘tish uchun o‘simliklar protoplazmasining osmotik bosimi va fizik-kimyoviy xossalardan tashqari, anatomik va morfologik xossalarning ahamiyati ham alohida e’tiborga olish kerak; bunda ildiz sistemasining rivojlanishi, barg yuzasining kattaligi, ustitsa (labcha)larning xususiyatlari va boshqa kompleks xususiyatlarini hisobga olish kerak.

Qurg‘oqchilikka chidamli o‘simliklar kserofitlar deyiladi. Kserofitlarga sukkulentlar, ya’ni poyasi yumshoq bo‘lib, barglari bo‘lmaydigan, assimilyasiya funksiyasini yo‘qotishi natijasida tikanga aylangan o‘simliklar kiradi (masalan, kaktuslar). Kaktuslar o‘zida ko‘p zahira suv tutib, uni juda sekin ishlatadi. Ularning ildiz sistemasi tuproq yuzasida joylashadi, chunki yomg‘ir suvlarini tezda o‘zlashtirib poyaga uzatadi. Kaktuslarning epidermisida qalin kutikula qavati va hamisha berk og‘izchalar bo‘lib, yuqori haroratda ham ular juda oz suv sarflaydi. Ularda SO<sub>2</sub> gazi assimilyasiyi juda sust boradi, o‘simlik juda sust o‘sadi. Protoplazmasi juda yuqori yopishqoqligi bilan ajralib turadi va yuqori haroratga (+65°S ga) chidaydi.

P.A.Genkel kserofitlarni ikki guruhga bo‘lishni tavsiya qiladi. 1. Haqiqiy kserofitlar, issiqqa chidamliligi bilan farq qiladi, transpiratsiya jadalligi past bo‘lib, osmotik bosimi yuqori, suvsiz holatga yaxshi chidaydi. Ularning ildiz sistemasi 50-60 sm chuqurlikda, kuchli shoxlangan bo‘ladi. Bunday o‘simliklarga shuvoq, mavrak, semizoklar kiradi. +attiq qurg‘oqchilikda shuvoq barglari to‘kilishi mumkin.

2. Chala kserofitlar, yuqori transpiratsiya xususiyati bilan farq qiladi, issiqqa chidamliligi past bo‘lib, uzoq muddat suvsizlikka chidamaydi va ildiz sistemasi sizot suvlargacha yetib boradi. Protoplazmasining elastikligi va yopishqoqligi kuchsiz bo‘lib, osmotik bosimi yuqori bo‘lganligi sababli ularning so‘rish kuchi yuqori bo‘ladi. Bunday o‘simliklarga cho‘l bedasi, mavrak, shuvoqning ba’zi turlari kiradi. Bularning bargi nafis bo‘lib, uzib olish bilan so‘liydi, kun issiq paytlarda ularning og‘izchalari katta ochiq bo‘lib, ko‘p miqdorda suv bug‘latadi, hamda tezda o‘zlashtirib oladi. Kuchli transpiratsiya hisobiga barglar harorati pasayib turadi. Ularning ildiz sistemasi 15-20 m chuqurlikkacha kirib borishi mumkin. Chala kserofitlarning bargi tukchalar bilan qoplangan bo‘lib, tukchalari transpiratsiya intensivligini pasaytiradi, chunki suv bug‘lari tukchalarda qolib ketadi.

Haqiqiy kserofitlardan tashqari, dashtlarda uchraydigan soxta kserofitlar - efemerlar va efemeroidlar uchraydi. Ular qurg‘oqchilikkacha vegetatsiya davrini (1-2 oy) o‘tib bo‘ladi. Ularning hayot faoliyati namlik yaxshi bo‘lgan bahor, fasliga to‘g‘ri keladi, yilning qolgan fasllarida urug‘ holida hayot kechiradi (efemerlar). Bular xususiyatiga ko‘ra mezofitlarga yaqin. Gigrofitlar suv bilan to‘xtovsiz ta’minlangan joylarda yashaydi. Bular suv omborlari va tropik o‘rmonlarda namga to‘yingan joylarda yashaydi. Gigrofitlar va kserofitlar oralig‘idagi o‘simliklarga mezofitlar kiradi. Mezofitlarga ko‘pgina o‘simliklar kirib, ular mo‘tadil iqlimda va mo‘ta‘dil namlikda yashaydi. Ular orasida qurg‘oqchilikka chidamlilari va chidamsizlari bor.

O‘simliklarning qurgoqchilikka chidamliligi erkin suvning kamayishi va birikkan suvning ko‘payishiga bog‘liq, ularda ogizchadan tashqari, transpiratsiyani boshqarish va gidrofil kolloidlar hisobiga amalga oshadi, shuning hisobiga suvni saqlab qoladi. Issiqqa chidamlilik deganda, dub kabi o‘simliklarning yuqori haroratga munosabati tushuniladi. Yuqori haroratda o‘simliklarning nobud bo‘lishiga sabab, hosil bo‘lgan MI<sub>3</sub> ning zaharlash xossasi bo‘lsa kerak, ular oqsillar va aminokislotalarning parchalanishidan hosil bo‘ladi. Issiqqa chidamli o‘simliklar

to‘qimalarida organik kislotalar sintezi kuchayib, ular ammiakni o‘ziga biriktirib zararsizlantiradi. qurgoqchilikka qarshi kurashning asosiy yo‘li - agrotexnikani to‘gri tashkil qilish va tuproqdagi suvni sakday bilishdan iborat Tuproq strukturasing holatini sakdash ham katta ahamiyatga ega. Issiqqa chidamli navlarni yetishtirish ham asosiy omillardan biridir.

Olimlar tarafidan issiqqa chidamlilikni oshirish uchun o‘simliklar urug‘ini chiniqtirishni tavsiya qilgan. Buning uchun bug‘doy urug‘i 40-45% suv bilan, kungaboqar urug‘i 60% quruq modda hisobiga suv bilan bo‘ktirilgan, suvni bir necha bo‘laklab berilgan. Urug‘larni namlab 1 - 2 sutka davomida saqdangan va so‘ngra quritilgan. Buning natijasida urug‘lar chiniqqan, hosildorlik ortgan, issiqqa chidamlilik ham kuchaygan.

Issiqqa chidamli o‘simliklarning nafas olishida uglevodlar to‘la parchalanmasligi natijasida organik kislotalar to‘planishi kuzatilgan. Organik kislotalar ammiak bilan reaksiyaga kirishib, asparagin va glutamin amidlarini hosil qiladi. Natijada hosil bo‘lgan ammiak zararsizlantirib reaksiyaga kirishib ketadi.

#### **4. O‘simliklarning noqulay omillar ta’siriga javob reaksiyasi turlari**

O‘simlik adaptatsiyaning qaysi turini tanlashi ko‘pgina omillarga bog‘liq. Lekin javob qaytarish uchun organizmga berilgan vaqt eng asosiy omil hisoblanadi. Javob uchun vaqt qancha ko‘p bo‘lsa, tanlash imkoniyati ham shuncha ko‘p bo‘ladi. To‘satdan ekstremal omil ta’sir etganda, tezda javob qaytarish zarur bo‘ladi. Shunga ko‘ra, adaptatsiyaning uchta asosiy: evolyusion, ontogenetik va shoshilinch turlari farq qilinadi.

Evolyusion (filogenetik) adaptatsiya - evolyusiya jarayoni davomida tanlanish genetik mutatsiyalari asosida hosil bo‘ladi va nasldan-nasnga o‘tadi. Organizmning yashash muhitiga optimal molashuvi bunday adaptatsiyalarning natijasi hisoblanadi. Evolyusiya davomida shakllangan tirik qolish tizimi eng ishonchli hisoblanadi.

Ontogenetik (fenotipik) adaptatsiyam uayyan individning tirik qolishini ta’minlaydi. U genetik mutatsiyalarga bog‘liq emas va nasldan- nasnga o‘tmaydi. Bunday moslamalarning shakllanishi uchun nisbatan ko‘p vaqt zarur, shuning uchun bunday adaptatsiya uzoq muddatli adaptatsiya deb ataladi.

Shoshilinch (tez boradigan) adaptatsiya shokka oid tizimlarning hosil bo‘lishga va ular vazifasiga asoslangan bo‘lib, yashash muhitining tez va intensiv o‘zgarishlari vaqtida kechadi. U omillarning zararlovchi ta’siri vaqtida faqat qisqa muddat tirik qolishni ta’minlaydi va adaptatsiyaning yanada ishonchli uzoq muddatli mexanizmlari shakllanishi uchun sharoit yaratadi. Shokka oid himoya tizimlariga issiqlik shoki sistemasi (harorat tez ko‘tarilishiga javoban), 8O8-tizim (DNK zararlanganligi signali)dir.

Faol adaptatsiya - himoya mexanizmlarining shakllanishi. Bunda tirik qolishning majburiy sharti yangi hossalarga ega bo‘lgan fermentlar yoki xujayralarni himoya qiluvchi yangi oqsillar sintezining induksiyasi hisoblanadi. Oqsillar ham xujayrani himoya qiladi, ham ilgari yashash uchun noqulay bo‘lgan sharoitda metabolizm borishini ta’minlaydi. Natijada o‘simliklar hayotining ekologik chegarasi kengayadi.

Passiv adaptatsiya - stressorning zararlovchi ta’siridan “qochish” yoki unga moslashishdan iborat. Adaptatsiyaning bu turi o‘simliklar uchun juda katta ahamiyatga ega, chunki ular omilning zararli ta’siridan qo‘chib yoki yashirinib qutila olmaydi. Bu tinim holatiga o‘tish, o‘simliklarning “agressiv” birikmalarni ajratib qo‘yish (qariyotgan organlar, to‘qima va vakuolalardagi og‘ir metallar kabi), ya’ni ular bilan birga yashashdir.

Yuqori haroratga chidamli o‘simliklar issiqqa chidamli o‘simliklar deb ataladi. Ularda kserofitlarga xos bo‘lgan mexanizmlardan tashqari, issiqlik shoki oqsillari hosil qilish

mexanizmi ham ishga tushadi. Past xaroratga reaksiyasiga ko'ra, sovuqqa chidamlilik bu o'simliklarning qishlab chiqishi bilan bog'liq bo'lgan noqulay sharoit kompleksiga chidash xususiyati. Bu davrda quyidagi hodisalar: mog'orlash, zax bosish, yaxlash, bo'rtib chiqish, qishki qurg'oqchilik, qish-baxorgi "kuyittt" kuzatiladi.

Sho'rga chidamlilik (galotolerantlik) - bu o'simliklarning tuproqda yoki suvda tuzlar konsentratsiyasi yuqori bo'lishiga chidamliligidir. Galofitlar kuchli sho'ralanish sharoitida ontogenezni normal o'tkazish uchun maxsus moslamalarga ega o'simliklar. Ular uch guruhga: haqiqiy, tuz ajratuvchi va tuz shimuvchilarga bo'linadi.

1. Haqiqiy galofitlar (eugalofitlar) sho'rga eng chidamli o'simliklar. Ular vakuolalarida ma'lum miqdorda tuz to'planadi. Ularga barglarining seretligi xarakterlidir. Masalan ularga sho'rak (salikorniya), olabuta (atripleks) va qora sho'ra (sveda) larni ko'rsatish mumkin. To'plangan tuz hisobiga hujayraning osmotik bosimi 100-200 atmosferagacha ko'payadi, natijada bu o'simliklar kuchli eritma tarkibidagi suvdan ham foydalanadilar.

2. Tuz ajratuvchi galofitlar (krinogalofitlar) tuzni shimib olib, to'qimalarida to'plamaydi, balki barglaridagi sekretor bezchalar yordamida tashqariga chiqaradi. Bu jarayon ion nasoslar yordamida amalga oshiriladi va ko'p miqdordagi suv xarakati bilan birga boradi. Masalan: kermek (statis), jiyda (elaeagnus), yulg'un (tamariks)lar organlaridagi ortiqcha tuzni maxsus bezchalar yordamida tashqi muhitga chiqaradilar. Ba'zilari ko'p miqdorda tuz to'plagan barglarni to'kib yuboradilar.

3. Tuz shimmaydigan galofitlar (glikogalofitlar) kamroq sho'rangan yerlarda o'sadi. Ularning yuqori osmotik bosimi fotosintez maxsulotlari (uglevodlar) xisobiga saqlab turiladi. Masalan, glikogalofitlarga turli shuvoq (artemisiya) turlarini, qizilmiya (solodka)larni misol qilib olsak bo'ladi. Ular sitoplazmasidan tuzlar o'tmaydi, shuning uchun to'qimalarida tuz to'planmaydi. Glikogalofitlarning osmotik bosim kuchi ko'pligidan (uglevodlar hisobiga), kuchli tuproq eritmasidagi suvdan foydalanadilar.

Shunday qilib, evolyusiya jarayonida xar bir o'simlikning xayoti davomida yashash sharoitiga ma'lum extiyoj paydo bo'lgan. Shu bilan birga xar bir organizm adaptatsiyaga, ya'ni muxitning o'zgarib turadigan sharoitiga moslanish xususiyatiga ega.

Organizmning moslashish va chidamlilik xossalari uning genetik asosida jamlangan bo'ladi. Organizmning muhitning o'zgaruvchan sharoitiga mos ravishda metabolizmni o'zgartirish xususiyati qancha yuqori bo'lsa, uning reaksiya normasi va adaptatsiya xususiyati ham shuncha yuqori bo'ladi. O'simliklarning tashqi omillarga moslashuvi ularning yashovchanligi (hayot faoliyat) va muhitning ekstremal omillariga chidamliligi bir xil emas. Ba'zi o'simliklar past xaroratga ancha chidamli, boshqalari yuqori haroratga, ba'zilari qurg'oqchilikka, boshqalari sho'rlanishga chidamli va x.k. Shuning uchun chidamlilikning xar hil turi: sovuqqa chidamlilik, sho'rga chidamlilik, gazlarga chidamlilikva v. x.lar farq qilinadi.

O'simliklarning moslashuvchanligi tarixan tarkib topgan va individual rivojlanish jarayonida o'zgargan. Chidamlilik anotomik tuzilish xususiyatlari, maxsus himoya organlari, harakatlanish va fiziologik reaksiyalari, himoya moddalari ishlab chiqarilishi bilan ta'minlanadi. O'simlikning bir omilga chidamliligi ikkinchi omilga xam chidamliligiga (masalan, issiqqa chidamlilik va qurg'oqchilikka chidamlilik) sabab bo'lishi mumkin.

Noqulay sharoit sekin ortib borsa, organizmunga asosan moslashadi.  
Bu esa organizmning chidamliligi ortishiga, ya'ni uning chiniqishiga sabab bo'ladi.  
O'simliklarning radiatsiyaga chidamliligi va uning mexanizmlari.  
O'simliklarga radiatsiyaning bevosita va bilvosita ta'siri farq qilinadi.

Bevosita ta'sir - molekulalar nurlanish energiyasini yutgan joyda radiatsion kimyoviy o'zgarishlar sodir bo'lishidan iborat. Molekulaga bevosita tushgan nur ta'sirida u qo'zg'algan, ya'ni ionlangan holatga o'tadi. Nurning zararlantiruvchi ta'siri molekula ionlanishiga bog'liq.

Bilvosita ta'sir - bu ta'sir molekulalar, organoidlar membranasi, xujayralarning suv radiolizi mahsulotlari tomonidan zararlanishidan iborat. Nurlanishda xujayrada bu maxsulotlar miqdori juda ko'p bo'ladi.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. O'simliklarni noqulay sharoitga chidamliligi nimadan iborat?
2. O'simliklarni chiniqtirishni tushuntirib bering?
3. O'simliklarning sho'rga chidamliligini tushuntirib bering?
Ba'zi fermentlar ma'lum tipdag'i reaksiyalarni tezlashtiradilar. Ularning asosiy belgisi parchalaydigan yoki hosil qiladigan bog'larning xarakteridir. Bunday fermentlar guruh maxsusligi bilan ajralib turadilar. Masalan, alkogeldegiidrogenaza fermenti etil spirtining parchalaydi, lekin tarmoklanmagan yuqori molekulali spirlarga ham ta'sir etishi mumkin. Maltoza fermenti nafaqat maltozani parchalamay, balki boshqa a - glikozid bog'iga ega bo'lgan uglevodlarni ham parchalashi mumkin. Stereokimyoiy maxsuslik deyilganda faqat bir fazoviy izomerga ta'sir etishi tushuniladi. Masalan, strukturasи yaqin bo'lgan moddalar - fazoviy izomerlar (a va v-metilglikozidlar) efir bog'laridan 2 xil ferment yordamida parchalanadilar.

a- etilglikozid moddasi o'stirilgan bug'doy yoki sulining fermenti yefir bog'idan gidrolizlanadi. v- xitinglikozid esa bodom urug'i tarkibidagi ferment ta'sirida efir bog'idan gidrolizlanadi.

Shunday qilib, kimyoiy birikmalar bir-biridan tuzilishi bo'yicha ham farq qiladigan moddalarni ham farqlaydilar. Masalan, metoksil radikali va vodorod atomi metilglikozid molekulasidagi farqi yoki fazoviy joylashishi ham o'z navbatida chetda qolmas ekan.

### 3.Fermentlarga aktivator va ingibitorlarning ta'siri

Fermentlarga aktivatorlari (stimulyator) va ingibatorlari (fermentga qarshi moddalar) birinchi bo‘lib rus olimi Danilevskiy va uning o‘quvchilari tomonidan o‘rganilgan. Fermentlarning aktivatorlari yoki uning ta’sirini kuchaytiruvchi, aktivligini oshiruvchi birikmalar qatoriga metall ionlari  $Mg^{++}$ ,  $Mp^{++}$ ,  $8p^{++}$ ,  $K^{+}$ ,  $So^{++}$ ,  $Si^{++}$  kationlari va  $Sl^{-}$  ioni kiradi. Ba’zi hollarda metil ionlari ( $So^{++}$ ,  $G’ye^{++}$ ,  $Md^{++}$ ,  $2p^{++}$  va boshqalar) fermentning prostetik guruhi tarkibiga kiradilar, ba’zida esa ferment-substrat kompleksini hosil bo‘lishini osonlashtiradilar, uchinchidan kofermentni apofermentga birikishiga yordam beradilar, to‘rtinchidan fermentning to‘rtlamchi strukturasini hosil bo‘lishida qatnashadilar.

Ingibitorlar fermentning ta’sirini susaytiradilar. Pasaytirish mexanizmi har xil bo‘lib, ko‘pincha 2 ta tipda amalga oshadi. Raqobatli va raqobatsiz pasaytirish deyiladi.

Raqobatli pasaytirishda ingibitor substrat bilan strukturaviy o‘xshash (izomeriya) bo‘lib, ferment bilan birikib, substratni o‘rnini oladi, u bilan raqobatlashuvi natijasida fermentning bir qismi ferment- ingibitor kompleksini hosil qilishga sarflansa, ferment-substrat kompleksining hosil bo‘lishi kamayadi. Bunga misol qilib xolinesterazaning ta’sirini pasaytiruvchi diizopropilftorfosfatni olsak bo‘ladi, u tuzilishi bilan antixolina yaqin bo‘lib, osongina uning o‘rniga fermentga birikadi.

Diizopropilftorfosfat xolinesterazaning aktiv markazini berkitib, atsetilxolindek parchalanib, serinning radikalini fosforlaydi. Izopropilfosfoserin atsetilseringa nisbatan mustahkam bo‘lib u parchalanmaydi. Natijada aktiv markaz o‘z faoliyatini ancha vaqtgacha amalga oshira olmaydi.

Raqobatsiz pasayishda esa ingibitor ferment oqsili bilan strategik guruh bilan o‘zaro birikishi natijasida ferment aktivligi yo‘qoladi.

Fermentlarni og‘ir metallar (olmos, qo‘rg‘oshin va boshqalar) bilan susaytirishda, ular sulfgidril guruhlarga (SN) birikib amalga oshiradilar. Allosterik ingibirlanish ham shu qatorga kiradi.

#### **4.Fermentlar klassifikatsiyasi**

Fermentlarga nom berishda ularning tasodifyi belgilari (trivial nomenklatura), substrat nomi bilan (ratsional nomenklatura), fermentning kimyoviy tarkibi va nihoyat katalizlaydigan reaksiya tipi hamda substrat xarakteriga qarab nomlangan. Tasodifyi belgilariga binoan quyidagi fermentlar nomlangan pepsin (grekcha rerzt - ovqat hazm qilish), tripsin (grekcha 1ger§8 - azontiraman) va papain (Papayya daraxtidan ajratib olingan). Ta’siriga ko‘ra bu fermentlar hammasi proteolitik ya’ni oqsil gidrolizini tezlashtiradigan fermentlar tipiga kiradi. Xujayradagi oksidlanish - qaytarilish reaksiyalarini tezlashtiruvchi fermentlarni sitoxromlar ({8y08-xujayra, xgot -rang) deb yuritiladi.

Eng ko‘p tarqalgan nomlanish bu substrat nomiga «aza» qo‘sish bilan aytildi. Masalan, kraxmalni gidrolizini tezlashtiruvchi ferment amilaza (ashlop -kraxmal), yog‘larning gidrolizini tezlashtiruvchi ferment lipaza (Iro8 - yog‘), oqsillarni (proteinlar) - proteaza va hakazo. Keyinchalik fermentlarning nomi substrat xarakteri va katalizlaydigan reaksiya nomi bilan ataladigan bo‘ldi. Masalan, yantar kislotasi molekulasiidan ikki molekula vodorod atomini oladigan ferment suksinatdegidrogenaza deb nomlanadi.

1961 yilda Moskvada bo‘lib o‘tgan biokimyogarlar kongressida yangi klassifikatsiya tasdiqlandi. Unga asosan fermentning nomi substratning kimyoviy nomi va ferment yordamida amalga oshadigan reaksiya nomi bilan ataladigan bo‘ldi. Ushbu klassifikatsiyaga binoan fermentlar 6 ta sinfga bo‘lib o‘rganiladi.

1. Oksidoreduktazalar oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini tezlashtiradilar. Bunday fermentlarga degidrogenazalar, ya’ni vodorod molekulasini organik birikmadan olib, boshqa akseptorga berishdan iborat, oksidlanish jarayoni vodorod atomini substratdan olib, qaytarilish jarayoni esa vodorod atomlarini akseptorga birikishi bilan boradi.

oksidoreduktaza A+VN<sub>2</sub>

AN<sub>2</sub>+V

«----

► A- akseptor, V-substrat

Oksidazalar esa substratni oksidlanishini katalizlaydilar, bunda molekulyar kislorodni elektron akseptori sifatida ishlatajdar. Oksidazalarga o'simliklar olamida keng tarqalgan ferment peroksidazani olsak bo'ladi. Bu ferment ta'sirida qator organik birikmalarni vodorod peroksi bilan oksidlanishi kuzatiladi. Xujayralarda degidrogenazalar vodorodni tashish vazifasini bajaradilar. Ma'lumki, substratdan vodorodni tashuvchi degidrogenazalar sinfiga alkogoldegidrogenaza, ya'ni etil spirtini oksidlaydilar, olma kislotani oksidlovchi ferment malatdegidrogenaza, qaxrabo kislotasini oksidlovchi suksinatdegidrogenazalar hisoblanadi.

Oksidoreduktazalarning asosiy xususiyatlardan yana biri ular ikki komponentli fermentlar qatoriga kirib, ulardagи koferment qismi chegaralangan aktiv guruhlarga ega bo'lib, xilma-xil oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini tezlatishdan iboratdir. Buning sababi bitta koferment bir qancha apofermentlar bilan birikib, o'ziga mos substratga xos bo'lgan maxsus oksidoreduktazalarni hosil qiladilar. Oksidoreduktazalarning yana bir asosiy xususiyatlari shundaki, ular kimyoviy reaksiyalarni tezlashtirish bilan bir qatorda energiya ajratishidir. Bu xususiyat organizmdagi sintez jarayonlarida foydalaniadi.

Tabiatda 200 dan ortiq oksidoreduktazalar turi mavjud. Eng ko'p tarqalgan NAD - nikotinamidadendinukleotiddir.

Oksidlanish-qaytarilish fermentlari sistemasida vodorodni uzatilishi har xil yo'l bilan boradi. Ba'zida vodorod bevosita kislorodga birikib vodorod pereoksidini hosil qilar ekan.

Hosil bo'lgan N<sub>2</sub>O<sub>2</sub> katalaza fermenti ishtirokida parchalanadi.

katalaza 2N<sub>2</sub>O<sub>2</sub> » 2N<sub>2</sub>O+O<sub>2</sub>

Katalaza ham oksidoreduktazalar sinfiga mansub bo'lib, u ikki atom vodorodni bir molekula vodorod peroksiddan 2 molekulasiga ko'chiradi.

Vodorod peroksi o'zga fermentperoksidaza yordamida ham parchalanishi mumkin. Ular substratdan vodorod atomlarini ko'chishini tezlashtiradilar.

Bunday holatga misol qilib glikolat kislotasini gliksalat kislotasiga o'tishini olsak, bu reaksiya glikolatoksidaza fermenti ishtirokida boradi.

Xujayradagi oksidlanish-qaytarilish jarayonlarining eng ko'p tarqalgan turi vodorod atomining oksidlanishi bo'lib, bu jarayon substratdan birlamchi degidrogenazalar hamda sitoxrom sistemasi yordamida amalga oshadi.

Sitoxrom sistemalarni tashkil qiluvchi fermentlar o'z tarkibida prostetik guruh sifatida temirporfirinlarning 4 ta tipi (A,V,S va D) xromoproteidlar ya'ni sitoxromlar deb nomlanadi. Hozirgi kunga kelib 20 dan ortiq sitoxromlar ma'lumdir. Sitoxromlar v v<sub>2</sub>, v<sub>3</sub>, v<sub>4</sub> va hakozolar bir xil prostetik guruhga ega bo'lib, apoferment strukturasida farq qiladilar.

2. Transferazalar - tirik organizmda boradigan fermentativ reaksiyalarda kimyoviy guruhlarni ko'chirishini tezlashtiradilar. Bular asosiy fermentlar sinfiga mansub bo'lib, o'z qatorida 200 dan ortiq fermentlar tutadilar. Ko'chiriladigan guruhlarga qarab fosfotransferazalar, karboksittransferazalar, aminotransferazalar, glikoziltransferazalar, metiltransferazalar va boshqalar deyiladi.

Fosfotransferazalar-fosfat kislota qoldi'i ko'chirilishini tezlashtiradilar. Fosforlanish reaksiyaları juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, unda qator organik birikmalar fosfat efirlari hosil qiladilar, ular yuqori kimyoviy aktivlikka ega bo'lgan holda keyingi reaksiyalarga oson kirishadilar. Ko'pincha fosfat kislota qoldi'ini donori bo'lib ATP (adenintrifosfat) xizmat qiladi. Fosforiazalarga geksoklinaza fermenti kiradi. U ATF dan fosfat kislota qoldi'ini glyukoza molekulasiga ko'chirishni tezlashtiradi.

Hosil bo‘lgan ADF, maxsus reaksiya yordamida qayta fosforlanib ATF hosil qiladi. Bunda hamma fosfotransferazalarning kofermenti deyilsa bo‘ladi. Aminotansferazalar-qayta aminlanish tezlashtiradilar.

Aminotansferazalarni quyidagi sxemada ko‘rsatish mumkin.

Fermentativ reaksiyaning I-bosqichida fermentning prostetik guruhi aminokislota bilan birikib, aminokislotaning amin gruppasi va piridoksalfosfatning aldegid gruppasi birikishi kuzatiladi.

Aminotransferaza molekulasi 2 ta prostetik guruh tutadi bir-biriga ta'sir etib qayta aminlanishi kelishilgan holda amalga oshadi.

Glikoziltransferazalar fosfor efirlari molekulasiдан glikozid qoldiqlarini monosaxaridlar yoki polisaxaridlar molekulasiga ko‘chirishni tezlashtiradilar. Bu fermentlar o‘simliklar dunyosida oligo va polisaxaridlar biosintezini amalga oshiradilar. Glikozid qoldi’ini ko‘chirish reaksiyasi qaytar reaksiya bo‘lib, buni fosforoliz deyiladi. Bu guruhdagi fermentlarni fosforilazalar deb nomlanadi.

Atsiltransferazalar karbon kislota qoldiqlarini ko‘chirishni tezlashtiradilar. Ular atsil gruppalarini aminokislotalarga, aminlarga, spirtlar va boshqa birikmalarga ko‘chiradilar. Atsiltransferazalarning eng ko‘p tarqalgan vakili atsil koenzim A hisoblanadi.

3. Gidrolazalar. Suv ishtirokida boradigan kimyoviy reaksiyalarni tezlashtiradigan fermentlar gidrolazalar deyiladi

Gidrolizga uchraydigan substratning xarakteriga qarab gidrolazalar bir qator guruxlarga bo‘linadi.

- a) esterazalar - murakkab efir sinteziva gidrolizini tezlashtiradigan fermentlar;
  - b) glikozidazalar - glikozidlar gidrolizini tezlashtiradigan fermentlar;
  - v) peptidgidrolazalar - oqsil sintezi va gidrolizini tezlashtiradigan fermentlar;
  - g) gidrolazalar - S - N bog'lariga ta'sir etib peptid bog'laridan farq qiladi, amidazalar va boshqalar shu guruhg'a kiradilar.

yesterazalar guruhning asosiy vakili lipaza bo‘lib, glitseridlarning sintezi va parchalanishini tezlashtiridilar

yesterazalarning ta'sir etish mexanizmi to'liq o'r ganilgan. Ularda asosiy rolni dikarbon kislotalarining radikallari, aktiv mirkazga joylashgan aminokislotalar serin, gistidin, tirozinlar bajaradilar.

Fosfotaza fermentlari fosfor efirlarini gidrolizlaydilar. Eng ko‘p tarqalgan fosfotazalar vakili fosfat kislotaning murakkab efirlari va uglevodlarga ta’sir etadilar. Masalan glyukoza 1 fosfotaza fermentini olaylik.

Gidrolazalardan keng tarqalgani amilaza bo‘lib, u kraxmal gidrolizini tezlashtiradi. Peptidgidrolazalar oqsillar va peptidlar molekulasidagi peptid bog‘ni gidrolizlaydilar. Qo‘yidagi sxemada peptidgidrolazalarni ta’sirini izohlash mumkin.

Peptidgidrolazalarga misol qilib papain, tripsin va xemotripsin, oshqozonda ajraladigan fermentlari hamda papain ko‘philik o‘simliklar urug‘i tarkibida topilgan fermentlarni olsak bo‘ladi. Amilazalar kislota amidlarini gidrolizini tezlashtiruvchi fermentlardir. Bulardan muhim rol o‘ynaydiganlari ureaza, asparaginaza va glutaminazadir.

Glutamin ham glataminaza fermenti ta'sirida glutamin kislotasi va ammiakga parchalanadi.

4. Liazalar - Suvsiz substratdan molekulalarni ko'chirishni tezlashtiruvchi fermentlardir. Bu sinfga kiradigan fermentlar organik moddalarning S - S ; S - N ; S - O; va boshqa bog'larini buzilishi hisobiga amalga oshiradilar.

O'simliklarda keng tarqalgan liazalar vakillaridan aldolazalar bo'lib, ular fruktozafosfatni fosfotriozalargacha parchalaydilar.

Bu reaksiya uglevodlarni hosil bo'lishida alohida o'rin tutadi. O'simliklarda keng tarqalgan liazalararning vakillaridan biri aspartat- ammiak-liazadir, u asparagin kislotasini to'g'ridan-to'g'ri dezaminlashini amalga oshiradi.

5. Ligazalar (sintetazalar). Kichik molekulali birikmalardan ATF, GTF, UTFyordamida yuqori molekulali birikmalar sintezini tezlashtiruvchifermenatlarni ligazalar deb nomlanadi. Sintezlash reaksiyalarida asosiy o'rinni ya'ni energiya manbai molekulasiiga berilib uning parchalanishi natijasida katta kaloriya energiya ajraladi va bu energiya moddalarni aktivlashtirishda ishtirok etadi. Masalan pantotenatsintetaza fermenti S - N - yoki peptid bog'ları sintezi reaksiyalarini tezlashtiradi S - S bog'larni hosil qiluvchi karboksilazalar ham shu guruhga ta'lluqlidir. Masalan, piruvat karboksilaza fermenti oksoloatsetat kislota hosil bo'lishini tezlashtiradi.

Ligazalarning yana bir vakili S-S bog'lar hosil bo'lishini tezlashtiradilar, sulfoatsil koenzim-A sintetazalar deyiladi. Bunga misol qilib, sırka kislotasidan koenzim fermenti hamda ATF ishtirokida hosil bo'ladigan atsetil koenzim A ni ya'ni yuqori molekulali katta energiyaga ega bo'lgan birikmani hosil qiladi, u o'z navbatida koferment sifatida translyasiyalish reaksiyasini amalga oshiradi. atsetilkoenzym

6. Izomerazalar. Izomerazalar tirik organizmda boradigan molekulalararo o'zgarishlarni tezlashtiradigan, ya'ni bir izomer holatdan ikkinchi izomer holatga o'tishini tezlashtiradilar. Bu o'zgarishlarda molekuladagi vodorod, fosfat va atsil guruhlarni o'rnini almashinishi hisobiga amalga oshadi. Asosiy izomerazalarga trifosfatizomarazalar kirib, ular 3-fosfoglitserin aldegidni fosfodioksiyatsetonga yoki aksincha jarayonni tezlashtiradilar.

### 5. Fermentlarni hujayralarda joylanishi va ishlatilishi

Fermentlarni hujayralarda joylanishi. Fermentlarning anorganik katalizatorlardan farqi ular ta'sirining kooperativ xarakterga egaligidir. Bitta ferment darajasida kooperativni substrat, aktiv va allosterik markazlarning o'zaro ta'sirlaridan iborat bo'ladi. Xujayrada ferment sistemalari ishtirokida ko'p bosqichli parchalanish jarayonlari hamda organik moddalar sintezi amalga oshadi. Xujayra tarkibidagi fermentlar tartibli taqsimlanganligi tufayli ushbu reaksiyalar ro'y beradi. Xujayraning har bir alohida olingan qismida ma'lum biokimyoiy jarayonlar boradi. Har bir ferment xujayraning organoidlarida joylashganligi sababli o'z vazifasini bajaradi. Masalan, gidrolaza va liza fermentlari lizosomalarda joylashadi. Ularning juda katta pufakchalar (diametri bir qancha A<sup>0</sup> (angestrem) bo'lgan) da ya'ni membrana yordamida xujayra gialoplazmasidan chegaralangan qismida organik birikmalar oddiy struktura birliklarigacha parchalanadi. Murakkab strukturaga ega bo'lgan oksidlanish-qaytarilish fermentlariga esa mitoxondriyalarda joylashadilar. Ushbu organoidlarda dikarbon va trikarbon kislotalar siklidagi fermentlar to'planadilar.

Aminokislolar aktivlashtiruvchi fermentlar gialoplazmada va yadro shirasida uchraydilar. Xuddi shu joyda (gialoplazmada) glikoliz fermentlari uchraydilar. Oqsil biosintezining fermentlari asosan xujayraning ribosomal apparatida joylashadilar. Nukleotidtransferaza fermentlari esa xujayra yadrosida to'planadilar.

Shunday qilib, ferment sistemalar alohida reaksiyalarni amalga oshiradi. Xujayraning u yoki bu organoidlarida mujassamlashgan xujayraning hayot faoliyatini hamda to'qima va organizmning to'liq faoliyatini ta'minlaydi.

Fermentlarni ishlatilishi. Bir qator ferment preparatlari amaliyatda qo'llaniladi. Ular katalitik funktsiyalarini xujayradan tashqarida ham bajaradilar. Fermentlarni xalq xo'jaligida ishlatilishi

yil sayin ortib bormoqda. Non ishlab chiqarish sanoatida Aspergilla zamburug‘idan olingen ferment preparatlari nonni sifati va ta'mini yaxshilashda keng qo‘llaniladi. Bunda nonni pishishi tezlashib, qandni miqdorini ikki barobar kam ishlatilishini ta'minlaydi.

Pivo va spirt mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatida esa ferment amilaza keng ko‘lamda ishlatiladi. Amilaza produtsentlari bo‘lishi mikroorgazmlar izlab topilib, ular yordamida zavod miqyosida ishlab chiqarish yog‘lga qo‘yilgan. Amilaza fermentini iqtisodiy samarasi juda kata bo‘lib, har bir dekalitr pivo ishlab chiqarilganda 165 gr arpa tejalar ekan. Spirt ishlab chiqarishda amilazani qo‘llash natijasida xom ashayodan olinadigan spirt miqdorini 1,5% ga oshiriladi. Vino ishlab chiqarishda pektilaza fermenti alohida o‘rin tutadi. Pektinaza fermenti xujayra devorining pektin moddalarini parchalab, mevalardan ajraladigan sharbat miqdorini 15-20% ko‘paytirib, vino mahsuloti miqdorini 5-7% orttiradi. Pektinazani qo‘llashni vino ishlab chiqarish va sharbat olishda amalga oshirilganda qo‘shimcha mahsulot olinib samaradorlik ortishi kuzatiladi.

Teri va mex sanoatida peptidgidrolaza fermentlarini qo‘llanilib teri xom ashynosini yumshatish va teri tuklarini tozalash mumkin bo‘ladi. Bunda yuqorida ko‘rsatilgan jarayonlarni amalga oshirilishi bir necha barobar qisqarib, terining navi va sifati yaxshilanadi, mehnat sharoiti esa yaxshilanishi kuzatiladi. Oziq-ovqat sanoatida go‘sht mahsulotlarini tayyorlashdan oldin peptidgidrolaza fermentlari yordamida ishlov berilsa, uning sifati tubdan yaxshilanadi. Teri, oziq-ovqat va tekstil sanoatlarini to‘liq ferment preparatlari bilan ta'minlanilsa juda katta qo‘shimcha daromad olinadi.

Fermentlar meditsinada ham juda keng ko‘lamda qo‘llanilayapti. Masalan, Oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda pepsin, tripsin va boshqa proteolitik fermentlarni olsak bo‘ladi. Bo‘in kasalliklarini davolashda glaluranidaza fermenti qo‘llaniladi. Viruslar ta’sirida yuzaga keladigan kasalliklarni davolashda fermentlar qo‘llanilib, ular nuklein kislotalarni parchalanishini tezlashtirishi kuzatiladi. Sintetik yog‘llar yordamida peptidlar olinib, fermentlarning ta’sirini modellashtiriladi.

Hozirgi kunda fermentatsiya jarayonlarini kimyo sanoatida keng ko‘lamda qo‘llash yo‘lga qo‘yilgan. Mikroorganizmlar yordamida kimyoviy xom ashyonini qayta ishlash jarayonlari ham keng yog‘lga qo‘yilayapti. Bunday jarayonlarning eng qadimgi usullaridan biri xamirturush yordamida spirt olish bo‘lib, unda o‘n beshga yaqin fermentlar ishtirot etadi. Bu fermentlar xamirturush (drojja) xujayralar tarkibida bo‘lib, ular glyukozani spirtga aylantirishi kuzatiladi. Hozirgi kunda juda kata hajmda oqsilning mikrobiologik sintezi amalga oshirilayapti. Fermentatsiya yordamida organik kimyoning ko‘pgina reaksiyalari amalga oshirilayapti. Ulardan alohida o‘rin tutganlari, oksidlanish, qaytarilish, dekorboksillanish, dezaminlannish, gidrolizlanish, aminlanish, eterifikatsiyalanish, kondensatsiyalanish va boshqa reaksiyalardir.

Hozirgi kunda ko‘pgina dunyo laboratoriylarida fermentativ jarayonlarni mexanizmini o‘rganishga alohida ahamiyat berilayapti. Fotosintez jarayonining to‘liq fermentativ mexanizmi, oqsil sintezi, molekulyar azotni o‘zlashtirishida ishtirot etadigan fermentativ mexanizmlar ham to‘liq o‘rganilibamalda laboratoriya sharoitida va sanoatda yo‘lga qo‘yilishi oziq-ovqat va nooziq-ovqat xom ashynosini yaratishda tubdan o‘zgarishlarga olib keladi, hamda insonning hayot faoliyatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatish mumkin bo‘ladi.

Fermentlarning nomenkulaturasi xalqaro komissiyasi ro‘yxatida 1000 ga yaqin biologik katalizator moddalar mayjud bo‘lib, ular bir yoki bir qancha reaksiyalarni tezlashtirishi o‘rganilgan. Ikkinchidan tabiatda ko‘pgina mavjud katalistik reaksiyalarni laboratoriya sharoitida amalga oshirishni iloji yo‘q. Ana shu vaziyatlar fermentlarning beqiyos ahamiyatini yana bir bor ta’kidlaydi.

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Fermentlarning ta'sir etish mexanizmini tushuntirib bering?
2. Fermentlarning xossalari aytib bering?
3. Fermentlarga aktivator va ingibitorlarning ta'siri?
4. Fermentlar klassifikatsiyasini aytib bering?
5. Fermentlarni hujayralarda joylanishi va ishlatalishini tushuntirib bering?
6. Fermentlarning termolobilligi nima?
7. Fermentlarning maxsusligi nima?
8. Substrat nima?
9. Katalizatorlik xususiyatini tushuntirib bering?
10. Degidrogenazalarni aytib bering?

**14-mavzu: Qishloq xo'jaligi o'simliklarida lipidlar**  
**Reja:**

1. Lipidlar haqida umumiy tushuncha va ularning ahamiyati
2. Oddiy lipidlar
3. Murakkab lipidlar

**1. Lipidlar haqida umumiy tushuncha va ularning ahamiyati**

O'simlik va xayvon xujayralarida keng tarqalgan, suvda erimaydigan, ammo organik erituvchilarda (xloroform, efir, benzol v.x) eriydigan organik birikmalarga lipidlar deyiladi.

O'simlik vegetativ organlari tarkibida lipidlarning miqdori 5-15% gacha, ammo ularning urug'larida bu ko'rsatkich 70-80% ni tashkil etadi.

Lipidlar tarkibi va tuzilishi uglevodlarnikiga va umuman, boshqa biopolimerlarnikiga nisbatan ancha murakkab. Ular tarkibida spirtlar, aldegidlar, yog' kislotalari, azot asoslari, fosfat kislota, uglevodlar, aminokislotalar va boshqa moddalarning qoldiqlari uchraydi.

Kimyoviy tabiatiga asoslanib lipidlar kuyidagilarga bulinadi.

- Yoglar va moylar
- Yukori molekulyar moy kislotalari
- Fosfolipidlar
- Sterin va steridlar
- Karotinlar, karotinoidlar va pigmentlar
- Serebrozidlar, mumlar.

Barcha tirik organizmlarda lipidlar quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Energetik
- Tuzilish
- G'amlovchi
- Termoregulyasiya
- Mexanik-ximoya
- Katalitik
- Metabolik suv manbasi

Lipidlar tarkibiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi:

Oddiy lipidlar - ikki komponentli bo'lib, kimyoviy jixatdan spirtlarning yog' kislotalari bilan xosil qilgan murakkab efiridir (yog'lar, mumlar, steridlar v.b.)

Murakkab lipidlar - ko‘p komponentli birikmalar bo‘lib, ularning tarkibiga spirtlar va yog‘ kislotalaridan tashqari, azot asoslari, fosfat kislota, uglevodlar va boshqalar uchraydi (fosfolipidlar, glyukolipidlar, lipoproteidlar v.b.)

Lipoidlar - steroidlar bo‘lib, xolesterin va ular xosilalarining politsiklik spirtlari xisoblanadi.

## 2. Oddiy lipidlar

Yog‘lar. Yog‘lar tabiatda keng tarqalgan bo‘lib, ular barcha tirik organizmlar, xatto viruslar tarkibida xam uchraydi. Xozirgi vaqtida yoglarning 600 dan ortiq turi aniqlangan, shundan 220 tasi o‘simliklardan ajratib olingan.

Yoglar kimyoviy jixatdan uch atomli spirt - glitserinni yog‘ kislotalari bilan xosil qilgan murakkab efiri xisoblanadi.

Yoglar tarkibiga xar xil moy kislotalari kiradi. Ularning xammasi juft sonli uglerod atomlaridan tashkil topgan tarmoklanmagan zanjirdan iborat. Bu kislotalar tuyingan va tuyinmagan bulishi mumkin.

To‘yinmagan moy kislotalari uy sharoitida suyuk xolatda buladi.

Yog‘larning suyuklanish temperaturasi ular tarkibidagi moy kislotalarining tabiatiga boglik. Tuyinmagan kislotalarning mikdori oshishi bilan yoglarning suyuklanish temperaturasi pasayib boradi. Usimlik moylarida xayvonot yoglariga nisbatan tuyinmagan kislotalar kup, shuning uchun ularning suyuklanish temperaturasi pastrok buladi.

Xar xil yoglar xar xil triglitseridlarning aralashmasidan iborat va ular tarkibida erkin moy kislotalar kam uchraydi.

Tabiiy yoglar uchta kursatkich bilan tavsiflanadi.

1. Kislota soni - 1 g yogni neytrallash uchun sarflanadigan KON mikdori (mg da). Bu son yog tarkibidagi erkin moy kislotalarning mikdorini bildiradi.

2. Sovunlanish soni - 1 g yognisovunlash uchun sarflanadigan KON mikdorini (mg.da) bildiradi. Bu kursatkich yog tarkibidagi triglitseridlar mikdorini bildiradi.

3. Yod soni - 100 g yonna birikadigan yodning mikdori (gramlarda) bilan ulchanadi. Yod tuyinmagan kislotalarning kushbogiga birikishi asosida bu son yoglardagi kislotalarning tuyinmaganlik darajasini bildiradi.

Yozlarning taxirlanishi. Yoglar saklash jarayonida va issiklik ta’sir etganda taxirlanadi. Taxirlanish yoglardagi tuyinmagan kislotalarning oksidlanib parchalanishida xosil buladigan moddalar - asosan aldegidlarga boglik. Yog tarkibida tuyinmagan kislota kancha kup bulsa, ular kislorodni biriktirib, shunchalik tez taxirlanishga uchraydi. Usimlik moylari xayvonot yoglariga nisbatan tezroq taxirlanadi, chunki ularda tuyinmagan kislotalar kup. Taxirlanishning oldini olish uchun yoglarni kislorod ta’siridan ximoya kilish kerak. Taxirlashning oldini olishning boshka usuli yoglarni gidrogenlashdan iborat. Buning natijasida vodorod yoglarning kushboglariga birikib, uy sharoitida suyuk xolatda bulgan yoglarni kattik xolatga utkazadi.

Gidrogenlash jarayonida yoglardagi vitaminlar parchalanadi, shuning uchun margaringa tuxum sarigi (vitaminlar manbai) kushiladi.

Yogga suv kushib chaykatganda emulsiya xosil buladi. Emulsiya bekarordir, chunki chaykatish tuxtilgandan keyin yog tomchilari kushilishib, suv yuziga kalkib chikadi. Emulsiyaga barkarorlik berish uchun emulgatorlar kushiladi. Emulgatorlar ikki faza orasida oson adsorbsiyalanadigan moddalar yordamida barkaror emulsiya olinishi mumkin. Emulgatorlar yog tomchilarining kushilishiga yul kuymaydi. Bu borada muxim emulgatorlar sifatida ut kislotalarining tuzlarini kursatishimiz mumkin. Ingichki ichakda bu tuzlar yoglar bilan uzaro

ta'sirlanib, barkaror emulsiya xosil bulishiga yordamlashadi va natijada yoglarnig xazm bulishi tezlashadi.

Mumlar. Mumlar yog'simon moddalar bo'lib, yog' kislotalari va yuqori molekulali spirtlarning murakkab efiridir. Tabiiy mumlar murakkab efir bo'laridan tashqari yuqori molekulali erkin spirt va kislotalarni hamda toq sondagi uglevod atomlarini (27 dan 33 gacha) tutadilar, ba'zida xushbo'y xid beruvchi moddalarni ham ko'rildi. Ular tarkibida spirtlardan setil, seril, montan; yog' kislotalardan palmitinat, karnaubat, melissinatlar ko'proq uchraydi. Mumlar xam o'simlik, xam xayvonot olamida keng tarqalgan bo'lib, ximoya vazifasini bajaradi.

Mumlar O'simlik va hayvonlar organizmida asosan himoya vazifasini bajaradilar. O'simliklar poyalari va barglarida yupqa qavat hosil qilib, mikroorganizmlarni ta'siridan himoya qiladi. Mevalarni saqlashda mum qavatlari muhim rol o'ynaydi. Meva va sabzavotlarning mum qavati yog'qotilsa, tashishda va saqlashda salbiy ta'sir kuzatiladi va kasallananadilar. Asal asalari mumi ostida saqlanadi va asalari lichinkalari rivojlanadi.

Yog' kislotalardan mumlar tarkibida O'simlik moylari tarkibidagidan tashqari yuqori molekulali yog' kislotalardan karnaut va serotin kislotalar ko'proq uchraydi.

Mumlar qattiq moddalar bo'lib xilma-xil rangda asosan sariq va yashil rangda bo'ladilar, ularning erish harorati 300 dan 900S gacha yetadi. Mumlar tarkibida yuqori yog' kislota va spirtlar topilgan bo'lib, ulardan asosiyлari quyidagilardir.

### 3. Murakkab lipidlar

Fosfolipidlар. Fosfolipidlар ko'p atomli spirtlarni yuqori molekulali yog kislotalari bilan xosil qilgan murakkab efiri xisoblanadi va tarkibida fosfat kislota qoldig'ini tutadi. Fosfolipidlarda yana qo'shimcha gruppalar - azot asoslari, aminokislotalar, glitserin xam uchrashi mumkin.

Fosfolipid molekulasi 2 ta qoldiq yog kislotasidan va bir qoldiq fosfat kislotadan iborat bo'ladi. Fosfolipidlар xam xayvon, xam o'simliklarda uchraydi va tirik organizmlar xujayralari membranasini shakllanishida muxim rol o'ynaydi.

Fosfolipidlар xujayra tarkibida oksil-lipid kompleksi sifatida uchraydi. Xar xil fosfatidlар avvalambor tarkibidagi spirtlar va gaz azotli moddalar-serin, etanolamin va xolin-bilan fark kiliadi.

Etanolamin yoki kelamin fosfolipidlarning azot saqlovchi birikmasidir. Fosfolipidlар suvda erimaydilar, organik erituvchilarda oson eriydilar. Fosfolipidlarning ko'pchiligi oqsillar bilan birikib lipoprotendlar hosil qiladilar. O'simliklar tarkibidagi fosfotidlар quyidagi uglevodlarni tutadilar: glyukoza, galaktoza yoki pentoza. Yog'lardan farqli o'laroq fosfolipidlар xujayra membranalari tarkibiga kirib, xujayradagi modda almashinuv jarayonlari boshqarishda ishtirok etadilar.

Glitserofosfolipidlар yoki fosfotidlар yuqori molekulali yog' kislotalari va glitserinning murakkab efiri bo'lib, qo'shimcha moddalardan fosfat kislota qoldig'i va azot asoslari tutadilar.

Azot asoslarining turiga qarab fosfotidlarni xolinfosfatidlар (letsitinlar), kolamin fosfotidlар (kefalinlar) va serin fosfatidlarga bo'lib o'rganiladi.

Fosfotidlар xujayra membranasining muhim qismi hisoblanib, xloroplastlar, mitoxondriyalar va mikrosomalar tarkibida uchraydilar. Xloroplastlarda fosfatidli glitserin ko'p uchraydi. Bekson, Ulitbermen va Uayzerlar xloroplast ichidagi fosfotidilglitserin zahira uglevod rolini bajaradi deb izohlaydilar.

O'simliklarda sfinolipidlар fosfatidlар qatorida tarqalgan. Bu guruhdagi birikmalar hayvonlar organizmida keng tarqalgan bo'lib, O'simliklarda (jo'xori donida) glikospirt ajratib olinadi, u saringozinga o'xshash tuzilishga ega emas.

Bu spirt xamirturushlar va zamburug'lar tarkibida ham topilgan. Ushbu holat shunga o'xhash fosfolipidlar O'simliklar tarkibida borligini inkor qilmaydi.

O'simliklar urug'i tarkibida yog'lardan fosfatidlar ajratib olingach, ular tarkibida fitosfingozin (1,3,4-triosfingozinning hosilasi) ajratib olinib, uning tuzilishi quyida berilgan.

Sterin va steridlar. Sterinlar, deb yukori molekulyar xalkali spirtlarga aytildi. Steridlar esa murakkab efirlar bulib, ularning tarkibiga sterinlar (xolestirin va boshkalar) va yukori molekulyar moy kislotalari, asosan palmitin kislotosi kiradi.

Xolesterin-sterinlarning vakili, xayvonot tukimalarida uchraydi. Usimliklarda ximiyaviy jixatdan xolestirinlardan fark kiladigan sterinlar (fitsterinlar) uchraydi.

Achitki va kuzikorinlarda ergosterin tuyinmagan xolesterin bor. U B-nurlari ta'sirida ergosterin D - vitamiiga aylanadi.

Lipoproteinlar oqsillarni lipidlar bilan xosil qilgan kompleks birikmasidir. Ular xujayralar membranasini asosini tashkil etadi. Uning xususiyatiga ko'ra xujayraning tanlab o'tkazuvchanligi namoyon bo'ladi.

### **1. Donlar tarkibidagi lipidlari**

Don lipidlari kuyidagilardan iborat: 1) yoglar 2) fosfatidlar 3) Karotinoidlar; 4) Sterinlar; 5) Mumlar. Bu moddalar ximiyaviy tuzilishi bilan fark kiladi, lekin xammasi organik erituvchilarda eriydi (spirt, atseton, efir va xokazo). Don va unda aniklash uchun uni diatil efiri bilan ekstraksiya klinadi. Bunda efir fraksiyasiga lipid guruxiga kiradigan moddalarning xammasi utadi va ekstraktda xom yog, yog va yegsimon moddalar fosfatidlar, sterinlar va boshkalar buladi. Bugday donidagi lipidlarning kariyib 30% oksil va uglevodlar bilan birikkan va shuning uchun efir bilan ekstraksiyalanmaydi. Don yoglarida asosan tuyinmagan kislotalar bor.

Tuyinmagan kislotalar tarkibida kushbog bulgani tufayli ular oson oksidlanadi va aynan tuyinmagan kislotalarning oksidlanishi jarayoni uz- uziga kislorodni kushbogga birikishi orkali boshkarishi mumkin. Ammo bu jarayonni don, un va yorma tarkibida uchraydigan maxsus ferment- lipoksigenaza ta'sirida tezlashtirish mumkin. Bu ferment soya va uning unida ayniksa aktiv.

Tuyinmagan kislotalar lipoksigenaza ta'sirida pereoksid va gidroperoksidlari xosil kiladi.

Peroksid va gidroperoksidlar juda faol moddalardir. Ular moy kislotalarini oson oksidlaydilar va natijada yomon ta'm va xidga ega bulgan moddalar xosil buladi. Buning natijasida yog taxirlanadi. Shuning uchun donda lipoksigenaza fermentning bulishi un va yormanining taxirlanishiga yordamlashadi. Peroksid va gidroperoksidlar un tarkibidagi sarik rangli moddalar- karotinlarni oksidlab, unning rangini okartiradi. Bu xodisa makaron tayyorlash va uni kuritishda muxim rol uynaydi.

Bugday, arpa va javdar donida urtacha 2% yog bor. Javdar donida yog biroz kuprok-5% atrofida. Aynan shuning uchun javdar uni va yormasi saklash jarayonida oson taxirlanadi. Boshoklilar doni tarkibida yog mikdori nisbattan kam: nuxat va yasmikda 0,7-0,8 %.

Soya va yeryongok moyli usimlik bulib xisoblanadi: soya donidan 17,5%, yeryongokda 18,8% yog bor. Makkajuxori magzida yog kup va u ozik-ovkat xamda texnik yog olish uchun ishlatiladi. Bugday donining aleyron katlamida yog kup va shuning uchun ba'zida uni yogli katlam deb atashadi. Bugday, arpa, javdar va sholi donida fosfatidlar 1,6 %, soyada 2% bor. Fosfatidlar ozik-ovkat sanoatida emulgator (barkaror emulsiya xosil kiluvchi moddalar) sifatida keng kullaniladi. masalan, shokolad va marmalad ishlab chikarishda fosfatidlardan foydalaniladi. Fosfatidlarni olishda xom- ashyo sifatida soya va kungabokar donlaridan foydalaniladi.

Donning karotinoidlari ichida eng muximi karotin -  $S_{40}N_{36}$  xisoblanadi. Donda u uchta izomer xolatida uchraydi. Ularning ichida eng keng tarkalgani va eng muximi - karotindir. Kariyib xamma karotinlar sarik va sargish rangga ega. Yaxshi bugdoy uniga taalukli bulgan past oltin rang asosan un tarkibidagi karotinoidlar tufayli xosil buladi. Karotinoidlardan tashkari unda ksantofillar ( $S_{40}N_{36}O_2$ ) bor.

Xaridor oppok rangli unni olishga moyil bulgani uchun AKSh va Angliyada sun'iy okartuvchi moddalar keng kullaniladi. Bunda karotin parchalanadi. Shu narsa muayyanki, kimyoviy birikmalar ta'sirida unni okartirish notugridir, chunki unning ovkatlanishdagi kiymati kamayadi. Odam va xayvonot organizmida karotinlardan A vitamini xosil buladi.

Donda steroidlar mikdori juda kam. Masalan, bugdoya 0,03-0,07 %, bugdoy magzida 0,3-0,5 %, unda - 0,02-0,05%, makka donida 1,0-1,3%.

Donda mumlar juda kam uchraydi. Ular asosan donning sirtki kavatida kobik sifatida buladi.

Donda yukorida aytilgan lipidlardan tashkari xar xil glikolipidlar uchraydi. Uglevodlarning lipidlar bilan birikmasi bugdoy unining xamiri va nonning xosil bulishida muxim rol uynaydi.

Bugdoy unida monogalaktozildiglitserid tarkibida 57% linolen va 13,8% palmitin kislotalari, digalaktozildiglitseridda - 41,6% palmitin va 29,3% linol kislotalari bor. Organik erituvchilar yordamida nafakat yoglar, fosfatidlar, sterollar va mumlar balki usimliklarning yashil pigmenti - xlorofill xam ekstraksiyalanadi, chunki u xam organik erituvchilarda eriydi. Bugdoy, javdar, arpa va boshka donlarda xlorofil yuk, u fakat yashil rangli nuxat tarkibida buladi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Lipidlar haqida umumiyl tushuncha?
2. Lipidlarning ahamiyati?
3. Oddiy lipidlar xaqida aytib bering?
4. Murakkab lipidlar xaqida tushuntirib bering?
5. Donlar tarkibidagi lipidlar?
6. Kimyoviy tabiatiga asoslanib lipidlarning bo'linishini aytib bering?
7. O'simliklarda keng tarqagan to'yingan va to'yinmagan yog' kislotalarini aytib bering?
8. Kislota soni nima?
9. Sovunlanish soni deb nimaga aytildi?
10. Yog'larning taxirlanishini tushuntirib bering?

### **15-mavzu. Hayot davomiyligining asosi - nuklein kislotalar Reja**

1. Nukleinkislotalar to'g'risida tushuncha
  2. Nuklein kislotasining kimyoviy tuzilishi.
  3. Nuklein kislotalarning molekulalar og'irligi va xossalari
  4. Nuklein kislotalarning tuzilishi
  5. Nuklein kislotalarning vazifalari va biologik funksiyalari
- b.Chargaff qoidasi

#### **Nukleinkislotalar to'g'risida tushuncha.**

Nuklein kislotalar tirik organizmning rivojlanishida eng muhim rol o'ynaydigan organik birikmalar qatoriga kiradi. Ular yuqori molekulali birikmalar bo'lib ma'lum elementar tarkibga egadirlar. Gidrolizlanganda purin va pirimidin azot asoslari, pentoza uglevodi va fosfat kislota

qoldigiga parchalanadi. Elementlar tarkibini asosini S, N, O, R, N tashkil qiladi shulardan fosfor 8-10% bo'lsa, azot 15-16% ni tashkil qiladi.

Nuklein kislotalar birinchi bo'lib shveysariyalik olim F.Misher tomonidan 1869 yilda ixtiro qilingan. Bu kislotalarni xujayra yadrosidan ajratib olinganligi uchun (piMesh- yadro) nuklein kislota deb nomlangan. 19-asr oxiriga kelib Altman hayvon to'qimalaridan ajratib olgan. 1936 yilda rus olimi Belozerskiy o'z shogirdlari yordamida o'simlik tarkibidan ajratib olgan.

Nuklein kislotalar 2 turga bo'linadi, ya'ni DNK va RNK. DNK tarkibida dezoksiriboza uglevod komponenti tutsa, RNK esa riboza tutadi.

Nuklein kislotalar irsiy belgilarni nasldan-naslga o'tkazishda ishtirok etadilar.

Ular o'simlik organizmining tarkibida asosan o'sayotgan poya va barglarida, urug'larida ko'puchraydilar. Masalan ko'knori urug'ida 4,6-6,2%, bug'doy donida 7,4% g'o'za chigitida 2,6-3,2%, poya va barglarida esa 0,1-1% gacha miqdorda aniqlanilgan.

Nuklein kislotalarni ajratib olishda nuklein kislotosi bilan oqsil o'rtaqidagi bog'ni uzish kerak bo'ladi. Buning uchun o'simlik yoki hayvon to'kimalarini tuzning kuchli eritmasi ya'ni 10% MaS1 yordamida bir soat davomida suv hammomida qizdirish usulida amalga oshiriladi. Hozirgi kunda keng qo'llaniladigan usullardan biri fenol usulidir. Bu usul oqsillarni denaturatsiyaga uchratib cho'ktirish asosida olib boriladi. Oqsillar fenol qismi bilan cho'kmaga tushadilar, nuklein kislotalar esa suvli qismga o'tadi. So'ngra nuklein kislotalar spirt yordamida cho'ktirib olinadi

### **Nuklein kislotalarning kimyoviy tuzilishi.**

Xlorli kislota yordamida nuklein kislotalar qizdirilganda struktura birliklariga parchalanadi. Ular purin va pirimidin azot asoslari, uglevod komponentlari riboza va dezoksiriboza hamda fosfat kislota qoldig'idan iborat bo'ladi.

Purin azot asoslari. Nuklein kislotalar tarkibida ikki xil purin azot asoslari, ya'ni adenin va guamin uchraydilar.

Purin azot osasi pirimidin va imidazol xalqalaridan tashqil topadi. Adenin molekulasiда 6-uglevodorod atomi o'ringa N<sub>2</sub> - gurux birikadi va guaninda esa, 4 - uglerod atomidagi vodorod o'rnini amin N<sub>2</sub>) gurux xamda 6 - uglerod atomida gidroksil (ON) guruh birikishidan hosil bo'ladi. Adeninni 6 - aminopurin va guaninni 4 - amino-6 oksipurin deb ham nomlanadi.

Pirimidin azot asoslari. Pirimidin azot asoslari pirimidin getero - siklik birikmasining hosilalari hisoblanadi. Uning molekulasi 4 ta atom uglerod, ikki atom azot va to'rt atom vodoroddan tashkil topadi.

Pirimidin asoslardan sitozin, uratsil, timin nuklein kislotalar tarkibida ko'p uchrasa, 5-metilsitzozin esa ba'zilarida oz miqdorda topilgan. Shuning uchun uni minor asos deyiladi. Keyingi paytda minor asoslardan yani biri 5-oksimetil sitozin aniqlanilgan

Pirimidin asoslari yenol va keton shakllarda uchraydilar.

Xuddi shunday shakllarni purin asoslarda ham kuzatish mumkin. Shuning uchun ularni minor asoslardan deb yuritiladi.

Sitzozin azot asosi DNK va RNK tarkibida uratsil esa faqat RNK tarkibida, timin esa DNK tarkibiga kiradi.

Nuklein kislotalarining uglevod komponenti. Nuklein kislotalar tarkibiga 2 ta uglevod komponentlari riboza va dezoksiribozalar kiradi. Har ikkala komponenti strukturasi furan shakliga ega bo'ladi.

Dezoksiriboza molekulasiда 2 - uglerod atomga birikkan ON gruppasi o'rniga N birikishi natijasida qaytariladi. Riboza va dezoksiriboza nuklein kislotalar tarkibida uchraydigan uglevodlar yagona bo'lmay; ba'zilarida oz miqdorda glyukoza ham topilgan.

Nuklein kislotalarining gidroliz mahsuloti tarkibi bilan olingen manba'ga qarab xar xil bog'lar ekan. Masalan buzoqdagi qalqonsimon bezidan (timusdan) ajratilgan nuklein kislota (timonuklein kislota), xamirturushdan ajratilgan nuklein kislota (xamirturush nuklein kislota) farqi borligi aniqlanilgan, ular tarkibi, funksiyalari va tuzilishi bilan farqlangan. Birini dezoksiribonuklein kislota (DNK) va ikkinchisini ribonuklein kislota (RNK) deb nomlangan.

### **Nuklein kislotalar tarkibi**

Kimyoviy birikmalar	Nuklein kislota turi	
	DNK	RNK
Purin asoslari	Adenin G uanin	Adenin G uanin
Pirimidin asoslari	Sitozin timin	Sitozin uratsil
Uglevod komponenti	Dezoksiriboza ba'zida glyukoza	Riboza
Anorganik modda	Fosfat kislota	Fosfat kislota
Minor asosli purin	N <sub>6</sub> - metiladenin	N <sub>6</sub> - metiladenin 1 - metiladenin 2 - metiladenin N <sub>6</sub> - dimetiladenin 2 - dimetiladenin
Pirimidin	5-metilsitozin 5-oksimetilsitozin oksimetiluratsil	5 -oksimetilsitozin N <sub>6</sub> - metilsitozin 1 - metilsitozin

### **Z.Nuklein kislotalarning molekulyar og'irligi va xossalari**

Nuklein kislotalarning molekulyar og'irligi. Nuklein kislotalar yuqori molekulali birikmalar bo'lib, turiga qarab ularning molekulyar og'irligi xilma-xil o'lchamga ega bo'ladi. D NK molekulasi eng yuqori molekulyar og'irlikka egadir. Ba'zi viruslarning D NK molekulasi og'irligi bir necha o'n mln birlikka teng, masalan bakteriyalarning D NK sining molekulyar og'irligi 120 mln.ga yetadi.

O'simlik, mikroorganizm va hayvon xujayralaridan ajratib olinadigan D NK lar har xil molekulyar og'irlikka ega bo'ladilar. Masalan, buzoqchaning qalqonsimon bezidan ajratib olingen D NK ning molekulyar og'irligi 6 mlndan 36 mlngacha yetadi. Ba'zi olimlarning fikricha D NK molekulalari 500000 birlikka ega bo'lgan sub birliklardan tashkil topadi. 20-30 mln birlikka ega bo'lgan D NK lar organizmning biologik funksiyalarini ta'minlab bersa kerak degan taxminlar mavjud. Bakteriya xujayrasidagi D NK ning molekulyar og'irligi 1 mlrdga yetar ekan. R NK ning molekulyar og'irligi esa hyech qachon D NK ning molekulyar og'irligiga yaqinlashmaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Molekulyar og'irligiga qarab R NK lar 2 ta guruhga bo'linadi, kichik molekulali va yuqori molekulali R NK. Bu 2 xil R NK lar bir- biridan nafaqat tubdan farq qiladi, balki organizmdagi funksiyalari (vazifalari) ham o'zgachadir.

Kichik molekulali R NK larning molekulyar og'irligi 18000-35000 gacha yetadi. Ular ajralish jarayonida cho'kma tutmay, erigan xujayra eritmasida qolganligi uchun eruvchan R NK deb nomlanadi. Qisqacha S- R NK ya'ni (soluble - eruvchan) yoki (supernatant - cho'kma ustidagi eritma) deyiladi.

Yuqori molekulali R NK larning molekulyar og'irligi bir necha yuz mingdan to bir necha mlngacha yetadi. Yuqori molekulali R NK larning uch xil turi mavjud.

1). Ribosomal RNK (rRNK) ribosomalarda to‘planadi va 2 xil molekulyar og‘irligi kuzatiladi. a) M=500000-600000, b) M=1,0 mln -1,2 mln

2) Informatsion RNK (iRNK) yoki axborot RNK mRNA messenger - o‘rtada turuvchi deb nomlanadi, oqsil biosintezida qolip vazifasini bajaradi. Uning molekulyar og‘irligi 300000 dan 4 mln gacha yetadi va qaysi ob‘ektan ajratilganligiga bogg‘liq bo‘ladi.

3) Transport RNK - aminokislotalarni transportini amalga oshiradi, ularning molekulyar og‘irligi 1-2 mln gacha yetadi.

Nuklein kislotalarning xossalari. Nuklein kislotalar oq rangli moddalar bo‘lib, tolali tuzilishga ega, suvda yomon eriydilar, ishqoriy metall tuzlarida yaxshi eriydilar. RNK suyultirilgan tuzlar eritmasida DNK esa kuchliroq tuz eritmalarida yaxshi eriydi. Nuklein kislotalar molekulalari asimmetrik bo‘lganligi sababli, ularning eritmalari yuqori qovushqoqlikka ega bo‘lib, nurlarni qayta sindirish xususiyatiga egadirlar. Nuklein kislotalar optik aktivlikka ega bo‘ladilar. Nuklein kislotalarning +80°S dan +90°S gacha haroratda qizdirilganda nuklein kislotalarning «erishi» kuzatiladi, bunda eritmaning qovushqoqligi o‘zgarib ultrabinafsha nurlarini yutishi ortadi. Bu holatni giperxrom effekti deb nomlanadi. Nuklein kislotalarning «erishi» jarayonida purin va pirimidin azot asoslari o‘rtasidagi vodorod bogg‘lari uzeladi. Natijada qisman tartibli molekulalar tartibsiz holga o‘tadi. Ammo sovutilganda strukturasini qayta tiklanishi kuzatiladi. Albatta qattiq qizdirilsa qaytmash reaksiya ro‘y berib, nuklein kislotalari denaturatsiyaga uchraydilar, ya’ni strukturasi buzilib, biologik kimyoviy va fizik xossalari namoyon qila olmaydilar.

Kimyoviy munosabatda nuklein kislotalar umuman inert bo‘lsa ham ular metallarning ko‘p valentli ionlarini bo‘lash xususiyatiga egadirlar. Masalan, Si<sup>++</sup> va Md<sup>++</sup> ionlari DNK bilan erimaydigan kompleks hosil qiladilar. Yana nuklein kislotalar poliaminlar bilan oson reaksiyaga kirishadilar. Poliaminlar nuklein kislotalarini

uchlamchi strukturasini tiklashda ishtirok etadilar. Dezaminlanish reaksiyalarida adenin va sitozinlarning ahamiyati beqiyosdir. Aminlanish va dezaminlanish reaksiyalari asosida kimyoviy mutagenez ya’ni irsiy belgilarni o‘zgartirish imkonini beradi.

#### **4. Nuklein kislotalarning tuzilishi**

Nuklein kislotalarning tuzilishini izohlash uchun nukleoproteidlar strukturasini eslash shart bo‘ladi. Nuklein kislotalar DNK va RNK turiga qarab dezoksinukleoproteidlar (DRNP) va ribonukleoprotendlar (RNP) ga ajratiladi. Ikkala tur tarkibidagi oqsil komponenti protaminlar va gistonlar ba’zida oddiy aminokislotalardan tashkil topadilar. Ribonukleoproteidlar (RNP) o‘z tarkibida molekulyar og‘irligi 500-600 000 yoki 1,0-1,2 mlnga teng bo‘lgan Nuklein kislotosi tutadilar. DRNP larga esa har bir nukleoprotend qismiga bitta yuqori molekulali DNK to‘g‘rikeladi. Nukleoprotendlarning 50% oqsil qismiga to‘g‘riksa, qolgan 50% RNK yoki DRNP ga to‘g‘rikeladi. Shunday qilib, RNK yoki DRNP lar murakkab tuzilishga ega bo‘lib, 1-2 molekula nuklein kislotalar va ularga birikkan ko‘p sonli oqsil molekulalaridan iborat bo‘ladi. Misol tariqasida tamaki mozaika virusini olsak, u o‘z tarkibida bir molekula RNK (molekula og‘irligi 2 mln atrofida) va 2000 ga yaqin oqsil molekulalaridan iboratdir.

Nukleoproteiddagi nuklein kislota va oqsil molekulalari bir- birini uyg‘unlashtiradi. Bunda ikkala komponentning denaturatsiyaga moyilligi ortadi. Masalan, RNP molekulalari oqsil biosintezida muhim rol o‘ynaydi, DRNP molekulalari esa xujayraning xromosom apparatlari shakllanishini va funksiyalarini belgilaydi. Shuni alohida uqtirib o‘tish zarurki, xujayra nuklein kislotalarning asosiy qismi nukleoproteidlar holida bo‘ladilar. Nuklein kislotalar bilan oqsillarning birikishidan hamda parchalanishidan hosil bo‘lgan birikmalar organizmda boradigan

biokimyoviy jarayonlarning boshqarishda va nuklein kislotalarning funksional aktivligini ko'rsatishida namoyon bo'ladi.

DRNP molekulasida fosfat kislota qoldig'i muhim rol o'ynab, DNK va artinin qoldig'i radikallari oqsil molekulasini polipeptid zanjirida alohida o'rinni tutadi. Bunda elektrovalent bog'lar fosfat va guanidin guruhlari orasida hosil bo'ladi:

### **Nuklein kislotalarning vazifalari va biologik funksiyalari**

Nuklein kislotalarning vazifalari. Nuklein kislotalarning rolini aniqlash biokimyo fanining asosiy bo'limlarining biri bo'lib, hayot sirlarini o'rganishda asos bo'ladi. Hozirgi kunga kelib aniq ma'lumotlar asosida asoslangan masala, Nuklein kislotalar maxsus makromolekulalar biosintezini amalga oshiradilar. DNK molekulasining ikki komplementar zanjirdan (ikkita spiral) tashkil topganligi ularning biosintezida yangi molekula DNK sintezi uchun komplementar tuzilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Haqiqatan agarda DNK ning birlamchi zanjiriga vodorod bo'i hisobiga komplementar nuklotidlar efir bogg'lari yordamida ikkinchi zanjiri yuzaga keltirishini nazarga olinsa, unda u bиринчи zanjirning nusxasi sifatida yuzaga keladi. DNK ning ikkinchi zanjiri xuddi shunga o'xshab 1-zanjirning sintezida ishtirok etishi mumkin. Shunday qilib, bir molekula DNK dan (ikkita spiralni) unga o'xshash, 2 - molekula DNK ham sintezlanishi mumkin. Bu jarayonni gemologikdeplikatsiya deb nomlanadi. Bu jarayon har bir polinuklotid zanjirida shablonda (matritsada) amalga oshganligi uchun biosintezning matritsa mexanizmi deyiladi. Mabodo matritsaga o'zga polinukleotidlar komplementar bo'lansa (masalan, aminokislotalar), ular keyinchalik biopolimer (ohak) sifatida birikib geterologikreplikatsiyani hosil qiladilar.

Oqsillarning maxsus biosintezida informatsion RNK matritsa sifatida xizmat qiladi, transport RNK esa aktivlangan aminokislotalarni ko'rsatilgan joyga tashish vazifasini bajaradi.

Nuklein kislotalarning biologik funksiyalari. DNK ning asosiy biologik funksiyasi irsiy informatsiyani saklash va avloddan-avlodga yetkazib borishdan iborat. DNK molekulasida maxsus kod orkali organizmning xamma xususiyatlari, modda almashish reaksiyalarining mexanizmi, xamma fermentlarning tuzilishi, organizm morfologik xususiyatlarining xammasi tugrisidagi ma'lumot shifrlangan.

RNK - ikkinchi birikmani, kibernetik funksiyani amalga ottiradi, ya'ni xujayrada informatsiya okimini ta'minlaydi.

DNK va RNK organizmda oksil sintezini aniklaydi. Bunda RNK ning bir necha turlari ishtirok etadi: informatsion RNK, i - RNK, irsiy ma'lumotni yadrosga DNK strukturasidan kuchirib olib (bu jarayon transkripsiya deyiladi), sitoplazmadagi ribosomalarga - oksil sintezlanadigan joyga yetkazib beradi. Oksil biosintezi uchun kerakli aminokislotalarning xar biri uzining RNK si, transport RNK, t-RNK, yordamida ribosomaga yetkaziladi. Ribosomalarda xam RNK, r - RNK bor, lekin uning biologik funksiyasi xali tulik aniklanmagan.

RNK dan tashkari, organizmda kup mikdorda uchrab, muxim biologik funksiyani bajaradigan mononukleotidlar, masalan, ATF, GTF va boshkalar bor. Ular fermentlarning prostetik guruxlarini tashkil kilib, koferment rolini bajarishi mumkin xamda organizmda energiya almashinuvchi reaksiyalarida ishtirok etadi.

### **6. Chargaff qoidasi**

Nuklein kislotalarning tuzilishini o'rgangan olim Ervin Chargaff 1950 yili xromatografi usuli yordamida bиринчи bo'lib DNK ning elementar tarkibini aniqladi. Uning ko'rsatishicha DNK tarkibidagi azot asoslari umumiyligi qoidalarga bo'ysunadi. Bu qoida quyidagicha:

1. Adenining molyar miqdori timinning molyar miqdoriga yoki ularning nisbati 1 ga teng:  $A = T$  yoki  $= 1$
2. DNK tarkibidagi guanining molyar miqdori sitozinning molyar miqdoriga yoki ularning nisbati 1 ga teng:  $G = S$  yoki  $= 1$
3. DNK dagi purin asoslari yig'indisi pirimidin asoslari yig'indisiga teng:  $A+G = T + S$  yoki  $T + S = 1$
4. Purin va pirimidin asoslarining oltinchi uglerod atomodagi amin va keto gruppalarini bir biriga teng:  $G + T = A + S$  yoki  $A + S = 1$

DNK takibidagi guanin va sitozinning molyar konsentratsiyasi yig'indisiniig adenin va timinning molyar konsentratsiyasi yig'indisiga bo'lgan nisbat  $A + T$  o'zgaruvchan bo'ladi. Hayvonlar, o'simliklar va mikroorganizmlar DNK sidagi bu nisbat har xil bo'lganligi uchun u tur spetsifikligi koeffitsienti deb ataladi.

Ba'zi turlari DNK sidagi adenin bilan timinning yig'indisi guanin bilan sitozinning yig'indisidan ortiq yoki spetsifiklik koeffitsienti birdan kichik bo'ladi. Bunday DNK AT tipiga kiradi. Boshqa turga kiradigan organizmlarda esa aksincha, guanin bilan sitozinning yig'indisi adenin bilan timinning yig'indisidan ortiq yoki spetsifiklik koeffitsienti birdan katta bo'ladi. Bunday DNK GS tipga mansub bo'ladi. Ba'zan nukliotidlar soni teng bo'lgan DNK lar ham uchraydi.

AT tipidagi DNK barcha hayvonlarga, o'simliklar va ko'pchilik mikroorganizmlarga xos, GS tipidagi DNK hayvonlar yuksak o'simliklarda butunlay ucharamaydi, ammo mikroorganizmlarda, ayniqsa, bakteriyalarda keng tarqalgan.

Turli sistematik guruxlarga mansub bo'lgan organizmlar DNK sining nukleotidli tarkibi o'zgarib turadi. Suv o'tlari, zamburug'lar, ayniqsa, bakteriyalarda maxsuslik koeffitsenti 0,45 dan 1,80 gacha o'zgaradi. DNK ning maxsuslik koeyaffitsenti sistematik belgilaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

1953 yili D.Uotson va F.Krik DNKnинг kimyoviy tuzilishi, Chargaff qoidalari va Uilkinsning rengentruktura tahlili ma'lumotlariga asoslanib, DNK ningstruktura modelini yaratdilar. Bu modelga asosan DNK molekulasi qo'sh spiral hosil qiluvchi ikkita polinukleotid zanjirdan tashkil topgan. Har ikka zanjir bitta umumiyl o'qqa ega bo'lib, diametri  $20 \text{ } \mu\text{m}$  ga teng. Nukleotidlar qoldig'i bir biriga nisbatan  $36^\circ$  burchak xosil qilib joylashgan.  $360^\circ$  teng bir aylanasi yoki o'rami 1 ta nukleotid qoldig'idan tashkil topgan. Spiralning bir o'rami orasidagi masofa  $34 \text{ } \mu\text{m}$  ga teng bo'lib, xar bir nukleotid 3,4 a ni egallaydi.

Polinukleotid zanjirlarning pentozofosfat guruhlari spiralning tashqi tomonida, azot asoslari esa ichki tomonida joylashgan. Agar polinukleotid zanjirlardagi pentoza bilan fosfat kislota o'rtaqidagi bog' hisobga olinsa, unda zanjirlar bir biriga nisbatan teskari yo'nalgan bo'ladi.

DNK molekulasidagi adenin mikdori har doim timin miqdoriga teng va guanin mikdori sitozin miqdoriga teng bo'ladi. Bu o'z navbatida Uotson va Krikning struktura nazariyasiga Chargaf qoidalari mos ekanligini ko'rsatadi.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Nuklein kislotalar to'g'risida tushuncha?
2. Nuklein kislotasining kimyoviy tuzilishi?
3. Nuklein kislotalarning molekulyar og'irligi?
4. Nuklein kislotalarning xossalari?
5. Nuklein kislotalarning tuzilishi?

6. Nuklein kislotalarning vazifalari?
7. Nuklein kislotalarning biologik funksiyalari?
8. Chargaff qoidasi?
9. DNK nima?
10. RNK ni tushuntirib bering?

## **16-mavzu: O'simliklarda uglevodlar sintezi. O'simliklarda energiya tizimining shakllanishi. Uglevodlar parchalanishi**

### **Reja:**

1. Yorug'lik talab qilmaydigan fotosintez reaksiyaları
2. Karbonat angidrid o'zlashtirilishida ATF va NADF\*N<sub>2</sub>ning ahamiyati
3. Oligo- va polisaxaridlarning biosintezi
4. O'simliklardagi energiya tizimi to'grisida. Quyosh - energiyaning birlamchi manbai.
5. Uglevodlar dissimiliyasiyasining asosiy yo'llari.

Tayanch iboralar:: angidridning difosfoglitserat aldolaza.	Fosfoglitserat kislota, karbonat akseptori ribuloza- 1,5-difosfat, kislota, triozafosfatdehidrogeneza, aldegid,
---	---

### **1. Yorug'lik talab qilmaydigan fotosintez reaksiyaları**

Yorug'da boradigan fotosintez reaksiyalarida hosil bo'ladigan «o'zlashtiruvchi faktor» - ATF va NADF-N<sub>2</sub> karbonat angndriddan uglevodlar hosil bo'lishida ishtirot etadi. O'simliklarning SO<sub>2</sub> o'zlashtirishi yorug'likni talab qilmaydi va qorongida osonlik bilan boradi.

Fotosintez protsessida qorong'ida boradigan reaksiyalar mavjudligini inglez olimi Blekman 1905 iili aniklagan. Keyinchalik Arnon va boshqa olimlar uz tajribalarida suv-o'tlar va ajratib olingan xloroplastlar qisqa muddat ichida yoritilgandan so'ng, korong'ida SO<sub>2</sub> o'zlashtirishini kuzatganlar. Karbonat angidridni o'zlashtirish bilan bog'liq, bo'lган korong'ida boradigan reaksiyalar to'g'risida faqat bioximianing eng yangi usullarini qo'llash natijasida batatsil ma' - lumotlar olingan. Bunday usullardan biri radioaktiv uglerod atomlaridan foydalanishdir. Nishonlangan S<sup>14</sup> atomlari yordamida fotosintez protsessida yashil o'simliklar o'zlashtirgan SO<sub>2</sub> ning yo'lini va hosil bo'ladigan oraliq mahsulotlarni aniklash mumkin.

Fotosintezda o'zlashtirilgan SO<sub>2</sub> dan kanday qilib uglevodlar hosil bo'lishini aniqlash ancha qiyin. Chunki bu protsessda turli - tuman oraliq moddalar hosil bo'ladi. Bu moddalarning ko'philigi miqdor jihatdan juda kam bo'ladi. Bundan tashqari, ular ximiyaviy jihatdan ham bir - biriga o'xshash. Shuning uchun ularni ajratib olish ancha qiyin. Hosil bo'lган oraliq radioaktiv moddalarni bir-biridan ajratishdek murakkab analitik masala ikki tomonlama: xro- matografiya va radioavtografiya usulini qo'llash bilan hal qilingan.

Yukoridagi usullarni qo'llab, karbonat angidrid o'zlashti - rilishi natijasida hosil bo'ladigan birlamchi turg'un modda fosfoglitserat kislota ekanligi aniqlangan. Fosfoglitserat kislota

ribulozadifosfatning karboksillanishi natijasida hosil bo‘ladi. Bu reaksiya ancha murakkab bo‘lib, ATF ishtirok etishini talab qiladi

## 2. Karbonat angidrid o‘zlashtirilishida ATF va NADF\*N<sub>2</sub>ning ahamiyati

Qorong‘ida boradigan reaksiyalarda karbonat angidrid ug - levodlargaacha qaytariladi. Lekin u o‘ta oksidlangan modda bo‘lganligidan uglevodlargaacha qaytarilishida ma'lum miqdor energiya sarflanishi kerak. Bu enerjiyani ular fotosintez protsessining yorug‘lik reaksiyalarida hosil bo‘lgan ATFdan oladi. Kalvin nazariyasiga muvofiq, karbonat angidridning akseptori ribuloza- 1,5-difosfatdir. Ribuloza-1,5-difosfat ribuloza-5-fosfatning ATF hisobiga fosforlanishi natijasida xosil buladn:

Ribuloza-1,5-difosfatning yenol shakli karbonat angidrid biriktirishi natijasida olti uglerodln beqaror oraliq modda hosil bo‘ladi. Bu modda bir molekula N<sub>2</sub>O ni biriktirishi natijasida darhol parchalanadi va 3-fosfoglitserat kislota hosil bo‘ladi

Demak, ribuloza-1,5-difosfatning karboksillanishi nati-jasida 3- fosfoglitserat kislota xosil bo‘ladn. Hosil bo‘lgan 3-fosfoglitserat kislota 1,3-difosfogliserat kislotaga aylanadi. Bu protsessda yana bpr molekula ATF sarflanadi:

Bu reaksiyada hosil bo‘lgan 1,2—difosfoglitserat kislota yukori reaksiyey xususiyatga ega bulganligidan osonlikcha reaksiyaga kirishadi. Fermentativ reaksiya natnjasida 1,3-Difosfoglitserat kislotadan 3 - fosfoglitserin aldegid hosil bo‘ladi. Bu reaksiyada sikllik bo‘lmagan fotofosforlanishda ATF bilai bir katorda hosil bo‘lgan NAD\*<sup>N<sub>2</sub></sup> ham ishtirok etadi. Reaksiya triozafosfatdehidrogeneza ferment ishtirokida katalizlanadi:

Bu reaksiya karbonat angidridning uglevodlargaacha kaytarilish siklining birdan-bir qaytaruvchi bosqichidir. Yukoridagi reaksiyalar fotosintez protsessining yorug‘da va qorong‘ida boradigan reaksiyalari bir-biriga bog‘liqligini ko‘rsatuvchi dalildir. Karbonat angidrid qaytarnishidagi boshqa reaksiyalar fotosintez protsessiga xos emas. Ular uglevodlar almashinuvidagi boshsa reaksiyalar bilan borliq bo‘lib, nafas olish, glikoliz, pentozafosfat sikllarla borishi mumkin. Kalvin nazariyasiga muvofiq, ribulozadifosfat va SO<sub>2</sub> dan fosfoglitserat kislota hosil bo‘lishi siklik xarakterga ega.

Fotosintez jarayonida uglerodning roli. Fotosintez protsessida karbonat angidridii o‘zlashtirish bilai bog‘liq bo‘lgan rsaksiyalar siklli bo‘ladi. Bu sikldagi uglerodning yo‘lini quyidagi reaksiyalarda ko‘rsatish mumkin.

Kalvin tomonidan radioaktiv uglerod—S<sup>14</sup> atomlari yordamida o‘tkazilgan tajribalarda SO<sub>2</sub> biriktiruvchi modda ribuloza-1,5-difosfat ekanligi aniqlangan . Karbonat angidridni biriktirish natijasida hosil bo‘lgan oraliq modda parchalanib, 2 molekula 3-fosfoglitserat kislota hosil qiladi. Reaksiyaning keyingi bosqichlarida 3- fosfoglitserat kislotadan 3-fosfoglitserat aldegid hosil bo‘ladi. Siklining navbatdagi reaksiyasida 3-fosfoglitserat aldegid izomerlanib, fosfodioksiyatseton hosil qpladi. Bu reaksiyani triozafosfatizomeraza fermenti katalizlandi

Aldolaza fermenti ishtirokida boradigan navbetdagi reaksiyada yuqoridagi ikkala trioza kondensrlanadi va natijada bir molekula gekssza - fruktoza -1,6-fosfat hosil bo‘ladi.

Keyingi reaksiyada fosfataza fermenti ishtirokida fruktoza-1,6- difosfatdan bir molekula fosfat kislota ajralib chiqadi. Buning natijasida fruktoza-6-fosfat hosil bo‘ladi. Reaksiyada bir molekula suv ham ishtirok etadi.

Siklining navbatdagi bosqichida to‘rt uglerodli eritroza va besh uglerodli ksiloza shakarlari hosil bo‘ladi. Bu moddalar 6-reaksiyada hosil bo‘lgan 3-fosfoglitserat aldegidga 9-reatsiyada hosil bo‘lgan fruktoza-6-fosfatnnng ikki uglerodli gruppasi o‘tishi natijasida tashkil topadi. Reaksiyani transketolaza fermenti katalizlaydi. Bu ferment ikki uglerodli gruppalarning bir

aldolozadan ikkinchisiga ko‘chirilishini ta’mnnlaydi. Reaksiyadagi ko‘chiriluvchi mahsul har doim keton gruppaga hisoblanadi;

Eritroza-4-fosfat bilan fosfodioksiatseton aldolaza fermenti ishtirokida kondensirylanadi. Natajada 7 uglerodli birikma — sedozeptuloza-1,7-fosfat hosil bo‘ladi.


Yuqoridagi reaksiya natijasida hosil bo‘lgan sedozeptuloza-1,7 defosfatdan tegishli fosfataza ta’sirida va suv ishtirokida bpr molekula fosfat kislota ajralib chiqadi. Natijada sedozeptuloza-7-fosfat hosil bo‘ladi.

Keyingi reaksiyada transketolaza fermenti ishtirokida sedozeptuloza- 7-fosfat- bir molekula 3-fosfoglitserat aldegid bilan reaksiyaga kirishadi, natijada ikki molekula 5-uglerodli birikma, riboza-5- fosfat, ksiluloza-5-fosfat hosil bo‘ladi:

Ksiluloza-5-fosfat ksilulozafosfatizomeraza fermenti ishtirokida ribuloza-5-fosfatga aylanadi

Riboza-5-fosfat esa fosforibozmeraza fermenti ishtirokida ribuloza- 5-fosfatga aylanadi.

Ribuloza-5-fosfatning fosforlanishi natijasida ribuloza-1,5-difosfat hosil bo‘ladi. Karbonat angidrid o‘zlashtirish siklida ribuloza-5-fosfat katalizatorlik vazifasini bajaradi, deyish ham mumkin. Shuning uchun bu birikma doim yangidan xosil bo‘lib turishi kerak. Ribuloza-5-fosfat asosan uglevodlarpppg bevosa oksidlanishi siklida xosil buladi. Fotosintez protsessida hosil bo‘ladigan birlamchi barqaror modda — fosfoglitserat kislota xisoblanadi. Agar bir molekula SO<sub>3</sub> uchun 3 molekula ATF va 2 molekula NADF-N sarflansa, unda 1 molekula fosfoglitserat kislota xosil bo‘lishi uchun 9 molekula ATF va 6 molekula NADF-N<sub>2</sub> sarflanadi.



Karbonat angidridning qaytarilishi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha reaksiyalarni katalizlovchi fermentlar o‘simliklardan topilgan. Bu esa uglerodning qaytarilishi bilan bog‘liq bo‘lgan siklning mavjudligini bildiradi. Fotosintez protsessida xosil bo‘ladigan asosiy mahsulotlar miqdori va tarkibi o‘simlikning fiziologik holatiga va tevarak - atrof muhitga bog‘liq. Ko‘pchilik hollarda o‘zlashtirilgan SO<sub>2</sub> uglevodlar sifatida to‘planadi

### 3. Oligo va polisaxaridlarning biosintezi

Fotosintez natijasida xosil bo‘lgan glyukoza o‘simlik organizmi uchun xos bo‘lgan uglevodlarni - saxaroza, kraxmal va sellyulozani shakllanishi uchun sarflanadi.

Oligo- va polisaxaridlarning biosintezi endergonik (energiya talab qiladigan) reaksiya xisoblanadi va glyukoza molekulasi birlashishi uchun 20 kDj, saxaroza uchun 30 kDj talab etiladi. Oligo- va polisaxaridlarning sintezi uchun erkin monosaxaridlar emas, balki ularning fosforli efir birikmalar - efir bog‘larida yuqori energiya (15- 20 kDj/mol) saqlovchi birikmalar talab etiladi.

Polisaxaridlarning sintezi uchun glikozil qoldig‘ining donori nukleoziddifosfatlar - UDF-glyukoza, ADF-glyukoza va GDF-glyukoza va boshqa xisoblanadi. Glyukozil qoldig‘i va nukleoziddifosfatlar orasidagi bog‘ energiyasi anchagina yuqori - 30 kDj/molni tashkil etadi.

Saxarozaning biosintezi yo‘li. Saxaroza o‘simlikdagi xarakatchan shakldagi asosiy uglevod xisoblanadi. U fotosintez natijasida barglarda xosil bo‘ladi, shundan so‘ng o‘simlik “kapilyarlariga” - elaksimon naylarga yuklanadi. So‘ngra suv oqimi yordamida ildizning tomon xarakatlanadi.

Sellyuloza va kraxmalning biosintezi. Ikkala polimer - kraxmal va sellyuloza - B-glyukozadan shakllanadi. O‘simlik turlariga bog‘liq xolda sellyulozani sintezida -glyukozani tashuvchisi ADF, GDF, yoki SDF bo‘lishi mumkin. Kraxmalning sintezida glikozil guruxining tashuvchisi ko‘pincha ADF xisoblanadi.

Sellyulozada monomerlar zanjiri r (14) - glikozil bog‘lari, kraxmalda esa (amiloza)-a (14) - glikozil bog‘lari orqali bog‘lanadi. Nukleoziddifosfatlar orqali tashib kelingan glikozil qoldiqlarining akseptori to‘rt yoki undan ko‘p monomer birliklardan iborat bo‘lgan faollahgan oligosaxarid molekulalari xisoblanadi.

#### **4.O‘simliklardagi energiya tizimi to‘grisida. Quyosh - energiyaning birlamchi manbai.**

Ma'lumki o‘simlik organizmlarining hayot foliyati energiyani doimiy iste'mol qilinishida sodir bo‘ladi. Quyosh radiatsiyasi o‘simliklar tomonidan organik moddalarni kimyoviy energiyasiga aylanadi. Organik moddalarning oksidlanishini ekzergonik jarayonlari, yani dissimilyasiya manbalari hisoblanadi. Dissimilyasiyani ikki formasi mavjud, bular nafas olish va achishdir. Biologik moddalarni hosil bo‘lishi yoki endergonik reaksiyalar tashqi muxitdagi moddalarni o‘zlashirish uchun energiyani sarf kilish bilan kuzatiladi. Bunga yaqqol misol kilib fotosintezni keltirish mumkin.

Tabiatdagi barcha organizmlar energiyani iste'mol qilish manbalariga qarab 3 guruxga bo‘linadi:

1. Xlorofil o‘simliklar - ular uchun energiya manbai bo‘lib yorug‘lik kvanti (foton) hisoblanadi.

2.Odam va hayvonlar - ular energiyani organik moddalarning (uglevod, yog, oksillar) oksidlanishi hisobiga oladi.

3.Mikroorganizmlar - ular energiyani spetsifik bo‘lgan organik va anorganik moddalarning oksidlanishi hisobiga oladi.

O‘simlik va boshka tirik organizmlarda sodir bo‘luvchi moddalar va energiya almashinuvi fizika va kimyoning qonunlariga to‘la bo‘ysinadi, shuning uchun tirik sistemalarga bu qonun va prinsiplarni qo‘llash mumkin.

Termodynamika yoki energetika fani sistemalardagi energiyaning xilma-xil formalarini o‘zaro almashinuvi va miqdoriy o‘zgarishini o‘rganadi.

Bu energiyalar-kimyoviy, issiklik, mexaniq, elektrik, yorug‘lik formalarida bo‘ladi.

Sistema tushunchasi, kattaligi, zichligi, harorat, bosim, rangi, magnit va elektrik maydonlari bo‘lishi kabi xossalalar bilan harakterlanadi.

Sistema gomogen va geterogen bo‘ladi. Geterogen sistema esa ikkita yoki bir qancha ayrim fazalardan iborat bo‘lib, ular bir-biridan yuzalari bilan ajralib turadi.

Sistemalar ochiq va yopiq bo‘ladi. Yopiq sistemada massa va energiya sistemani o‘rganish jarayonida ko‘payishi va kamayishi mumkin emas. Ochiq sistemada esa massa va energiya kamayishi yoki ko‘payishi mumkin. Shunga ko‘ra o‘simliklar ochiq sistemaga kiradi. Agar sistemani tarkibi va xossasi ma'lum uzoq vaqt ichida o‘zgarmasa sistema muvozanat xolatida turibdi deyiladi. Biroq kimyoviy muvozanat doimiy emas. Muvozanat-bu reaksiyani chapdan unga qanday tezlikda o‘tsa, o‘ngdan chapga ham shunday tezlik bilan o‘tish xolatidir.

#### **Termodinamika qonunlari**

Termodynamikaning birinchi qonuni. Bu energiyaning saqlash qonunidir, uni Gelmgols 1847 yilda ifodalab berdi. A.Enshteyn tenglamasiga ko‘ra  $ye=mS$  energiyani saqlash qonuni, ish va issiqlikning ekvivalent qonunidir. Bunda energiyaning har xil formalari bir-biriga o‘ta boshlaydi. Formulaga ko‘ra 1 gramm massa  $9 \cdot 10^{20}$  erg energiya birligiga aylanishi mumkin. Bu qonunga ko‘ra ichki energiya ( $ye$ ) faqat issiqlik xolida energiyani ko‘chirish jarayonida yoki ish bajarilganda o‘zgarishi kuzatiladi, boshqacha qilib aytganda energiyani yaratish va yo‘q qilish mumkin emas.<sup>57</sup> Bajarilgan ish mexanik, elektrik yoki kimyoviy (sintez) bo‘lishi mumkin. Ajratib olingan sistemalar uchun ularni ichki energiyasini o‘zgarishi quyidagi formula bo‘yicha

aniqlanadi - ye=J, yani sistemaning ichki eenergiyasini ko'payishi unga berilgan issiqlik va tashqi muxitni sistema ustida bajargan ishni yig'indisiga tengdir

Demak bu qonunga ko'ra energiya qaytadan hosil bo'lmaydi va yo'qolmaydi faqat bir formadan ikkinchi formaga o'tadi. Ajratib olingan sistemaning energiyasining umumiyligi miqdori doimiy bo'ladi. Birinchi qonun  
tirik sistemalarga qo'llanilishi mumkin.

Termodynamikaning ikkinchi qonuni. Klauzius tomonidan aytilgan fikrga ko'ra issiqlik issiq tanadan sovuqqa uzatiladi, teskarisi bo'lishi mumkin emas. Faqat sistemaga tashqaridan ish sarflanganda kuzatish mumkin. Bu termodynamikaning ikkinchi qonunini ochilishiga olib keladi. Ikkinchi qonunga ko'ra barcha sistemalar o'z-o'zidan o'zgarib muvozanat xolatiga intiladi. M: suv yuqoridan pastga oqadi, eruvchi modda eritmada bir xil taqsimlanadi, tirik organizmlarda ma'lum yoshga yetgandan keyin o'z-o'zidan qarish jarayoni boshlanadi  $8 = K \cdot 1 \cdot L$

Entropiya bu ichki o'zgarish ma'nosini beradi. Sistemaning entropiyasi esa, uni muvozanatga yakinlashish o'chovidir. Entropiya (8) - bu sistemaning xolatini ko'rsatgichidir va uni entropiya birliklarida ifoda qilinadi  $kDj \cdot K^{-1} \cdot mol^{-1}$ . Termodynamikaning ikkinchi qonuni bir vaqtida entropiyani va haroratni termodynamik shkalasini belgilaydi. Muz eriganda, entropiya oshadi, chunki uning strukturasi soddalashadi. Moddalar katta energiyali xolatida entropiya oshadi. M:kristal holatdagi suvni entropiyasi 11,5 en.br., suyuk - 16,75, gaz xolatdagi - 45,11 en.br. Organizmlar uchun entropiyani oshishiga olib keluvchi jarayonlarni tenglatish va ularni kamaytiruvchi almashinuv jarayonlari harakterlidir.

Entropiya tushunchasi bilan o'simlik organizmini butun hayot faoliyatini harakterlash mumkin emas, biroq suv almashinuvi nafas olish, fotosintez jarayonlariga qo'llash mumkin.

O'simlik hujayralarida fermentlar ishtirokida ekzergonik reaksiyalar o'z-o'zidan ketishi mumkin, ular kimyoviy potensialini manfiy o'zgarishi bilan harakterlanadi. Shu bilan birga hujayralarda endergonik jarayonlari sodir bo'ladi, ya'ni oddiy moddalardan murakkab moddalarni sintezi, unda energiya talab qilinadi va u energiyani bir-biriga bog'langan ekzergonik jarayonlardan oladi.

Demak, Gibbsni erkin energiyasi tushunchasi ushbu jarayonni o'z-o'zidan ketish ketmasligini beradi. Agar doimiy harorat va bosimda erkin energiyani o'zgarishi ma'lum bo'lsa, jarayonni o'z-o'zidan ketishini avvaldan aytish mumkin.

Ichki energiyani kamayishi va entropiyani oshishi erkin energiyani kamayishiga olib kelsa ichki energiyani ortishi va entropiyani kamayishi erkin energiyani oshishiga olib keladi. Bu xol biologik sistemalarda yaqqol kuzatiladi, ularning massa va energiyasi oshadi va kamayadi. Dastlab yer yuzida hayot paydo bo'lgunga qadar quyoshdan kelayotgan butun erkin energiya foydasiz issiqlik xolida tarqala boshlagan va kosmik fazoda nurlangan.

Keyinchalik hayot paydo bo'lishi bilan tirik sistemalar bu erkin energiyani ma'lum qismini yutib o'z faoliyatini davom ettirgan va bir qismini tarqatgan. Natijada tirik organizmni statsionar sistemasi erkin energiyani bir qismiga ega bo'ladi va uni biosferada tutib turadi.

Hujayraning adenilat sistemasi.

Tirik organizmlarda energiya almashinuvida markaziy o'rinni adenilat sistemasi egallaydi. Bularga ATF, ADF, AMF va  $Md+$ ,  $N_3R_04$  kiradi.

ATF-termodynamik turg'un bo'lмаган биримадир у ADF yoki AMF hosil qilish yo'li bilan gidrolizlanadi. ATF yuqori ko'chirish potensialiga ega, bu esa uni kimyoviy ko'chirish funksiyasini bajarishga imkoniyat beradi. Natijada hujayrani energiyaga bo'lgan talabini

qondirishiga ma'lum sezilarli darajada imkoniyat beradi. ATF molekulasida pirofosfat bog (fosfoangidrid) ADF va  $N_3 RO_4$  qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi. Bunday fosforlanish

reaksiyalarni xloroplast, mitoxondriy va bakteriyalarni membranalarida kuzatish mumkin, bu jarayonlar O<sub>2</sub> ni yutilishi bilan kuzatiladi. AMFni ADFga aylanishi fosfaril gruppasini ATF dan AMF ga ko‘chirilishi yo‘li bilan hosil bo‘ladi. Bu reaksiyani barcha hujayralarda uchrovchi adenilatkinaza fermenti katalizlaydi.

Adenilat sistemasining reaksiyalarini tezligi Md++ ionlarini konsentrasiyasiga bog‘likXulosa shuki, tirik hujayra energiyani 2 formasiga ega.

- 1.Kimyoiy energiya (ATF).
- 2.Fizik (elektrik)yoki membrana potensialiga (sN). Energiyaning 1 va 2 formasini almashinuvining vektor harakterini belgilaydi.

### **5. Uglevodlar dissimiliyasiyasing asosiy yo‘llari.**

Uglevodlar dissilmilyasiyisini bir necha yo‘llari bo‘lib, shulardan biri pentozamonofosfat yo‘li hisoblanadi. Pentozamonofosfat sikli hujayra sitoplazmasining eruvchan qavatida, proplastidalar va xloroplastlarda kechadi.

Bu sikl glyukoza-6-fosfatning bevosita oksidlanishi bilan boshlanadi. Bunda glyukoza-6-fosfatda bir molekula SO<sub>2</sub> ajralib chiqadi va besh uglerodli birikmlar-pentozalar hosil bo‘ladi, shuning uchun ham bu yo‘l pentoza fosfat yoki apotamik parchalanish deyiladi.

Birinchi bosqichda glyukoza-6-fosfat oksidlanib, 6-fosfat- glyukolokton kislota hosil bo‘ladi. Bu reaksiya glyukoza-6-fosfat- degidrogenaza fermenti ishtirokida bo‘ladi. Fermentning aktiv qismini MAOR tashkil qilib, u AR Nga qaytariladi. 6- fosfatglyukolokton kislota suv ishtirokida 6-fosfat glyukonat kislotaga aylanadi va bu kislota dikarboksillanish reaksiyasi natijasida pentoza fosfat hosil qiladi. Reaksiya natijasida bir molekula SO<sub>2</sub> va MAOR N hosil bo‘ladi. Umuman bir atom uglerodning oksidlanish natijasida ikki molekula MAOR N hosil bo‘ladi.<sup>61</sup> Ikkinci bosqichda ribuloza-5-fosfat izomerlanib, riboza-5- fosfatga va ksiluloza-5-fosfatga aylanadi. Bulardan transketolaza va transaldolaza fermentlari ishtirokida sedogentuloza-7-fosfat va 3- fosfoglitserin aldegidi hosil bo‘ladi, keyin eritroza-4-fosfat va fruktoza-6-fosfat hosil bo‘ladi. Fruktoza-6- fosfat izomerlanib, yakuniy maxsulot glyukoza-6-fosfatga aylanadi.

Keyinchalik har bir molekula ARN oksidlanganda Zmolekula ATR sintezlanadi. Demak 12 LRNmolekulasi oksidlanib 36molekula hosil qiladi. Bu siklda hosil bo‘lgan organik maxsulotlar-pentozalar organizm uchun zarur bo‘lgan moddalar (nuklein kislota va b.) hosil qilishda ishtirok etadi. U ayniksa sintetik jarayonlar kuchli borayotgan hujayralarda faol harakterga ega bunday hujayralarda membranalarning lipid komponentlari, nuklein kislotalar, hujayra devori va fenol birikmalar faol ravishda sintezlanadi.

Nafas olish va bijgishlar (achish) bir xil jarayonlar bilan shakarlarning pachalanishidan boshlanishini ko‘rsatib berilgan. Keyinchalik nafas olish SO<sub>2</sub> va suvning, bijgishi esa SO<sub>2</sub> va spirtning hosil bo‘lishi bilan yakunlanadi.

Xozirda aerob harakterga ega bo‘lgan nafas olish jarayoni ikki bosqichdan iborat ekanligi tasdiqlandi. Birinchi bosqich -anaerob nafas olish jarayonida murakkab organik moddalar oddiy organik moddalarga parchalanadi.

Ikkinci bosqich - aerob sharoitda piruvat kislotasi karbonat angidrid va suvgga parchalanadi.

Uglevodlarning anaerob sharoitda parchalanishi glikoliz deb ataladi. Bu jarayonda kam miqdorda energiya ajraladi va oxirgi bosqich maxsuloti piruvat hosil bo‘ladi. Glikoliz -aerob nafas olish va bijgish jarayonlarning boshlangich bosqichidir.

Nafas olishning asosiy maxsuloti bo‘lgan monosaharidlarning reaksiyon qobiliyati ancha past bo‘lib, keyingi almashinuv jarayonida ishtirok etish uchun ularni biroz energiya bilan ta‘minlash zarur. Bunga monosaharidlarni energiyaga boy bo‘lgan birikmalar bilan reaksiyaga kiritish va fosforli efirlar hosil qilish yo‘li bilan erishiiladi.<sup>62</sup>

Glikolizning birinchi bosqichida glyukoza geksokinaza fermenti ishtirokida fosforlanadi va glyukoza-6-fosfatga aylanadi. Buning uchun bir molekula ATR sarflanadi Glyukoza-6-fosfat fosfoglyukomutaza ishtirokida izomerlanib, fruktoza-6-fosfatga aylanadi, u ikkinchi molekula ATR ishtirokida fosforlanib fruktoza-1,6-difosfatga aylanadi. Bu jarayonda fosfofruktokinaza fermenti ishtirok etadi.

Navbatdagi reaksiyada fruktoza-1,6-difosfat aldoza ishtirokida 3-fosfoglitserin aldegidi (3FGA) va fosfodioksiyatsetonga parchalanadi. Fosfodioksiyatseton osonlik bilan triozafosfatizomeraza ishtirokida 3FGA ga aylanadi. Bu yerda reaksiyalar ikkita uch uglerodli birikma hosil bo'lishi bilan borganligi uchun bu yo'l dixotomik oksidlanishi ham deyiladi.

Glikolizning ikkinchi bosqichida 3FGA oksidlanib, 3-fosfoglitserat kislota (3FGK) hosil qiladi, unda triozafosfatdegidrogenoza ishtirok etadi. Bu fermentning aktiv qismini AD tashkil qiladi, reaksiyada ADR va fosfat kislota ishtirok etib, ATR hosil bo'ladi. Reaksiya davomida hosil bo'lgan atsilferment fosforolizga uchraydi va natijada makroergik karboksifosfatga ega bo'lgan 1,3-difosfatglitserat kislota hosil bo'ladi. 1,3 DFGK ADR bilan kayta fosforlanib ATR va ZFGK hosil bo'ladi.

Glikolizning oxirgi bosqichida ZFGK fosfoglitseratmutuza fermenti ishtirokida izomerlanib, 2FGK ga aylanadi va u bir molekula suvni ajratib, fosfopiruvat kislotasining yenol shakliga aylanadi. Bu reaksiyada yenoloza fermenti ishtirok etadi. Fosfoenolpiruvat (FeP) o'z navbatida piruvatkinaza fermenti ishtirokida, ADR bilan reaksiyaga kirishib, ATR hosil qiladi. yenolpiruvat piruvatga (pirouzum kislotaga) aylanadi.

Bir molekula glyukozaning parchalanishida 2 molekula piruvat hosil bo'ladi. Bu reaksiyalar natijasida energiyaga boy bo'lgan birikmalar-4 molekula ATR va 2 molekula qaytarilgan AD N<sub>2</sub> hosil bo'ladi. Har bir molekula KAD N<sub>2</sub> yoki KADR N<sub>2</sub> oksidlanishidan 3 molekula ATR, jami 6 molekula ATR hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan 4 ta molekula ATRning 2 tasi substratni aktivlantirishga ketadi, natijada 8 molekula ATR hosil bo'ladi. Har bir ATRning energiyasi 10kkal deb hisoblasak, unda glikoliz jarayonida 80 kkal energiya hosil bo'ladi.

#### Aerob nafas olish.

Nafas olishning aerob bosqichi ikkinchi asosiy bosqich sanaladi. Bu bosqichda pirouzum kislota SO<sub>2</sub> bilan suvgaga to'liq parchalanadi. Bu jarayon aerob sharoitida sodir bo'lib, bir kator oraliq moddalar, di- va trikarbon kislotalar ishtirok etadi. Ularning bir-biriga aylanishi xalqadan iborat. Shuning uchun ham sitrat di- va trikarbon kislotalar sikli deb ataladi. Bu reaksiyalar tuzilishini (xayvonlar organizmida) 1930 yilda ingliz bioximigi L. A. Krebs taklif qilganligi sababli uning nomi Krebs sikli deb ham ataladi. O'simliklarda ham shu tizim mavjudligini 1939 yilda ingliz olimi A. Chibnell aniqlagan.

Piruvat kislota aerob sharoitida avvalo faollashgan birikma atsetil-SoAga aylanadi. Faollashgan atsetil SoA ning oksidlanishidan siklik jarayonlar boshlanadi. Krebs siklining birinchi bosqichida atsetil SoA oksaloatsetat bilan o'zaro reaksiyaga kirishib, sitrat kislota (limon kislota) hosil qiladi. Bu reaksiyada sitratsintetaza fermenti ishtirok etadi va bu xalqadagi eng muxim maxsulotlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun bu jarayon sitrat sikli deb ham ataladi.

Sitrat kislota akonitaza fermenti ishtirokida degidratatsiyalanadi va sis-akonit hosil qiladi, sis-akonit kislota yana bir molekula suv biriktirib olib izotsitrat kislotaga aylanadi.

Izotsitrat kislota degidratatsiyaga uchrab, oksalosuksinat kislotaga aylanadi. Bu reaksiyada izotsitratdegidrogenaza fermenti ishtirok etadi. Uning faol qismini QADR tashkil qiladi va u reaksiyada KADR N ga qaytariladi, tezlikda oksalosuksinat kislota dekarboksillanib, a-

ketoglutar kislotaga aylanadi. a-ketoglutar kislotasi yana dekarboksillanadi va natijada  $\text{SO}_2$  ajralib chiqadi, KAD N va suksinil-SoA hosil bo‘ladi.

Suksinil-SoA-sintetaza fermenti ADR va fosfat kislotasi ishtirokida energiyaga boy bo‘lgan suksinil-SoA dan suksinat kislotasi (kaxrabo kislotasi) hosil bo‘ladi va ATR ajralib chikadi. Suksinat kislotasi oksidlanib, fumarat kislotaga aylanadi, reaksiyada suksinatdehidrogeneza fermenti ishtirok etadi. Bu fermentning faol qismi FAD bo‘lib, u FAD  $\text{N}_2$  ga qaytariladi.

Fumarat kislotasi bir molekula suvni biriktirib, fumaraza fermenti ishtirokida malat kislotaga aylanadi. Bu kislotasi o‘z navbatida malatdehidrogenaza fermenti ishtirokida oksaloatsetat kislotaga aylanadi. Fermentning faol qismini KAD qilib, u reaksiya jarayonida KAD Nga qatariladi.

Doiraning yakunida hosil bo‘lgan oksaloatsetat kislotasi o‘z-o‘zidan tezda yenol shaklga o‘tadi va yangi atsetil SoA molekula bilan birikib, yangi siklni boshlaydi.

Shunday qilib har bir siklda bir molekula pirouzum kislotasidan uch molekula  $\text{SO}_2$  ajraladi, uch molekula suv ishtirok etadi va besh juft vodorod atomi ishtirok etadi.

Reaksiyalarda Z KADN, KADR N, FAD  $\text{N}_2$  va bir molekula ATR ajraladi. Agar har bir molekula KAD N va KADR N larning energiyasi uch molekula ATRga tengbo‘lsa, u xolda 12 molekula ATR bo‘ladi. Bir molekula FAD  $\text{N}_2$  ning energiyasi ikki molekula ATRteng bo‘lsa va reaksiya natijasida bir molekula ajralib chiqqan ATR bilan birlashtirishda umumiy miqdor uch molekula ATRni tashkil qiladi. Natijada bir molekula piruvatning oksidlanishidan 15 molekula ATR hosil bo‘ladi. Agar bir molekula glyukozani glikolizi natijasida ikki molekula pirouzum kislotasi hosil bo‘lishini hisobga olsak, 30 molekula ATR nafas olishning aerob bosqichida hosil bo‘ladi. Bundan tashqari 8 molekula ATR boshlangich anaerob bosqichda hosil bo‘ladi. Demak bir molekula glyukozaning parchalanishidan 38 molekula ATR hosil bo‘lib, uning energiyasi 380 kkal mol bo‘ladi. Agar glyukolizing parchalanishi natijasida ajralib chiqqan erkin energiyani ham qushib hisoblasak 686 kkal/mol bo‘ladi va ishlatalgan energiya effekti nisbatan yuqori bo‘ladi:

Bundan tashqari bu siklda hosil bo‘lgan oraliq maxsulotlar yangi organik muddalarni sintez qilish uchun sarflanadi. Avvalo organik kislotalarning azot almashinuvda, oqsillar sintezi va parchalanishidagi xissasini ko‘rsatib o‘tish kerak. Ketokislotalardan qayta almashinish va aminlanishini tiklash natijasida aminokislotalar hosil bo‘ladi.

Pirouzum kislotasidan alonin, oksaloatsetat kislotasi va a-ketogulotor kislotadan asporagin va glutamin kislotalar hosil bo‘ladi. Atsetil-SoA ishtirokida lipidlar, poleizopren va boshqa birikmalar hosil bo‘ladi.

1	Oksaloatsetat Atsetil-SoA + $\text{N}_2\text{O}$	+ Sitrat	Sitrat-sintaza	Aldol guruxlarining birlashishi
2	Sitrat (- $\text{N}_2\text{O}$ ) (+ $\text{N}_2\text{O}>$ )	Izotsitrat	Akonitgidrataza	Degidratatsiya G idratatsiya
3	Izotsitrat + $\text{NAD}^+$	a-ketoglutarat + $\text{N}^+ + \text{NADN}$	Izotsitratdehidrogeneza	Oksidlanish (1 MA0N=3 ATR)

4	$\alpha$ -ketoglutarat + N5-Suksinal-KoA + Na- SoA+ NAD <sup>+</sup>	$\alpha$ + NADN	ketoglutarat degidrogenaz a 1GPMP P01/G1L	Oksidlangan dekarboksillan ish (1 IAON=3 ATR)
5	Suksinal-KoA + GDF Suksinat + GTF+ Suksinal- KoA - Substratning + R	N5-SoA	sintetaza	fosforlanishi ATR
6	Suksinat + ye-Fumarat + ye-Suksinat- FAD (ubixinon FADN <sub>2</sub> (0))	degidrogenaza (ubixinol <on <sub>2</sub> >		Oksidlanish G'A0N=2 ATR)
7	Fumarat +N <sub>2</sub> O	-malat	Fumaraza	G idratatsiya
8	/,-malat + NAD <sup>+</sup>	Oksaloatsetat + ndpn + n*	Malatdegidrogen aza * " *P" * * *	Oksidlanish IAONZ ATR)

Glikoliz jarayonida 1 molekula glyukozadan 2 molekula piruvatni xosil bo'lishini e'tibrga olsak, Krebs siklida 30 molekula ATF xosil bo'ladi deb aytishimiz mumkin.

Agar glikoliz natijasida xosil bo'ladigan 8 molekula ATFni xam xisobga olsak, glyukozani to'liq parchalanishi natijasida 38 molekula ATF xosil bo'lishini ko'rish mumkin (=380 kkal).

Xar bir ATF molekulasi murakkab fosfoefir bogining energetik quvvati 10 kkal/mol (yoki 41,87 kDj/mol) bo'lib, glikoliz xamda di-va trikarbon siklining effektiv energiyasi 380 kkal yoki 1256 kDj/mol ga tengdir.

686-380=306 kkal issiqlik tarzida chiqib ketadi

Glioksalat sikli.Bu sikl bakteriyalar va mog'or zamburug'larida aniqlagan edi. Keyinchalik aniqlashicha u moy tuplovchi o'simlik uruglarida amalga oshirilar ekan. Glioksalat sikli hujayradagi maxsus organoid-glioksisomalarda amalga oshadi. Bu siklda zaxiradagi yoglar shakarga aylantiriladi (glyukonogenez). Xayvon hujayrasida bu sikl bo'lmaydi.

Quyida moy beruvchi o'simliklar va ular tarkibidagi moyning miqdorlari berilgan.

Glioksalat sikli Krebs siklining o'zgarilgan shakli bo'lib, to izotsitrat kislota hosil bo'lguncha Krebs sikli kabi bo'ladi. Keyin izotsitrat kislota izotsitratlaza ishtirokida glioksil va suksinat kislotalarga parchalanadi. Glioksilat malatsintetaza ishtirokida 2- chi molekula atsetil-SoA bilan hamkorlikda malat kislota hosil qiladi va u yana oksaloatsetat kislotaga aylanadi.

Krebs siklidan farqli o'laroq bu siklda glioksalat kislota va atsetil SoA hosil bo'ladi va natijada har bir doirada ikki molekula atsetil SoA ishtirok etadi. Umuman glioksalat sikli zapas yog'larni sarflaydi va yog'larning parchalanishida oraliq modda - atsetil SoA hosil bo'ladi.

Shunday qilib, Krebs siklidan farqli ularok, glioksalat siklida ikki molekula atsetil-SoA ishtirok etadi va bu faollashgan atsetil oksidlanishida emas, balki suksinat kislota hosil bo'lishida ishlataladi. Suksinat kislota sikldan chiqib, glyukonogenezda ishtirok etadi. Bundan tashqari har

ikki molekula atsetil-SoA hisobiga bir molekula AD N kaytariladi va uning energiyasi mitoxondriyalarda ATR sinteziga sarf bo‘lishi mumkin. Glioksilat kislota glikokol aminokislitasining hosil bo‘lishi uchun dastlabki modda hisoblanadi.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Yorug‘lik talab qilmaydigan fotosintez reaksiyalari?
2. Karbonat angidrid o‘zlashtirilishida ATF ning ahamiyati?
3. Oligo- va polisaxaridlarning biosintezi?
4. O‘simliklardi energiya tizimi?
5. Quyosh – energiyaning birlamchi manbai ekanini tushuntirib bering?
6. Termodynamika qonunlari?
7. Hujayraning adenilat sistemasi?
8. Uglevodlar dissimiliyasiyasining asosiy yo‘llari?
9. Aerob nafas olish?
10. Entropiya nima?
11. Piruvat kislotasini aytib bering?

### **17-mavzu: Nitratlarning o‘zlashtirilishi va aminokislotalar sintezi**

#### **Reja:**

1. O‘simliklar azot o‘zlashtirishi va uning ahamiyati
2. Ammiakli azotni xosil bo‘lish yo‘li
3. Aminokislotalar sintezining yo‘llari (bevosita aminlanish va qayta aminlanish)
4. Aminokislarning dezaminlanish va dekarboksillanish reaksiyalari

\*|

( Tayanch iboralar: Azotofiksator, simbioz ammonifikatsiya, nitrifikatsiya, giponitrit s\ ferment flavoproteid, gidrosilamin, reduktaza, glutamin, asparagin, aminotrans, ferazan, koFaktori, piridoksin.

#### **1. O‘simliklar azot o‘zlashtirishi va uning ahamiyati**

Azot o‘simliklar hayoti uchun eng kerakli elementdir. U hayotiy muhim birikmalar - oqsillar, fermentlar, nuklein kislotalar va boshqa bir qator birikmalar tarkibiga kiradi.

Azot o‘simliklar quruq ogirligining 1-3% ni tashkil etadi. Tabiatdagi asosiy azot manbasi atmosfera tarkibida bo‘lib, uning umumiy miqdori 78% tashkil etadi. Bir kvadrat metr yer ustida 8 tonnagacha azot bor. Lekin yashil o‘simliklar atmosfera tarkibidagi molekulyar azotni bevosita o‘zlashtirilmaydi. Chunki molekulyar azot o‘ta turg‘un bo‘lib, uni faol holga o‘tkazish uchun juda katta energiya sarflash kerak

Turg‘un holatdagi atmosfera azotini asosan ikki yo‘l bilan faol holatga o‘tkazish umumkin:  
1) ximiyaviy, 2) biologik.

Biologik yo‘l. Tabiatda molekulyar azotni ammiakkacha qaytaruvchi ko‘pgina organizmlar (mikroorganizmlar va ayrim suv o‘tlari) mavjud. Bular azot o‘zlashtiruvchi yoki azotofiksatorlar deb ataladi. Azot o‘zlashtiruvchi mikroorganizmlar ikki guruhga bo‘linadi: 1) erkin yashovchi azotofiksatorlar, 2) o‘simliklar bilan simbioz holida yashovchi azotofiksatorlar

Erkin yashovchi azotofiksatorlar ham o‘z navbatida ikki guruhga bo‘linadi: 1) anaerob azotofiksatorlar, 2) aerob azotofiksatorlar.

Anaerob azotofiksatorlarga (ya'ni kislorodsiz sharoitda yashovchi) sporali bakteriya Klostridium Pasterianumni ( $S1o\$1pysh\ raMepatit$ ) , aerob mikroorganizmlarga esa azotobakterii (Ayul o'asleg skgosossit) misol bo'lishi mumkin. Bu ikkala mikroorganizm ham molekulyar azotni o'zlashtirish uchun fermentlar ishtirokida energiya sarflaydi.

Buning uchun glyukoza yoki boshqaorganikm oddalarning oksidlanishi natijasida ajralib chiqqan energiyadan foydalanadilar. Har bir gramm sarflangan glyukoza energiyasi hisobiga Aztobakterlar 15 magacha va Klostridium esa 2-3 mgazot to'playdi  
Bundan tashqari erkin yashovchi azotofiksatorlarga ayrim ko'k-yashil suv o'tlari ( $\text{N}_2\text{O}$ ,  $\text{RkogtMsht}$ ) ham kiradi. Ular ayniqsa chuchuk suvli havzalarda katta ahamiyatga ega (ayniqsa sholikorlikda) . Bu organizmlar bir gektar yerda 10 dan 40 kg gacha bog'langan (o'zlashtiradigan) azot to'plashi mumkin.

O'simliklar bilan simbioz holida yashovchi mikroorganizmlarga tuganak bakteriyalarini (Vas! gayoyuyuola) ko'rsatish mumkin.Ularning mavjudligi 1866 yilda M.S.Voronin tomonidan aniqlangan edi. Bu bakteriyalar dukkancli o'simliklarning ildiz to'qimalariga kirib hayot kechiradi va natijada tuganaklar hosil bo'ladi. Tuganak bakteriyalar ko'p miqdorda azot, jumladan yerda ko'p organik azotni ham to'playdi.

Masalan, yaxshi rivojlangan yo'ng'ichqa ildizlaridagi tuganak bakteriyalar bir yilda gektariga 300 kg gacha azot to'plashi mumkin. Umuman 200 turga yaqin o'simliklarning ildizida maxsus tuganak bakteriyalari hayot kechirishi aniqlangan.

Azotofiksatorlar planetamizda yiliga bir necha million tonna erkin azotni qaytarib, ammiakka aylantiradi. Odatda ammiak o'simliklar tanasida aminokislolar hosil bo'lishida ishtirok etadi.

Barcha yashil o'simliklar mineral azotni o'zlashtirish qobiliyatiga ega. Bu asosan tuproq hisobiga sodir bo'ladi. Tuproq tarkibidagi azot asosan ikki holda uchraydi: 1) organik moddalar tarkibidagi azot, 2) mineral tuzlar tarkibidagi azot.

Organik moddalar asosan o'simlik va hayvon qoldiqlaridan iborat bo'lib, ular tarkibidagi azot mikroorganizmlar ishtirokida ammonifikatsiya va nitrifikatsiya jarayonlari natijasida o'zlashtiriladigan holatga o'tadi.

Tuproq tarkibidagi azotning mineral formasi ammoniy tuzlari ( $\text{KN}_2\text{S}1$ ,  $(\text{KI}_4)_2\text{S}0_4$ ,  $\text{NN}0$  va boshqalar) va nitrat tuzlari ( $\text{NO}_3^-$ ,  $\text{KO}_3$ ,  $\text{SaO}_3^-$ ) va boshqalar) holida bo'ladi. Bu mineral tuzlar ionlanish xususiyatiga ega ekanligi uchun ham oson o'zlashtiruvchi azot manbasini tashkil etadi. Chunki o'simliklar azotni tuproqdan kation -MN yoki anion -  $\text{K}_03^-$  holatida o'zlashtiradi. Bunday erkin azot tuproqlarda uncha ko'p emas. Masalan, eng unumdon qora tuproqlarning bir gektarida 200 kg/ga yaqin o'zlashtiriladigan azot mavjud. Podzol tuproqlarda esa bu ko'rsatgich 3-4 marta kam.


Nitrat anioni  $\text{NO}_3^-$  tuproq zarrachalari bilan mustahkam birlashmaydi. Shuning uchun tez yuvilib ketishi mumkin va ko'p to'planib ham qolmaydi. Nitratlar miqdori tuproqda ayniqsa yoz fasllarida, mikroorganizmlar faollashgan vaqtarda ko'p bo'lishi mumkin. Umuman ionlarning ( $\text{NO}_3^-$ ) tuproqdagagi miqdori o'simliklarning o'zlashtirish tezligiga, mikrobiologik jarayonlarning jadalligiga va yuvilish jarayonlariga bog'liq.

## 1. Ammiakli azotni xosil bo'lish yo'li

Inson va xayvonlar mineral xolatdagi azotni o'zlashtirish va ayrim aminokislotalarni sintez qilish qobiliyatiga ega emas.

Xayvonlar organizmidan farqli ravishda o'simliklar tuproqdan qabul qilingan nitratlar yoki ularni qayta tiklanishi, oqsillarni parchalanishi va boshqa reaksiyalar yordamida barcha zaruriy azotli moddalarni ammiak orqali sintez qilish imkoniyatiga ega. Ammiakli azotni organik moddalarga aylanishining asosiy yo'li - aminokislolar sintezidir. Azotli organik birikmalar

sintezi uchun zarur bo‘lgan daslabki modda - ammiak bo‘lib, u o‘simlik to‘qimalarida tuproqdan qabul qilingan nitratlarni ammiakkacha qaytarilishidan hosil bo‘ladi. Bu jarayonni sxematik tenglamasi quyidagicha:



Bu jarayon bir qancha oraliq biokimyoviy reaksiyalar orqali amalgalashadi va bir qancha fermentlar orqali katalizlanadi.

O‘simliklarda nitratlarni qaytarilishi ularning yer ostki organlarida juda tezlik bilan sodir bo‘ladi. Xatto ularning qaytarilish jarayonining boshlanishi va yakunlanishi qariyb ildizda amalgalashadi.

yer ostki qismlarda nitratlarning to‘planib qolishi kamdan-kam xolda sodir bo‘ladi, faqatgina o‘simlik juda ko‘p azotli o‘gitlar bilan

ishlov berilgandagina ularda nitratlarni to‘planib qolishi va usimlikni zaxarlanishi kuzatilishi mumkin.

Nitratlarning ammiakkacha qatarilishi uchun fosfor, magniy, molibden va boshqa elementlar zarur bo‘ladi.

Nitratlarni qaytarilish jadalligi energiya xosil qilinadigan ikki asosiy jarayon - nafas olish va fotosintez bilan aloqadordir. Agar o‘simlik yetarlicha uglevodlar bilan ta’minlangan bo‘lsa, nafas olish jarayonining di- va trikarbon kislotlar siklida xosil bo‘ladigan NADN<sub>2</sub> yoki NADF N<sub>2</sub> energiyasi xisobiga nitratlarning qaytarilishi ildizning o‘zidayoq amalgalashadi.


1. Nitratlar nitratreduktaza fermenti orqali nitritlarga qaytariladi. Proton va elektronlarni donori sifatida NADF N<sub>2</sub> (yoki NAD N<sub>2</sub>) xisoblanadi. Vodorodni tashuvchi sifatida flavin fermenti va uni faollashtirish uchun esa Mo zarur bo‘ladi.




2. Ikkinchchi bosqichda nitritlar giponitritgacha qaytariladi. Bu reaksiya nitritreduktaza fermenti orqali katalizlanadi. Proton va elektronlarni donori sifatida qaytarilgan NAD N<sub>2</sub> (yoki NADF N<sub>2</sub>) ishtirot etadi. Vodorodni tashuvchi sifatida yana flavin fermenti va uni faollashtirish uchun esa G‘ye, Md, Si elementlari zarur bo‘ladi.



3. Uchinchi bosqichda ikki atom vodorodni qo‘shilishi oqibatida gidroksilamin NN<sub>2</sub>ON xosil bo‘ladi. Bu reaksiyani katalizlaydigan ferment giponitritreduktaza deb ataladi. Bu ferment flavoproteid bo‘lib, uni aktivlashtirish uchun Si, G‘ye, Mp elementlari zarur bo‘ladi.



4. Oxirigi bosqichda gidroksilaminreduktaza fermenti ishtirotida gidroksilamindan ammiak xosil bo‘ladi. Bu reaksiyada xam Md, Mputgan flavoproteidlar ishtirot etadi.




<sup>69</sup> (MShash, №>gshap, 2009).

Mo

Nitritreduktaza \*N<sub>2</sub>M<sub>2</sub>O<sub>2</sub> Si, G‘ye, Md

giponitritreduktaza



gidroksilaminreduktaza

Bu reaksiyalar natijasida hosil bo‘lgan ammiak o‘simliklarda to‘planmay, aminokislotalar hosil bo‘lishida ishtirot etadi.

Tuproq tarkibidagi kation ShN<sub>4</sub><sup>+</sup> boshqa manfiy zaryadlangan zarralarga tez adsorbsiyalanadi va shuning uchun ham harakatchanligi juda sust bo‘ladi. Ular kam yuviladi va natijada tuproqda

to‘planadi. Bu kationlarni o‘simliklar osonlik bilan o‘zlashtiradi. Chunki ular tezlik bilan organik moddalar tarkibiga o‘tishi mumkin.<sup>70</sup>

Umuman ammoniy tuzlari holatida o‘zlashtirilgan yoki nitratlarning qaytarilishi natijasida hosil bo‘lgan ammiak ketokislotalar bilan reaksiyaga kirishib, aminokislotalar hosil qiladi: qismlarida xam aminokislotalar sintezi amalga oshishi mumkin.

Oddiy sharoitda ammiakni azot saqlovchi organik birikmalarga aylanishining asosiy yo‘li aminokislotalar xosil bo‘lishi xisoblanadi.

Aminokislotalar biosintezining asosiy yo‘li uning ketokislotalar bilan birikmalar xosil qilishidir.

Ammiakning ketokislotalar bilan birikish reaksiyalari bevosita aminlanish deyilib, bu o‘simliklarda aminokislotalar xosil bo‘lishining asosiy yo‘li sanaladi.

Bevosita aminlanish. Bevosita aminlanishda aminokislotalar sintezi

## 2. Aminokislotalar sintezining yo‘llari (bevosita aminlanish va qayta aminlanish)

O‘simliklarning yer ostki qismlaridan tashqari, ularning yer ustki ikki fazada amalga oshadi:

1) Ammiak bevosita ketokislotalar bilan birikib iminokislotalarni xosil qiladi:

Ammiakni o‘simlikda juda ko‘p to‘planishi uning to‘qimalarini zaxarlanishiga olib kelishi mumkin. Shunga ko‘ra o‘simlik organizmi ammiakni zararsizlantirishga xarakat qiladi

Xujayra shirasi kislotali muxitga ega bo‘lgan ayrim o‘simliklarda zararli ammiak olma, otquloq va limon kislotalari orqali neytrallanadi.

Ammo ko‘pchilik o‘simlik to‘qimalarida ammiak aminokislotalar - glutamin kislota va asparagin kislotalar orqali zararsizlantiriladi. Bunda ularning amidlari - glutamin va asparaginlar xosil qilinadi.

Glutamin va asparaginlarning sintezi ATF energiyasi xisobiga amalga oshadi va reaksiyalarni tegishli fermentlar tizimi katalizlaydi.

Shunday qilib, tuprokdagi ammoniy tuzlaridan yoki nitratlarning qaytarilishi natijasida olingan ammiakning ishtirokida faqat uchta aminokislota: aspartat, alanin va glutamat hosil bo‘ladi. O‘simliklardagi qolgan aminokislotalar shu uchta aminokislotalardan qayta aminlanish natijasida hosil bo‘ladi. Qayta aminlanish reaksiyalari 1937 yilda A.ye. Braunshteyn va M.G. Kritsman tomonidan ochilgan edi. Ya’ni fermentlar ishtirokida aminogruppalarning bir molekuladan ikkinchi molekulaga o‘tkazilishi natijasida yangi aminokislotalar hosil bo‘ladi:

SOON	SOON	SOON	SOON
-	-	-	-
SN2 1	SO	SN2 1	SN2 1
-	-	-	-
SN2 1	+ SN -----	-► SN2 +	SNMN <sub>2</sub> 1
-	1	O	-
SNMN <sub>2</sub>	SOON	_ O -	SOON
-		-	
SOON glyutamat aminokislota	otquloq sirk kislota	SOON a-ketoglutarat kislota	aspartat aminokislota

Umuman, o'simliklarda qayta aminlanish tirik to'qimalarda aminokislotalar hosil bo'lishining bosh usulidir.

Qayta aminlanish. O'simliklarni faqat ammoniy tuzlari solingan eritmada o'stirilganda N.N4+ kationi ildizlardoq o'zlashtiriladi va amidlarga aylanadi. Hosil bo'lgan amidlar ildiz shirasi tarkibida o'simliklarning yer usti qismlariga tarqaladi. Ildiz tomonidan qabul qilingan ammoniy kationining tezlik bilan o'zlashtirilishi ildiz tizimining ham faol xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi. Umuman ildizlarda aminlanish va qayta aminlanish jarayonlari natijasida 25 dan ortiq azot birikmalarining hosil bo'lishi aniqlangan.

Qayta aminlanish reaksiyalarini aminokislotalar sintezida muxim rol o'ynaydi. Chunki o'simliklar to'qimalarda bevosita aminlanish yo'li bilan faqatgina ayrim aminokislotalar - glutamin va asparagin kislotalari xosil bo'lsa, qayta aminlanishda ana shu birlamchi aminokislotalardan boshqa yangi aminokislotalar xosil bo'ladi.

Qayta aminlanishda aminokislotalar bilan ketokislotalar orasida ammiak ajralmasdan aminogruppalar ko'chiriladi aminlanish reaksiyalarida markaziy o'rinda glutamin va asparagin kislotalari turadi.

Bugungi kunda olimlar tomonidan qayta aminlanishning 100 dan ortiq reaksiyalarini aniqlangan. O'simliklar organizmida qayta aminlanish yo'li bilan 30 yaqin aminokislotalar sintez bo'lishi mumkin.

Qayta aminlanish reaksiyalarini ikki komponentli ferment bo'lgan aminotransferaza orqali amalga oshadi. Aminotransferazaning kofaktori piridoksinning (vitamin V<sub>6</sub>) fosforili unumi - piridoksalfosfat xisoblanadi.



Moddalar almashinuvida qayta aminlanishning quyidagi reaksiyalarini muxim ahamitga ega:

1) glutamin kislota + otqulog-sirka kislota

a-ketoglutarat kislota + asparagin kislota

2) glutamin kislota + uzum kislota

a-ketoglutarat kislota + alanin



Tabiatda amaliy jixatdan 3 ta aminokislota - glutamat kislota, asparagin kislota va alaninlar birlamchi aminokislotalar, qolganlari esa ikkilamchi aminokislotalar deyiladi.

O'simliklar olamida barcha aminokislotalar sintezlansa, xayvonlar organizmida ayrimlari sintezlanmaydi. Shuning uchun ular ikki guruxga: almashinadigan va almashinmaydigan aminokislotalarga bo'linadi.

1. Almashinadigan aminokislotalar:
2. G litsin
3. Alanin
4. Serin
5. Aspartat kislota

6. Asparagin kislota
7. G lyutamat kislota
8. Sistein
9. Sistin
10. Prolin
11. Tirozin
12. G istidin
13. Arginin
14. Almashinmaydigan aminokislotalar:
15. Treonin
16. Metionin
17. Valin
18. Izoleytsin
19. Fenilalanin
20. Triptofan
21. Lizin
22. Leytsin

Demak, ammoniy kationi glikoliz va Krebs siklida hosil bo‘lgan organik kislotalar bilan ildizlardayoq reaksiyaga kirishadi va aminokislotalar yoki amidlar holida yer usti qismlariga tarqaladi. O’simliklar nitratlar bilan oziqlanganda esa qabul qilingan anion  $O_3^-$  barglarda o‘zlashtiriladi. Bu jarayonda akseptorlik vazifasini fotosintez va yorug‘likda nafas olishning birlamchi mahsulotlari bajaradi. Umuman yashil o’simliklarda azot ishtirokida hosil bo‘lgan oqsillarning miqdori 80-95%, nuklein kislotalar - 10%, aminokislotalar va amidlar 5% ni tashkil etadi. Oqsillarning ko‘pi fermentlardan iborat bo‘lib, o’simliklardagi metabolitik jarayon reaksiyalarining xarakterini belgilaydi. Oqsillar zapas holda ham to‘planadi. Bulardan tashqari azot fosfolipidlar, koenzimlar, xlorofillar, fitogormonlar va boshqa birikmalarning ham tarkibiga kiradi. Shuning uchun azot boshqa mineral elementlarga nisbatan bir necha baravar ko‘proq o‘zlashtiriladi. Agar tuproqda azot yetmasa o‘sish sekinlashadi, barglar maydalashib, sargaya boshlaydi, ildiz tizimi jarohatlanadi, gullar va yosh meva tugunlari to‘kila boshlaydi. Azot juda kam bo‘lsa, o’simliklar qurib qoladi.<sup>73</sup>

### **3. Aminokislarning dezaminlanish va dekarboksillanish reaksiyalari**

O’simliklarda aminlanish va qayta aminlanishi yo‘li bilan xosil bo‘lgan aminokislotalar xujayra va to‘qimalarda doimiy almashinib turadi. Ular asosan, oqsillar sintezi uchun sarflanadi. Ammo aminokislotalar yana dekarboksillanish yo‘li bilan boshqa azotli moddalarni, dezaminlanish yo‘li bilan esa to‘liq parchalanib energiya xosil qilishi mumkin.

Aminokislatalarning dezaminlanishi. Aminokislatalarning dezaminlanishi ularni ammiak va tegishli kislotalarga parchalanishi xisoblanadi. Dezaminlanish azotli moddalarni azotsiz moddalarga aylanishining asosiy yo‘li xisoblanib, xosil bo‘lgan moddalar xujayra metabolizmida keyinchalik ishtirok etishi mumkin.<sup>74</sup>

- Aminokislatalarning dezaminlanishi 3 asosiy yo‘l bilan amalga oshiriladi.
- Qaytarilgan dezaminlanish - tegishli kislota va ammiakni xosil bo‘lishi:
- Aminokislatalarni dekarboksillanishi. Aminokislotalar dekarboksillanganda  $SO_2$  ajralib chiqadi va aminlar xosil bo‘ladi. Bunday reaksiyalarni dekarboksillaza fermenti katalizlaydi.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. O'simliklarning azot o'zlashtirishi qanday amalga oshiriladi?
2. O'simliklarning azot o'zlashtirishining ahamiyati?
3. Ammiakli azotni xosil bo'lish yo'li?
4. Aminokislolar sintezining yo'llari?
5. Aminokislarning dezaminlanish va dekarboksillanish reaksiyalari?
6. Azotofiksator haqida aytib bering?
7. Simbioz nima?
8. Ammonifikatsiyani tushuntirib bering?
9. Nitrifikatsiya jarayonini tushuntirib bering?
10. Piridoksin nima?

### **18-mavzu: Oqsillar biosintezi va parchalanishi**

#### **Reja:**

1. Oqsil biosintezining ahamiyati
2. Oqsil biosintezi jarayonini asosiy bosqichlari.
3. Genetik kod va uning ahamiyati
4. Oqsil sintezi bosqichlari.
5. Oqsillar parchalanishi.

#### **1. Oqsil biosintezining ahamiyati**

Oqsillar sintezi o'simliklar xayotida muxim ahamiyatga ega va xujayradagi moddalar almashinuviga birinchi navbatda oqsillar sintezi bilan belgilanadi. Xujayralarda oqsillar sintezi va parchalanishi

jadalliklarini susayishi undagi boshqa biokimyoviy jarayonlarning xam pasayishiga sabab bo'ladi.

Oqsil sintezi tirik organizm xujayralarida kechadigan ikkita asosiy jarayonlar - matritsa prinsipi va komplementar prinsiplar bilan izohlanadi:

Oqsil sintezining matritsa prinsipi shundan iboratki xujayradagi oqsil sintezi undagi oddiy molekulalar o'rtasida emas, balki xarakatdagi aloxida tashkiliy molekulalar orasida sodir bo'ladi. Matritsa prinsipida monomerlarning ketma-ketligi to'g'risida oldindan berilgan informatsiya xisobiga biopolimerlar xosil bo'ladi. Komplementar prinsipiiga asosan oqsil sintezidagi kerakli monomer yoki polimer matritsaning zaruriy qismlariga yetkaziladi.

Oqsil sintezi biosintez jarayonlari orasida eng murakkabi bo'lsa kerak, uning ayrim bosqichlarida polipeptid zanjir initsiatsiyasi (boshlanishi), uzayishi, tamomlanishi va Oqsillarning etishishida yo'zga yaqin fermentlar, maxsus oqsil faktorlar, umuman 200 ga yaqin makromolekulalar ishtiroq etadi. Bu makromolekulalarning ko'plari ribosomalarning uch o'lchovli murakkab strukturasining tashkiliy qismlaridir.

Oqsil biosintezi apparati shu qadar murakkab bo'lishiga qaramay jarayon juda katta tezlikda o'tadi. Masalan, 100 aminokislordan iborat oqsil zanjirining yaratilishi uchun hujayra ribosomalariga 5 sekundgina kifoya.

Oqsil biosintezi jarayonini 3 asosiy bosqichga bo'lish mumkin:

1-bosqichda transkripsiya, matriks DNK da i-RNK sintezlanishi va uning ribosomaga o'tishi amalga oshadi. Bu yo'l bilan sintezlanadigan oqsilning tuzilishi to'g'risidagi informatsiya yadrodan ribosomalarga, ya'ni oqsil sintez bo'ladigan joyga uzatiladi.

2-bosqichda oqsil sintezlanishi uchun zarur aminokislotalarning maxsus t-RNK bilan birikishi va ularning shunday ko‘rinishda ribosomaga o‘tishi sodir bo‘ladi.

3-bosqichda translyatsiya (tarjima), i-RNK nukleotidlari izchilligining oqsil sintezi jarayonida polipeptid zanjiridagi aminokislotalar izchilligiga o‘tkazilishidan iborat. 1955 yilda M. Xoglend 1-bo‘lib, aminokislotalar ATF yordamida aktivlashishini ochgan. Bu reaksiyada aminokislota bilan ATF ning o‘zaro ta’sirida aminoatsiladenilat hosil bo‘ladi va pirofosfat ajraladi.

Aminokislotalarning aktivlanishi va ribosomaga tashilishida ishtirok etuvchi makromolekulalar bo‘lib, ularning turi 100 ga yetadi. Bu gruppaga aminoatsil-t-RNK sintetaza va transport RNK lar kiradi. Bu aminokislotalarni aktivlashtiruvchi fermentlar (aminoatsil-t-RNK sintetazalar), Bu fermentning normal faoliyat uchun reaksiyon muhitda Md ionlari bo‘lishi shart. Oqsil biosintezida aminokislotalarning aktivlashuvi va transport-RNK ga o‘tkazilishi.

t-RNK aktivlashgan aminokilotani ferment yuzasidan ajratishi va tronsportlik vazifasidan tashqari, t-RNK oqsil biosintezining eng muhim qismi-shakllanadigan oqsil molekulasida aminokislotalarning ma'lum bir aniq ketma-ketlikda joylashishini ham ta'minlaydi. Oqsillar biosintezi organizmlarda nuklein kislotalar ishtirokida boruvchi murakkab jarayondir. T. Kasperson va boshqa tadqiqotchilar misollarda oqsillarning hujayra va to‘qimalardagi sintezi ulardagi RNK miqdoriga bog‘likligini ko‘rsatishgan.

Tirik hujayrada oqsil sintezining mexanizmi qanday va bu jarayonda nuklein kislotalarning roli nimadan iborat? Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, oqsil sintezi hujayra strukturasi tarkibidagi ribosomalarda boradi. Ribosomalar taxminan bir xil nisbatdagi oqsil va yuqori molekulyar ribosoma RNKsidan tashkil topgan bo‘lib, diametri 25-30 nm zarrachalardir. O‘simliklarda ribosomalarning muhim komponentlaridan biri magniy bo‘lib, uning miqdori quruq modda massasining 2-2,5% ni tashkil qiladi. Magniy ribosomaning aktiv strukturasini ta'minlovchi omillardan biridir.

Ribosomalar hujayra sitoplazmasi, mitoxondriysi va xloroplastlarida juda ko‘p uchrashi aniqlangan. O‘simlik barglari xloroplastlarining ribosomalari umumiylarga ribosomalarning 50% ni tashkil qiladi. Shuni takidlash kerakki, ribosomalardagi oqsil sintezi nafas olish va bijg‘ish jarayonida ajralib chiqadigan energiya hisobiga boradi.

Tirik organizmlarda esa oqsillarning fermentli sintezi aminokislotalarning aktivlashish jarayonidan boshlanadi. Bunda ma'lum fermentlar ta'sirida va energiya manbai sifatida adenozintrifosfat (ATF) ishtirokida aminokislotalarning karboksil gruppalarini aktivlashadi. Natijada, erkin holatda pirofosfat ajraladi va adenozinmonofosfat hamda aktivlashgan aminokislota birikmasi (aminoatsiladenilat) fermentli birikmasini hosil bo‘ladi.

Har bir aminokislota faqat uni aktivlashtiruvchi ferment ta’sir etadi. Aminokislotalarning keyingi o‘zgarishi transport ribonuklein kislota (t-RNK) ishtirokida borib, har bir aminokislota ma'lum t-RNK

ta’sir etadi. Bunda aktivlashgan aminokislota shu t-RNK bilan birikadi. Jarayon ikki bosqichda boradi:

1. Ferment, adenozinmonofosfat va aminokislota birikmasining hosil bo‘lishi:

Aminokislota + ATF + Ferment-aminoatsil-AMF-ferment + RR

2. Aktivlashgan aminokislotalarning una mos bo‘lgan t-RNKga birikishi:

Aminoatsil-AMF-ferment + t-RNK- aminoatsil-t-RNK + ferment +

AMF

G‘fshge 21.1 Vu

ashyupoasu1-1KA 5up1Ne(a5e, 15 1oas1es1 II I5 soggeropLp atp1po asM. s!lipp£ iMsN ATR15 sop5ishe(1.1p 1N15 geasIop. ash1poasu1-AMR 15 Gogsheyo a5 ap 1plegte<51a1e. Aminoatsil t-RNK sintetazasi (Napz-aIeg. R1ap1 Vyuseshgu. 2005.531 r).

Hosil bo‘lgan t-RNK va aktivlashgan aminokislota birikmasi ribosoma bilan bog‘lanadi va u yerda oqsil sintezi jarayoni boradi.

Shu vaqtgacha to‘plangan ko‘plab tajribalar asosida RNK va DNK ni oqsil sintezidagi ishtiroki quyidagicha ta'riflanadi:

Hujayra yadrosidagi DNK ning molekulyar strukturasi uning ribosomalardagi sintezlanadigan oqsil strukturasini belgilaydi. DNK molekulyar strukturasida oqsil molekulasiidagi aminokislotalar tarkibi va ketma-ketligini kodlangan. Bu kod oqsil sintezlanadigan hujayra ribosomasiga qanday uzatiladi? DNK strukturasidagi kodlangan informatsiya RNK ning boshqa bir turi - informatsion RNK (i-RNK) yordamida ribosomalarga uzatiladi.

Yadroda DNK dan RNK sintezi.

(1ps01p Ta1g., yeiyagyo Xe1deg. R1ap! ru81o1odu. S~8A, SshuegeIu Sa1I'gp1a, o8 Apde1e8. 2002 11 r)

Transkripsiya jarayonida DNK dan m-RNK ga nusxa ko‘chirilishi sxemasi.

Shuni ta’kidlash kerakki, kodonlardagi avvalgi ikkita nukleotid yoki "Harf" muhim bo‘lib uchinchisining ahamiyati kam. Kodonlarda o‘xhash xususiyatlarga ega bo‘lgan aminokislotalar birga gruppalanadi; masalan, ikkinchi o‘rinda U (uratsil) tutgan tripletlar gidrofob aminokislotalarni kodlaydi. Shuni aloxida takidlash kerakki, genetik kod universaldir.

Ya’ni, bakteriya, o‘simlik va hayvon organizmlari uchun bir-xildir. Qanday qilib aktivlangan aminokislota olib kelayotgan t-RNK i-RNKdagi shu aminokislotaning polipeptid zanjirdagi o‘rnini aniqlaydi?

T-RNK molekulasidagi triplet i-RNKdagi tripletga komplementarlik asosida yaqinlashadi va vodorod bog‘i bilan bog‘lanadi. Bu triplet antikodon deyiladi. Oqsil sinteza yuqorida keltirilganlardan tashqari bir qator qo‘sishimcha faktorlar kerak. Bular polipeptid zanjiri sintezini boshlanishi (initsiatsiya) faktorlari va polipeptid zanjiri sintezining terminator tripletlar tomonidan tugatilishi (terminatsiya) faktorlaridir.

Informatsion RNK molekulasi bir vaqtida bir nechta ribosomalar bilan bog‘lanishi mumkin, ular poliribosomalar yoki polisomalar deyiladi.

i-RNK bilan bog‘lanishi mumkin bo‘lgan ribosomalarning soni sintezlanishi kerak bo‘lgan oqsil zanjirining uzunligiga bog‘liq bo‘lib 4 dan 100 gacha bo‘lishi mumkin. Oqsil sintezlanadigan joy - ribosomalar faqat sitoplazmada emas, balki mitoxondriya va xloroplastlarda ham bo‘ladi. Ribosomalarda i-RNK ishtirokida oqsilning sintez jarayoni translyasiya deyiladi.

Shunday qilib oqsil sintezining qisqacha sxemasi va bu jarayonda nuklein kislotalarning ishtiroki quyidagicha: DNK molekulasining spirallari ayrim qismlarida bir-biridan uzoklashib i-RNK sintezlanadi.

i-RNK hujayra yadrosi tashkarisidagi ribosomalar yuzasiga chiqib joylashadi, u yerda oqsil sintezi sodir bo‘ladi, ya’ni shu yerga t-RNK olib kelgan aminokislotalar polipeptid zanjirini hosil qiladi. Aminokislotalarning polipeptid zanjiridagi o‘rni kodon bilan, ya’ni i- RNK molekulasidagi azotli asoslar bilan bog‘lanadi.

## 1. Genetik kod va uning ahamiyati

Gen - DNK molekulasining uchastkasi xisoblanib, unda polipeptid zanjiri to‘g‘risidagi informatsiya saqlanadi.

Sintezlanadigan oqsil molekulasidagi aminokislolar joylanishi tartibi to‘g‘risidagi informatsiyani 4 xil mononukleotidlardan yordamida ifodalanishi genetik koddeyiladi.

Genetik kodda 20 xil aminokislota 4 xil mononukleotid yordamida  $4^3 = 64$  ta kombinatsiyani yoki 64 ta tripletni xosil qiladi.

Genetik kodda 64 ta tripletdan 61 tasi 20 xil aminokislari kodlaydi, qolgan 3 tasi (UAA, UAG, UG A) ma’nosiz triplet bo‘lib, birorta xam aminokislari ifodalamaydi.

G yetenik kodning xususiyatlari:

Tripletlik: xar bir aminokislota nukleotidlari tripleti bilan kodlanadi. Uchta ketma-ket nukleotidlari - bitta aminokislota «ismi» xisoblanadi.

Bir ma’nolik: bitta triplet ikkita turli xil aminokislari kodlay olmaydi.

Turli xillik :xar bir aminokislota bitta triplet bilan aniqlanadi.

Universallik:xayvon, o’simlik, zamburg‘, bakteriya va viruslarda tripletlar va ular kodlaydigan aminokislolar bir xildir. Bundan bilishimiz mumkinki, yer yuzidagi barcha tirik organizmlar uchun genetik kod yagonadir.

Takrorlanmaslik: 64 ta tripletlardan 61 tasi aminokislolarini kodlaydigan, qolgan 3 tasi (UAA, UGA, UAG) esa ma’nosiz yoki aminokislolarini kodlamaydigan tripletdir. Ular terminator tripletlar xam deyilib, polipeptid zanjirda oqsil biosintezi tugaganligi to‘g‘risida axborot beradi. Bundan tashqari initsiator (metioninli) kodon bo‘lib, undan xar qanday polipeptid zanjirning sintezi boshlanadi.

## **2. Oqsil sintezi bosqichlari**

Oqsillar sintezlaydigan nukleoproteid parchalar kashf etildi va ular ribosomalar deb ataldi; aminokislolarini ATF yordamida faollanish va faollangan aminokislolar tegishli transsport RNK ga ko‘chirilishi aniqlandi. Bu ikki jarayon o‘zluksiz bog‘langan bo‘lib bir enzim ye, spetsifik aminoatsil RNK sintetaza ta’sirida kechadi.

Oqsillar biosintezi mexanizmini hujayrasiz sistemalardan foydalanib o‘rganish natijada u bir necha bosqichlardan iborat ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari oqsillar biosintezida quydagи tarkibiy qismlar zarurligi ham aniqlangan.

1. aminokislolar
2. t-RNK lar
3. aminoatsil t-RNK-sintetazalar
4. matritsa RNK
5. ribosomalar
6. initsiatsiya, elongatsiya, terminatsiya omillari
7. ATF, GTF
8. Md ionlari.

Aminokislating faollanishi - barcha (20) aminoqislota, 20 yoki ortiqroq RNK, aminoatsil RNK sintetazalar (ye), ATF va Md mujassam bo‘lishi zarur.

Oqsil biosintezining asosiy bosqichlari:

Dastlab aminokislolar maxsus fermentlar ishtirokida ATF bilan reaksiyaga kirishib aktivlshadi.

So‘ngra aktivlashgan aminokislolar t-RNKLAR yordamida oqsil singgan joyga ko‘chiriladi. Navbatdagi bosqichda t-RNKLAR muntazam ravishda i-RNK dagi tartib bo‘yicha joylashadi. Nihoyat oqsil molekulasi o‘ziga xos bo‘lgan uchinchi strateraga ega bo‘ladi.

Oqsillar biosintezidagi translyasiya jarayoni reaksiya va translyasiya jarayonlaridan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1. matritsa va reaksiya mahsulotida monomerlar soni o'rtasida muvofiqlik bo'lmaydi (m-RNKd 4 ta xar xil monometr, oqsilda 20 ta xar xil monomer).

2. Ribonukleotidlар (matritsa monomerlari) bilan aminokislotalar (mahsulot monomerlari)ning straterasi shundayki, bular o'rtasida A-T, G-S juftlari hosil bo'lishiga o'xshash tanlab o'zaro ta'sir qilish xodisasi yo'q, ya'ni m-RNK va oqsil zanjiri o'rtasida komplementarlik yo'q.

Demak, oqsillar biosintezida matritsadan foydalanish mexanizmi DНK yoki RNK sintezi misolidagidan ko'ra boshqacha bo'ladi.

Oqsil biosintezida t-RNKnинг akseptarlik va adaptorlik funksiyalari alohida ahamiyatga ega t-DНK ning aksentorlik funksiyasi deganda ATP ning energiyaga boy pirofosfat bog'lamlari hisobiga aktivlashgan aminokislotalarni o'ziga biriktirib olishdir.

Bu protsessda aminokislotalar karboksidan guruppassi ATF bilan reaksiyaga kirishib, aminoatsiladenilat birikma xosil qiladi. Hujayradagi har bir aminokislota o'zining aktivlashiruvchi fermentiga ega va ular umumiy nom bilan aminoatsil-RNK-sintezalar deyiladi.

1958 yilda Frencis Krik nazariy mulohazalarga asoslanib, o'zining «Adaptorlik gipotezasini» yaratdi. Uning fikriga polinukleotid zanjiri bilan polipeptid zanjir o'rtasida oddiy sterik muvofiqlik mavjud emas. Shuning uchun nukleotidlarning ketma-ket joylashishi bevosita aminokislotalarning ketma-ketligini ifodalaydi. Aminokislotalarning polipeptid zanjiri ma'lum tartibda joylashishi adaptorlar ishtirokida amalga oshadi. Adaptorlik funksiyasini t-RNK bajaradi. Shunday qilib t-RNK lar faqat aminokislotalarni o'ziga biriktirib olib, oqsil sintezlangan joyga ko'chirmay, balki ularning polipeptid zanjirda tutgan o'rnini ham belgilab berish funksiyasini bajaradi.

Ribosomalarda 2 ta muhim oqim, ya'ni genetik axborot aktivlashgan aminoatsil t-RNK lar oqimi bilan uchrashadi. Oqsil biosintezining oxirgi bosqichi translyasiya deb ataladi.

Ribosomalarda oqsil molekulasingin xosil bo'lish protsessi 3- bosqichdan iborat:

1. Initsiatsiya-peptid zanjirlarning boshlanishi. Bunda oqsil sintezini boshlab beruvchi kopmleks xosil bo'lib, yadrodan sitoplasmaga o'tgan m-RNK ribosomaning kichik (30 S) subbirligi va initsiyalovchi t-RNK bilan birikadi. So'ngra bu kompleksga ribosomalarning katta (50 S) subbirligi birikadi.

2. Elongatsiya-peptid zanjirlarning o'sishi. Bu protsessda ribosomalarning 50S bo'lakchaga alohida ahamiyatga ega. Bu bo'lakchalarda yoki subbiriklarda peptid bogini xosil qilishda ishtirok etadigan peptid-sintezi fermenti mavjud. Bundan tashqari bu subbirikda t-RNK o'zaro boglovchi 2 ta markaz mavjud. Elongatsiya protsessi ribosomalarning aminoatsiya markaziga tegishli aminokislotalarga ega bo'lgan t-RNKnинг birikishi bilan boshlanadi. Bu protsessning oxirida ribosomaning m-RNK bilan dipeptizel t-RNK ga nisbatan surilishini translokatsiya kuzatiladi, bu translokatsiya mahalida energiya talab qiladi, manbai sifatida 2 molekula GTF xizmat qiladi.

3. Terminatsiya-oqsil zanjirining sintezi tugashi. Bunda aminatsiya markazda polipeptid zanjirining tugallanishini ifodalovchi UAG, UAA, UGA kodonlari paydo bo'ladi. Bu kodonlar ma'nosiz bo'lib biror aminokislotani ifodalamaydi. Shuning uchun polipeptid zanjirdagi oxirgi t-RNK ning efir boglamlari qandaydir fermentlar ishtirokida uzilib ribosomadan tayyor xoldagi oqsil molekulasi ajralib chiqadi.

### 3. Oqsillarning parchalanishi

O'simliklar o'sishi va rivojlanishida ular tarkibidagi oqsil mliddalar doim parchalanib turadi. Oqsillarning parchalanishi ayniqsa unayotgan urug' va donda, qariyotgan o'simlik organlarida

jadal ravishda amalga oshadi. Oqsillar parchalanishi natijasida hosil bo‘ladigan aminokislotalar va boshqa mahsulotlar o‘simliklar uchun zarur bo‘lgan yangi oqsillarning yoki turli xil azotli birikmalarning sintezlanishida ishtirok etadi. Oqsillarning yangilanib turishi o‘simliklarning fiziologik holatiga bog‘liq. Masalan, yosh o‘simliklarda oqsil tarkibidagi azot 72 soat ichida to‘ltq yangilanishi, ya’ni avval parchalani, so‘ngra yangidan sintezlanishi aniqlangan. Qariyotgan to‘qimalarda 24 soat ichida faqat 1-3 % oqsil yangilanadi,xolos.

Oqsillar bir necha yo‘llar bilan parchalanishi aniqlangan. Oqsillar spetsifik fermentlar ishtirokida polipeptidlarni hosil qilish, proteolitik fermentlar ishtirokida aminokislotalar hosil qilish hamda oksidlanish yo‘li bilan parchalanadi. Bulardan eng muhimi oqsillarning proteolitik fermaentlar ishtirokida gidrolizga uchrab parchalanishidir. Proteolitik fermentlar o‘simliklarning barcha hujayra va to‘qimalarida uchraydi. Ular ta’sirida oqsillar aminokislotalargacha qisman yoki to‘liq parchalanadi. A.B.Blagovishchinskiyning ko‘rsatishicha o‘simlik oqsillari avval proteinaza fermentlari ishtirokida qisman parchalanib, trixloraatsetat kislota eritmasida cho‘kmaydigan polipeptidlар hosil qiladi. So‘ngra bu polipeptidlар peptidaza fermentlari ishtirokida aminokislotalargacha parchalanadi. O‘simliklarda oqsillarning girolitik yo‘l bilan parchalanishini sxema ravishda quyidagicha ifodalash mumkin. Oqsillar-proteinazalar-polepeptidlар-peptidazalar-aminokislotalar

Oqsillarning gidrolitik parchalanishida ishtirok etadigan fermentlar ta’sir etish xarakteriga ko‘ra bir qator gruppaga bo‘linadi. Bulardan biri ekzopeptidazalar bo‘lib, ular aminopeptidazalar, karboksipeptidazalar va dipeptidazalarni o‘z ichiga oladi. Karboksipeptidaza fermenti yuqori spetsifik ta’sir qilish xususiyatiga ega bo‘lib, oqsil malekulasini tashkil qiluvchi polipeptid zanjirini erkin karboksil gruppasi bo‘lgan ieitid bog‘ni gidrolizlaydi:

Oqsillar gidrolitik parchalanishi uchun yuqoridagi fermentlar birgalikda ta’sir etishi kerak.

O‘simliklardan oqsillarni gidrolitik yo‘l bilan parchalovchi boshqa bir qator fermentlar ham ajratib olingan. Bu fermentlar endopeptidazalar gruppasini tashkil etadi. Endopeptidazalarga xos bo‘lgan muhim xususiyatlardan biri erkin SN gruppalar ishtirokida eng yuqori aktivlikka ega bo‘lishidir. O‘simliklardan ajratib olingan proteolitik ferment papaindir. U juda keng substrakga spetsifik ta’sir ko‘rsatish xususiyatiga ega, ya’ni xilma-xil peptid va oqsillarni gidrolizlaydi. Papain malekulasi bitta polepeptid zanjirdan iborat bo‘lib tarkibida uch ta disulfid ko‘prikcha va bitta sulfgidril gruppaga tutadi. Fermentlarning aktivligi shu sulfigidril gruppaga bog‘lik.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Oqsil biosintezingi ahamiyati?
2. Oqsil biosintezi jarayonini asosiy bosqichlari?
3. Genetik kod va uning ahamiyati?
4. Oqsil sintezi bosqichlari?
5. Oqsillar parchalanishi?
6. Matritsa nima?
7. Informatsion RNKning ahamiyati nimadan iborat?
8. Peptidaza nima?
9. Terminatsiya nima?

### **GLOSSARIY**

ATAMANING	ATAMANING	ATAMANING RUS	
-----------	-----------	---------------	--

O'ZBeK TILIDA NOMLANISHI	INGLIZ TILIDA NOMLANISHI	TILIDA NOMLANISHI	ATAMANING MA'NOSI
Abssiz kislota	A'kakshd	Abssizovaya kislota	O'simliklarning o'sishini sekinlashtiruvchi modda
Avtoliz-	Ai1o1u2	Avtoliz	O'z-o'zidan parchalanish, tirik organizmdagi organik moddalarning fermentlar yordamida parchalanishi
Amilaza	AshLaga	Amilaza	Kraxmalni maltoza disaxaridgacha parchalaydi
Avtotrof organizmlar	Ai1o1goG'	Autotrshfnme organizmm	Anorganik moddalardan hayot faoliyati uchun zarur organik moddalar hosil qiladilar.
Adaptatsiya	AyarShyup	Adaptatsiya	Moslashish
Adenin	Ayetp	Adenin	Purin asoslardan biri, DNK, RNK da uchraydi
Adenin trifosfat kislota (ATF)	Ayepgt She as1y	Adeinozintrifosfat kislota	Adenin, riboza va fosfat kislota qoldig'idan tashkil topgan birikma.
Akklimatizatsiya	AssItaIgayop	Akklimatizatsiya	Iqlimga moslashish
Akseptor	Asker1og	Akseptor	Qabul qiluvchi birikma
Alkaloidlar	A1ka1o1Y8	Alkaloidm	Tarkibida azot tutuvchi, ishqoriy xususiyatga ega birikmalar.
Algидлар	A1d1y	Algids	Organik kislotalar hosilasi
Zaruriy aminokislotalar	Mey attok181o1e8	Nezamenimme aminokislotm	Inson va hayvon organizmida sintez qilinmaydigan oziq-ovqat bilan olinadigan aminokislotalar
Ammonifikatsiya	AttopShsaIop	Ammonifikatsiya	Azotli moddalarni mikroorganizmlar yordamida ammiakgacha parchalanishi
Anabolizm	Apao118t	Anabolizm	Assimiliyasiya oddiy moddalardan murakkab modda azotli moddalarni mikroorganizmlar yordamida ammiakgacha parchalanishi lar sintezi.
Anafaza	ApaG'aga	Anafaza	Hujayra bo'linishining 3-fazasi
Apoferment	Aro {yegtep1	Apoferment	Fermentning oqsil qismi
Biosintez	Ba81pe18	Biosintez	Fermentlar yordamida oddiy moddalardan organik birikmalar hosil bo'lishi.

Biotexnologiya	B1o1espo1o§u	Biotexnologiya	Biologik jarayonlar va omillardan sanoat miqyosida foydalanish
Vakuola	Uasio1 Uasio1e	Vakuola	Ular sitoplazmalardagi xujayra modda almashinuvining mahsuli bo‘lib, membrana bilan chegaralangan kovak bo‘shliq
Vegetatsiya davri	Repop yedeyyop	Vegetatsionmy period	O’simlik uruhini unib chiqishidan meva urug‘ hosil qilguncha davri.
Vektor	Ues1og	Vektor	Qabul qiluvchi genomi yoki plazmidaga ko‘chirilgan, DNK ning ma'lum uzunlikdagi kemasi.
Vitaminlar	UIat1p8	Vitaminm	“Vita”-hayot aminlari o‘z tarkibida inson va hayvon organik uchun zarur organik birikmalardan iborat.
Galofitlar	Meoru1e8	Galofitm	O‘ta sho‘r tuproqlarda o‘sadigan o‘simliklar
ATAMANING UZBeK TILIDA NOMLANISHI	ATAMANING INGLIZ TILIDA NOMLANISHI	ATAMANING RUS TILIDA NOMLANISHI	ATAMANING MA'NOSI
Geleofitlar	Ia1oru1e8	G yeliofitm	Quyosh sevar o‘simliklar
Gelitsellyuloza	Set18e11i1o2a	Gelitsellyuloza	Yuksak o‘simliklar qobig‘ida uchraydigan sellyuloza bilan birgalikda yuqori molekulali birikmadan iborat.
Gen	Sep	Gen	Irsiy omil
Genetik kod	OepeIs koy	Geneticheskiy kod	Irsiy informatsiyani ma'lum belgilarda ifodalash sistemasi.
Gidrofitlar	SaY01Y8	Gidrofitm	Tanasi suvda botib o‘sadigan o‘simliklar
Gibberelinlar	O1egeShp8	Gibberelinm	Usimliklarning o‘sishini tezlashtiruvchi gormonlar.
Gigrofitlar	O1dgoG‘118	Gigrofitm	Namsevar o‘simliklar
Glikozidlar	O1uso81Ye8	Glikozidm	Qand qoldiqlaridagi va boshqa organik birikmalardan tashkil topgan moddalar
Glikolipidlar	O11ko11r1Y8	Glikolipidm	Yog‘ va uglevodlardan tashkil topgan moddalar

Globulinlar	O1oi11p8	Globulinm	Tuzda eriydigan oqsillar
Glutelinlar	S1i!yeG8	Glutelinm	Ishqorda eriydigan oqsillar
Glyukoza	O1iso8e	Glyukoza	uzum shakari geksozalarga mansub monosaxarid
Desikantlar	Be81ssap18	Desikantm	Usimlik to‘qimalarini suvsizlantirib quritish xususiyatiga ega moddalar.
Disaxaridlar	V181peG118	Disaxaridm	2 ta monosaxariddan tashkil topgan uglevodlar
Dissimilyasiya	V1881t11aIop	Dissimilyasiya	Parchalanish jarayoni
Zigota	2udo!ye	Zigota	Otalik va onalik jinsiy xujayralari
Izotonik eritma	18o!op1s 8o1iIop	Izotonicheskiy rastvor	Hujayra shirasining konsentratsiyasi bilan teng bo‘lgan eritma.
Karioplazma	Kaguor1a8t8	Karioplazma	Yadro shirasi
Katabolizm	Sa!ao118sh	Katabolizm	Iqlim almashinushi
Kofermentlar koenzimlar	-SopG‘yegteSh’8 soeptute8	Kofermentm koenzimm	Fermentlar faol markazi tarkibiga kiruvchi oqsil bo‘lmagan birikmalar
Kraxmal	8gis	Kraxmal	Usimlikning zapas uglevodi (polisaxarid)
Ksantofillar	K8ap1oy11e8	Ksantofillm	Karatinoidlar guruhchasiga mansub, sariq pigmentlar.
Kserofitlar	8egor1Y8	Kserofitm	Qurg‘oqsevar o‘simliklar
Lamella	ate11a	Lamella	Xloroplastlarning stuktura tuzilmalarining asosi
Leykoplastlar	eukor1a8!8	Leykoplastm	Xujayradagi rangsiz plastidalar
Makroelementlar	Makgoe1etep!8	Makroelementm	Usimliklarning oziqlanishi uchun kerak bo‘ladigan kimyoviy elementlar. Masalan: azot, fosfor, kaliy va boshqalar
Mezokarp	Mtoposagr	Mezokarp	Mevaning o‘rtaligi qismi
Membrana	Metgape	Membrana	Oqsil va lipiddan tashkil topgan parda
Mezofitlar	MegorI	Mezofitm	Namligi o‘ratacha tuproqlarda o‘sadigan o‘simliklar.
Mikroelementlar	M1sgoe1etey8	Mikroelementm	Usimliklar uchun juda oz
ATAMANING UZBeK TILIDA NOMLANISHI	ATAMANING INGLIZTILIDA NOMLANISHI	ATAMANING RUS TILIDA NOMLANISHI	ATAMANING MA’NOSI

			miqdordagisi kifoya elementlar. Bularga Si,G‘ye,Mp,M§ va boshqalar kiradi.
Monosaxaridlar	Mopo8assapye	Monosaxaridm	Bitta qand molekulasidan
Oligosaxaridlar	OIdo8assapye8	Oligosaxaridm	Molekulasida 2 tadan 10 tagcha monosaxarid tutgan uglevodlar.
Osmos	So8to8	Osmos	Ikki eritma orasiga qo‘yilgan yarim o‘tkazgich membrana orqali erigan moddalarning o‘tish hodisasi.
Partenokarpiya	Rayeposagr8	Partenokarpiya	Urug‘siz meva.
Plazmoliz	R1a2to112	Plazmoliz	Xujayra tarangligining yo‘qolishi
Peptidlar	RerShe	Peptidm	2 va undan ortiq aminokislotalarining peptid bog‘lar birikishi natijasida hosil bo‘ladigan birikma
Fotoperiodizm	Ro1orepoY18t	Fotoperiodizm	Kun uzunligi tasiri, o‘simliklarning kunni yoki fotodavrni,yorug‘lik bilan qarong‘ulik o‘rtasidagi nisbatga bo‘lgan talabi
Peroksidazalar	Regok81Ya28	Peroksidazm	Vodorod peroksidni parchalovchi fermentlar
Polikarp o‘simliklar	Ro1usagr r1o18	Polikarpnovme rasteniya	Ko‘p marta meva beradigan o‘simliklar
Polimerazalar	Ro1utegaga	Polimerazm	Kichik molekulali birikmalardan polimer birikmalar hosil bo‘lish reaksiyalarini katalizlovchi fermentlar, masalan, RNK-polimeraza.
Polisaxaridlar	Ro1u8idag8	Polisaxaridm	Ikki va undan ortiq monosaxaridlar qoldig‘idan tashkil topgan uglevodlar.
Prolaminlar	Rgos1a1t8	Prolaminm	Donli o‘simliklar urug‘idagi oqsillar
Proteolitik fermentlar	Rgo1ea8e	Proteoliticheskie fermentm	Oqsil va peptidlarni gidrolitik parchalanishini katalizlovchi fermentlar.
Purin asoslari	Rig1p	Purinovme osnovaniya	Adenin va guanin

Ribonuklein kislotalar	Shopis1ep8asSh	Ribonukleinovaya kislota	Tarkibida uglevod komponentlaridan riboza, azot asoslaridan, adenin, guanin, Sitozin, uratsil tutuvchi nuklein kislota turi. Oqsil sintezida ishtirok etadi.
Retsipient	Kes1r1ep1	Retsipient	Oluvchi, qabul qiluvchi.
Sintetazalar	81p1e1aga	Sintetazm	Energiyani sarf bo‘lishi bilan boradigan reaksiyalarni katalizlovchi fermentlar.
Stimulyatorlar	8Iti1a1og8	Stimulyator	Usishni tezlashtiruvchi moddalar.
Sublimatsiya	8i11taIop	Sublimatsiya	Moddaning qattiq holatdan suyulmasdan turib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri gazsimon holatga o‘tishi.
Substrat	8i81ga1	Substrat	Mikroorganizm va o‘simgiliklar o‘sadigan ozuqali muhit, biokimyo fanida ferment ta’sir qiladigan modda.
ATAMANING O‘ZBeK TILIDA NOMLANISHI	ATAMANING INGLIZ TILIDA NOMLANISHI	ATAMANING RUS TILIDA NOMLANISHI	ATAMANING MA’NOSI
Sukkulentalar	8issi1ep18	Sukkulentm	Bargi va poyasi qalin, sersuv o‘simgiliklar.
Supernatant	8iregpa1ap1	Supernatant	Cho‘kma ustidagi suyuqlik
Suspenziya	8i8rep51op	Suspenziya	Muallaq zarrachalar
Sferosomalar	8rego8ote8	Sferosomm	Sitoplazmada erkin holda uchraydigan, lipid va oqsillardan tashkil topgan donachalar.
Terminator	Tegt1palog	Terminator	Tamomlash, terminatsiya, ma’lum Terminator kodonlar yordamida polipeptid zanjir sintezining tamomlanishi
Termofillar	TegtorSh1	Termofilm	Yuqori xaroratlari (+70°S) muhitda yashashga moslashgan organizmlar
Terpenlar	Teprtк	Terpenm	O‘simgilik efir moylarining tarkibiy qismi
Timin	Tett	Timin	DNK ning muhim azot asoslaridan biri
Tirozin	T1Sh2Sh	Tirozin	Oqsillar tarkibida uchraydigan xalqali

			aminokislota
Tokoferol	Tosorego1	Tokoferol	O'simliklarda sintezlanadigan ye vitamini, yog'da eriydigan vitaminlar qatoriga kiradi.
Toksinlar	Tos81p8	Toksim	Tabiiy zaharlar
Transduksiya	Tgap8sg1rIop	Transduksiya	Ko'chirish, joyni o'zgartirish
Transkripsiya	Tgap51aIop	Transkripsiya	Ko'chirib yozish. Irsiy axborotni DNK molekulasiidan axborot RNK molekulasiغا ko'chirish.
Translyasiya	Tgap8sg1rIop	Translyasiya	Irsiy axborotni i-RNK ning nukleotidli tuzilishidan oqsillarning aminokislotali tuzilishiga ko'chirib yozish jarayoni
Transferazalar	Tgapregaga	Transferazm	Bir birikmadan ikkinchisiga har xil kimyoviy gruppaga yoki radikallarni ko'chirish reaksiyasini katalizlovchi fermentlar sinfi
Treonin	Tgeop1p	Treonin	Deyarli barcha oqsillar tarkibiga kiruvchi zaruriy aminokislota
Turgor	Tigdog	Turgor	Tarang holat, xujayra protoplazmasining bosimi ortishi bilan uning ustini taranglashishi.
Uglevodlar	Sag'op§uygale8	Uglevod	Karbon suvlari.
Uratsil	Iga1811	Uratsil	Pirimidin azot asosi, RNK tarkibiga kiradi
Labchalar yoki og'izchalar	81ota1e8	Ustitsm	Og'izcha, labcha, o'simlik epidermislarining maxsus ixtisoslashgan xujayralari oralig'idagi teshikchalar. Tashqi muhit bilan gaz almashinushi va suv bug'latish uchun xizmat qiladilar.
Fazeolin	RageoIp	Fazeolin	No'xot urug'i tarkibidagi oqsil
Fenilalanin	Repu1a1ap1pe	Fenilalanin	Barcha oqsillar tarkibiga kiruvchi zaruriy aminokislota
Fermentlar	yeptute	Fermentm	Enzimlar, biologik

ATAMANING UZBeK TILIDA NOMLANISHI	ATAMANING INGLIZTILIDA NOMLANISHI	ATAMANING RUS TILIDA NOMLANISHI	ATAMANING MA'NOSI
			katalizatorlar tirik organizmlarda hosil bo‘ladigan oqsil tabiatli birikmalar bo‘lib, boradigan reaksiyalarni tezlashtiradilar
Fibrillyar oqsillar	G‘Shge1e88 rgo1esh8	Fibrillyarnme belki	Suvda erimaydigan, tolasimon oqsillar, ipak oqsili.
Filogenet	Ru1odete8	Filogenet	Ma'lum o'simlikning evolyusion tarixiy taraqqiyoti
Fitin	G'I t	Fitin	Inozit fosfat kislotaning kalsiy va magniyli tuzi. Zahira ozuqa modda sifatida chigitda ko‘p to‘planadi.
Fitogormonlar	Rloogtope8	Fitogormonm	Usimlik gormonlari, o'simlikning maxsus to‘qimalarida hosil bo‘ladigan fiziologik faol moddalar (gibberellin, auksinlar va boshqalar)
Fitol	G‘Io1	Fitol	Xlorofill tarkibiga kiruvchi yuqori molekulali alifatik spirt. Erkin holda uchramaydi.
Fitonsidlar	RIop81Ye8	Fitonsidm	Yuksak o'simliklarda sintezlanadigan bakteriya va viruslarni o‘ldiruvchi biologik faol moddalar.
Fitotron	Rlo1gop	Fitotron	Usimliklarning o'sishi uchun zarur bo‘lgan, barcha asosiy omillarni boshqarib turuvchi sun'iy iqlim yuksak o'simliklarda sintezlanadigan bakteriya va viruslarni o‘ldiruvchi biologik faol moddalar.
Fosforlanish	G‘o8&ge1a8e	Fosforilirovanie	Organik moddalar molekulasiga fosfat kislota qoldig‘ini kirishi.
Fotoliz	Ro1o112	Fotoliz	yorug‘likda parchalanish

Fotosintez	G'01o81p1e2	Fotosintez	Quyosh nuri ta'sirida o'simliklardagi xloroplastlar ishtirokida suv yordamida anorganik moddalardan organik moddalar sintezi.
Fototropizm	Ro1ogor18t	Fototropizm	Yorug'likka intilish
Xemosintez	Ieto8up1e2	Xemosintez	Mikroorganizmlarning oziqlanish turlaridan biri, bunda bakteriyalarning SO <sub>2</sub> gazidan organik moddalarni sintez qilishi, anorganik moddalarning oksidlanishi natijasida hosil bo'ladigan energiya hisobiga amalga oshadi.
Xlorofill	N1ogoy11e	Xlorofill	Usimlik xloroplastlarida mujassamlangan yashil pigment
Xinin	I1p1p	Xinin	sun'iy olinadigan alkoloid.
Xolin	NoIep	Xolin	Barcha tirik organizmlarda xujayralarida uchraydigan vitaminga o'xashash modda, fosfolipidlar va atsetilxolin tarkibiga kiradi
ATAMANING O'ZBeK TILIDA NOMLANISHI	ATAMANING INGLIZ TILIDA NOMLANISHI	ATAMANING RUS TILIDA NOMLANISHI	ATAMANING MA'NOSI
Xromoplastlar	S1ogor1a81	Xromoplastm	Rangli tanachalar
Xromoproteionlar	Ngotargo1esh8	Xromoproteionm	Rangli oqsillar, aminokislota va rangli birikmalardan tashkil topgan murakkab oqsillar.
Sitozin	SShgep	Sitozin	Nuklein kislotalar tarkibiga kiruvchi azot asosi
Sistein	Su81 sh	Sistein	Tabiiy oqsillar tarkibida uchraydi va oltingugurt tutuvchi aminokislota, organizmini har xil zaharli moddalardan saqlashda ahamiyati katta.
Sitokininlar	Su1ok1tp	Sitokininm	Xujayra bo'linishini boshqaruvchi o'simlik gormoni, adeninning hosilasi. O'simliklar ildizida hosil bo'lib, yer ustki

			qismlariga ksilema orqali ko‘tariladi
Sitoplazma	Su1or1a8t	Sitoplazma	Xujayraning mag‘izidan boshqa asosiy tarkibiy qismi. U xujayra mag‘izining nazoratida o‘sish va ko‘payish xususiyatiga ega.
Sitoxromlar	Su1os'got§	Sitoxromm	Tarkibida temir-porfirinlar tutuvchi oqsillar guruhi. Oksidlanish-qaytarilish jarayonlarida ishtirok etadilar.
Ekzoderma	yexgoyegt	Ekzoderma	Tashqi po‘stloq, ildiz epidermisi tagida joylashgan birlamchi po‘stloq to‘qima qavati. Himoya vazifasini bajaradi
Ekzokarpiy	yexgosagr	Ekzokarpiy	Meva qobig‘i
Elongatsiya	ye1opdaIop	Elongatsiya	Cho‘zilish, uzunlanish - oqsil-VYu8 sintezida ko‘p marta qaytariladigan va polipeptid zanjirning uzunlashishiga olib keladigan jarayon
Etilen	yeShep	Etilen	Fitogormon, to‘yinmagan uglevodorod, o‘sishga ta’sir qiladi, mevalarni sun‘iy pishirishda ishlatiladi.
Eukariotlar	yeisag1o1	Eukariotm	Xujayrasida shakllagan yadro bo‘lgan organizmlar. Bularga mag‘iz qobig‘i va boshqa xujayra organizmlarining mavjudligi xosdir.
Efemerlar	yeG‘yetege	Efemerm	Qisqa vegetatsiya davriga ega bir yillik o‘simliklar.
Epidermis	yer1yegt18	Epidermis	Yupqa po‘st yuksak o‘simliklarning qoplovchi to‘qimasi
Yuvenil davri	1iuepIe 81ade	Yuvilinnmy period	O‘simliklarda urug‘ning unib chiqishi to chin barg chiqargungacha bo‘lgan davri

Yarovizatsiya	UegpaIgaIop	Yarovizatsiya	O'simlik rivojlanishiga past xaroratlarni samarador ta'sir etishi
---------------	-------------	---------------	---

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Alimova R.A. Qishloq xo'jalik o'simliklari biokimyosi fanidan laboratoriya mashg'ulotlari: o'quv qo'llanma. - Toshkent: ToshDAU, 2000. - 95 b.
  2. Alimova R.A., Sagdiev M.T. Usimliklar fiziologiyasi va biokimyosi: o'quv qo'llanma. - Toshkent, 2013. - 320 b.
  3. Beknazarov B.O. Usimliklar fiziologiyasi: darslik. - Toshkent: UzMU, 2009. - 480 b.
  4. Bo'riev X.Ch., Sagdiev M.T., Alimova R.A., yenileev N.Sh. Sabzavot- poliz ekinlari fiziologiyasi va biokimyosi: o'quv qo'llanma. - Toshkent: Navro'z, 2015. - 179 b.
  5. De Robertis E., Novitskiy V., Saks F. Biologiya kletki (perevod s angl.). - M.: Mir, 1967.
  6. Zikiryoev A. Usimliklar biokimyosidan amaliy mashg'ulotlar: o'quv qo'llanma. - Toshkent: Mehnat, 2001. - 243b.
  7. Rebyn P., Evert R., Aykxon S. Sovremennaya botanika. - M.: Mir, 1990. -270 s.
- Internet saytlari: